



KON- TIKIDA S A F A R

TUR XEYERDAL

KON- TIKI

DA SAFAR

TUR XEYERDAL

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2019

UO'K: 821.113.5-3

KBK: 84(4Nor)

T – 37

Xeyerdal, T.

«Kon-Tiki»da safar: roman / Rus tilidan X.Ahrorova tarjimasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2019. – 272 b.

ISBN 978-9943-20-602-1

Qo'lingizdagi «Kon-Tiki»da safar» kitobi dunyodagi ko'p xalqlar tiliga tarjima qilingan.

Asarda norvegiyalik etnograf olim Tur Xeyerdalning besh sayohatchi hamrohi bilan birga oddiy palma yog'ochidan yasalgan (sol) qayiqda (1947-yil) Tinch Okeaniga chiqib, Peru orolidan Polineziya orollarigacha suzib borgan haqida hikoya qilingan.

Mustaqillikdan so'ng erishgan yutuqlarimiz ichida eng hayratlanarlisi yosh avlod qalbida kitobga mehr uyg'otish bo'ldi. Ayni ma'noda bu kitob yetti yashardan yetmish yashargacha bo'lgan kishilarni irodali, e'tiqodli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda kishilarda birdamlik kayfiyatini uyg'otadi. Zero, «Kon-Tiki»da safar» romanida ochiq dengiz manzaralari va ana shu poyonsiz ummondagi qahramonlar har qanday qiyinchiliklarga barham berib o'z ko'zlagan manzillariga eson-omon yetib boradilar. Bu safardagi ramz-ishoralar kishi qalbini yoshartiradi, unda hayotga bo'lgan tashnalikni ikki hissa oshiradi. Aslida bu asar qaysidir ma'noda ko'ngil sari bir safar hamdir.

Rus tilidan
Xolida AHROROVA
tarjimasi

ISBN 978-9943-20-602-1

© T. Xeyerdal, «Kon-Tiki»da safar». «Molodaya gvardiya», 1957-yil.

© T. Xeyerdal, «Kon-Tiki»da safar». «Yosh gvardiya», 1978-yil.

© T. Xeyerdal, «Kon-Tiki»da safar». «Yangi asr avlodi», 2019-yil.

I BOB

NAZARIYA

O'tmishga bir nazar. – Fatu – Xiva orolilik chol.

Shamol va oqim. – Tikini izlash. – Polineziyaga aholini kim ko'chirgan? – Janubiy dengiz siri. – Nazariya va faktlar. – «Kon-Tiki» va oq irqililar haqidagi afsona. – Urushning boshlanishi.

Ba'zida juda g'alati ahvolga tushib qolasiz. Voqealar hammasi birin-ketin o'z-o'zidan sodir bo'laveradi; bo'lar ish bo'lib, orqaga qaytishning imkoni qolmagan paytda esa, qanday qilib shu holatga tushib qolganingizni bilmay hayronsiz.

Masalan, bir to'tiqush-u besh hamroh okean bo'ylab yog'och solda sayohatga chiqsangiz ertami-kechmi, albatta, shunday hol yuz beradi: ajoyib tonglardan birida har vaqtdagidan ko'ra uyquga miriqqan holda okean sathida uyg'onasiz-da, qanday qilib bu yerga kelib qolganingiz haqida o'y surasiz.

Ana shunday tonglardan birida men shabnamdan namiqqan kema jurnaliga quyidagilarni yozish bilan mashg'ul edim.

«17-may. Norvegiya mustaqillik olgan kun. Okean chayqalar, yengil epkin esmoqda edi. Bugun men kok¹ vazifasini o'tayapman: palubadan yetti dona ucharbaliq, kayuta tomidan esa bitta kalmar balig'i va Torsteyn uxlaydigan qopchiqdan nomi menga nomal'um bir baliq topdim...»

¹ Kok – oshpaz.

Shu yerga yetganda qalam o'z-o'zidan to'xtab, muqarrar bir fikr miyamda aylana boshladi: rostdan bu o'n yettinchi may kuni g'alati keldi: ha, darhaqiqat, g'alati ahvoldamiz. Xo'sh, nimadan boshlandi o'zi?

Chap tomonga nigoh tashlasam, keta-ketguncha zilol dengiz; to'lqinlar yonginada shovullab, bir-birini quvib ufq tomon oshiqadi. O'ng tomonimga o'girilsam, qorong'i kayutada chalqancha tushib Gyoteni o'qib yotgan soqoldor kishiga ko'zim tushadi. U bizning boshpanamiz hisoblangan omonatgina kayutaning bambukdan yasalgan pastakkina panjarasimon shiftiga yalangoyoq barmoqlarini tirab yotardi.

– Bengt, – dedim men kema jurnaliga qo'nmoqchi bo'lgan yashil to'tini nari itarib, – qanday shamol uchirib kelib qoldik bu yerlarga o'zi?

Suhbatdoshim Gyote to'plamini qizg'imtil-malla soqollari ustiga qo'ydi-da:

– Mendan ham siz ne balo urib bu yerlarga kelib qolganimizni yaxshiroq bilasiz. Bular hammasi sizning la'nati g'oyalaringiz oqibati. Menimcha lekin rejalariningiz chakki emas.

Bengt oyog'ini balandroq ko'tarib, o'qishini davom qildi. Kayutaning narigi tomonidagi uch hamrohim esa bambukdan yasalgan palubada, oftobning tig'ida tovlanib allanimalar bilan mashg'ul edilar. Kalta ishton kiygan, oftobda qorayib ketgan, yuzlarini esa paxmoq soqol bosgan, ko'ylak yelkalari dengiz suvidek sho'ralab oqargan hamrohlarim butun umr yog'och sollarda Tinch okeani bo'ylab g'arbga tomon suzish bilan ovora bo'lgan odamlarga o'xshashardilar. Shu chog' qo'liga bir dasta qog'oz sekstant¹ ko'targan Erik engashib kayutaga kirdi.

¹ Sekstant – astronomiya va geodeziyada ishlatiladigan burchak o'lchash asbobi.

– G‘arbiy uzunlikning sakson to‘qqiz gradus-u qirq olti daqiqasi, janubiy kenglikning sakkiz gradus-u ikki daqiqasida ekanmiz – bir kecha-kunduzda talaygina masofani bosib qo‘yibmiz, og‘aynilar!

U qo‘limdan qalamni olib, bambuk devorga osig‘liq xaritaga kichkina doira belgi qo‘ydi; Perudagi Kalyao portidan boshlab xarita bo‘yicha ilonizi bo‘lib cho‘zilgan o‘n to‘qqiz doiradan tashkil topgan zanjir ketiga yana bir halqa qo‘shdi. German, Knut va Torsteynlar ham bizni Janubiy dengiz¹ orollariga yana 40 mil yaqinlashtirgan yangi doirachani ko‘rishga shoshilib kayutaga tiqilishdi.

– Ko‘rdinglarmi, yigitlar? – dedi German gerdayib.
– Bu Peru qirg‘oqlaridan sakkiz yuz ellik mil uzoqlashib ketdik, degani.

– Mo‘ljalimizdagi eng yaqin orollarga yetishimizga esa hali uch ming besh yuz mil bor, – dedi Knut uzoqni ko‘zlab.

– Undan ham aniqroq qilib aytsak, okean tubidan besh ming metr yuqorida-yu oydan esa shuncha gaz pastdamiz, – dedi Torsteyn.

Shunday qilib, qayerdaligimizni bilib oldik. Men esa nima qilib bu yerga kelib qolganimiz to‘g‘risidagi o‘ylarimni bamaylixotir davom ettirardim. To‘tining hech nima bilan ishi yo‘q: u faqat kema jurnaliga qo‘nishga urinadi. Tevarak-atrofni esa o‘sha-o‘sha lojuvard osmon-u bepoyon moviy okean qurshab olgandi.

Nyu-Yorkdagi muzeylardan birining kabinetida o‘tgan yili qishda boshlanib edi nazdimda hammasi. Balkim bularning hammasi Tinch okeanning o‘rtalig‘idagi Markiz orollari guruhiga kirguvchi kichkinagina orolda o‘n yil muqaddam boshlangan bo‘lsa

¹ Janubiy dengiz – Tinch okeanining janubiy qismi ingliz tilida shunday yuritiladi.

ham ajab emas. Agar shimoli-sharqiy shamol bizni janubroqqa, Taiti va Tuamotu tizma orollari tomon surib ketmasa o'sha orolga borib qolsak ajab emas. Zangsimon qizg'ish qoyali tog'lar yastangan yonbag'irlar bo'ylab to dengiz bo'yigacha o'sgan yashil butazorlar, sohilda sizni qarshilaganday tebranib turgan bo'ydor palmalar ko'kargan kichkinagina orol ko'z oldimda gavdalandi. O'sha orolchanning nomi Fatu-Xiva edi. O'sha orol bilan hozir biz suzib ketayotgan joy oralig'ida boshqa quruqlik yo'q edi. Ammo bu orol bilan bizning o'rtamizdagi masofa ming milga yetadi. Torgina Ouia vodiysining dengizga taqalgan yeri ko'z o'ngimda gavdalandi. Har oqshom ana shu kimsasiz sohilda o'tirib cheki-chegara-si yo'q okeanni tomosha qilardik. U paytlarda soqoldor qaroqchilar emas, xotinim hamroh edi menga. Biz turli hayvonlarni, suratlar, haykallar va halo-katga yuz tutgan madaniyatning boshqa yodgorliklarini to'plardik. O'sha oqshomlardan biri hali-hali yodimda. Taraqqiyot olami yetib bo'lmas darajada uzoq va xayoliy bo'lib tuyulib ketgandi o'shanda. Orolida yashaganimizga bir yil bo'lib qolgan edi; bu yerda bizdan bo'lak oq tanlilar yo'q edi; biz taraqqiyot olamining hamma balolari va rohat-farog'atidan o'z ixtiyorimiz bilan voz kechgan edik. Biz okean sohilida, palmalar soyasida o'zimiz qurgan yog'och kulbada yashar, tropik o'rmon va Tinch okean yetkazgan ne'matlardan bahramand edik.

Bu achchiq, ammo foydali maktab bizga Tinch okeanning allaqancha sirlarini o'rganish imkonini berdi. Menimcha biz, jismoniy va aql ishlatiladigan ishlar-da noma'lum tomonlardan bu orolga kelib qolgan ibtidoiy odamlar tajribasining takrori bilan mashg'ul bo'ldik. Ana o'sha ibtidoiy odamlarning polineziyalik ajdodlari to yevropaliklar, bir qo'lda tavrot-u ikkinchi

qo'llarida porox va aroq bilan, bunda paydo bo'lgunlaricha orolda yagona hukmdor bo'lganlar.

Shu oqshom biz odatdagidek oydinda, sohilda o'tirardik: qarshimizda okean yastangan. Romantikaga mahliyo holda, his-tuyg'ularimiz esa nafosat-la to'liq edi. Biz jungli o'simliklar va okeanning sho'r tamli hidlarini simirib, palmalarning qir uchidagi yaproqlari orasida shamolning shitirlashini tinglab o'tirardik. Ma'lum bir muddatda qarshimizda ko'tarilib, sohildagi toshlarga pishqirib urilayotgan, so'ng mayda-mayda bo'lib ketayotgan to'lqinlar shovqini hamma tovushlarni bosib ketardi. Oydinda yaraqlagan son-sanoqsiz toshlar orasida bir necha daqiqa suvning guldurashi eshitalardi; so'ngra okean yengilmas qirg'oqda yangi kuch to'plab, qayta hujum qilish uchun chekinganda, hamma yoq yana sokin bo'lib qoldi.

– Qiziq, – dedi xotinim, – orolning narigi sohilida sira to'fon bo'lmaydi.

– To'g'ri, – dedim men, – bu yoq shamol esadigan betkay; qirg'oqqa uriladigan to'lqinlar hamma vaqt shu tomonga yo'llanadi.

Biz sohildan turib okeanni tomosha qilar, uning beqiyos go'zalligiga mahliyo edik. Okean esa go'yo: «Sho'x to'lqinlarimni sharqdan dumalatib kelayotirman, ho sharqdan, sharqdan», deya takrorlashga ahd qilgandek tuyulardi. Sharqdan esguvchi quruq tropik shamol okean betini harakatga solar, po'rtana ko'tarar, ulkan to'lqinlarni olg'a itarardi; bu po'rtanalar sharqdan, ufqdan boshlanar va nari o'rmalab, boshqa orollar tomon oshiqardi. Ilgari hech qanday to'siq ko'rmagan okean to'lqinlari qarshimizda qoya va chag'ir toshlarga urilib mayda-mayda bo'lib ketgan bir chog'da, sharqdan esayotgan shamol o'rmon-utog'lardan oshib, hech qanday sarhad bilmay g'arbga

tomon yo'lida davom etar, oroldan orolga o'tib, qu-yosh botar tomonga yo'l olardi.

To'lqinlar va yengil bulutlar azro'yi azaldan beri ufqdan sharq tomonga keladi. Bu orolga kelib tush-gan ilk odamlar buni yaxshi bilishgan. Shuning-dek, qush va hasharotlar ham buni bilar, bu hol orol o'simliklariga katta ta'sir qilardi. Biz esa ufq to-monda, sharqda – uzoq-uzoqlarda Janubiy Amerika qirg'oqlari yastanib yotganligini payqagandik. Orol bilan u qirg'oq orasidagi masofa 4300 dengiz milicha bor, lekin ikki sohil oralig'ida okeandan bo'lak hech nima yo'q.

Biz suzib o'tayotgan bulutlarni va oy nuriga g'arq bo'lib, to'lqinlanayotgan dengizni tomosha qilarkan-miz, tiz cho'kkanicha lip-lip yonib so'nib borayotgan gulxanga tikilgancha so'zlayotgan yarim yalang'och cholning hikoyasini tinglamoqdamiz.

– Tiki, ham Xudo, ham yo'l boshchi edi, – bir marom-da so'zlardi chol. – Mening avlod-ajdodimni bu orollar-ga ana shu Tiki boshlab kelgan. Ilgari biz dengizning narigi yog'ida, katta mamlakatda yashaganmiz.

Olov o'chib qolmasligi uchun chol kosov bilan cho'g'larni titar, xayolga cho'mib o'tirardi. Chol ho-zir o'tmishi bilan yashar, o'tmishi bilan chambar-chas bog'langandi. Chol bir zamonlar Xudo deb sa-nalgan ajdodlari va ularning o'sha o'tmish zamonda ko'rsatgan jasoratlari qarshisida sajda qilardi. Bir kunmas-bir kun ular bilan birga bo'lish uning orzu-si edi. Keksa Tei Tetua, bir vaqtlar Fatu-Xiva oroli-ni sharqiy sohilida yashagan, hozirda patarat to-pib ketgan qabilaning tirik qolgan birdan bir vakili edi. Yoshi nechadaligini o'zi ham bilmasdi. Ammo uning ajin bosgan, oshlangan teriga o'xshab ketgan jigarrang beti oftob va shamolda qariyb yuz yil quri-tilganga o'xshardi. Shuningdek, u, ota-bobolarining,

polineziyaliklarning buyuk yo'lboshchisi – quyosh o'g'li, Xudo Tiki haqidagi afsonaviy hikoyalarini yodda saqlab qolgan va unga ishongan kam sonli orol kishilarining biri edi.

Kechasi, qoziqoyoqqa o'rnatilgan chog'g'ina kulbami zga kirib yotgach ham keksa Tei Tetuaning Tiki va orolliklarning okean ortidagi qadimgi vatani haqidagi hikoyasi, olisda shovullayotgan to'liqinning bosinqi o'kirigi aralash qulog'imostida jaranglab turgandek bo'lardi. Xuddi o'tmish kunlar nidosi tun sokinligini buzib allanarsalarni shivirlayotganday edi. Uxlolmadim. Go'yo vaqt izini yo'qotdi-yu, Tiki o'zining dengiz kechar odamlari bilan sohilga kelib urilgan to'liqlar ko'pigi ichidan chiqib, ilk bor orolga qadam qo'yishayotganday bo'ldi. Birdan miyamga bir fikr keldi:

– Tikining yuqorida, junglidagi bahaybat xarsang tasvirlarning Janubiy Amerikadagi yo'q bo'lib ketgan madaniyat yodgorliklariga, ulkan haykallarga o'xshashiga hech e'tibor qildingmi? – dedim xotiningma.

To'liqlarning hayqirig'i so'zlarimni tasdiqlayotganiga ishonch hosil qilgan edim. Bora-bora ularning tovushi sekinlashayotganday bo'ldi va men uyquga ketdim.

Hammasi shundan boshlangan bo'lsa ajab emas. Har holda, olti kishi va yashil to'tining solda Janubiy Amerika qirg'oqlaridan suzib ketishiga sabab bo'lgan voqealar zanjiri shundan boshlangan bo'lishi kerak.

Norvegiyaga qaytgach, Fatu-Xivadan keltirilgan hasharotlar va baliqchalar solingan bankalarimni universitetning zoologiya muzeyiga topshirganimda otamning qo'rqib ketgani, onam va do'stlarimning hayron qolganlari hali-hali esimda. Men zoologiyani tashlab, ibtidoiy odamlarni o'rganishga qaror qildim. Janubiy dengizning ochilmagan sirlari meni o'ziga tortardi. Ularning mavjud bo'lganini izohlab beradigan biror

dalolat bo'lishi kerak-ku, axir. Afsonaviy qahramon Tiki haqida nimaiki ma'lum bo'lsa, shularni o'rganishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

To'lqinlar va junglidagi yarim xarob yodgorliklar keyingi yillar ichida mening Tinch okean orollarida yashagan qabilalar masalasidagi mashg'ulotlarimga jo'r bo'lguvchi xayoliy tushday bo'lib qoldi. Ibtidoiy odamlarning fikr-o'ylari, xulq-atvorlarini kitoblar va muzeylardagi kolleksiyalardangina o'rganib olaman deyish behuda gap bo'lgani kabi, hozirgi zamon tadqiqotchisining butun bir javonni band qilgan kitoblarda jam bo'lgan hikmatlarni o'z tajribasidan izlashga urinishi bekor edi.

Ilmiy ishlar, ilk tadqiqotlar, tartibga solib qo'yilgan kitoblar, Yevropa va Amerika muzeylaridagi sonsiz-sanoqsiz kolleksiyalar meni mashg'ul qilgan jumboqni yechishda yordam berishi mumkin bo'lgan hujjatlar edi. Yevropaliklar Amerikani ochgach, Tinch okeanidagi orollarga ilk bor yetib borganlaridan boshlaboq, har sohaning olimlari Janubiy dengiz aholisi va uning atrofidagi mamlakatlarning barcha xalqlari haqida bir dunyo ma'lumotlar yig'ganlar. Lekin tashqi olamdan ajralib qolgan bu orollarda yashovchi xalqlarning kelib chiqishi va bu xil toifadagi odamlar faqat Tinch okeanning sharqiy qismida, ana shunday tashqi dunyodan ajralib qolgan orollardagina, uchrashini sharhlash masalasida olimlarning fikrlari bir-biriga zid edi.

Yevropaliklar birinchi bor jur'at qilib okeanlarning eng buyugini kesib o'tganlarida, okeanning markaziy qismida juda ko'p tog'lik va pastak marjon qoyali orollar borligini, ularni bir-biridan va butun olamdan okean ajratib turishini ko'rib hayratlandilar. Shu orollarning har birida yevropaliklardan ilgari kelgan aholi yashardi. Baland bo'yli, chiroyli odamlar kel-

gindilarni sohilda itlari, cho'chqalari, uy parrandalari bilan kutib olardilar. Ular qayerdan kelgan ekanlar-a? Bu odamlar hech kim tushunmaydigan tilda so'zlashardilar. O'zlarini uyalmay-netmay bu orollarning kashfchilari deb atagan yevropaliklar bunda ekinzorlarni, ibodatxona va kulbalar qad ko'targan qishloqlarni ko'rganlar. Ba'zi orollarda hatto qadimiy piramidalar, tosh yo'llar, harsanglardan yo'nib yasalgan balandligi to'rt qavatli uyday keladigan odam haykallarni ham ko'rganlar. Lekin bu jumboqlarni yechib beradigan javob topmaganlar. Qanday xalq bu? Qayerdan kelib qolgan?

Ishonch bilan aytish mumkinki, bu masalaga oid qancha ilmiy ish bo'lsa, shuncha javob ham topilgan. Fanning turli sohalarida ishlaydigan olimlar masalani hal qilishning turlicha yo'llarini taklif qilar, lekin ularning nazariyalari fanning boshqa sohasida ishlaydigan olimlarning tanqidiga yo'liqardi. Malayya, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Arabiston, Misr, Kavkaz, Atlantida, hatto Germaniya bilan Norvegiya ham jiddiy suratda polineziyaliklarning ona vatani deb ko'rsatilardi. Ammo har gal muhim bir monelik topilar va barcha mulohazalar chippakka chiqardi.

Ilmiy tadqiqot to'xtagan yerda esa tasavvur o'z ishini boshlaydi. Pasxi orolidagi yaxlit toshdan yasalgan haykallar va to'rt tarafi okeanga yuz tutgan, Janubiy Amerika bilan eng yaqin orol oralig'idagi yarim yo'lda uchragan kichkinagina ovloq orolchadan topilgan, kelib chiqishi ma'lum bo'lmagan barcha obidalar turli nazariyalarga sabab bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilar Pasxi orolidagi topilmalarning Janubiy Amerikaning kelib chiqish tarixiga qadar madaniy taraqqiyotini eslatishga ahamiyat berganlar. Balki, qachonlardir, orol bilan qit'a tutash bo'lgandir-u, keyinchalik yer cho'kib orollar qit'adan ajralib qolgandir? Pasxi oroli va Ja-

nubiy dengizdagi bir-biriga o'xshash obidalar uchrab turadigan barcha boshqa orollar suvga cho'kib ketgan quruqlikning qoldig'i bo'lsa-chi?

Bu xildagi nazariyalar mutaxassis bo'lmagan olimlar orasida keng tarqalgan bo'lsa-da, geologlar va boshqa sohadagi kishilar ahamiyat bermas edilar. Bu ham mayli-ya, zoologlar, Janubiy dengiz orollaridagi hasharot va mollyuskalarni o'rganib chiqqach, insoniyat taraqqiyoti davomida ham, hozir ham bu orollar bir-biridan va atrofdagi qit'alardan ayrim bo'lganligini isbotlaganlar.

Shunday qilib, polineziyaliklarning avlod-ajdodlari qachonlardir o'z ixtiyorlari yoinki zarurat yuzasidan, bu ovloq orollarga qandaydir kemalarda oqim bo'ylab yoki shamol yordamida suzib kelganlari ravshan. Janubiy dengiz aholisini chuqur o'rganish esa, ular bu yerlarda bir necha yuz yillar muqaddamgina paydo bo'lganlar, deb taxmin qilishga asos beradi. Polineziyaliklar okean sathida butun yevropadan to'rt marta ortiq maydonga sochilgan orollarda yashasalar-da, turli orollarda istiqomat qilishlariga qaramay, tillarida ortiqcha farq yo'q. Shimoldagi Gavay orollari bilan janubdagi Yangi Zelandiya orollari va g'arbdagi Samoa orollari bilan sharqdagi Pasxi orollari bir-biridan minglab mil uzoqda joylashgan, ammo shu orollarining barchasida istiqomat qiluvchilar, biz polineziya tili deb atagan umumiy bir tilning shevalarida so'zlashadilar. Agar Pasxi oroli aholisi saqlab yurgan, tushunib bo'lmay yozilgan bir necha taxtachalarni hisobga olinmasa, hech bir orolda yozuv bo'lmagan. Bu yierogliflarni esa na orolliklar va na bi-
ror olim o'qiy olardi. Biroq orollarda maktab bor edi. Bu maktablarda o'qitiladigan eng asosiy fan poetik afsonalardan iborat bo'lgandir. Chunki polineziyaliklar uchun tarix din vazifasini ham o'tardi. Ular ajdodlari,

Tiki davrigacha bo'lgan yo'l boshchilariga topinardilar. Tikini esa quyosh o'g'loni, deb sharaflardilar.

Har bir oroldagi maktabda o'qigan erkaklar orolga odamlar ilk bor kelib joylashgan paytdan tortib shu paytgacha bo'lgan yo'l boshchilarini nom-banom atab chiqa oladilar. Ko'pincha bu narsa esdan chiqib qolmasligi uchun, Peruda yashovchi inklar kabi tizimchani tasbehga o'xshatib tugib-tugib olardilar. Hozirgi zamon tadqiqotchilari turli orollarda shajarani yozib olganlar va bu shajaralar nomlar jihatidan ham, ajdodlar soni jihatidan ham bir-birlariga juda o'xshashligini aniqlaganlar. Shunday qilib, polineziyaliklarning har avlodi o'rta hisobda 25 yilda bir almashadi, deb oladigan bo'lsak, Janubiy dengiz orollarida eramizning 500-yillariga kelib odamlar yashay boshlagan, degan xulosaga kelishgan. Ikkinchi madaniy to'lqin 1100-yillarga kelib, ya'ni keyingi ko'chmanchilar kelganda rivoj topgan, yangi boshliqlar shajarasi dalolat beradi bundan.

Bunchalar kech qayerdan kelishlari mumkin ular? Shuncha kech bu orollarda paydo bo'lgan odamlar haqiqiy tosh asri kishilari bo'lganligini olimlarning juda kamchiligi hisobga olgan bo'lsa kerak. O'zlari-ning idrokli ekanliklari, boshqa masalalarda yuqori darajadagi madaniyatga ega bo'lganliklariga qaramay, bu dengizosharlar o'zlari bilan ma'lum nusxadagi tosh boltalar va tosh asriga xos asbob-anjomlar olib kelganlar, o'zlari paydo bo'lgan barcha orollarda shulardan foydalanganlar. Ibtidoiy o'rmonlarda istiqomat qilgan ayrim, kamdan kam qabilalarni va ba'zi qoloq xalqlarni hisobga olmaganda, eramizning 500 yoki 1100-yiliga kelib, jahonda, Amerikadan boshqa hech qayerda, tosh davri darajasida turgan, yashashga qobil taraqqiyot saqlanib qolmagan edi. Amerikada esa, hatto yuksak taraqqiyotga erishgan

hindi¹ qabilalari ham temirning nimaligini bilmas, tosh bolta va tosh asbob-anjomlar ishlatishardi. Janub dengizi orollari kashf etilgan davrda bu yerdagilar ham xuddi shunday tosh asbob-anjom ishlatishardi.

Bu xildagi hindi madaniyati polineziyaliklarning sharqdagi eng yaqin qo'shnilari edi. G'arbda bo'lsa Avstraliya va Melaneziyaning qora tanli ibtidoiy qabilalari yashardi. Bular negrlarning ajdodlari hisoblanardi. Ulardan narida Indoneziya va Osiyo sohillari, u yerlarda yashovchi odamlar, yer qit'asining boshqa hamma yerida istiqomat qiluvchi odamlardan avval, tosh asridan chiqqan bo'lishi kerak.

Men, ilgari juda ko'p olimlar polineziyaliklarning avlod-ajdodlarini qidirgan Eski Olam bilan borgan sayin kamroq qiziq boshladim. Butun diqqatimni Amerikadagi ilgari o'rganilgan va o'rganilmagan hindi madaniyati taraqqiyotiga burdim. Ilgari bu tomon e'tiborga olinmagan edi. Qit'aning sharqiy chekkasida, hozir Janubiy Amerikaning Peru Respublikasi joylashgan Tinch okean sohillari va tog'lik doiraga tutashgan yerlarida qidiruv ishlari olib borilsa, bas, ajoyib axborotlar topsa bo'ladi. Bu yerlarda bir vaqtlar allaqanday xalq yashagan, jahonda noyob bir madaniy taraqqiyotga erishgan va o'sha zamonlardayoq to'satdan g'oyib bo'lgan. Bu xalq Pitkerne oroli, Markiz orollari va Pasxi orolidagi haykallar, Taiti va Samoadagi pog'ona-pog'ona qilib ishlangan piramidalarga o'xshagan bahaybat toshdan yasalgan yodgorliklarni qoldirganlar. Bu odamlar tosh boltalar bilan tog'da uyday-uyday keladigan xarsanglarni yo'nib, uni vodiya, bir necha mil joyga tashib keltirib, yonma-yon qilib yoki ustma-ust qo'yg'anlar. Bu toshlardan darvoza, baland devor va ayvonlar qurganlar. Xuddi shunaqa manzarani Tinch okeani orollarining ba'zilarida ham uchratish mumkin.

¹ Hindi – Polineziya orolining tub qabilasi.

Peruda birinchi ispanlar paydo bo'lgan chog'larda, hindi-inklar o'zlarining buyuk imperiyalarini barpo etgandilar. Ular ispanlarga, kimsasiz vodiya qad ko'targan haykallar oq tangrilar aholisi tomonidan barpo etilganligini, bu xalq mamlakatni boshqarish inklar qo'liga o'tgunicha shu yerda istiqomat qilganini so'zlab berganlar. Inklarning hikoya qilishicha, g'oyib bo'lgan bu me'morlar dono, sulhparvar odamlar bo'lgan. Ular orollar tarixining boshlanish chog'larida shimol tomondan kelganlar va ularning ibtidoiy ajdodlariga me'morchilik san'atini, dehqonchilikni va o'z urf-odatlarini o'rgatganlar. Boshqa hindilarga o'xshamaganlar ular: oq tanli va uzun soqolli bo'lishgan. Ularning bo'yi inkilardan baland bo'lgan. Xullas, ular Peruda qanday paydo bo'lgan bo'lsalar shunday qo'qqisdan g'oyib bo'lganlar; mamlakatda hukmdorlik inklar qo'liga o'tgan, ularning oq tanli ustozlari esa Janubiy Amerika sohillarini tashlab ketganlar va g'arb tomonda Tinch okeani qo'ynida g'oyib bo'lganlar.

Shunday qilib, yevropaliklar Tinch okeani orollarida paydo bo'lganlarida, yerli aholining ko'pchiligi oq tanli va uzun soqolli ekanini ko'rib hayron qolganlar. Bir qancha orollarda oppoq tanli – sochlari qizg'ish va malla, ko'kko'z, qirg'iyburun, somiynusxa oilalarni uchratish mumkin. Qolgan polineziyaliklar qizg'ish tus, qorasoch va puchuq. Qizg'ish sochlilar o'zlarini urukexu deb atar, orollarning ilk yo'lboshchilari bo'lgan Tangaroa, Kane va Tikining urug'-aymog'i hisoblardilar. Orol aholisining ajdodi hisoblangan oq tanlilar haqidagi afsonalar butun Polineziyaga ma'lum va mashhur. 1722-yilda Roggeveen¹ Pasxi orolini kashf etganda, sohilda to'planagan aholi orasidagi «oq tanlilarni» ko'rib hayron qolgan.

¹ Yakob Roggeveen — golland dengizchisi (1609 – 1733). Tinch okeanining janub qismiga bir necha bor safar qilgan. Shu safarlardan birida Pasxi orolini kashf etgan. Bu voqea diniy pasxa bayrami kunlari ro'y bergani tufayli orolga Pasxi nomi berilgan.

Pasxi oroli aholisi esa oq tanli ajdodlarini, «sharqdagi quyosh kuydirib yuborgan tog'li mamlakatdan» okean bo'ylab ilk bor suzib kelgan davrdan, Tiki va Xotu Matua davridan boshlab bir-bir sanab bera oladilar.

Izlanishda davom etarkanman, Peru aholisining madaniyati, mifologiyasi va tili haqidagi g'alati ma'lumotlarga duch keldim. Bu faktlar meni polineziyaliklar Tangrisi Tikining qayerdan kelib chiqqanini aniqlashga jon-jahdim bilan kirishishga da'vat etdi.

Nihoyat izlaganimni topdim. Kunlardan bir kun men inklarning, Peruda g'oyib bo'lgan oq tanlilarning ilk hokimi quyosh-podshoh Virakocha haqidagi afsonasini o'qib o'tirardim. Shunday satrlarga ko'zim tushdi:

«U inklar (kechua) tilida Virakocha deb atalardi, bu nomning kelib chiqishiga esa hali ko'p bo'lmagan. Qadim zamonlarda Peruda ko'proq qo'llanilgan Quyosh-Tangri Virakochaning dastlabki nomi Kon-Tiki yoki Illa-Tiki, ya'ni Quyosh-Tiki yoinki Olov-Tiki bo'lgan. Inklarning afsonasiga ko'ra Kon-Tiki «oq tanlilarning», o'zlaridan keyin Titikaka ko'li bo'ylarida bahaybat yodgorliklar vayronalarini qoldirgan odamlarning bosh kohini va quyosh podshohi bo'lgan. Afsonada hikoya qilinishicha, Kon-Tikiga Kokimbo vodiysidan kelgan Kari degan yo'lboshchi hujum qilgan. Titikaka ko'lidagi orollardan birida bo'lib o'tgan jangda sirli soqoldor kishilar qirilib ketgan. Ammo Kon-Tiki va uning yaqin safdoshlari omon qolishgan, bir amallab Tinch okeani sohillariga yetib olishgan, keyinchalik g'arb tomonga yo'l olib, okean ortida g'oyib bo'lganlar».

Inklarning hikoyasiga ko'ra ajdodlari Perudan haydab chiqargan oq tanli yo'lboshchi – Tangri Quyosh-Tikining Tinch okeanning sharqiy qismidagi orollarda istiqomat qiluvchilar o'z xalqlarining ajdodi deb sanalgan oq yo'lboshchi Tangri Tiki, quyosh o'g'loni ekaniga menda shubha qolmadi. Quyosh Tikining

Perudagi hayotining ko'pgina tafsilotlari Titikaka ko'li atrofidagi qadimiy nomlar bilan birga Tinch okeanidagi orollarning yerli aholisi o'rtasida tarqalgan tarixiy afsonalarda yana tirildi.

Ammo Polineziyaning hamma yerida, tinchliksevar «Kon-Tiki» aholisining barcha orollardagi hukmronlikni uzoq ushlab turolmaganligi haqida ma'lumotlarni ko'plab uchratardim. U ma'lumotlarga ko'ra vikinglar kemalaridek keladigan juft-juft qilib bog'langan harbiy dengiz kemalari – shimoli-g'arblik hindilarni okean bo'ylab Gavay orollariga, undan o'tib janubga, boshqa orollarga yetkazgan. Ular Kon-Tiki aholisi bilan chatishib ketganlar, orollarga yangi madaniy taraqqiyotni olib kelganlar. Bu Polineziyada 1100-yillarda paydo bo'lgan va metallni, na kulolchilikni, na g'ildirak, na urchug' va na g'allachilikni bilgan tosh davrining ikkinchi nasl odamlari edi.

Shunday qilib men, Britaniya Kolumbiyasida qadimiy polineziyacha uslubda toshga yo'nilgan suratlarini izlab, kavlash ishlari olib borardim. O'sha kunlarda nemislar Norvegiyaga bostirib kirdilar.

O'ng-ga, so'l-ga, orqa-ga. Kazarma zinalarini yuvish, botinka tozalash, radio aloqasi maktabi, parashyut va nihoyat, Murmanskkonvoy¹ va Finmarken² sohillariga suzish. Bu yerda, butun qish bo'yi, Quyosh Tangri o'rniga harbiy texnika Xudosi hukmronlik qildi.

Tinchlik ham o'rnatildi. Nihoyat, o'z nazariyamga tamom yakun yasaydigan kun keldi. Men uni mutaxassis olimlar muhokamasiga qo'yishim kerak. Buning uchun Amerikaga jo'nashim lozim.

¹ Murmansk konvoyi – Ulug' Vatan urushi yillarida Atlantik okeanining shimoliy qismida harbiy kemalar soqchiligida AQShdan Murmanskka yuk olib kelgan kemalar karvoni shunday atalardi.

² Finmarken – Norvegiyaning SSSR bilan chegaradosh shimoliy qismi.

II BOB

EKSPEDITSIYANING TUG'ILISHI

Mutaxassislar orasida. – To'siq. – Dengizchilar uyida. – So'nggi chora. – Sayyohlar klubida. – Yangi anjom. – Men o'rtoq topdim. – Triumvirat. – Bir rassom va ikki qarshilik ko'rsatish ishtirokchisi. – Vashingtonda. – Harbiy ministrlilikda majlis. – Intendant boshqarmasiga istaklar ro'yxati bilan. – Mablag' tashvishi. – OONda diplomatlar orasida. – Biz Ekvadorga uchamiz.

Shunday qilib hammasi Janubiy dengizdagi orolda, gulxan yonida, keksa polineziyalik o'z qabilasi hayotidan tarixiy voqealar va afsonalar hikoya qilib o'tirgan kundan boshlandi. Oradan bir qancha yil o'tgach, Nyu-Yorkdagi katta muzeylardan birining eng yuqori qavatidagi nimqorong'i kabinetida boshqa chol bilan o'tirardim.

Tegramizdagi pishiq-puxta qilib tayyorlangan oynavand ko'rsatmalarda qadimda o'tib ketgan, ammo o'rganilgan davrlardan qolgan sopol parchalari tumanli o'tmish bilan tanishtiruvchi nishonalar yotar-di. Devorlar yoniga ham shift baravar qilib kitob taxlangan. Bu kitoblarning ba'zilarini o'qigan bo'lsa, o'n chog'li kishi o'qigandir. Bu kitoblarning hammasini o'qib chiqqan, hatto ba'zilarini o'zi yozgan muloyim, sochlari oppoq chol yozuv stoli qarshisida o'tiribdi. Hozir unga juda qattiq tegib ketdim chog'i, u ishlari chalkashib ketgan odamdek sarosimaga tushib, o'tirgan kreslosi yondoriga yopishdi.

– Yo'q! Hech qachon! – xitob qildi u.

Yangi yil saratonda keladi, deyilsa Qorbobo shu ko'yg'a tushsa kerak edi.

– Siz nohaqsiz, butunlay nohaqsiz, – takrorladi u, bo'lmag'ur fikrlarni quvayotganday g'azablanib boshini chayqadi.

– Axir siz mening dalil-isbotlarimni o'qiganingiz yo'q-ku, hali, – bo'sh kelmadim men ham stolda yotgan qo'lyozmaga ishora qilib.

– Dalil-isbot emish! – qichqirdi u. – Etnografiya¹ masalalariga oldi-qochdi sirlarni ochish deb qarashga haqqingiz yo'q!

– Nega endi? – so'radim undan. – Mening barcha xulosalarim shaxsiy kuzatishlarim hamda fanda ko'rsatilgan faktlarga asoslangan.

– Fanning vazifasi – u yoki bu narsani isbotlash emas, balki oldi-qochdisiz, sof tadqiqotdir, – dedi chol xotirjamlik bilan.

U hali ochib ko'rilmagan qo'lyozmani avaylabgina nari surdi va stolga engashdi.

– Janubiy Amerikaning ba'zi bir jihatdan tahsinga sazovor qadimiy taraqqiyot vatani bo'lgani juda to'g'ri, o'sha odamlar kim edi-yu, hokimiyat tepasiga inklar kelgach qayoqqa yo'qolishdi, buni bilmaganimiz ham to'g'ri. Lekin shuni aniq bilamizki, Janubiy Amerikaning hech bir xalqi Tinch okean orollariga ko'chib o'tmagan.

Chol menga sinovchan bir qarab qo'ydi-da, gapini davom ettirdi:

– Nega shunday deymiz? Javobi juda oson. U yoqqa bora olmasdilar. Qayiqdari bo'lmagan ularning!

– Lekin sollari bo'lgan-ku, – qat'iyatsiz e'tiroz bildirdim. – Balza daraxtidan² yasalgan sollari bo'lgan-ku.

¹ Etnografiya – biror xalqning kelib chiqish tarixi va turmushi – moddiy madaniyat, urf-odatlarini o'rganuvchi fan.

² Balza daraxti – Janubiy Amerikaning shimoliy qismi. Markaziy Amerika va Antil orollarida o'sadi. Uning yog'ochi quriganda, probkaga qaraganda, ikki marta yengil, lekin juda pishiq bo'ladi, samolyotsozlikda qo'llaniladi.

Keksa olim jilmaydi va xotirjam dedi:

– Boʻlmasam, Perudan Tinch okean orollarigacha balza daraxti yogʻochidan yasalgan solda bir safar qilib koʻring-chi.

Nima deb javob qilishimni bilolmay qoldim. Kech kirib qolgan edi. Ikkovimiz ham oʻrnimizdan turdik. Keksa olim xayrlasharkan, yelkamga qoqib qoʻydi-da, agar lozim boʻlsa, yordamga tayyorligini aytdi. Ammo kelajakda yo Polineziya bilan, yoinki Amerika bilan shugʻullanishim kerakligini, ikki qarama-qarshi antropologik oblastni qorishtirmasligini maslahat berdi. U stolga yana engashdi.

– Mana buni unutmadingiz, – dedi u va qoʻlyozmani uzatdi.

Qoʻlyozmaning nomiga koʻz tashladim: «Polineziya va Amerika; ochilish tarixiga qadar aloqalarni oʻrganish». Qoʻlyozmani qoʻltigʻimga qistirdim-da, xomush zinadan tushdim, koʻchaga chiqib olomon orasiga shoʻngʻidim.

Shu oqshom Grinвич Villejning¹ osoyishta bir chekkasiga bordim, eski bir qavatli uy eshigini taqillatdim. Men shugʻullanayotgan kichkinagina muammolarim tashvishga solib qoʻyganda shu uyga keladigan odatim bor.

Burni uzun, oriqqina odam eshikni qiya ochib qaradi-da, tabassum bilan qopqani lang ochib, qoʻlimdan tortgancha zoʻrlab uyga olib kirdi.

U meni toʻgʻri moʻjaz oshxonaga boshlab kirdi-da, shu zahotiyoq ishga soldi: menga taqsimcha bilan vilkalarni tashitib, oʻzi ishtahani qitiqlaydigan hid taratib gaz plitada qovrilayotgan allaqanday ovqatni koʻpaytirish taraddudiga tushib ketdi.

– Kelganingiz soz boʻldi-da. Ishlar qalay?

¹ Grinвич Villej – Manxatten orolidagi qishloq. Keyinchalik Manxatten rayoniga aylangan. Hozir Nyu-York shtatiga qaraydi.

– Rasvo, – javob qildim. – Hech kim qo'lyozmani o'qishni istamayapti.

U pishirgan taomini taqsimchalarga suzib keltirdi, ishtaha bilan ovqatlana boshladik:

– Bundan chiqdi, kimning yoniga bormang, hamma sizning mulohazalaringizni o'tkinchi xomxayol hisoblarkan-da. Bu yerda, Amerikada g'alati fikr-mulohazalar ko'p uchraydi-da.

– Gap faqat bunda emas, – dedim men.

– Albatta, – dedi mezbon. – Sizning masalaga yondoshishingizda. Ularning hammasi mutaxassis, shuning uchun ham botanikadan tortib arxeologiyagacha bo'lgan har turli mutaxassislikni qamrab olishni tan olishmaydi. Ular fikrni to'plash, masalani chuqurroq va har taraflama o'rganish uchun faoliyat maydonlarini cheklaydilar. Hozirgi zamon fani har bir mutaxassislik o'z doirasida yo'l tutishini talab qiladi. Turli doiradan topilgan ma'lumotlarni aniqlash, taqqoslashga hech kim o'rganmagan. – U o'rnidan turdi-da, qog'ozga liq to'la papka keltirdi.

– Bunga qarang, – dedi u. – Xitoy dehqonlarining so'zanalarida ishlangan qushlar naqshi haqidagi eng so'nggi ishim, bunga yetti yil umrim ketdi, lekin ish bitishi bilanoq nashr etishga qabul qilishdi. Bizning davrimizda monografiyaga talab katta.

Karl haq edi. Tinch okean muammosi va uni har tomonlama yoritmay turib bu masalani hal qilib bo'lmaydiganday tuyular edi menga. Axir shaxmat o'ynaganingda faqat o'z donalaringning harakatinigina nazarda tutolmaysan-ku.

Stolni yig'ishtirdik, men yuvilgan idish-tovoqlarni artishda Karlga yordam berdim.

– Chikago universitetidan javob yo'qmi?

– Yo'q.

– Muzeydagi kekxa oshnangiz nima dedi bugun?

– Tariqcha ham qiziqmadi, – dedim soʻzlarni qiyinchilik bilan topib. – Hindilarda oddiy sollar boʻlgan, xolos. Shuning uchun ham ularning Tinch okeandagi orollarni kashf etishlari borasida soʻz ham boʻlishi mumkin emas, dedi.

Chuvakkina mezbon birdan taqsimchalarni jon-jahdi bilan arta boshladi.

– Shunday, – dedi u nihoyat. – Rostini aytsam, menimcha ham, sizning nazariyangizga qarshi eʼtiroz bildirishga arzirli sabab bu.

Men etnografga maʼyus boqdim. Uni sadoqatli hamfikrim deb hisoblardim.

– Gapimni toʻgʻri tushuning, – shoshib qoʻshimcha qildi u. Men sizni haq deb hisoblayman. Ammo masalani oxirigacha tushunib yetib boʻlmaydi. Mening yuqorida aytganim naqshlar haqidagi ishim sizning nazariyangizni tasdiqlaydi.

– Karl, – dedim men, – hindilarning Tinch okeanni sollarda suzib oʻtishganiga ishonchim komil. Shunday qilish mumkinligini isbot etish uchun hatto xuddi shunday sol yasab okeanni suzib oʻtishga ham tayyorman.

– Esingizni yepsizmi?!

Doʻstim buni hazil deb tushundi va miyamga bunday dahshatli fikr kelganidan qah-qah urib kuldi.

– Esingizni yepsizmi! Solda-ya?

U gapirishga soʻz topolmay, menga qarab duduqlanib turar, hazillashganimni sezdirib, jilmayib qoʻyishimni kutardi.

Lekin men jilmaymadim. Peru bilan Polineziya oraliqida poyonsiz okean yastanib yotgan va undan suzib oʻtish uchun Amerika tarixiga qadar yasalgan sollardan boʻlak hech nimani misol keltirolmaganligim uchun ham hech kim mening nazariyamga xayrixoh boʻlmasligini tushunib, Karl menga hayron boʻlib, tikilib qolgan edi.

– Endi bir ko‘chaga chiqamiz-u, bitta-bitta stakandan otamiz, – taklif qildi u.

Biz ko‘chaga chiqdik, bir emas, to‘rt stakandan viski otdik.

Hafta oxirida to‘lanadigan ijara haqining muddati o‘tib ketdi! Xuddi shu paytga kelib men Norvegiya bankidan maktub oldim. Maktubda valyutada cheklash bo‘lgani sababli menga ortiq dollar yubora olmasliklari bildirilgandi. Chamadonimni oldim-da, metroga o‘tirib Bruklinga bordim. U yerda men Norveg dengizchilari uyiga joylashdim. Bu yerning ovqatlari yaxshi, bahosi mening karmonimbop edi. Menga ikkinchi qavatdan kichkinagina xona tegdi. Men pastdagi katta oshxonada dengizchilar bilan birga ovqatlanib yurdim.

Dengizchilarning biri kelib, biri ketib turardi. Ular bir-birlaridan aft-angorlari, bo‘ylari, mushohadalari bilan ajralishsa ham, hammalariga xos bitta umumiy sifat bor edi – dengiz haqida gapirganlarida, uni ipidan ignasigacha bilib so‘zlardilar. To‘lqinlarning katta-kichikligi va dengizning jo‘shqinligi uning chuqurligi bilan qirg‘oqning uzoq-yaqinligiga bog‘liq emasligini bilib oldim. Po‘rtana ochiq dengizdan ko‘ra sohilga yaqin yerda xavfliroq bo‘lar ekan. Dengiz quuruqlikdan uzoqdagidan ko‘ra sohil yaqinidagi sayoz yerda, mahalliy oqim o‘tadigan yoki okean oqimi tugaydigan joyda ko‘pincha jo‘shqin bo‘lar ekan. Ochiq sohil bo‘ylab suzishga yaragan kema, okean bo‘ylab uzoq safar qilishga ham yararkan. Shuningdek, bo‘ron paytida katta kemalar to‘lqinga burni yoki quyrug‘i bilan urilishini, necha-necha tonna suv palubaga yopirilib, po‘lat yelkanlarni qamish poyasiday egib tashlashini, kichik kemalar bo‘lsa, aksincha, po‘rtanaga chidamli kelishini bilib oldim. Kichkina kemalar to‘lqinlar oralig‘ida bemalol suzar, ularning kiftiga minib, oq charloqdek raqs qilar ekan.

Men bu yerda, dovul paytida kemasi cho'kib ketgan, o'zlari esa qayiqda jon saqlab qolgan kishilarni uchratdim. Lekin ular sollar haqida kam bilishardi. Ular nazarida sol – kema emas, uning tag to'sini ham, yoncho'plari ham bo'lmaydi. Halokat paytida chiqib olib, to biror kema yordamga kelguncha jon saqlash mumkin emish, xolos. Ammo dengizchilardan biri, ochiq dengizda solga yetadigani yo'q, dedi; nemis torpedasi kemalarni Atlantik okeani o'rtasida cho'ktirib yuborganida uch hafta solda jon saqlagan ekan u.

– Lekin shunisi borki, solni boshqarolmaysiz, – qo'shimcha qildi u. – Shamol qayoqqa qarab essa, sol shu tomonga suzadi. Goh bir yonga, goh orqaga qarab suzadi, gohida bir joyda chir-chir aylanaveradi.

Men Janubiy Amerika Tinch okeani sohillarida ilk bor bo'lgan yevropaliklarning hisobotini kutubxonadan qidirib topdim. Bu hisobotlar ichida balza daraxtidan qilingan bir necha katta xildi sollarning surati solingan va tuzilishi tasvirlangan edi. Bu sollarning to'rtburchak yelkani, tag to'singa o'xshash bir narsasi va quyruq tomonida boshqaradigan uzun eshkagi ham bor edi. Demak, bu sollarni boshqarishgan.

Bir necha hafta o'tdi. Men hamon dengizchilar uyida yashayman. Men qo'lyozma yuborgan joylardan: na Chikagodan va na boshqa shaharlardan darak bor. Hech kim hanuzgacha o'qimagan qo'lyozmamni.

Shanba kuni Uster-stritdagi dengiz aslahalari va xaritalar magaziniga bordim. Tinch okeani xaritasini tanlab olgunimcha unda xizmat qiluvchilar meni xushmuomalalik bilan «kapitan», deb atab turishdi. Karnay yo'sin o'ralgan xaritani ko'ltig'imga qistirgan-cha, Ossiningga¹ boradigan poyezdga o'tirdim. Shahar chekkasidagi xushmanzara bir chorbog'da yoshgina norveg oilasi yashar, haftaning oxirgi kunini har

¹ Ossining – Nyu-York yaqinidagi shaharcha.

vaqt shularnikida o'tkazardim. Uy egasi bir vaqtlar dengiz kapitani bo'lgan, hozir esa «Fred Ulsen» paroxodchilik kompaniyasidagi Nyu-York kontorasini boshqararkan.

Men ortiq toqat qilib turolmadim, xaritani o'tloqqa yozdim-da, Vilgelmdan: «Sizningcha, Perudan Polineziya orollarigacha solda borsa bo'ladimi?» – deb so'radim.

Vilgelm hayratlanganidan xaritadan ko'ra ko'proq menga baqraygan esa-da, mumkin degan javob qildi. Yelkamdan tog' ag'darilganday bo'ldi: kemani boshqarish va yelkanda suzishga taalluqli hamma narsa Vilgelmning joni-tani edi. Men darhol unga rejalarimni so'zlab berdim. Lekin Vilgelm meni yana ajablantirib, bu bo'lmag'ur safsata, dedi.

– Axir hozirgina o'zingiz, borsa bo'ladi, dedingiz-ku, – gapini bo'ldim men.

– Juda to'g'ri, – tasdiqladi Vilgelm. – Lekin ish chapasiga ketishi ham mumkin-ku, axir. O'zingiz, umringiz bino bo'lib, balzadan yasalgan solda suzmagan-siz-ku, sehrli tayoqcha amri bilan Tinch okeandan o'tkazib qo'yadimi sol sizni? Peruning qadimgi hindilari ajdodlarining tajribasiga tayanishgan. Sollarning o'ntasidan bittasi okeanni kesib o'tgan bo'lishi ham mumkin. Yuz yillar davomida yuzlab bunaqaollar dengiz tubidan joy topgan bo'lsa ajab emas. O'zingizning aytishingizcha, inklar mana shu balzaollarida qator flot bo'lib ochiq okeanga chiqishgan. U paytlar bir soldagilar halokatga uchrasa, boshqasidagilar ularni qutqarib qolishi mumkin bo'lgan. Okean o'rtasida kim qutqaradi sizni? Har ehtimolga qarshi yoningizda radiostansiya olib chiqqaningizda ham, qirg'oqdan ming mil dengiz milyasi narida, to'lqinlar orasidan kichkina solni topish oson bo'ladi, deb o'ylamang. Dovul paytida to'lqin sizni soldan yuvib ketishi mumkin. Biron kimsa qutqarish uchun yetib borguncha o'n bor cho'kib ketishingiz

osonroq. Undan ko'ra, bu yerda qoling-da, olimlar qo'lyozmangizni o'qishga vaqt topgunlariga qadar kuting. Yana bir bor xat yozib eslatib qo'ying, eng yaxshisi shu.

– Ortiq kutolmayman, erta-indin bir sentsiz qolaman.

– Biznikiga ko'chib o'tishingiz mumkin. Basharti o'zingiz pul haqida gap ochgan ekansiz, unda aytingchi, Janubiy Amerikada qanday qilib ekspeditsiyani bepul shaylamoqchi bo'lyapsiz?

– O'qilmagan qo'lyozmadan ko'ra, ekspeditsiyaga qiziqtirish osonroq odamlarni.

– Xo'sh, bundan nima manfaat ko'rasiz?

– Ilmiy doiralarda bu ishimga e'tibor qilishlarini hisobga olmaganida, hech bo'lmasa, mening nazariyamga qarshi bo'lgan asosiy dalillarni rad etaman-ku.

– Agar ish chappasiga ketsa-chi?

– Unda hech nimani isbotlolmayman.

– U taqdirda siz o'z nazariyangizni hammaning ko'z oldida yerga urasiz-ku, shunday emasmi?

– Balki shundaydir. Lekin, boya o'zingiz aytganingizdek, bizning davrgacha ham bunday urinishlarning o'ndan biri muvaffaqiyatli chiqqan-ku.

Kelasi shanba kuni yana qo'ltig'imda xarita bilan Ossiningda paydo bo'ldim. Qaytishimda esa xaritada Peru qirg'oqlaridan Tinch okeanidagi Tuamotu orollarigacha qalam bilan chiziq tortilgan edi. Kapitan og'aynim meni bu yo'ldan qaytarib bo'lmasligini tushundi va biz solning suzish tezligi qancha bo'lishini hisob-kitob qilib bir necha soat o'tirib qoldik.

– To'qson yetti kun, – dedi Vilgelm, – lekin shuni esingizdan chiqarmangki, hamma vaqt mo'tadil shamol esib turgandagina, sol siz faraz qilganingizdek yelkan bilan harakat qilganda qo'l kelgandagina shunday bo'lishi mumkin. Safarga kamida to'rt oyni ajratishingiz, safar undan ham uzoqqa cho'zilishi mumkinligiga tayyor bo'lishingiz kerak.

– Mayli, – dedim xush kayfiyatda, – safarni kamida to‘rt oyga mo‘ljallaymiz-u, to‘qson yetti kunda tugalaymiz.

Oqshom qo‘limda xarita bilan uyga qaytib, karavot chetiga o‘tirganimda, Dengizchilar uyi har vaqtdagidan ko‘zimga fayzliroq ko‘rindi. Men karavot va komod egallagan joyni ham hisobda tutib xonani qadamlab o‘lchadim. Ha, ha, sol bu xonadan ko‘ra ancha katta bo‘lishi kerak. Katta shahar osmonidagi yulduzlarni ko‘rish uchun derazadan boshimni chiqardim. Bu yerda uylarning baland devori tepasidagi yulduzlarnigina ko‘rish mumkin. Solda bo‘lsa, joy torlik qilsa ham, tepangda yulduz to‘la osmonni bemalol tomosha qila olasan.

72-g‘arbiy ko‘chada, markaziy istirohat bog‘idan sal nariroqda Nyu-Yorkning o‘ziga xos klublaridan biri joylashgan. «Sayohatchilar klubi» deb yozilgan mis taxtacha bu uyda g‘alati idora joylashganidan dalolat berib turardi. Ammo ichkari kirishingiz bilan o‘zingizni Nyu-Yorkning osmono‘par uylari, qator avtomobillardan minglab mil yiroqdagi alohida bir olamga parashyutda sakragandek his qilasiz. Nyu-Yorkka chiqiladigan eshikni yopganingizdan keyin yo‘lbars ovi, alpinistik yurish va qutbda qishlov muhitiga tushib qolasiz, shu bilan birga, o‘zingizni yer kurrasini aylanib chiqishga otlangan hashamatli yaxtaning alohida xonasida o‘tirgandek his qilasiz. Klub a‘zolari ovqatlanishga yoki uzoq o‘lkalar haqida ma‘ruza tinglashga to‘planishganlarida ularni gippopotam¹ va bug‘u ovida qo‘lga tushirilgan o‘ljalar, beshotarlar, qoziqtishlar, harbiy do‘mbiralar, nayzalar, sanamlar hamda kemalarning modellari, bayroqlar, fotosuratlar va xaritalar qurshab oladi.

¹ Gippopotam – suv oti.

Markiz orollariga qilgan safarimdan keyin men klubning haqiqiy a'zoriga saylanganman. Uning yosh a'zosi bo'lganim-chun, Nyu-Yorkda bo'lsam bi-ror majlisdan qolmasdim. Noyabrning yomg'irli oq-shomida klubga kirib borarkanman, binoning g'alati ko'rinishi meni hayron qoldirdi. Zalning o'rtasida bi-ron falokatga yo'liqilganda ehtiyot uchun oziq-ovqat solinadigan xaltacha va turli asbob-anjomlar bilan puflab shishirilgan rezina sol yotardi.

Klubning yangi saylangan a'zosi, harbiy havo kuchlarini lozim asboblari bilan aslahalash qism laboratoriyasining xodimi polkovnik Xaskin ma'ruza o'qimoqchi ekan. Shuning bilan birga u bir qancha yangi harbiy kashfiyotlarning kelajakda, shimoliy va janubiy kengliklarda olib boriladigan ilmiy ekspedit-siyalarda qo'l kelishi mumkinligini namoyish qilmoq-chi ekan.

Ma'ruzadan so'ng qiziq munozara boshlandi. Mash-hur Daniya qutb tadqiqotchisi baland bo'yli, yo'g'on gavdali Peter Freyksen o'rnidan turdi, uzun soqolini sel-killatib shubhaomuz g'o'ldiradi. U yangi kashfiyotlar-ga uncha ishonmasdi. Bir vaqtlar Grenlandiya ekspe-ditsiyasi chog'ida u eskimos qayig'i va eskimos kulbasi o'rniga rezina qayiq va qop-chodirdan foydalangan, sal bo'lmasa narigi dunyoga ketayotgan ekan. Avvalo u, qor bo'roni paytida o'layozgan: chodirga kirish yo'lagini berkitadigan asbob muzlab qolganidan uni ochib cho-dirga kirolmagan. So'ng birda, baliq ovlab yurganida shishirilgan rezinaga qarmoq sanchilib qolgan; qayiq teshilib, bir parcha lattadek cho'kkan-ketgan. Bu gal u yordamga yetib kelgan eskimos do'sti bilan kayak-da¹ qirg'oqqa chiqib olgan. U, hozirgi zamonning eng qobiliyatli kashfiyotchisi ham, laboratoriyada o'tirgan yerida, ming yillik tajribalarga suyangan eskimoslar

¹ Kayak – dengiz hayvoni terisi bilan qoplangan eskimos qayig'i.

o'z yurtida qo'llagan aslahalardan yaxshirog'ini o'ylab topolmasligiga qattiq ishonardi.

Munozara polkovnik Xaskinning kutilmagan taklifi bilan tugadi. Klubning haqiqiy a'zolari hozir u namoyish qilgan yangi anjomlarning qaysi birini istashsa, o'shandan yaqin orada qatnashadigan ekspeditsiyalarida foydalanishlari mumkin; faqat sharti shuki, ekspeditsiyadan qaytgach, anjomlar haqida o'z mulohazalarini laboratoriyaga bildiradilar, dedi u. Menga shu kerak edi. Qo'qqisdan osmondan tushgan, o'zimga olishim uchun faqat istak bildirishimgina lozim bo'lgan, bu yap-yangi anjomlarni yaxshilab ko'zdan kechirishim lozim edi. Bularning hammasi menga nihoyatda zarur bo'lgan narsalardir, kutilmaganda yog'och solimiz ishdan chiqib qolsa-yu, yaqin orada boshqa sol bo'lmasa, halokatdan saqlanish uchun shu aslahalardan foydalansak bo'lardi.

Ertasi dengizchilar uyida nonushta payti, kecha ko'rgan anjomlar haqida fikr yuritib o'tirarkanman, basavlat bir yigit patnisda nonushtasini ko'tarib kelib yonimga o'tirdi. U yoq bu yoqdan so'zlashsak u ham dengizchi emas, balki tronxeymlik injener ekan. Sovitish texnikasi bilan amaliy tanishish, mashina detallarini xarid qilish uchun kelgan ekan u Amerikaga. U shu yaqin orada istiqomat qilarkan. Bu yerga esa, dengizchilar uyida lazzatli norveg taomlari tayyorlangani uchun ovqatlangani tez-tez kelib turarkan. U mendan kasb-u korimni so'radi. Men unga rejalarim haqida so'zlab berdim. Hafta oxirigacha tushunib yetib bo'lmaydi. Mening yuqorida aytganim ekspeditsiyaga chiqishga hozirlik ko'rajagimni aytdim. Hamsuhbatim indamay, zo'r qiziqish bilan tinglardi.

To'rt kundan so'ng yana shu oshxonada uchrashdik.

– Xo‘sh, qanday qarorga keldingiz? Safarga jo‘nay-sizmi, yo‘qmi? – so‘radi u.

– Ha, jo‘nayman, –deya javob qildim.

– Qachon?

– Iloji boricha tezroq. Agar uzoq ushlanib qolsam, Antarktikadan po‘rtana turib, orollarda dovullar boshlanib ketadi. Shu yaqin orada Perudan safarga chiqishim kerak. Lekin, avvalo, mablag‘ topishim, ishni tashkil etishim kerak.

– Siz bilan necha kishi yo‘lga chiqadi?

– Olti kishi yetarli bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman; shunda, bir-birimizning jonimizga tegmasmiz deyman; bir kecha-kunduzda rulda to‘rt soatdan vaxtada turishga ham bu qulay bo‘ladi.

U allanimalar ustida mulohaza yuritganday o‘ylanib turdi-da, so‘ng qizg‘in so‘zlay boshladi.

– Siz bilan jo‘nab qolgim bor! Shunda texnik o‘lchovlar va meteorologik kuzatishlarni zimmamga olishim mumkin edi. Albatta, eksperimentingiz¹da – shamolning kuchi va yo‘nalishini, to‘lqinlarning kichik yo kattaligini aniqlashingiz kerak bo‘ladi. Shuni unutmangki, solingiz okean bo‘ylab katta masofani, odatdagi dengiz yo‘lidan ancha naridan, hali hech kimga hech nima ma‘lum bo‘lmagan qismidan bosib o‘tadi. Siznikiga o‘xshash ekspeditsiya g‘alati gidrografik va meteorologik tadqiqot olib borishi mumkin. Men esa termodinamikadan bilganlarimni amalga tatbiq etaman.

Bu odam haqida uning ochiq chehrasi menga qarab aytib turganidan bo‘lak hech nimani uqolmas edim. Ammo ko‘z qarashlari ko‘p narsani anglatardi.

– Bo‘pti, – dedim men. – Birga safar qilamiz. Uning ismi German Vatsinger bo‘lib, menga o‘xshash bir navi dengizchi edi.

¹ Eksperiment – ilmiy tajriba.

Bir necha kundan so'ng Germanni mehmonim sifatida sayyohlar Klubiga boshlab bordim. U yerda biz qutb tadqiqotchisi Peter Freyxenga duch keldik. Freyxen ko'pchilik orasida ham ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Baland bo'y, ombor eshigiday keng yag'rinli, soqoldor bu odam bepoyon tundra vakiliga o'xshar va ayiq iziga tushgan kimsadek ko'rinardi.

Biz uni devorga osig'liq turgan katta xarita yoniga boshlab bordik va hindi solida Tinch okeanini suzib o'tish haqidagi rejamizni gapirib berdik. U bolalarnikidek sho'x ko'k ko'zlarini katta ochib hikoyamizni tinglarkan, soqolini yulqilab-yulqilab qo'yardi. Keyin yog'och oyog'i bilan bir yer tepib qo'ydi-da, qayishini tarang qilib tortdi.

– Eh, padariga la'nat! – deb qo'ydi u. – Qani endi men ham sizlar bilan safarga chiqolsam!

Grenlandiya bo'ylab ko'p sayohat qilgan kekxa sayyoh krujkalarimizni pivo bilan to'ldirdi-da, ibtidoiy odamlarning kemalariga ishonchi kattaligi haqida, ularning quruqlikda ham, dengizda ham, tabiiy sharoitni e'tiborga olib harakat qilishga usta ekanliklari haqida so'zladi. O'zi Sibirning katta daryolarida solda oqim bo'ylab suzgan ekan, Arktika qirg'oqlari bo'ylab kemada qilgan sayrida yerli aholining sollarini shatakka olib tortgan ekan. U hikoya qilar ekan, soqolini yulqilab-yulqilab qo'yardi. Hikoyasi oxirida u, bu sayohatdan rosa mamnun bo'lasizlar, dedi.

Freyxenning qo'llab-quvvatlashi tufayli ishimiz yurishib ketdi. Ko'p o'tmay Skandinaviya matbuotida bizning sayohatimiz haqidagi maqola bosilib chiqdi. Ertasiga erta bilan Dengizchilar uyidagi xonamning eshigi qattiq taqilladi. Meni pastdagi yo'lakka telefonga chaqirishayotgan ekan. Telefon orqali so'zlashish oqibati shunday bo'ldiki, shu oqshom German ikkovimiz Nyu-Yorkning dabdabali ko'chalaridan biridagi

uyning eshigiga borib, qo'ng'iroq tugmasini bosdik. Bizni amirkon tufli kiygan, ko'k kostyum ustidan yelkasiga shohi xalat tashlagan olifta kishi kutib oldi. Atir sepilgan ro'molchasi bilan burnini artarkan, tumovligi uchun uzr aytdi, shunda u juda nozik odamga o'xshab ketdi nazarimda. Vaholanki, bu yigitning urush vaqtida uchuvchi sifatida jasorat ko'rsatib, Amerikada mashhur bo'lgani bizga ma'lum edi. Uy egasidan tashqari bunda ishga chanqoq, g'ayrati jo'shurgan ikki yosh jurnalist ham bor edi. Ularning birini qobiliyatli jurnalist sifatida bilardik.

Endi iqtisodiy masalalar hal bo'ladigan bo'ldi; u bilan sheriklarimiz shug'ullanishadi, biz endi ortiq tashvishlanmasak ham bo'ladi. German ikkovimiz esa, shu topning o'zidanoq, ekipaj va kerakli asbob-anjomlarni tanlash, sol qurish va dovullar pallasini boshlanib ketmasidan burunroq safarga o'tlanishimiz kerak.

Ertasiga German ishdan bo'shadi va biz ishga jiddiy kirishib ketdik. Sayyohlar klubi yordamida harbiy havo kuchlari material qismi tadqiqot laboratoriyasining nimani so'rasam shuni berishga roziligini olishga muvaffaq bo'lgan edim; laboratoriya rahbarlari, bizning ekspeditsiyani o'zlarining anjom-aslahalarini sinovdan o'tkazish uchun juda mos, deb hisoblardilar. Ishimiz o'ngidan kelgani shu-da. Endilikda oldimizda turgan muhim vazifa, biz bilan solda safarga chiqishga tayyor bo'lgan to'rt munosib odam va safar uchun zarur oziq-ovqat topishdan iborat edi.

Okean bo'ylab solda birga safarga chiqadigan odamlarni juda sinchiklab tanlash kerak. Bo'lmasam, ochiq dengizda bir oy suzgach, har xil ko'ngilsizliklar, janjallar chiqishi mumkin, men sol komandasini faqat dengizchilardan tuzmoqchi emasdim: chunki ular baribir solni boshqarishni bizdan ortiq bilishmaydi, keyinchalik esa, ishni oxiriga

yetkazishga muvaffaq bo'lsak, Perudagi qadimgi sol quruvchilardan ko'ra mohirroq dengizchi bo'lganimiz uchungina muvaffaqiyat qozondik deb gap tarqatishlari mumkin. Shunday bo'lsa-da, solda sekstantdan foydalana biladigan va xaritadan yo'nalishimizni belgilay oladigan bir odam bo'lishi kerak edi; bu ilmiy hisobotlar uchun zarur edi.

– Bir rassomni bilaman, – dedim men Germanga. – Baland bo'yli, gitara chalishga usta, xushchaqchaq, azamat yigit. U dengizchilik maktabini tugatib, rassomlikka berilib, uyda o'ralashib qolguncha, bir necha bor dengizda dunyoni aylanib kelgan. Uni bolaligidan taniyman: yurtimizda ikkovlashib tog'ma-tog' turistik safarga chiqardik. Unga xat yozaman: aminmanki, u albatta keladi.

– U juda mos tushadi, – rozi bo'ldi German, – bizga endi radioni biladigan odam ham kerak.

– Radio!– jonholatda qichqirib yubordim. – Nima hojati bor uning bizga? Qadimiy solda nima keragi bor uning.

– Yo'q, qo'shilmayman fikringizga; agar halokat signali yuborib, yordamga chaqirishimizga to'g'ri kelmasa, sizning nazariyangizga putur yetkazmaydigan ehtiyot chorasi, xolos. Radio bizga metereologik kuzatishlar va boshqa ma'lumotlarni yuborib turish uchun kerak bo'ladi. Shunisi ham borki, biz dovul haqida oldindan beriladigan ogohlantirishlarni qabul qilishda radiodan foydalana olmaymiz. Negaki, okeanning u qismi haqida, unday ogohlantirishlar bo'lmaydi, bo'lgan taqdirda ham, soldagilarga nima nafi tegishi mumkin?

Uning dalil-isbotlari bora-bora mening e'tirozlarimni yengdi. Har xil knopkalar-u buraladigan tutqichlarni yomon ko'rganimdan shunday degan edim.

– Qizig'li shundaki, uzoq masofada radioaloqa olib boruvchi odamlardan tanishim ko'p, – dedim men. –

Urush vaqtida radio aloqasi bo'limida xizmat qilganman. Knut Xaugland bilan Torsteyn Robyuga albatta xat yozaman.

– Ular bilan tanishmisiz?

– Ha. Knut bilan birinchi bor 1944-yilda Angliyada tanishganman. Inglizlar uni, nemislarning atom bombasi yaratishlarini barbod etishda qatnashgan parashyut desantida ishtirok qilgani uchun orden bilan mukofotlaganlar. Knut Ryukanda¹ og'ir suv² zaxiralarini yo'qotishda qo'poruv ishlarini olib borgan qarshilik ko'rsatish gruppasida radistlik qilgan. Men u bilan uchrashgan chog'imda Knut Norvegiyadagi boshqa bir operatsiyadan qaytgan edi; gestapo uni Oslo shahridagi tug'ruqxona mo'risiga bekitgan yashirin peredatchik bilan qo'lga tushirayozgan. Natsistlar turgan joyini aniqlaganlar, nemis soldatlari binoni qurshab, har bir eshik qarshisida pulemyotni to'g'rilab turganlar. Gestapo boshlig'i Femer Knutni sudrab chiqishlarini kutib hovlida turgan. Lekin uning o'z odamlarini sudrab kelishgan. Knut to'pponcha bilan otishib, chordoqdan bino yerto'lasigacha tushgan, u yerdan orqa hovliga chiqqanda, o'q yomg'iri ostida, kasalxona devoridan oshib o'tib qutulib qolgan. Men u bilan qadimiy ingliz qal'asidagi yashirin stansiyada uchrashgan edim: Knut dushman vaqtincha bosib olgan Norvegiyadagi yuz chog'li stansiyalar bilan yashirin aloqa o'rnatishni tashkil qilish uchun qaytib kelgan edi.

Men endigina parashyutda sakrash mashg'ulotlarini tamomlagan edim, biz u bilan birga Oslo yaqinidagi Nordmarkda birga parashyutda sakramoqchi

¹ Ryukan – Janubiy Norvegiyaning telemark viloyatidagi 8 ming aholisi bo'lgan shahar. Urushdan so'ng bunda og'ir suv ishlab chiqaradigan zavod qayta qurilgan.

² Og'ir suv – oddiy suv tarkibidagi vodorodning og'ir izotopi.

edik. Lekin xuddi shu paytda ruslar Kirkenes rayoniga kirib keldilar, shundan keyin kichkinagina norveg otryadi Shotlandiyadan Finmarkenga yuborildi. Meni ham shu tomonga yubordilar. O'sha yerda men Torsteyn bilan uchrashdim.

U tomonlarda hali haqiqiy arktika qishi hukm surardi, shimol yog'dusi yulduzli samoda jimirlardi. Kunduzi ham, kechasi ham qop-qorong'i edi. Sovuqdan ko'm-ko'k ko'karib, po'stinlarimizga burkanib Finmarkenning kuli ko'kka sovrilgan ko'chalaridan o'tib borarkanmiz, tog' yonbag'ridagi kulbadan ko'kko'z, malla soch bir xushchaqchaq yigit chiqib keldi. Bu Torsteyn Robyu edi. Urush boshlanganda u Angliyaga qochib ketgan, u yerda radiistlikka o'qigan; keyin uni Norvegiyaning Tromsyo tomoniga yashirin suratda o'tkazib yuborishgan. Kichkina peredatchik bilan «Tirpits» linkoriga yaqin joyga yashiringan va o'n oy mobaynida kema bortida nima bo'layotganini Angliyaga xabar qilib turgan. Torsteyn o'zining yashirin peredatchigini nemis ofitseri o'rnatgan priyomnikning antennisiga ulab axborotlarini jo'natib turgan. Axiri «Tirpits»ni portlatib yuborgan ingliz bombardimonchilari Torsteynning muntazam yuborib turgan axborotlariga amal qilganlar.

Torsteyn Shvetsiyaga qochib ketgan. U yerdan Angliyaga o'tib, keyin yana yangi radioperedatchik bilan nemislarning orqa tomoniga, Finmarkenning xilvat joyiga parashyutda sakragan. Nemislar chekinganda bizning orqa tomonimizda qolgan va o'zining kichkinagina radioapparati bilan yashiringan joyidan chiqib, bizga yordamga kelgan. Negaki, bizning kuchli radiostansiyamiz ishdan chiqqan edi. Garov o'ynashga tayyormanki, uyda o'tiraverish Knut bilan Torsteynning joniga tegib ketgan, yog'och solda sayohat qilishga jon deb rozi bo'lishadi.

– Xat yozing, taklif qiling, ularni, – dedi German.

Shunday qilib, Erik, Knut va Torsteynga aslo bejamay-netmay, qisqagina xat yozdim:

«Janubiy dengiz orollarida Perudan kelgan odamlar istiqomat qiladi, degan nazariyani isbotlash uchun yog‘och solda Tinch okeanni suzib o‘tmoqchiman. Birga safar qilishni istamaysizmi? Men Peru va Janubiy dengiz orollarigacha suzib borish va u yerdan orqaga qaytishni bepul qilishga kafolat beraman, xolos; safar vaqtida texnik qobiliyatingizni tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Zudlik bilan javob bering».

Ertasiga Torsteyndan quyidagi mazmunda telegramma oldim:

«Yo‘lga chiqdim Torsteyn».

Qolgan ikkovi ham rozi ekanliklarini xabar qilishdi.

Oltinchi hamrohga goh bir odamni, goh boshqasini tanlardig-u, lekin har gal qandaydir monelik chiqib turardi. Bu orada German bilan men oziq-ovqat masalasi bilan shug‘ullanishimiz kerak edi. Biz safar davomida bir vaqtlar lamaning¹ qoq go‘sh²ti yoki kumaraning² qurigan tugunagini tamaddi qilib kun o‘tkazmoqchi emasdik, zero bir vaqtlar bizning o‘zimiz ham indus bo‘lganmiz degan fikrni isbotlash niyatimiz yo‘q edi-da, axir. Biz inklar solining imkoniyati va xususiyatlarini, uning dengizda suzishga yaroqliligini, qancha og‘irlikni ko‘tarishini – bizdek sayyohlar bilan okeanni suzib o‘tib, Polineziyagacha yetib bora oladimi, yo‘qmi, shuni sinamoqchi edik. Bizning o‘tmishdoshlarimiz, hindilar quruqlikda ham qoq go‘sh²t, baliq va kumaraning qurigan tugunagini tamaddi qilgani uchun safarda ham shuni yegan.

¹ Lama – Janubiy Amerika tuyasi.

² Kumara – Janubiy Amerika yoki Polineziyadagi shirin kartoshka.

Ammo biz ularning safarini takrorlarkanmiz, okean bo'ylab suzganlarida baliq tutib yeyish imkoniyatiga ega bo'lganmilar, yomg'ir suvidan foydalanganmilar, shuni ham aniqlash niyatimiz yo'q emas edi. O'zimizning oziq-ovqatimiz masalasiga kelsak, urush vaqtida bizga tanish bo'lgan oziq-ovqat ulushini mo'ljallardim.

Xuddi shu vaqtda Norvegiya harbiy attashesining yangi yordamchisi Vashingtonga keldi. U Finmarkenda rotaga komandirlik qilgan chog'da, men unga muovin bo'lib xizmat qilganman. Shu sababli uning oldiga qo'yilgan har qanday vazifani bajarish uchun jonini jabborga beradigan «olov» yigit ekanligini bilardim. Byorn Ryorxolt bir og'ir ishdan qutulishi bilan darhol boshqasiga kirishmasa garangsib qoladigan kishilar toifasidan edi.

Men unga xat yozib, ahvolimizni bayon qildim va undan, Amerika armiyasi oziq-ovqat boshqarmasida ishlovchi biror kimsa bilan aloqa bog'lashimiz uchun yordam berishga butun layoqatini ishga solishini iltimos qildim. Harbiy laboratoriya dala sharoitiga mos yangi oziq-ovqat masalliqalarini ishlab chiqarayotgan edi. Biz harbiy havo kuchlari laboratoriyasining aslahalarini sinaganimiz kabi bu oziq-ovqatlarni ham sinovdan o'tkazib berishimiz mumkin edi.

Oradan ikki kun o'tgach Byorn Vashingtondan bizga telefon qildi. Amerika harbiy ministrilgining tashqi aloqalar bo'limida so'zlashibdi. Undagilar masalaning mohiyatini bilishga qiziqayotgan emishlar. Biz German ikkovimiz darhol poyezdda Vashington sari yo'l oldik.

Biz Byornni harbiy missiya kabinetida uchratdik.

– Hammasi joyida bo'lsa kerak, deb o'ylayman, – dedi u. – Ertaga, polkovnikdan tegishli xat olishimiz bilan bizni tashqi aloqalar bo'limida qabul qilishadi.

«Polkovnik» degani Norvegiya harbiy attashesi Otto Munte-Kos edi. Masalaning mohiyatiga tushunib yet-

gach, bizga xayrixohlik bildirdi va tegishli tavsiyanoma xatni yozib berishga rozilik berdi.

Ertasiga ertalab xatni olib ketgani kelganimizda u to'satdan o'rnidan turdi, biz bilan o'zi borgani ma'qulligini aytdi. Polkovnikning avtomobilida Pentagonga, dunyodagi eng katta binoga bordik. Harbiy ministrlikning boshqarmalari shu yerga joylashgan. Polkovnik bilan Byorn harbiy kiyimda oldinda o'tirar, German bilan men orqada o'tirarkanmiz oldingi derazadan tashqariga tikilib, qarshimizdagi maydon-da qad ko'targan ulkan Pentagon binosini tomosha qilardik. O'ttiz ming amaldorni sig'dirgan, yigirma olti kilometr yo'lagi bo'lgan bu hashamatli bino harbiy ministrlikning yuqori martabali vakillarining «sol masalasidagi majlisi» o'tkaziladigan joy bo'lishi kerak. Na bundan oldingi, na keyinchalik hech qachon solimiz Germanga ham, menga ham shu daqiqadagi kabi kichkina va ishonchsiz ko'rinmagan edi.

Zina va yo'laklarda yura-yura, axiri tashqi aloqalar bo'limi eshigiga yetdik. Ko'p o'tmay biz qizil yog'ochdan yasalgan katta stol atrofida boshdan oyoq yap-yangi forma kiygan ofitserlar qurshovida o'tirardik. Raislik o'rnini tashqi aloqalar bo'limi boshlig'i egallagan edi.

Uest-Poynt akademiyasi¹ni nishonini taqqan, stolning to'rida o'tirgan yag'rindor, qovog'i soliq ofitser Amerika harbiy ministrligining bizning yog'och solimizga nima aloqasi borligini sira anglab yetolmasdi. Ammo polkovnikning asosli nutqi, stol atrofida o'tirgan ofitserlar yog'dirgan savollarga biz qaytargan javoblar ko'rsatgan ta'sir, uni biz tomonga yon bostirdi va u harbiy havo kuchlari aslahalar qismi laboratoriyasining xatini qiziqib o'qib chiqdi. Keyin u o'rnidan turdi, tegishli doiralarda bizga yordam ko'rsa-

¹ Uest-Poynt shahridagi akademiya.

tish haqida o'z shtabiga qisqagina topshiriq berdi va bizga hozircha, muvaffaqiyat tilab, majlis o'tayotgan xonadan chiqib ketdi. Orqasidan eshik yopilishi bilan yoshgina shtab kapitani qulog'imga shivirladi:

– Garov o'ynashga tayyorman, nimaiki kerak bo'lsa, hammasini olasizlar. Bu kichkinagina harbiy operatsiyaga o'xshab ketadi, hozirgi tinch davrning zerikarli idora ishiga jonlanish kiritadi; buning ustiga aslahalarni metodik suratda sinash imkonini ham beradi.

Aloqalar bo'limi bir zumda bosh intendent boshqarmasi eksperimental laboratoriyasida xizmat qiluvchi polkovnik Lyuis bilan uchrashuv haqida kelishib oldi va men bilan Germanni avtomobilda o'sha yerga olib borib qo'yishdi.

Polkovnik Lyuis sportchiga o'xshash barvasta qomat, xushmuomala kishi ekan. U o'sha zahotiyiq turli sohalarda sinovga rahbarlik qiladigan xizmatчилarni chaqirdi. Ularning hammasi bizga xayrixohlik ko'rsatdilar va nihoyatda sinchiklab sinovdan o'tkazilishi lozim bo'lgan bir dunyo anjom-aslahalarni taklif qildilar. Ular kutganimizdan ham ortiq narsalarni – dala sharoitida tamaddi qilinadigan oziq-ovqat va oftobda suriladigan moydan tortib, namni o'tkazmaydigan uxlash qopchig'igacha taklif qildilar. Keyin ular bizni boshlab borib, ana shu narsalarni ko'rsatishdi. G'alati qilib joylangan oziq-ovqatlardan tatib ko'rdik; biz suvga tushgandan keyin ham yonadigan gugurtni, primus, suv soladigan bidon, rezina qopchiqlar, maxsus poyabzallar, idish-tovoqlar, suvda cho'kmaydigan pichoqlar va ekspeditsiyada zarur bo'ladigan ko'pgina boshqa narsalarni ko'rdik.

Men Germanga qarab qo'ydim. U boyvuchcha xolasi bilan konditor magaziniga kirib qolgan qobil bolaga o'xshardi. Baland bo'yli polkovnik ana shu ajoyib buyumlarni namoyish qilib oldinda borardi.

Namoyish tugagach, laboratoriya xodimlari bizga zarur narsalarni va bu narsalardan qancha kerakligini yozib olishdi. Men o'zimizni jangda g'olib chiqqan hisoblardim, tezroq mehmonxonaga yetib olishni, maza qilib cho'zilib, bo'lgan voqealar ustida biroz fikr yuritishni o'ylardim. Shu chog' baland bo'yli xushmuomala polkovnik qo'qqisidan:

– Endi borib shef bilan gaplashish kerak. Hammasini bera olamizmi, buni u hal qiladi, – deb qolsa bo'ladimi.

Yuragim uzilib ketgandek bo'ldi. Shunday qilib, yana hammasini boshidan boshlashimiz, butun fashohatimizni ishga solishimiz kerak. U «shef» deganlari, Xudo biladi, qanday nusxa.

Shef deganlari past bo'yli, o'zini haddan tashqari jiddiy tutadigan ofitser ekan. Uning huzuriga kirganimizda stol yonida o'tirgan joyidan turib, qo'y ko'zlar bilan tikilib qaradi. So'ng o'tirishni taklif qildi.

U mendan ko'zini uzmasdan turib:

– Xo'sh, bu janoblar nimani istashadi? – keskin ravishda so'radi polkovnik Lyuisdan.

– Haligi, ba'zi iker-chikirlar kerak ekan, – shoshib javob berdi Lyuis. U bizning iltimosimiz mazmunini umumiy tarzda bayon qilguncha boshliq qimir etmay, sabr qilib tingladi.

– Evaziga nima berishar yekan? – so'radi u aslo hayron bo'lmay.

– Nima bo'lardi, – muloyimgina dedi Lyuis, – umid qilamizki, ekspeditsiya qatnashchilari yangi turdagi oziq-ovqatlar va ba'zi asbob-anjomlarning safarlari davomida duch keladigan og'ir sharoitga yaroqli yaroqsizligi haqida fikr mulohazalarini bildirarlar.

Stolning narigi yog'ida o'tirgan haddan tashqari jiddiy ofitser hamon menga tikilganicha, shoshilmaygina kreslosi orqasiga tashladi o'zini; u sovuqqina qilib:

– Evaziga nima beradilar, hech tushunmayapman,
– deganida charm kresloga cho'kib ketayotganday his qildim o'zimni.

Xonaga suv quygandek jimlik cho'kdi. Polkovnik Lyuis yoqasini tuzatardi, birortamizdan sado chiqmadi.

– Shunisi ham borki, – qo'qqisdan gap boshladi boshliq. Bu gal ko'zlarida yengil kulimsirash paydo bo'ldi. – Botirlik va uddaburrolik ham hisobga o'tadi. Polkovnik Lyuis, mayli, nimaiki so'rashsa hammasini bering!

Bizni uyga, mehmonxonaga olib ketayotgan mashinada xursandligimdan nafasim tiqilib o'tirarkanman, birdan German qahqahlab kula boshladi.

– Sizga bir nima bo'ldimi? – tashvishlanib so'radim.

– Yo'q, – dedi u hamono qah-qah urarkan. – Hisoblab ko'rsam, bizga tegadigan oziq-ovqatlar ichida 684 banka ananas bo'larkan. Mening jonimdan yaxshi ko'rgan ovqatim shu.

Olti odam, yog'och sol hamma yuklari bilan Peru sohillarining ma'lum yeriga yetib borishi uchun ming xil yumushni bir vaqtda bajarishi kerak edi. Ixtiyorimizda esa atigi uch oy muhlat bor; ammo Aloviddinning lampasi yo'q.

Biz aloqalar bo'limining tavsiyanoma xati bilan Nyu-Yorkka uchdik va Kolumbiya universiteti profesori Bere bilan uchrashdik. Bere harbiy ministrlikning geografik tadqiqotlari Komiteti raisi edi. Uning yordamida German ilmiy o'lchashlar uchun zarur bo'lgan barcha qimmatli asbob-anjomlarni va apparatlarni oldi.

So'ngra biz dengiz ministrligining Hidrografik institutidagi admiral Gloverni ko'rmoq uchun Vashingtonga uchdik. Bu xushfe'l, tajribali dengizchi bo'lmish chol hamma ofitserlarini chaqirdi, ularni German va men bilan tanishtirdi-da, devorga osilgan Tinch okean xaritasiga imo qilib:

– Bu yigitlarni bizning yangi xaritalarimiz qiziqti-radi. Yordam bering ularga!– dedi.

Ingliz polkovnigi Lamsden bizning bundan keyin-gi vazifalarimiz muvaffaqiyatli yakunlanishi imko-niyatlarini muhokama qilmoq uchun Vashingtonda Britaniya harbiy missiyasida majlis chaqirdi. Biz bir dunyo yaxshi maslahat va ingliz asbob-anjomlari ol-dik. Bu anjomlar, solda safar qilgan paytimizda si-nab ko'rishimiz uchun, samolyotda Angliyadan kelti-rilgan edi. Ingliz harbiy vrachi sirli «akula poroshogi» homiysi ekan. Akula juda ketimizdan qolmaydigan bo'lsa, shu poroshokdan bir necha chimdimni suvga sochsak bas ekan, akula qocharkan-ketarkan.

– Ser, – dedim muloyimlik bilan, – bu poroshok-ning kuchiga ishonsak bo'ladimi?

– Iye, – jilmayib javob qildi ingliz, – biz xuddi shuni aniqlamoqchimiz-da!

Vaqt oz bo'lib, poyezdni samolyotga, oyoqni av-tomobilga almashtirganda hamyon qurigan yaproq singari juda tez yupqa tortib ketadi. Norvegiyaga qaytib ketish uchun olib qo'ygan biletimizni sotib, pulini sarflab bo'lgach, mablag' masalalarini tartib-ga solish uchun Nyu-Yorkdagi sheriklarimiz yoniga jo'nab ketishga to'g'ri keldi. Unda bizni umidsizlik kutardi. Moliya direktori isitmalab yotar, muovnlari esa, u tuzalmaguncha hech nima qilisholmasdi. Ular bizning moliyaviy shartnomamizga qarshi emas edi-lar-u, lekin hech qanday yordam ko'rsatolmasdilar ham. Ular bir necha vaqtga ishni to'xtatib turishni maslahat berdilar. Lekin biz bunga rozi bo'lolmas-dik. Negaki, endilikda biz bor kuch bilan ilgarilayot-gan behisob g'ildirakchalarni to'xtatishdan ojiz edik. To'xtash yoki tormoz berishning fursati o'tgandi. En-dilikda biz faqat qulab tushmaslik haqida o'ylashimiz kerak edi. Sheriklarimiz bizga mustaqil va tez hara-

kat qilishga imkon bermoq uchun sindikatni bekor qilishga rozi bo'ldilar.

Mana, biz ko'cha bo'ylab ketyapmiz, cho'ntagimiz esa avvalgidек bo'm-bo'sh.

– Dekabr, yanvar, fevral, – hisoblaydi German.

– Uzog'i bilan mart, – qo'shimcha qildim men. – Ammo martda, albatta, safarga chiqishimiz kerak!

Hamma narsa qorong'i bo'lsa ham, lekin bir narsa aniq edi. Safarimizning o'z oldiga qo'ygan jiddiy vazifasi bor. Shuning uchun ham bizni bo'sh bochkada Niagaradan tushadigan yoki Flagshtok¹ tepasida 17 kunlab o'tiradigan akrobatlarga teng qilishlarini istamasdik.

– Ishqilib, chaynaydigan rezinka yoki koka-kola sotadigan firma izmida bo'lmasak bas, – dedi German.

Bu masalada ikkovimizning fikrimiz bir joydan chiqqan edi.

Biz Norvegiya kronlarini topishimiz mumkin ediyu, lekin Atlantik okeanning bu tomonida ular masalani hal qilolmasdi. Biz subsidiya² so'rashimiz mumkin edi. Ammo janjalli nazariyani isbot qilish uchun mablag' berib turadigan odam topilishi qiyin; axir biz faqat shuning uchungina solda safarga chiqishga otlayapmiz-da. O'zlari va barcha sug'urta jamiyatlari zararli deb hisoblagan ish uchun mablag' ajratishga na gazeta trestlarining, na ayrim metsenatlarning³ jur'at etmasligini tez orada tushunib oldik; biroq biz sog'-salomat qaytsak, uning yo'rig'i bo'lak.

Ahvolimiz pachavaga o'xshab qoldi, necha kunlar davomida bu og'ir ahvoldan qutulish yo'llarini topolmay qiynaldik. Shunda yana polkovnik Munte-Kos jonimizga ora kirdi.

¹ Flagshtok – bayroq dastasi, bayroq tikiladigan joy.

² Subsidiya – yordamga beriladigan pul.

³ Metsenat – fanga homiylik qiluvchi davlatmand odam.

– Mushkul ahvolga tushib qolibsizlar-u, yigitlar, – dedi u. Mana bu chek sizlarga. Janub dengizi orollaridan qaytib kelguningizgacha kutaman.

Yana bir necha kishi shunday qildi. Qarabsizki, qarzga olgan pulimiz vositachilar va kommersantlarning yordamisiz ham ish boshlab yuborishimizga yetarli bo'lib qoldi. Janubiy Amerikaga uchishning, sol yasashning vaqti yetgan edi.

Qadimgi peruliklar soli quriganda po'kakdan ham yengil bo'ladigan balza daraxtidan yasalardi. Balza daraxti Peruda o'sadi. Faqat shunisi borki, balza daraxti dengiz sohilidan ancha narida, Andaning ortida o'sadi: shu sababli inklar davrida dengiz sayyohlari dengiz sohili bo'ylab Ekvadorga yetib borganlar va bahaybat balza daraxtlarini o'sha yerda, Tinch okeanni bo'ylarida kesganlar. Biz ham xuddi shunday qilmoqchi edik.

Sayyoh bizning davrimizda inklar zamonidagidan ko'ra tamomila boshqacha qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Bizning ixtiyorimizda avtomobillar, samolyotlar, sayyohlar byurolari bor; ammo ish juda ham oson ko'chmasligi uchun chegara degan to'siqlar bor. Chegarada esa, oldingi sinovlardan bir amal-lab o'tib olsangiz ham, shaxsingizni sinchiklab tekshiradigan, behisob anketalar bilan qiynaydigan, yuklaringizni kovlashtiradigan yaltiroq tugmachali, haddan tashqari jonboz qo'riqchilar bor. Ana shu yaltiroq tugmachali odamlardan cho'chish, turli g'alati buyumlar bilan to'latilgan yashik va chamadonlar bilan Janubiy Amerika sohilida paydo bo'lolmaymiz, degan xulosaga kelishga majbur qildi. Rost-da, biz Janubiy Amerika sohiliga tushsak-da, ispan tili-ni chalakam-chatti qilib muloyimgina: sol yasaymiz-da, shu solda jo'nab ketamiz desak, bizni darhol turmaga tiqishsa kerak.

– Yo‘q, rasmiy ijozatnomasiz ish boshlayolmaymiz,
– dedi German.

Tugatilgan triumviratdagi¹ oshnolarimizdan biri Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida muxbir edi; u bizni avtomobilga o‘tqazib o‘sha yoqqa olib bordi. Biz zalga kirganimizda barcha xalqlarning vakillari yonma-yon o‘tirar, devorga osilgan kattakon dunyo xaritasi yonida turgan qora sochli rus kishining qizg‘in nutqini tinglardilar. Bu manzara bizda qattiq taassurot qoldirdi.

Muxbir oshnamiz tanaffus paytida Perudan kelgan delegatlardan biri bilan, so‘ngra Ekvador vakili bilan tanishib oldi. Vestibyulda² yumshoqqina charm divanda o‘tirib, bizning ular vatanidagi qadimiy taraqqiyot namoyandalari Tinch okeani orollariga ilk bor yetib borgan odamlar bo‘lganini isbotlash uchun okeanni suzib o‘tmoqchi bo‘layotganimizni diqqat bilan tingladilar. Delegatlarning ikkovi ham bizning rejamiz haqida o‘z hukumatlarini xabardor qilishga, Peru va Ekvadorga yetib borganimizda bizga yordam ko‘rsatishga va‘da berdilar. Qabulxonadan o‘tib ketayotgan Tryugve Li vatandoshlari ekanimizni eshitib yonimizga keldi, shu chog‘ kimdir biz bilan solda safarga chiqishni taklif qildi unga. Ammo Tryugve Liga quruqlikdagi dovullar ham yetarli edi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti sekretari yordamchisi, mashhur ishqivoz-arxeolog, chililik doktor Benxamin Koen Peru respublikasi Prezidentiga xat yozib berdi. Peru Prezidenti uning yaqin do‘sti ekan. Shuningdek, vestibyulda Norvegiya elchisi Vilgelm fon Myunte-Morgensternni uchratdik. Shu daqiqadan boshlab u ekspeditsiyaga katta yordam ko‘rsatadi.

¹ Triumvirat – davlatni boshqarish shakli.

² Vestibyul – jamoat binolarining eshikdan kirishdagi katta dahlizi.

III BOB

JANUBIY AMERIKADA

Ekvatorda yerga qo'namiz. – Balza daraxti mushkulotlari. – Samolyotda Kitoga jo'namiz. – Kalla ovchilari va «bandios». – And bo'ylab «villis»da safar. – Jungli o'rmonlarida. – Kivedoda. – Balza daraxtlari kesayotirmiz. – Palenka daryosi bo'ylab pastga tomon solda suzamiz. – Bizga ma'qul bo'lgan harbiy port. – Lima-da dengiz ministri huzurida. – Peru Prezidenti bilan uchrashuv. – Danielsonning paydo bo'lishi. – Vashingtonga qaytish. – O'n ikki kilogramm hujjat. – German katta ish boshlaydi. – Biz harbiy portda sol yasaymiz. – Ogohlantirish. – Safar arafasida. – Solga «Kon-Tiki» deb nom berdik. – Xayr, Janubiy Amerika.

Samolyot ekvatoridan o'tish bilan sutday oppoq bulutlar oralab pastlay boshladik. To shu topgacha bu bulutlar quyosh shu'lalarida ko'zni qamashtirguday yarqiraydigan qorliklardek ostimizda yastangan edi. Samolyot oynasiga tegib-tegib ketayotgan yengil oq tuman asta-sekin taraldi va tepamizda bulut bo'lib suza boshladi. Pastdan esa jungli o'rmoni yamayshil to'liqinday suzib chiqdi. Biz Janubiy Amerika respublikasi ekvator ustidan uchib borardik. Mana, nihoyat, Guayakil degan tropik aeroportda qo'ndik. Kechagina bizga nihoyatda zarur bo'lgan kurtka, jilet va paltolarimizni qo'lda ko'targanimizcha, samolyotdan chiqqanimizda issiqxonaga tushib qolganday bo'ldik, tropik libosdagi sergap janub kishilarining savollariga javob berarkanmiz, ko'ylaklarimiz jiqqa ho'l qog'ozdek badanimizga yopishib qolganini his

etdik. Bojxona va muhojirxona to'ralari biz bilan quchoqlashib ko'rishdilar va qo'lda ko'targanday qilib, taksigacha olib borib qo'ydilar. Taksi shahardagi eng oldi mehmonxonaga eltib qo'ydi. Mehmonxonaga joylashishimiz bilanoq hammamiz vannaga sovuq suv to'ldirib, ichiga tushib oldik.

Biz balza daraxti o'sadigan mamlakatga kelib qolgan edik. Endilikda sol yasash uchun daraxtlarni sotib olishgina qolgandi.

Birinchi kunni pul muomalasini o'rganish, orqaga qaytishda mehmonxonani surishtirib topib olish uchun bir necha ispan so'zini yodlash bilan o'tkazdik.

Ertasiga o'zimizni vanna bilan xayrlashishga majbur etib, bir necha bor sayr qildik. Har gal sayrga chiqqanimizda oraliqdagi masofani uzaytiraverdik. German haqiqiy palmani ushlab ko'rishdek bolalar-cha istagini qondirgach, men bo'lsam har xil ho'l mevalarga to'ygach, balza yog'ochi xarid qilishga kirishishga qaror qildik.

Afsuski, aytishga oson-u, amalga oshirish qiyin edi buni. Keragicha balza yog'ochi sotib olish mumkin edi. Ammo bizga zarur bo'lgan xodalarni topib bo'lmasdi. Shundoqqina sohilning o'zidan balza kesib olingan vaqtlar o'tib ketgan edi. So'nggi urush balza daraxtining boshiga yetgan edi; g'alvirlik va yengil daraxt bo'lgani uchun uni mingtalab kesib, aviatsiya zavodiga jo'nataverganlar. Yirik balza daraxtlari faqat mamlakat ichkarisida, junglida o'sishini aytdilar bizga.

– Unday bo'lsa mamlakat ichkarisiga jo'nashimiz va o'zimiz kesib kelishimiz kerak ekan, – dedik biz.

– Iloji yo'q, – deyishdi mo'tabar kishilar. – Sel boshlanib ketdi. Daryolar toshib, yer pilchillab qoldi, jungliga o'tib bo'ladigan yo'l qolmadi. Agar sizlarga balza daraxti kerak bo'lsa, Ekvadorga yarim yildan keyin kelinglar, sel tinadi, jungli yo'llari quriydi.

Mushkul ahvolda qolgach, Ekvadorning balza qiroli don Gustano fon Buxvald yoniga bordik. German solning xomaki loyihasini ko'rsatdi. Unda bizga zarur xodalarning o'lchovi ko'rsatilgan edi. Jikakkina, past bo'yli balza qiroli vaqtni bekor o'tkazmay agentlarini har qayoqqa tarqatib yubordi. Istagan yog'ochsozlik zavodida har xil qalinlikdagi taxtalar, kalta-kulta xodalar topilardi. Ammo hech kim bizga zarur bo'lgan xodalarni topib berolmadi. Don Gustavoning yog'ochlari orasidan ikkita xoda topdilar. Lekin bu xodalar qovday quruq edi, ularda uzoqqa borib bo'lmasdi. Qidirish befoydaligi ravshan bo'lib qoldi.

– Akamning balza daraxtlari plantatsiyasi bor. Jundayam katta plantatsiya, – dedi don Gustavo. – Uning ismi don Federiko. U jungli ichkarisidagi Kivedo degan chog'roqqina qishloqda yashaydi. Sel o'tgandan keyinroq u bilan aloqa bog'lasak, sizlarga nimaiki kerak bo'lsa topib beradi. Junglida sel quyyapti hozir, baribir hech nima qilolmaysizlar.

Don Gustavo hech nima chiqmaydi dedimi, bilingki, Ekvadorning hamma mutaxassislari hech nima chiqmaydi, deydi. Shunday qilib biz, sol yasashga yarrarli yog'och topolmay, o'zimiz borib daraxt kesib kelish imkoniyatidan mahrum bo'lib, Guayakilda o'tirardik. Bunaqa imkoniyat bir necha oydan keyingina bo'larkan-u, lekin unda juda kech bo'ladi.

– Kutishga vaqtimiz yo'q, – dedi German.

– Qanday qilib bo'lsa ham balza yog'ochi topishimiz kerak, dedim men. – Sol qadimgilarnikining aynan nusxasi bo'lishi kerak, bo'lmasa sog' qolmaymiz. Biz mehmonxonadan topgan kichkinagina maktab xaritasida jungli o'rmoni yashil tusda, tog'lar jigarrang tusda, aholi yashaydigan punktlar qizil doira qilib belgilangan edi. Junglining Tinch okean qirg'oqlaridan tortib qudratli And tog'lari etaklarigacha yastan-

ganini ko'rsatardi xarita. Menda bir fikr paydo bo'ldi. Hozir sohil bo'ylab, junglini oralab balza daraxtlari o'sadigan Kivedoga borib bo'lmaydi; xo'sh, shunday ekan, Kivedoga orqa tomondan, qorli And tog'laridan oshib tushsak-chi? Birdan-bir yo'l shu edi.

Aeroportda kichkinagina yuk samolyoti bor edi. Bizni shu samolyotda And tepasidagi, dengiz sathidan 3000 metr yuqoridagi yassi tog' ustiga joylashgan o'ziga xos mamlakatning poytaxti Kitoga eltib qo'yishga rozi bo'lishdi. Yashiklar va samolyot anjomlari orasiga bir amallab suqilib olib, aeroplan bulutlar orasiga kirib ketguncha yam-yashil junglini va yaltirab oqayotgan daryolarni tomosha qilib bordik. Bulut orasidan sho'ng'ib chiqqanimizda esa pag'a-pag'a ko'tarilayotgan tuman dengizi vodiyni, nazarimda, yashirdi. Ammo oldinda, bulutlar orasidan ko'zni qamashtirar darajada tiniq ko'k osmonni hoshiyalab tog' cho'qqilari va yalang'och qoyalar ko'rindi.

Samolyot tog' yonbag'ri yoqalab, ko'zga ko'rinmas osma yo'l bilan borayotgandek, tepaga tirmashardi. Biz ekvatorning naq ustidan uchayotgan bo'lsak-da, qarshimizda yarqiragan qorli dalalar yastangandi. Keyin biz ikki qoya orasiga sho'ng'idik va bahor ko'katlari gurkirab o'sgan yoylatog'da paydo bo'ldik; jahondagi o'ziga xos poytaxtlardan biri yaqiniga qo'ndik.

Kitoning bir yuz ellik minglik aholisining ko'pchiligi tog' hindilar va metislardan iborat edi. Chunki bu yer Kolumb va Shimoliy Yevropa aholisi Amerikani ochgunga qadar ham, ancha ilgari ham, ularning qadim ajdodlarining poytaxti bo'lgan. Eskidan qolgan bebaho suratlar saqlangan qadimiy monastirlar va ispan hukmronligi davridan qolgan ulug'vor binolar tufayli shaharning qandaydir o'ziga xos ko'rinishi bor edi. Bu binolar hindilarning xom g'ishtdan yasalgan pastakkina kulbalari tepasida qad ko'tarib turardi.

Loy devorlar iling-biling bo'lib ketgan, tor ko'chalar plashchiga qizil dog'lar tekkan, boshlariga qo'lbola baland shlyapalar qo'ndirgan hindilar bilan gavjum. Birlari yuk ortilgan eshaklarini haydab bozorga shoshar, boshqalari bukchayishib devor tagida tizilishib, oftobda mudrashardi. Ispan zotiga oid, tropik libos kiygan aslzodalar o'tirgan bir necha avtomobil ketma-ket chiqib keldi ko'chaga va bolalar, eshaklar hamda yalangoyoq hindilar orasidan yo'l ochish uchun ustma-ust signal berib, ohista yurib o'tib ketdi. Yoylatog'da havo shunday musaffo ediki, atrofdagi tog'lar ko'cha manzarasining davomiday ko'rinar, vaziyatga ertak tusini berardi. Samolyotdagi oshnamiz «telba uchuvchi» laqabli Xorxe, Kitodagi qadim ispan oilasiga mansub edi. U bizni eskicha, alomat bir mehmonxonaga joylashtirdi. Keyin bizni tog'dan oshirib o'tkazadigan, undan o'tib, jungliga – Kivedoga olib boradigan transport izlab goh biz bilan, goh yolg'iz shahar kezdi. Kechqurun biz qadimiy ispan qahvaxonasida uchrashdik. Xorxe xunuk xabar keltirgan edi: Kivedoga safarini unutishimiz kerakmish. Tog'dan oshib o'tish uchun mashina ham, kuzatuvchi ham topib bo'lmabdi; sel boshlangani uchun Jungli ichi bilan borish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas ekan. Bunday paytlarda safar qilganlar Junglida yo bosqinchilar qo'liga tusharkan, yoinki balchiqqa botib qolarkanlar, o'tgan yili amerikalik o'n neftchi injener Ekvadorning sharqiy qismida zaharlangan nayzalar bilan yaralanib nobud bo'lgan ekan. O'sha joylarda hamon o'rmon hindilari yasharkan. Ular Junglida qip-yalang'och yurisharkan va zaharlangan nayzalar bilan ov qilisharkan.

Germannig parvo qilmay, bamaylixotir jarkopni tushirayotganini, qizil vinodan ho'plab-ho'plab qo'ya-yotganini ko'rib Xorxe:

– Mubolag‘a qilyapti deb o‘ylayapsiz chog‘i, – dedi shivirlab. – Aslida qat‘iy man qilingan bo‘lsa ham, bizda quritilgan odam kallasini sotib tirikchilik qiladigan odamlar bor. Bu savdoga barham berib bo‘lmaydi. O‘rmon hindilari shu kunlarda ham boshqa ko‘chmanchi qabilalardagi o‘z dushmanlarining kallasini kesib ketadilar. Ular kalla suyagini sindirib, maydalab olib tashlaydilar-da, bo‘shab qolgan bosh terisining ichiga qizdirilgan qum to‘ldiradilar; kalla burishib mushuknikiday bo‘lib qoladi, ammo shakli avvalgiday qoladi, yuz bichimlari ham o‘zgarmaydi. Dushmanning burishib qolgan kallasi bir vaqtlar qimmatbaho o‘lja sanalardi, hozir bo‘lsa yashirin bozorda kamyob match hisoblanadi. Dallol metislar ularni sohildagi savdogarlarga keltirib turishadi, savdogarlar bo‘lsa sayyohlarga juda ham qimmatga sotadilar.

Xorxe bizga tantanavor qarab qo‘ydi. Kunduzi German bilan meni shveytsarning¹ xonasiga boshlab kirib, shunaqa kallalardan ikkitasini, har birini ming sukredan² sotib olishni taklif qilishganidan bexabar edi u. Hozir ko‘pincha bunaqa kallalarning qalbakisini sotadigan bo‘lganlar, maymunnikini ro‘para qiladilar. Lekin bizga ko‘rsatishgani haqiqiy odam kallasi, hindilar kallasi edi. Kallaning yuz bichimlari shunday yaxshi saqlangan ediki, asti qo‘yaverasiz. Har biri apelsinday keladigan bir erkak va bir ayol kallasi edi; ayol xushro‘ygina edi, faqat kiprik va sochlari o‘z uzunligida qolgan edi. Shular esimga tushganda titrab ketdim, lekin qanday bo‘lsada, kalla ovchilari tog‘ning g‘arb tomonida uchramasa kerak, dedim.

– Kim biladi deysiz, – g‘o‘ldiradi Xorxe, – Do‘stingiz birdan g‘oyib bo‘lsa-yu, keyin bozorda uning kich-

¹ Shveytsar – darvozabon.

² Sukre – Ekvador tangasi.

raytirilgan kallasiga duch kelib qolsangiz nima deysiz? Bir vaqtlar mening do'stim shu ko'ygaga tushgan, – qo'shib qo'ydi u menga tikilib qararkan.

– Qani, nima bo'lgan edi, so'zlab bering, – deb iltimos qildi German ishtahasi bo'g'ilib.

Men vilkamni chetga surib qo'ydim, Xorxe hikoyasini boshladi. Bir vaqtlar u Jungli ichkarisidagi kichkinagina qishloqda yashagan ekan. O'sha chog'larda u oltin yuvish, boshqa oltin qidiruvchilarning oltinini sotib olish bilan shug'ullanarkan. Uning har doim oltin olib kelib, buyumga almashtirib ketadigan shu yerlik bir mijozi bor ekan. Ana o'sha mijozini Junglida o'ldirib ketishibdi. Xorxe qotilning iziga tushib topibdi-da, otib tashlayman, deb po'pisa qilibdi. Qotil, quritilgan odam kallasini sotadi, deb gumon qilinganlardan ekan. Xorxe, agar zudlik bilan kallani keltirib bormasang, otib tashlayman, deb do'q qilibdi. Qotil darhol Xorxening og'aynisining kallasini keltiribdi, kalla erkaklar mushtidek bo'lib qolgan ekan. Do'stining kallasini ko'rib Xorxe juda xafa bo'lib ketipti. Kallaning kichkina bo'lib ketganini hisobga olinmаса, afti sira o'zgarmagan, avval qanday bo'lsa, xuddi shunday ekan. Xorxe do'sti uchun juda kuyinibdi va kichkina kallani uyiga olib ketipti. Kallani ko'rishi bilan xotini hushidan ketipti va Xorxe do'stining boshini chamadonga solib qo'yishga majbur bo'lipti. Junglida namgarchilik ko'p bo'lganidan Xorxe vaqti-vaqti bilan kallani chamadondan olib, oftobda quritarkan. Kir yoyiladigan arqonga sochidan osib qo'yilgan kallacha shamolda silkinib turarkan. Xorxening xotini bo'lsa har gal unga ko'zi tushganda hushidan ketarkan. Ammo kunlardan bir kun sichqon chamadonni teshib kirib, kallani g'ajib tashlapti. Xorxe juda xafa bo'libdi-da, hamma rasm-rusmini o'rniga qo'yib, aerodromdan kichkina chuqurcha qazib, do'stining boshini ko'mibdi.

– Axir, har holda inson edi-da u, – deya hikoyasini tugatdi Xorxe.

– Juda mazali bo‘libdi-da ovqat, – dedim gapni boshqa yoqqa burmoq uchun.

Qorong‘ida uyga qaytarkanmiz, shlyapasini qu-log‘igacha bostirib kiyib olgan Germanning qiyofasi ko‘zimga allaqanday ko‘rinib ketdi. Aslida esa u tog‘ tomondan esayotgan tungi sovuq shamoldan saqlanish uchun shlyapasini bostirib kiyib olgan edi.

Ertasi kuni biz bosh konsulimiz Bryun va uning xotini bilan birgalikda, ularning shahar tashqarisidagi ulkan bog‘ida, baland arg‘uvonlar tagida o‘tirardik. Bizning Jungli orqali Kivedoga qilmoqchi bo‘lgan safarimizdan ma‘no chiqishiga ishonmasdi u... Lekin shunisi ham borki, u tomonlarda qaroqchilar bo‘ladi, dedi. So‘ng mahalliy gazetalardan qirqib olib qo‘yilgan xabarlarni ko‘rsatdi. Yog‘ingarchilik pallasitugagach, Kivedoga yaqin rayonlarni «bandidos»dan tozalash uchun soldatlarni yuborish lozim, deb ko‘rsatilardi xabarlarda. Shunday paytda u tomonlarga safarga chiqish aqlsizlikdan boshqa narsa emasmish, buning ustiga yo‘l boshlovchi topish ham, mashina topish ham amri maholmish. Biz u bilan so‘zlashib o‘tirganimizda Amerika harbiy attashesining «villis» mashinasi ko‘chadan o‘tib ketdi. Shu chog‘ miyamizga yangi fikr kelib qoldi. Bosh konsul bilan birgalikda Amerika elchixonasiga yo‘l oldik va harbiy attashe bilan shaxsan uchrashishga muyassar bo‘ldik.

Biz esak unga sol yasaladigan daraxtlar hali Kivedo o‘rmonlirida o‘sib yotganini aytdik. Biz bu yoqqa, qit‘aning baland tomiga chiqib oldik, ularga yetolmaymiz, dedik. Harbiy attashedan yo samolyot bilan ikki parashyut qarz berib turishni, yoki mamlakatni biladigan shofyor bilan «villis» mashinasi berib turishini so‘radik.

Sertalabligimizdan hayratda qolgan harbiy attashe bir daqiqa hech nima deyolmay qoldi; keyin boshini chayqaganicha: «Uchinchi yo'li bo'lmasa, xay mayli, ikkinchisi ma'qul», dedi jilmayib.

Biz o'tadigan yo'lda benzin kolonkalari u yoqda tursin, g'ildirak izlari ham uchramasligi aniq bo'lgani uchun «villis» benzin solingan kanistrilar bilan to'lgan edi. «Bandidos» haqidagi axborotlar tufayli yangi hamrohimiz kapitan Agurto Aleksis Alvaras pichoq va multiqlar bilan tish-tirnog'igacha qurollanib olgan edi. Biz bo'lsak o'z pulimizga sohilda yog'och sotib olamiz, degan niyat bilan Ekvadorga kelgan odamlar bo'lganimizdan, «villis»dagi bor-yo'q bisotimiz, agar har birimizga bir juftdan shoshilinch olingan mosh rang brezent shim bilan tutilgan fotoapparat hisobga olinmasa, konservalar solingan qopdangina iborat edi. Bundan tashqari, bosh konsul kimda-kim yo'limizni to'ssa omon qo'ymaslik uchun o'z parabellumini¹ ham bizga bergan edi.

«Villis» oqlangan devorlari oy nuriga g'arq bo'lgan bo'sh ko'chalardan hayqirib o'tib, shahardan chiqdi va qumloq yo'l bo'ylab tog'lar osha janubga tomon yelib ketdi.

Yaxshi yo'l tizma tog' yoqalab Latakunga degan tog' qishlog'igacha borardi. Bunda hindilarning derazasiz kulbalari oppoq qishloq cherkovi atrofida tizilgan, cherkov qarshisida maydonda esa palma o'sardi. Shu yerda, biz goh balandlab, goh pastga sho'ng'ib, And tog'i qoyalari va yaylovlari osha g'arb tomon ilang-bilang cho'zilib ketgan yo'lga burildik. Yetti uxlab tushimizga kirmagan bir olamga kelib qolgandik. Tog' hindilarining zamon va qonundan tashqari olami edi bu. Yo'lga chiqqanimizdan beri bi-
ror-bir arava yo g'ildirak izi ko'rganimiz yo'q. Yo'lda, erinchok lamalardan iborat betartib podani oldiga

¹ Parabellum – bir xil avtomat to'pponcha.

solib haydab ketayotgan olachipor poncho kiygan, yalangoyoq cho'ponlarni, ahyon-ahyonda esa to'dalashib ketayotgan hindu oilalarini uchratardik. Er odatda xachir minib oldinda borar, boshiga har turli shlyapa kiygan ushoqqina xotini esa kichik bolasini savatga solib orqalaganicha, unga ergashgan bo'lar-di. Buning ustiga u yo'l-yo'lakay jun ham yigiradi. Shox, qamish va sopol idishlar ortilgan eshak va xachirlar esa orqalaridan o'z holicha yo'rg'alab kelaverardi.

Yo'l yurganimiz sari ispancha gaplashishni biladigan hindilar tobora kamroq uchrardi. Ko'p o'tmay Agurtoning tilshunoslikdagi bilimi bizniki kabi befoyda bo'lib qoldi. Goh u yonda, goh bu yonda tog' yonbag'rida bir-biriga yondosh kulbalar ko'rinib qolardi; loydan qurilgan imoratlar borgan sari kamayib, bundan buyog'iga shox-shabbalardan va qurigan ko'katlardan qurilgan kulbalar uchrardi. Bu imoratlar ham, quyoshdan qoraygan yuzini ajin bosgan odamlar ham, And tog'i tepasida qizdirayotgan oftob ostida yastangan mana shu zamin tagidan chiqib kelgandek ko'rinardi. Ular mana shu qoyalar, tog' jinslarining o'pirilib tushishidan hosil bo'lgan uyum va tog' yaylovlaridagi ko'katlarning ajralmas bir bo'lagidek tuyuladi. Arzimas lash-lushdan bo'lak hech vaqosi bo'lmagan tog' hindlari yovvoyi hayvonlardek chidamli, ibtidoiy odamlar singari soddadil edi; qancha kam gapirgan sari shuncha ko'p kulishardi ular. Biz hamma yerda oppoq tishlarini yaraqlatib kulib turgan odamlarni uchratardik. Oq tanli odam bu yerlarda aqalli bir shillingni sarf ham qilolmaydi, ishlab ham topolmaydi. Bunda afishalar ham, yo'l belgilari ham yo'q. Mabodo biron-bir temir-tersak yoki bir parcha qog'oz yo'lda tushib qolgudek bo'lsa, uni ro'zg'orga yaroqli bir buyum sifatida darhol olib qo'yadilar.

Biz goh quyosh tandirdek qizdirib turgan, biron tup buta yoki daraxt o'smagan yonbag'irlardan yuqorilab, goh kaktuslargina jon saqlagan, qum bilan qoplangan vodiylarga tushib, nihoyat tog' tepasiga yetdik; tevarak-atrofimizda qorga burkangan dalar yastangandi. Shunday achchiq shamol esardiki, muzlab sumalak bo'lib qolmaslik uchun tezlikni kamaytirishga majbur bo'ldik; yengilgina libosimizda sovqotib borarkanmiz, Junglining issig'ini orzu qildik. Tog' oralig'ida yo'l qidirib toshloqlar va ko'm-ko'k yonbag'irlarda uzoq sanqishga to'g'ri kelardi. Yomg'ir yog'a boshladi. Avvaliga shivalabgina yog'gan bo'lsa, bora-bora «villis»imizni do'mbira qilib chaldi; tog'dan pastga tomon shokolad tusidagi loyqa suv oqa boshladi. Qup-quruq yoylatog'dan boshqa bir olam – toshlar ham, daraxtlar ham, loy ham nam tortgan mox va chim bilan qoplangan yerga, xuddi yomg'ir daryosida suzgandek tushib kelardik. Atrofimizda katta yaproqlar o'sib yotardi; ba'zida biz bunday yaproqlarning yashil soyabondek bo'lib, tog' yonbag'riga yomg'ir tomchilariga sachratib turgan nihoyatda kattasiga duch kelardik. Keyin tropik o'rmonning ilk elchilari paydo bo'la boshladi. Bu daraxtlar tepasidan mox va chirmovuqlar shokila bo'lib osilib yotardi. Hamma yoqdan suvning sharillashi va shaloplashi eshitilardi. Yo'limiz nishablashgan sayin jungli bizni jipsroq qurshab ola boshladi; bora-bora yashil pahlavonlar lashkari pilch-pilch bo'lib ketgan yo'lda atrofiga suv sachratib sekin o'tib borayotgan kichkinagina «villis»imizni qa'riga tortdi-ketdi.

Jungli oralab oqayotgan kattagina loyda soy yo'limizni kesib chiqqachgina «villis» to'xtadi. Hech qanaqa ko'prik yo'q ekan, soy esa chuqur va tez oqarkan, ammo ular avtomobilimiz bilan birga solda narigi qirg'oqqa o'tkazib qo'yisharkan. Bu g'alati sol

sohilda, shundoqqina suv bo'yida yotardi. Yo'g'onligi bilakdek, ba'zilar sondek keladigan xodalar bambuk novdalari yordamida bir-biriga bog'lanib, bizning «villis»imizdan ikki baravar uzun va ikki baravar keng sol yasalgandi. Har bir g'ildirak ostiga bittadan taxta tashlab, bu ovoragarchiligidan nima ish chiqarkan deya hayajonlanib, mashinani xodalar ustiga olib chiqdik. Sol yarim belidan loyqa suvga botsa ham, har holda, «villis»ni, bizni, uzun xodalar yordamida solni qirg'oqdan itarayotgan shokolad tusli yarim yalang'och to'rt kishini bemalol ko'tardi.

– Balzami? – baravar savol berdik German ikkimiz.

– Balza, – deb tasdiqladi yigitlardan biri xodani nazar-pisand qilmay teparkan.

Balza yog'ochi bilan birinchi uchrashuvimiz va balzadan yasalgan solda birinchi suzishimiz ana shunday bo'ldi. Shunday qilib, narigi sohilga eson-omon o'tib oldik va Kivedoga tantanali suratda kirib bordik. Katronlangan xodalardan yasalgan, palma bilan yopilgan tomiga griflar¹ qo'ndirilgan ikki qator uy ko'cha tashkil etgan edi. Kivedoliklar qishlog'i edi bu. Aholi hamma ishini yig'ishtirib, bug'doy ranglilaridan tortib qoralarigacha, yoshlardan tortib keksalarigacha, biri eshikdan, boshqa biri derazadan kirib kela-verdi. Shov-shuv ko'targan odamlar to'liqinni «villis» tomon yelib-yugurib kelmoqda edi. Ular avtomobilni har tomondan qurshab oldilar. Odamlarning biri ustiga tirmashsa, boshqasi tagiga kirardi. Agurto zo'r berib rulni ishga solarkan, biz topgan-tutganimizni mahkam changallab o'tirardik. Shu chog' shinalardan biri teshildi-yu, «villis»ning bir g'ildiragi bo'shashib o'tirdi-qoldi.

Don Federikoning plantatsiyasi sal nariroqda, soyning quyi tomonida edi. Agurto, German va men

¹ Grif – o'simlik bilan kun ko'ruvchi katta yirtqich qush.

tushgan «villis» o'ngir-cho'ngirlarda irg'ishlab, mango daraxtlari oralig'idagi yo'lda paydo bo'lganda oriq-dan kelgan Jungli kishisi tez-tez yurib biz tomon kela boshladi. Yonida u bilan o'rmonda yashovchi jiyani Anxelo degan yigit bor edi. Biz Don Gustavo yozgan maktubni uzatdik unga, ko'p o'tmay «villis»imiz hovliga joylashtirildi. Bu orada Jungliga orombaxsh salqin baxsh etib jala quya ketdi. Don Federikoning uyida bizni bayram dasturxoni kutmoqda, jo'jalar va cho'chqa bolalari chars-churs kabob bo'lmoqda edi, biz esa tropik mevalari uyilgan stol yonida o'tirib, kelishimizdan maqsadimizni hikoya qilardik. To'r tortilgan derazadan tropika jalasining shovullashi eshitilar, gullagan o'simliklarning muattar islari kelardi.

Don Federiko yosh bolalardek jonlanib ketdi. Bo'lmasam-chi, bolaligida balzadan yasalgan sollarni ko'rgan. Ellik yil muqaddam u past tomonda, sohilda yashagan chog'larida, perulik hindilar baliq sotish uchun Guayakilga balzadan yasalgan yelkanli katta sollarda sohil yoqalab suzib kelishardi. Ular sol o'rtasidagi bambukdan yasalgan kayutalarga bir necha tonna quritilgan baliq ortib kelishar, yoinki xotin, bola-chaqalaridan tortib jo'jaxo'rozlarigacha, shunchaki sayohatga kelib-ketishardi. Ular sol qurishda ishlatgan katta balza daraxtlarini hozir, bu yog'in-garchilikda topish qiyin bo'ladi, negaki, toshqin va loygarchilik tufayli yuqori tomondagi balza plantatsiyalariga hatto otda ham o'tib bo'lmaydi. Ammo Don Federiko qo'lidan kelgancha yordam boradi; bungalodan uncha uzoq bo'lmagan o'rmondan ham bir necha daraxt topilsa ajab emas, axir bizga u qadar ko'p kerak emas-ku.

Oqshomga borib, yomg'ir bir dam tingan bo'ldi va biz Don Federikoning uyi atrofida yovvoyi orxideya-

larning¹ har turli navlari o'sar, novdalari pastga osilib yotardi; kokos yong'oqlarining yarim pallasi tuvak vazifasini o'tardi. Orxideyalarning madaniylashtirilgan navlariga qaraganda bu kamyob o'simlik nihoyatda xushbo'y taratadi. German shu gullardan birini iskamoqchi bo'lib engashib ham ediki, boshi ustidagi yaproqlar orasidan uzun, ingichka yaltiroq ilonbaliqqa o'xshash bir narsa bo'y cho'zdi. Anxelo yashin tezligida xivich urishi bilan yerga shaloplab ilon tushdi. Zum o'tmay yigitcha uchi ayri tayog'i bilan ilon bo'yni ni yerga bosdi-da, boshini majaqlab tashladi.

– Chaqsa o'ldiradi, – dedi u, so'ngra gapini isbotlash uchun ilonning ikkita qayrilgan zaharli tishini bizga ko'rsatdi.

Shu choq biz devorda kattaligi dengiz qisqichbaqa-sidek keladigan ikkita katta chayonni ko'rib qoldik. Ular bir-biriga tashlanib, hayot-mamot jangi olib bordilar. Qisqichlarini chalishtirgancha, dumlarini o'ynatib, zaharli nayzalarini sapchishga tayyor turardilar. Bu dahshatli manzara edi; qaysi birimizdir kerosin lampani boshqa joyga ko'chirgachgina, bu – stol chekkasida urishayotgan barmoqdek keladigan ikkita oddiy chayonning devorga tushayotgan vahimali soyasi ekanini bildik.

– Mayli, urishaversin, – dedi kulib Don Federiko. – Biri ikkinchisini o'ldiradi, tirik qolgani uyda suvarak ko'paymasligi uchun kunimizga yaraydi. Faqat karavotni pashshaxona bilan yaxshilab bekitilsa, kiyim-kechakni kiyishdan oldin qoqib turilsa bas, hech nima bo'lmaydi. Meni chayon necha bor chaqqan, mana, hanuz yuribman, – kulib qo'shimcha qildi chol.

Kaltakesakmi, ko'rshapalakmi qattiq chirillaganda yoki qulog'im tagida qitirlaganda har gal zaharli max-

¹ Orxideya – guli g'alati shaklda ochiladigan juda xushbo'y tropik o'simlik.

luqlar haqidagi fikr bilan uygʻonib ketganimni hisobga olmaganda, yaxshi uxladim.

Balza daraxtlarini izlagani ertaroq yoʻlga tushish niyatida tong saharda uygʻondik.

Don Federiko tong otishi bilan ishchilarni otda har tomonga yubordi. Ular soʻqmoqqa yaqin yerda balza daraxtlari bor-yoʻqligini, ular yoniga yoʻlab boʻlish-boʻlmasligini bilib kelishlari kerak edi. Oʻzimiz esa, don Federiko, German va men koʻp oʻtmay sayxonlikka yetib bordik. Don Federikoning aytishi-cha, bu yerda bahaybat kekxa daraxt boʻlishi kerak edi. Bu, atrofdagi daraxtlardan ancha baland boʻlib, tanasining yoʻgʻonligi bir metrcha kelardi. Polineziyaliklar odatiga koʻra, daraxt kesishdan oldin unga nom berdik: polineziyaliklarning Amerikaga mansub Xudosi shaʼniga daraxtni «Ku» deb atadik. Keyin boltani koʻtarib turib balza daraxti tanasiga bir urdim. Koʻp oʻtmay oʻrmonni bolta ovozi tutdi. Lekin poʻk balza daraxtini kesish —oʻtmas bolta bilan poʻkak chopgandek bir gap edi; bolta daraxt tanasiga tegishi bilan orqaga sapchirdi. Bir necha bor bolta urgach, oʻrnimni Germanga berishga majbur boʻldim. Bolta qoʻldan qoʻlga oʻtar, atrofnı payraxa tutar, Junglining dim issigʻida yuz-koʻzimizdan ter quyardi. Kechga borib «Ku» har bolta urganimizda lopillab, bir oyoqda turgan xoʻrozdek qaqqayib qolgan edi. Keyin lapangladi-da, tevarak-atrofdagi daraxtlarga ilashib, ularning katta shoxlarini va kichik daraxtlarni sindirib quladi. Biz daraxt tanasidagi shox-shabballarni kesdik-da, keyin hindilarga oʻxshab daraxt tanasini siniq chiziqli shaklida kesib-kesib poʻstlogʻini shildik. Shu choq German toʻsatdan boltani tashlab yubordi-yu, polineziyaliklarning harbiy raqsini tasvir etayotgandek, bir oyogʻini changallagancha iringʻishlay boshladi. Uning ishtonidan yaltiroq chumoli tushdi.

Chumolining kattaligi chayonday kelar, orqa tomonida uzun nayzasi bor edi. Bu chumolining kallasi dengiz qisqichbaqasining qisqichi singari qattiq edi. Biz poshnamiz bilan tepa-tepa zo'rg'a o'ldirdik uni.

– Bu kongo¹, – dedi don Federiko Germanga achi-nib. – Bu kichkinagina maxluq chayondan ham yomon. Ammo sog'lom odam uchun xavfli emas.

Germanning oyog'i bir necha kun og'rib yurdi. Shunga qaramay u ot minib, biz bilan birga o'rmon oralab bahaybat balza daraxtlarini qidirishda ishtirok etdi. Vaqti-vaqti bilan o'rmon ichkarisida daraxtning g'ijirlashi, keyin gumburlab ag'anagani eshitilardi. Don Federiko mamnunlik bilan bosh irg'ab qo'yardi. Bu, uning ishchilari – metislar sol uchun yana bir bahaybat balza daraxtini kesganlaridan dalolat berardi. Hafta mobaynida Ku yoniga Kane, Kama, Ilo, Mauri, Ra, Rangi, Papa, Taranga, Kura, Kukara va Xiti – hammasi bo'lib o'n ikki bahaybat balza daraxti qo'shildi. Bu daraxtlar polineziyaliklarning afsonaviy qahramonlari sharafiga shunday atalgan edi. Bu nomlar, bir vaqtlar okean ortidan, Perudan, Tiki nomi bilan bir vaqtda kelib qolgan deyishadi. Shirasi oqib turgan xodalar avvaliga otlar yordamida o'rmondan olib chiqildi, keyin Don Federikoning traktori bilan daryo bo'yidagi kulbaga keltirildi.

Yanggina kesilgan daraxtlar po'kakchalik yengil emas edi, har qalay. Har birining og'irligi bir tonna-cha kelardi. Suvga tushganda qanday bo'larkin, deb tashvish chekardik. Keyin xodalarni birin-ketin yumalatib daryo bo'yiga yotqizdik; suvga tushirilganda oqib ketmasin deb har bir xodaning bir uchini chirmovuq novdalari bilan mahkam bog'lab qo'ydik. Ularni junglida daraxtlar tepasidan osilib yotgan

¹ Kongo – Ronegidae oilasiga mansub chumoli. Qorinlarining tagida nayzasi bor.

chirmovuqlar bilan mahkam chandib bog'ladik-da, ikkita omonat sol yasadik; ularning biri ikkinchisini shatakka olishi kerak edi. So'ngra, keyinchalik kerak bo'lib qolar degan fikrda, bambuk poyalarini va chirmovuqlarni sollarga ortdik-da, German ikkovimiz qaysi irqqa mansubligi noma'lum bo'lgan ikki kishi bilan birgalikda solga tushdik. Bu ikki kishi bizning gapimizga tushunmas, biz ham ularning so'ziga tushunmasdik.

Ikki qirg'oqni keta-ketguncha Jungli o'rmoni devordek bo'ylagan edi; solda suzib o'tarkanmiz, to'tilar va boshqa qushlar quyuq yaproqlar orasidan parpar etib uchib chiqardi. Yaqinlashganimizni ko'rgan timsohning o'zini daryoga otib, loyqa suvda g'oyib bo'lganini bir necha bor ko'rdik. Ko'p o'tmay, biz undan ham boshqacha bahaybat maxluqni ko'rdik. Bu iguana¹ edi. Boshqa so'z bilan aytganda, bu kattaligi timsohdek keladigan bahaybat kaltakesak bo'lib, to-mog'ida xaltachasi va orqasida dumiga qadar tarog'i bor edi. Iguana go'yo tarixga qadar bo'lgan davrdan buyon shunda uxlayotgandek, loy sohilda mudrardi. Yonginasidan ohistagina suzib o'tganimizda hatto qimirlamadi ham. Eshkakchilar, otako'rmanglar, degandek ishora qildilar. Ko'p o'tmay bo'yi bir metr keladigan yana bir iguanani ko'rdik. Sol tepasiga engashgan yo'g'on shoxda tiraqaylab qochardi u. Xavfsiz yerga yetib olgach, iguana, ko'kimtir-yashil terisini oftobda yaltiratib to'xtadi va sovuq ilon ko'zlarini bizga tikdi. Keyinchalik, qirqquloqlar bilan qoplangan tepalik yonidan suzib o'tayotganimizda esa, shu tepalikning eng baland yerida yana bir iguanani ko'rdik. Ko'rganlarimiz ichida eng kattasi edi bu. Bo'ynini cho'zib, boshini ko'targancha qotib qolgan bu iguana osmon fonida toshdan yo'nilgan olachipor

¹ Iguana – kaltakesaklar oilasiga mansub maxluq.

ajdarga o'xshab ketardi. Tepalikni qiyalab o'tarkan-miz u hatto qayrilib qaramadi ham bizga, birozdan so'ng Jungliga kirib g'oyib bo'ldi.

Suzishda davom etarkanmiz, birdan tutun hidini sezdik va sohildagi yalanglikda poxol tomli bir necha kulbani ko'rib qoldik. Bizning solimiz sohilda turgan badbashara kishilarning diqqatini o'ziga tortgan edi. Bu odamlar hindi negr va ispanlarning chatishmasidan bunyod bo'lgan bo'lsa kerak. Ularning yo'nib ishlangan katta qayiqlari sohilga to'ntarib qo'yilgandi.

Daryo uzra qorong'ilik cho'kkanda, sohilda quloqni qomatga keltiradigan konsert boshlandi. Cho'lbaqa va qurbaqalar vaqir-vuqur qilib, chirildoq va chivinlar vizillab va chirillab ko'p ovozli xor bunyod etdilar. Vaqti-vaqti bilan qorog'ilikda yovvoyi mushukning etni junjitadigan miyovi eshitilib qolardi. Zim-ziyo qorong'ilikda suzib borarkanmiz, bir necha bor o'rmon ahli kulbalaridan tushib turgan xira yorug'likni ko'rdik. Biz esa yulduzlarga mahliyo bo'lib uzoq o'tirdik, uyqu elita boshlagach, buning ustiga yomg'ir yog'ib yuborgandan keyingina yaproqlardan yasalmish kayutamizga qochib kirdik-da, to'pponchalarni taxt qilib, uyquga yotdik.

Oqim bo'ylab suzganimiz sari kulbalar, plantatsiyalar tez-tez uchray boshladi va ko'p o'tmay har ikki qirg'oqda chinakam qishloqlar ko'zga tashlanib turardi: atrofdagilar yo'nilgan qayiqqa tushib, uzun tayoq yordamida daryoda suzarkanlar; yashil bananlar uyib ortilgan kichkina-kichkina balza sollar tez-tez uchray boshladi.

Palenki daryosining Rio Guayas bilan qo'shiladigan yerida suv shu qadar ko'tarilgan ediki, Vinses shahri bilan Guayakil porti oralig'ida parrakli paroxod qatnab turardi. Vaqtni tejash niyatida German bilan men paroxodga chiqdik va aholi g'uj yashaydi-

gan sohil yoqalab okeanga qarab yo'l oldik. Bizning tusi jigarrang og'aynilarimiz solni ikkovlon boshqarib, ortimizdan yetib borishlari kerak edi.

Guayakilda German ikkovimiz ajralishdik. Sol yetib kelganda balza xodalarini qabul qilish uchun German Guayas daryosi quyiladigan joyda qoldi. U xodalarni paroxodga ortib, Peruga yetkazishi, u yerda esa sol qurishni boshlab yuborishi va uning qadimiy hindi sollarining xuddi o'zginasi bo'lishini kuzatishi kerak edi. Men esa samolyotda, sol qurishga mos joy izlab topish uchun Peruning poytaxti Limaga yo'l oldim.

Limaga yetib borishim bilan tramvayga tushib Kalno portiga qarab ketdim. U yerda men sol yasashga joy izlashim kerak. Kema kiritib qo'yiladigan joylarning hammasi bandligi shundoqqina ko'rinib turardi; sohilni keta-ketguncha kranlar, bojxona omborlari, port boshqarma binosi egallagandi. Gavandan nariroqda, sohilda imorat yo'q edi-yu, lekin cho'miluvchilar shu qadar ko'p ediki, sal beparvo bo'ldikmi, solimizni turish-turmushi bilan zumda tortqilab yo'q qilib yuborishlari aniq edi. Hozirgi kunda Kalyao mamlakatning yetti millionlik oq tanli va jigarrang tusli aholisiga ega bo'lgan eng yirik porti hisoblanardi. Biz uchun birgina yo'l bor edi. U ham bo'lsa, temir darvozasi yonida miltiqli soqchilar turgan, atrofi baland devor bilan qurshalgan harbiy portga kirishdan iborat edi. Soqchilar bo'lsa meni ham, devor yonida o'ralashib yurgan boshqa kishilarni ham, shubha ostiga olganday, o'qrayib kuzatib qolishardi. Kimda-kim shu devorning narigi tomoniga o'tib olsa, xavf-xatardan forig' bo'ladi.

Vashingtonda Peruning harbiy attashesi bilan uchrashgan edim, u yozib bergan tavsiyanoma cho'ntagimda edi. Ertasiga o'sha xat bilan dengizchilik ministrligiga bordim va meni dengiz ministri Manuel

Nieto qabul qilishini so'radim. U erta bilan ministrlikning qandillari va zarhallari yaraqlab turgan chiroyli zalida qabul qilardi. Birozdan keyin, harbiy libosda ministr kirib keldi. U Napoleon singari sabotli, dona-dona gapiradigan, miqtidan kelgan ofitser edi. U mendan nima talabim borligini so'radi. Men yog'och sol yasash uchun harbiy portga kirishga ijozat berishini so'radim.

– Yaxshi yigit, – dedi zardasi qaynab ministr, barmoqlari bilan stolni chertarkan. – Behuda kelibsiz. Sizga bajon-u dil yordam berardim-u, lekin Tashqi ishlar ministrining ijozatnomasi kerak; muhojirlarni harbiy portga kirita olmayman, harbiy ustaxonalar-dan foydalanishga ijozat berolmayman. Tashqi ishlar ministriga yozma suratda murojaat eting. Muvaffaqiyat tilayman.

Men bir idoradan boshqa idoraga yuboriladigan va mahkamalarda g'oyib bo'ladigan xatlar haqida o'ylarkanman, dahshatga tushdim. Yozma ariza singari to'siqlar bo'lmagan oddiy «Kon-Tiki» davrida yashash kanday baxt bo'lgan-a!

Tashqi ishlar ministri qabuliga kirish qiyin. Norvegiyaning Peruda diplomatik vakolatxonasi yo'q edi. Har doim yordam berishga tayyor bo'lgan Bosh konsulimiz Bar Tashqi ishlar ministri maslahatchisi bilangina uchrashtira olardi. Ish shundan nari o'tmasmikan deb cho'chirdim. Endi doktor Koenning respublika Prezidentiga yozgan xati qo'l kelishi mumkin edi. Men Peru prezidenti adyutantiga murojaat qilib, oliy hazratlari don Xose Bustamente Rivero bilan uchrashtirishni so'radim. Oradan bir necha kun o'tgach, menga soat o'n ikkida saroyda bo'lishim kerakligini xabar qilishdi.

Lima, yarim million aholisi bo'lgan zamonaviy shahar; u tog'lar etagidagi yashil tekislikda joylashgan.

Arxitekturası va xiyobonlarining ko'pligiga ko'ra, Li-mani jahondagi eng chiroyli poytaxtlardan biri desa bo'ladi – zamonaviy Rivera yoki qadim ispan uslubida qurilgan rangdor binolari bilan Kaliforniyaning o'zginasi edi. Prezident saroyi shahar markazida bo'lib, rangdor forma kiygan, qurolli soqchilar qo'riqlaydi. Peru prezidenti bilan uchrashish ancha mushkul gap bo'lib, aholining ko'pchiligi prezidentni faqat kino ekranida ko'rishgan. Yaltiroq o'qdon osgan soldatlar meni zinadan yuqoriga, keyin esa uzun yo'lak bo'ylab kuzatib qo'yishdi; yo'lak oxirida grajdancha kiyingan uch kishi hujjatlarimni tekshirishdi-da, qalin daftarga yozib qo'yishdi; so'ngra kattakon, vazmin eman eshikni ochib, meni uzun stol va bir necha qator stul turgan xonaga kiritishdi. Oq kostyum kiygan bir kishi meni qarshilab, o'tirishni taklif etdi-da, o'zi g'oyib bo'ldi. Bir necha soniyadan so'ng endor eshik ochilib, meni avvalgidan ko'ra hashamatliroq bezatilgan ikkinchi xonaga taklif qilishdi. Bejirim mundir kiygan bir odam men tomonga kela boshladi.

«Prezident», deb o'yladim-da, tikka qotdim. Yo'q, u emas ekan. Zarhal mundir kiygan kishi meni tik suyanchiqli kresloga o'tirishga taklif etdi-da, o'zi g'oyib bo'ldi. Kresloga o'tirganim ham yo'q ediki, yana bir eshik ochilib, xizmatkor ko'rindi va meni dabdabali bezalgan, zarhallangan jihozlar qo'yilgan naqshinkor xonaga taklif etdi. Xizmatkor qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday qo'qqisdan g'oyib bo'ldi, men esa, eshiklari bir-biriga ro'baro' qilib qurilgan, biritdan biriga o'tiladigan qator uylar eshiklariga mahliyo bo'lib qadimiy divanda o'tirganimcha qoldim. Shunday sokinlik hukm surardiki, bir necha xona nari-da allakimning yo'talib olgani va yaqinlashib kelayotgan og'ir odimlar eshitildi. Men irg'ib o'rnimdan turdim-da, formadagi basavlat kishiga ta'zim qildim.

Lekin bu ham boshqa chiqdi. Bu janobning so'zlari-dan Prezident menga salom yo'llaganini, ko'p o'tmay, ministrlar soveti majlisi tugashi bilan qabul qilajagini uqdim. Oradan o'n daqiqa o'tgach, og'ir odimlar tinchlikni buzdi, bu gal xonaga zarhal akselbantlar¹ va epoletlar² taqqan kishi kirdi. Divandan irg'ib turib, egilib ta'zim qildim. Kirgan kishi mendan ham ortiqroq bukilib ta'zim qildi-da, bir necha xonadan olib o'tib, qalin gilam poyandozlar to'shalgan zinadan boshlab ketdi. U divan va charm kreslo qo'shilgan kichkinagina xonada meni yolg'iz qoldirdi. Oq kostyum kiygan, o'rtabo'y bir kishi kirdi; bu ham meni qayoqqadir boshlab ketsa kerak, degan o'y bilan indamay kutib turdim. Lekin u meni hech qayoqqa boshlamadi, takalluf bilan omonlashdi-da, shu xonada qoldi. U Prezident Bustamente Rivero ekan.

Prezident ingliz tilini men ispanchani bilganimdan ko'ra ikki hissa ortiq bilarkan; omonlashib, meni o'tirishga taklif etganidan so'ng tildagi bilimlarimiz nihoyasiga yetdi. Imo-ishora bilan ko'p narsani izhor etish mumkin-u, ammo Peruning harbiy portida sol yasashga ijozat olishning iloji yo'q edi. Prezidentning so'zlarimni tushunmayotgani sezilib turardi. Bunga u amin bo'lgan bo'lsa kerakki, zum o'tmay xonadan chiqdi va aviatsiya ministri bilan birgalikda kirib keldi. Aviatsiya ministri general Reveredo ko'kragiga qush qanotlari belgisi tushirilgan harbiy-havo floti formasi kiygan serg'ayrat, basavlat kishi ekan. U ingliz tilida amerikacha urg'u bilan yaxshi so'zlarkan.

Men anglashilmovchilik uchun uzr so'radim-da, aerodromga emas, harbiy portga kirishga ijozatnoma so'rayotganimni aytdim. General kulib yubordi va u

¹ Akselbant - Chor Rossiyasi va chet el armiyalarida ba'zi harbiylarning yelkasiga taqiladigan chilvir.

² Epolet - parad kiyimiga taqilgan bir xil zarbob pogon.

faqat tarjimon sifatida taklif etilganligini aytdi. Mening nazariyam Prezidentga birma-bir tushuntirildi. Prezident diqqat bilan tingladi va general Reveredo orqali o'rinli savollar berib turdi. Nihoyat u:

– Tinch okean orollari perulik odamlar tomonidan ochilgan degan ehtimol bor ekan, Peru bu ekspeditsiyaning muvaffaqiyatli o'tishiga tarafdor. Xo'sh, sizga qanday yordam kerak? – dedi.

Men harbiy port ichida bizga sol yasashga joy ajratishlarini, flot ustaxonasidan foydalanishga imkon tug'dirib berishlarini, asbob-anjomlarimizni saqlashga bino va bu anjomlarni mamlakatga olib kirishga ruxsat etishlarini, ishimizni nihoyasiga yetkazish uchun port ishchilari yordamidan darig' tutmasliklarini, shuningdek, biz safarga chiqqanda solimizni shataikka olish uchun kema berishlarini so'radim.

– Nimalarni so'rayapti? – sabrsizlanib so'radi Prezident. U shunday ohangda so'radiki, so'zlarini bilmasam ham tushundim.

– Arzimas narsalarni, – dedi Reveredo tafsilotlarigacha to'xtalib o'tirmay. Prezident bu javobdan qanoatlanib, rizolik bildirib bosh silkidi.

Uchrashuv nihoyasiga yetarkan, Reveredo Tashqi ishlar ministrining shaxsan Prezidentdan ko'rsatma olajagini, dengiz ministri Nietoga bizga zarur yordam berishda to'la ixtiyor berilajagini aytdi.

– Xudo o'z panohida saqlasin sizni! – dedi xayrlasharkan ministr kulib boshini chayqab.

Shu kuni Lima gazetalarida norveg ekspeditsiyasi Peru sohillaridan solda safarga chiqajagi haqida maqola bosildi; xuddi shu gazetalar, Amazonka sohillaridagi junglida istiqomat qiluvchi hindilarning hayotini o'rganish uchun safarga chiqqan shved-fin ilmiy ekspeditsiyasi o'z ishini tamomlagani haqida axborot berdi. Shu ekspeditsiyaning qatnashchila-

ridan ikki shved yigitning qayiqda daryoda oqimga qarshi suzib, Limaga yetib kelganliklari xabar qilingan edi. Ularning biri Upsal universiteti xodimi Bengt Danielsson edi. Endilikda u Peruning tog'li rayonlarida istiqomat qiluvchi hindilar hayotini o'rganishga kirishmoqchi edi.

Maqolani gazetadan qirqib oldim. Mehmonxonadagi xonamda o'tirib, sol qurish masalasida Germanga xat yozishga endi kirishib edimki, birdan eshik taqilladi. Tropik libosida, baland bo'yli, oftobda pishgan bir yigit kirib kelib, oq shlyomini ochib ham ediki, qizg'ish soqoli ko'zga tashlandi, sochi ham shunday qizg'ish edi. Bu yigit odamzod qadami yetmagan changalzorlardan kelgan esa-da, uning o'rni universitet auditoriyalarida ekanligi shundoqqina ko'rinib turardi.

«Bengt Danielsson bo'lsa kerak», deb o'yladim men.

– Bengt Danielsson, – deya o'zini tanitdi yigit.

«Sol haqida xabar topgan bo'lsa kerak», deya o'yladim va o'tirishga taklif etdim.

– Sol masalasidagi rejalaringsizni hozirgina eshitdim, – dedi shved.

«Etnograf-da, o'zi, nazariyamni yo'qqa chiqargani kelgan», deb o'yladim o'zimcha.

– Sizlar bilan solda safarga chiqsam bo'ladimi, shuni bilgani keldim, – dedi shved muloyimgina. – Migratsiya¹ nazariyasi bilan qiziqaman.

Bu odam haqida men uning olim ekanligi va Junglining odam qadami yetmagan yeridan kelganligini bildirdim, xolos. Shved fuqarosi besh norveg bilan solda safarga chiqishga tayyor ekan, rad javobi olmasligi kerak. Yana shunisi ham borki, uning og'ir-vazmin, quvnoq odam ekanligini hatto baroq soqoli ham yashira olmasdi.

¹ Migratsiya – aholining bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chishi.

Shunday qilib, Bengt bir joy bo'shligi tufayli ekspeditsiyaning oltinchi qatnashuvchisi bo'lib qoldi. Ichimizda ispan tilini biladigan yagona odam Bengt edi.

Oradan bir hafta o'tib, yo'lovchilar tashuvchi samolyot motorini bir maromda gurullatib sohil yoqalab shimolga yo'l olganda pastdagi uzoq-uzoqlargacha yastangan ko'm-ko'k okeanga ehtiros bilan tikildim. Nazarimda u osmonda muallaq qolib, osmon bilan birga suzayotgandek tuyulardi. Ko'p o'tmay biz olto'vlon huv o'sha quyidagi butun g'arbiy ufqni tutgan suv qo'ynida chang zarrasidagi mikroblar singari uy-malanishamiz. Biz okeanda bir-birimizdan bir necha odimgina nari keta oladigan vaziyatda qolamiz. Ammo hozir bir-birimizdan anchagina uzoqdamiz. German xodalarning yetib kelishini kutib Ekvadorga qolgan edi. Knut Xaugland bilan Torsteyn Robyu endigina Nyu-Yorkka uchib kelishdi. Erik Xesselberg esa Oslodan Panamaga yo'l olgan kemada biz tomon safarga chiqqan edi. Men Vashingtonga uchmoqda edim. Bengt bo'lsa safarga tayyor bo'lib, Limadagi mehmonxonada boshqalarning yetib kelishini kutmoqda edi.

Hamrohlarim bir-birlarini tanimas va turlicha odam edi. Bu solda safarga chiqqach, bir necha haftagacha suhbatimiz bilan bir-birimizni zeriktirib qo'ymaymiz, demak edi. Okean qo'ynida oqim va shamol ixtiyorida suzajak solda necha oylab birga bo'ladigan odamlarning xarakterlari to'qnashuvi momaqaldiraqlar, bosimning pastligi, havoning aynishidan ko'ra xavfliroq.

Vashingtonda qor bo'ralab yog'ar, qattiq sovuq edi. Men u yerdan fevralda qaytib keldim. Byorn radio masalasiga kirishib ketdi va Amerika radio havaskorlari jamiyatini qiziktirishga muvaffaq bo'ldi. Ana shu jamiyat a'zolari bilan soldan berilgan axborotlarni qabul qilib turishlari haqida kelishib oldi. Knut bi-

lan Torsteyn qisqa to'liqlik aloqachilar hamda urush vaqtida qarshilik ko'rsatish tashkiloti ishtirokchilari foydalangan radiostansiyalar orqali amalga oshiriladigan aloqani tashkil etish bilan mashg'ul edilar. Safar davomida oldimizga qo'ygan vazifani to'la-to'kis amalga oshirmoqchi bo'lsak, minglab yirik va mayda masalalarni hal qilishimiz kerak. Papkalardagi qog'ozlar esa borgan sayin ko'payib bormoqda edi. Bular orasida ingliz, ispan, fransuz va norveg tillarida yozilgan oq, sariq, ko'k tusli harbiy va grajdanlik hujjatlari bor edi. Bizning davrimizda, hatto solda safar qilish ham qog'oz sanoatimizga bir qarag'ay daraxti badaliga tushardi.

– O'lay agar, shu yozishmalar o'n kilogrammga yetib qoldi, – dedi bir kun Knut alam bilan bukchaygancha mashinkada xat yozarkan.

– O'n ikki kilo, – dodi Torsteyn bamaylixotir, – Men tortib ko'rganman.

So'nggi tayyorgarliklar ketayotgan ana shu dramatik kunlarda «Bir narsani – oltovlon eson-omon solga joylashib olganingizni aniq bilishni istardim!» – deb yozarkan onam, ahvolimizni yaxshi tushungan bo'lsa kerak.

Kunlardan bir kun esa Limadan shoshilinch telegramma kelib qoldi. Telegrammada yozilishicha, German cho'milayotganda kuchli to'liqlik uni qirg'oqqa otib urgan, jiddiy jarohatlangan, oyog'i lat yegan ekan. U Lima kasalxonalaridan birida yotganmish.

Torsteyn Robyu va Gerd Vold zudlik bilan Limaga uchib ketishdi. Gerd Vold urush chog'ida Norvegiyaning qarshilik ko'rsatish harakati guruhlaridan birining Londondagi vakili vazifasini o'tagan ayol bo'lib, endilikda Vashingtonda bizga yordam ko'rsatmoqda edi. Ular borganda German tuzalib qolgan ekan. Vrachlar bo'yin umurtqasini joyiga solgunlaricha

uni boshi atrofidan qayish bilan bog'lab yarim soat osib qo'yg'alar. Rentgen surati umurtqa darz ketganini, oldi orqasiga bo'lib aylanib qolganini ko'rsatgan. Germanning sog'lomligi o'limdan saqlab qoldi; ko'p o'tmay uni kasalxonadan chiqarib yubordilar. Hamma yog'i momataloq bo'lib ketgan, bodi qo'zg'agan German bo'ynini qimirlatolmaydigan bir alpozda balza xodalari keltirilgan harbiy portda paydo bo'ldi va ishga tushib ketdi. German bir necha hafta vrach nazoratida bo'lishi kerak. Hali biz bilan safarga chiqa oladimi, yo'qmi, bunisi bizga qorong'i edi. Tinch okean quchog'ida o'tkazilgan sinovga qaramay, safarga chiqajagiga uning ishonchi komil edi.

Bir necha kundan keyin Erik – Panamadan, men bilan Knut Vashingtondan uchib keldik. Nihoyat, safarga jo'naydigan manzilimizda – Limada jamoat jam bo'lgan edik.

Harbiy port territoriyasida, sohilda Kivedo o'rmonlaridan keltirilgan katta-katta balza xodalari yumalab yotardi. Bu nihoyatda ta'sirli uchrashuv edi. Yaqingina kesilgan xodalar, sap-sariq bambuk yog'ochlari, qamish va yashil banan yaproqlari – barcha qurilish materialimiz – dahshatli suv osti kemalari va esminetslar orasida uyib qo'yilgan edi. Olti oq tanli shimol kishisi va tomirlarida ink qoni oqqan yigirma qahvarang «matros» bolta va uzun pichoqlari – macheteni ishga solgan edilar. Ular arqon tortishar, tugun tugishardi. Zar uqali ko'k forma kiygan sarish-ta dengiz ofitserlari yonimizdan o'tarkan, to'satdan portlarida paydo bo'lib qolgan rangpar muhojirlarga va mana shu yog'och ashyolarga hayron bo'lib qarardilar. Yuz yillar mobaynida Kalyao qo'ltig'ida birinchi bor balzadan sol yasalishi edi. Inklarning afsonalarida ta'kidlanilishicha, ularning ajdodlari xuddi shunday sollarda suzishni birinchi bor mana shu sohil-

larda o'rganishgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda esa yevropaliklar hindilarga solda suzishni man etganlar. Ochiq solda suzish odamlarni halokatga olib borishi mumkin.

O'ta zamonaviy port bizga yaxshi xizmat qildi. Tarjimonlik vazifasini o'tagan Bengt va bosh konstruktorlik vazifasini ado etuvchi German tufayli biz qator duradgorlik va yelkan ustaxonalarida o'zimizni xuddi uyimizdagidek his etardik; anjomlarimizni saqlash uchun port hujrasining yarmi bizning ixtiyorimizda edi; bizga o'rtamiyonagina o'zi suzar pirs¹ ajratgan edilar. Qurilish boshlanganda xodalarimizni shunga yaqin yerda suvga tushirdik.

Sol uchun yetarli deb to'qqizta katta xoda tanlab oldik. Xodalarni bir-biri bilan bog'lab, butun solni birlashtirib turadigan arqonlar sirpanib ketmasligi uchun xodalarda chuqurchalar yo'nildi. Solni yasashda biron-bir qoziq, mix yoki biron parcha po'lat sim ishlatmadik. Avvalo, to'qqizta katta xodani yonma-yon qilib suvga tushirib, ular suzishga mos holatlarini olgunlaricha kutdik-da, keyin bir-biriga mahkam bog'ladik. O'rta joylashtirilgan eng uzun, o'n to'rt metrli xodaning ikki uchi boshqalaridan turtib chiqib turdi. Shu uzun xodaning ikki tomonidagi boshqa xodalar baravar terilgan bo'lib, ular tobora kichrayib borardi. Shu tufayli solni yon tomoni uzunligi o'n metrga yaqin bo'lsa, tumshug'i qor tozalagichning uchiga o'xshardi. Solning quyruq tomonida esa o'rtadagi uchta xoda turtib chiqqan bo'lib, qolgani tekis qirqilgan edi; ana shu turtib chiqqan xodalar ustiga balza yog'ochidan qisqagina yo'g'on g'o'la ko'ndalang qilib o'rnatilgan edi. Bu g'o'laning eshkak tirgagini joylashtirish uchun yo'nilgan joyi bor edi. To'qqiz balza xodasi o'ttiz millimetrlik alohida-alohida arqon

¹ Pirs – suvga turtib kirib turadigan port imorati.

parchalari bilan mahkam bog'langach, ustidan ko'ndalangiga har metr oralig'ida ingichka balza xodachalari – ronjinalar¹ bilan mahkamladik. Turli yo'g'onlikdagi uch yuz chog'li arqon bilan chambarchas bog'langan solimiz tayyor holga kelib qolgan edi. Arqonning har birini mahkam tuggan edik. Palubaga esa tilingan bambuk poyalari yotqizib, ronjinalarga boylab mahkamladik. Solning o'rtasida, quyruqqa yaqinroq yerda bambuk yog'ochlaridan ochiq kayuta yasadik; kayutaning devori bambuk novdalaridan to'qilib, tomi bambuk taxtachalar va cherepitsa kabi biri ustiga ikkinchisi terilgan silliq banan yaproqlari bilan yopildi. Kayuta oldiga yonma-yon qilib ikki machta o'rnatdik. Bu machtalar temirdek qattiq mangro daraxti yog'ochidan yasalgan edi; ularning uchi salb shaklida bog'landi. Kattakon to'rt burchak yelkan, mustahkam bo'lsin uchun qo'shaloq qilib bog'langan ikki bambuk poyasidan yasalgan reyaga² chatildi.

Okean bo'ylab bizni olib o'tishi kerak bo'lgan to'qqiz xodaning uchi nayza qilingan edi. Negaki, hindilar ham sol suvda yengil suzsин uchun shunday qilishgan. Solning tumshuq tomoniga to'liqindan saqlanish uchun pastakkina falshbort³ yasadik.

Solning bir necha yerida, xodalar oralig'idagi katta yoriqlarga, besh joyga, yo'g'on qarag'ay taxtalarni joylashtirdik. Bu taxtalarning bir yarim metri solga ko'ndalang ravishda suvga botib turardi. Yo'g'onligi yigirma besh millimetr, eni oltmish santimetr bo'lgan bu taxtalar hech qanday sistemasiz joylashtirilgan edi. Amerikaning ochilishidan birmuncha ilgari balzadan yasalgan hamma sollarga shu xildagi killar

¹ Ronjina – solni mahkamlash uchun ko'ndalangiga qo'yiladigan xoda.

² Reya – machtada yelkan tikib qo'yiladigan ko'ndalang yog'och.

³ Falshbort – yasama bort.

o'rnatilib, ular yassi yog'och sollarning shamol yoki oqim bilan surilib ketishidan saqlash xizmatini o'tagan. Sol chetiga hech qanday tutqich yo to'siq yasamadik, faqat har bir bortga oyoq uchun mustahkam tayanch bo'la oladigan, balza xodachalarini qoqdik.

Tumshuqdagi pastakkina falshbortni hisobga olmaganda, sol qadimiy peruliklar va ekvadorliklar foydalangan solning aynan o'zi bo'ldi. Solni bezash masalasiga kelsak, bunda o'z didimizga qarab ish tutdik, kemamizning suzishiga xalaqit bermaydigan bo'lishiga e'tibor berdik. Ko'p o'tmay biz uchun butun jahon shu sol bo'lishini bilardik.

Shuning uchun kichkinagina palubamizga fayz kiritishga urindik. Bambuk to'shama solning boshidan oyog'igacha solinmay, u kayutaning oldiga-yu uning ochiq turgan o'ng tomonigagina to'shagan edi. Kayutaning chap yoni esa ichkari hovli qabilida bo'lib, mahkam bog'langan yashik va anjomlar qo'yilardi. Bu anjomlar bilan solning chekkasi oralig'ida uzunchoq yo'l qolgandi. Solning tumshuq tomonidan kayutaning orqa devoriga qadar to'qqiz yo'g'on xodaga hech nima to'shalmagan edi. Shunday qilib, bambuk kayutani aylanib o'tmoqchi bo'lsak, sariq to'shama va to'qilgan bo'yralardan quyruqdagi kulrang xodalarga irg'ib o'tishimiz, so'ng narigi tomondagi yuklar uyumiga chiqishimiz kerak bo'lardi. Bu oradagi masofa oz bo'lgani bilan, qandaydir to'siqlar yengishning psixologik ta'siri katta bo'lib, harakat doiramizning kichikligini bilintirmaslik yo'li sifatida xizmat etardi. Machta tepasiga taxta maydoncha yasadik.

Solimiz bitib, bambuk yog'ochlari oltindek sap-sariq tovlanib, ko'm-ko'k yaproqlar yashnab, harbiy kemalar orasida chayqala boshlaganda, ishimizni ko'rgani dengiz ministrining shaxsan o'zi keldi. Biz bahaybat harbiy kemalar qurshovida turgan inklar

davrining jonli xotirasi bo'lgan kemamiz bilan beniho-ya faxrlanardik. Ammo dengiz ministri solimizni ko'rib dahshatga keldi. Meni harbiy port boshqarmasiga chaqirdilar va dengiz ministriligini, ularga qarashli portda yasagan solimiz uchun javobgarlikdan soqit qiladigan hujjatga imzo chektirdilar. Shuningdek, meni Kalyao porti boshlig'i huzuriga chaqirdilar. U yerda men, odamlar va buyumlar bilan shu portdan solda safarga chiqsam, butun mas'uliyat mening bo'ynimda mazmunidagi hujjatga imzo chekdim. Bir necha kundan so'ng bir guruh chet el dengiz mutaxassisleri va diplomatlariga harbiy portga kirishga ijozat berildi. Ularning fikri ham bizni rag'batlantiradigan emas edi. Bir necha kundan so'ng buyuk davlatlardan birining elchisi meni o'z huzuriga chaqirtirdi.

– Ota-onangiz hayotmi? – so'radi u. Tasdig'imdan keyin ko'zimga tik qaradi-da:– Halok bo'lganingizni eshitganda ota-onangiz ne ko'yg'a tushar ekan-a, – dedi mash'um va qo'rqinchli ovoz bilan.

U shaxsan o'z nomidan, vaqt o'tmay turib, fikrimdan qaytishimni so'radi. Solni ko'zdan kechirgan bir admiral bizning omon qolmasligimizni aytganmish. Avvalo, solning hajmi noto'g'ri emish. U shu darajada kichikmishki, qattiqroq shamol turdi deguncha to'ntarilib ketarmish: ayni chog'da uzunligi shunday emishki, tumshug'i va quyrug'i ikki to'ldiqda turarmish, nozik balza xodalari odamlar va yuklarni ko'tarolmay sinib ketarmish. Yana shunisi chatoqmishki, mamlakatda balza yog'ochlari eksporti bilan shug'ullanuvchi mutaxassisning aytishicha, po'k balza yog'ochlari okean bo'ylab zarur masofaning to'rtidan birinigina suzib o'tarmish-da, suv shimib, og'irlashib cho'kib ketarmish.

Bu gaplar ko'ngilni qanchalik g'ash qilmasin, biz so'zimizda turdik, safarga ola ketishsin deb bizga

tavrot tuhfa qilishdi. Xullas, solni ko'zdan kechirgan mutaxassislar bizni uncha umidlantirmadilar. Dovul yoki bo'ronlar bizni soldan yuvib ketgani, shamol va to'lqin mayli bilan okeanda goh o'ngga, goh so'lga yelgan kaftdakkina solni g'arq etishi mumkin emish. Hatto oddiy mayda to'lqinlar ham ustimizga sho'r suv shopirib oyog'imiz terisini va soldagi hamma buyumlarni ishdan chiqarar emish. Turli mutaxassislar tomonidan aytilgan gaplarni jamlaydigan bo'lsak, butun boshli solda, til tegmagan narsa qolmadi, arqon-u tugunlar, har bir bo'lak yog'och-u taxta - hamma-hammasi okeanda halok bo'lib ketishimizga sabab bo'lishi mumkin emish. Sol suv yuzida necha kunga bardosh berishi mumkinligi haqida katta pulni o'rtaga qo'yib garov bog'laganlar ham bo'ldi. Bir yengiltak dengiz attashesi esa, agar biz Janubiy dengizdagi orollarning birontasiga eson-omon yetib olsak, ekspeditsiya qatnashchilari to umrlarining oxirigacha ichadigan viskini olib berishga bas boyladi.

Gaplarning achchig'i hali oldinda ekan. Norveg kemasi gavanga kirgandan foydalanib, uning kapitani va bir necha tajribali dengizchilarni harbiy portga olib kirdik. Ularning tanqidiy mulohazalarini sabrsizlik bilan kutardik. Hammalari bir og'izdan, to'mtoq tumshuqli beo'xshov solga yelkanning foydasi yo'q, degan fikrni bildirganlarida hafsalamiz pir bo'ldi; undan tashqari kapitan, mabodo solimiz suv betida cho'kmay turolgan taqdirda ham Gumboldt oqimi yordamida okeanni kesib o'tishning o'ziga bir yoki ikki yil ketadi, deb hisoblardi. Botsman xodalarni bog'lagan arqonlarimizni ko'zdan kechirdi-da, boshini chayqab qo'ydi. «Tashvishlanmasak» ham bo'lar ekan. Dengizda xodalar baland ko'tarilib, past tushib, bir-biriga ishqalanaverib arqonlar uzilib, sol bo'laklarga bo'linib ketarkan. Arqonlarni po'lat arqon

yoinki zanjirlar bilan almashtirmasak, uy-uyimizga tarqalishganimiz ma'qulmish.

Bu asosli gaplarga e'tiroz bildirib bo'lmadi. Shu gaplarning, hech bo'lmasa, bittasi to'g'ri chiqsa, muvaffaqiyatdan umid qilmay qo'ya qolaylik. Boshlagan ishimizni nihoyasiga yetkaza olarmikinmiz, deya necha-necha bor so'radim o'zimdan. Dengizchi bo'lganim uchun bu gaplarga e'tiroz bildirib olmas edim. Qo'limda yakka-yu yagona kuzir bor edi, shunga asoslanib bu ishni boshlagan edik. Orol ochilish tarixiga qadargi madaniyat Perudan Tinch okeandagi orollarga tarqalgan chog'da bu sohilda birdan bir kema mana shunday sollardan iborat bo'lgan, degan fikrga qattiq ishonardim. Eramizning 500-yillarida Kon-Tikining balzadan yasalgan soli manzilga yetgan ekan, arqonlari chidagan ekan, biz ham bilarmonlik qilmay, o'sha solning aynan o'zini yasasak, endilikda ham chidab berishi kerak, degan fikrda edim. Bengt bilan German mening nazariyamga to'la qo'shilishardi. Mutaxassislar bizga motam tutib qayg'urgan chog'da ular Limada hech nimaga parvo qilmay, xotirjamgina va vaqtxushlik qilib yurishardi. Oqshomlarning birida Torsteyn okean oqimi bizga kerakli tomonga yo'nalishiga ishonchimiz komilmi o'zi, deb so'radi mendan tashvishlanib. Shu payt kinofilm ko'rib, poxol yubka kiyib olgan Doroti Lamurning janubiy dengizdagi xushmanzara orolda gavay qizlari bilan raqs qilayotganini maroq bilan tomosha qilardik.

– Biz shu joyga yo'l olishimiz kerak, – dedi Torsteyn. – Agar oqim siz aytgan tomonga yo'nalmasa holimizga voy!

Safarga jo'naydigan kunimiz yetdi. Mamlakatdan chiqib ketishga ijozatnoma olish uchun pasport byurosiga bordik. Bengt tarjimon sifatida eng oldinda turardi.

– Familiyangiz? – so‘radi sertakalluf to‘ra Bengtning ko‘ksiga tushgan soqoliga ko‘zoynak tepasidan shubha bilan tikilganча.

– Bengt Emmerik Danielsson, – odob bilan javob berdi Bengt.

To‘ra yozuv mashinkasiga uzun blanka qo‘ydi.

– Peruga qanday paroxodda keldingiz?

– Gap shundaki, men paroxodda emas, qayiqda keldim Peruga, – deya tushuntira ketdi Bengt vahimaga tushgan kichkinagina kishiga.

Hayron bo‘lganidan tili kalimaga kelmay qolgan to‘ra Bengtga bir qarab qo‘ydi-da, blankaning tegishli joyiga «qayiq» deb yozib qo‘ydi.

– Perudan qanday paroxodda jo‘naysiz?

– Gap shundaki, men Perudan paroxodda emas, solda jo‘nayman, – dedi muloyimlik bilan Bengt.

– Bu nima maynavozchilik! – deb qichqirdi to‘ra jahl bilan va blankani mashinkadan sug‘urib oldi. – Savollarimga to‘g‘ri javob berasizmi, yo‘qmi?

Safarga jo‘nashimizga bir necha kun qolganda oziq-ovqatlarimiz, suv va asbob-anjomlarimiz solga ortildi. Biz olti kishiga to‘rt oyga yetarli oziq-ovqat oldik, bular kichkinagina puxta karton qutiga joylashgan armiya ratsionidan iborat edi. German, asfaltni eritib, har bir qutining ustidan surtib chiqish kerak, degan fikrni aytdi. Keyin qutilar bir-biriga yopishib qolmasin uchun ustidan qum sepdik-da, bambuk paluba tagiga taxladik. Bunda ular palubani ushlab turadigan to‘qqiz ronjina oralig‘ini egalladi-qo‘ydi.

Baland tog‘ tepasida qaynab chiqqan tiniq buloq suvidan ellik oltita kichkina bidonni to‘ldirib oldik. Idishlarimizga hammasi bo‘lib 1100 litr chuchuk suv sig‘di. Bidonimizni ham ronjinalar oralig‘iga shunday joylashtirdikki, atrofida okean suvi chayqalib turadigan bo‘ldi. Qolgan anjomlarimizni – ho‘l meva va

kokos yong'oqlari bilan to'ldirilgan katta-katta savatlarimizni bambuk palubaga boylab qo'ydik.

Bambuk kayutaning bir burchini Knut bilan Tors-teyn radiostansiya uchun egallashdi. Kayutaning ichkarisidagi ronjinalar oralig'iga sakkizta yashikni joylab, xodalarga chambarchas qilib bog'ladik. Bu yashiklarning ikkitasi ilmiy asbob-anjomlar va kinoplyonka bilan to'lgan bo'lsa, qolgan oltitasi har qaysimiz uchun mo'ljallangan yashiklar edi. Har birimiz bir yashikka sig'adigan buyum olishimiz mumkin degani edi bu. Erik surat chizish uchun bir necha o'ram qog'oz va gitara keltirgan edi, yashigi shundan tiqilib ketdiki, paypog'ini Torsteynning yashigiga joylashga majbur bo'ldi. Keyin Bengtning yashigini ko'targan to'rt matros kelib qoldi. Bengt kitobdan bo'lak hech nima olmabdi. Lekin yashikka sotsiologiya va etnografiyaga oid 73 kitobni bir amallab joylashtiribdi. Yashiklar ustiga bo'yra va poxol to'shaklar soldik. Endi biz safarga tayyor edik.

Avvalo, solni shatakka olib harbiy portdan olib chiqdilar va yuklar to'g'ri taqsimlanib joylanganmi yo yo'qmi, shuni aniqlash uchun bir qancha joygacha tortib bordilar. U yerda safarimiz arafasida taklif etilgan va qiziqqan kishilar ishtirokida solga «ism qo'yish» marosimi o'tkazilishi kerak edi.

27-aprel kuni Norvegiya bayrog'i ko'tarildi. Machtaning yelkan tikib qo'yiladigan ko'ndalang yog'ochida ekspeditsiyamizga amaliy yordam ko'rsatgan davlatlarning bayroqlari hilpirardi. Sohil g'ayritabiiy kemaga nom berish marosimini ko'rgani kelgan odamlar bilan to'lib ketdi. Ular orasida dengiz boshqarmasi va hukumat vakillari rahbarligida qadimiy ispan oilalarining avlodlari, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Argentina, Kuba elchilari, Tinch okeandagi

ingliz mustamlakalarining sobiq gubernatori, Shvet-siya va Belgiya vakillari va, nihoyat, Bosh konsul Bar boshchiligida kichkina norveg mustamlakasi-dagi do'stlarimiz hozir bo'lgan edilar. Jurnalistlar u yoqdan bu yoqqa yugurar, kinoapparatlar sharaqlardi; duxovoy orkestr va katta nog'oragina yetishmas edi. Sol gavandan chiqishi bilan bo'lak-bo'laklarga ajralib ketgan taqdirda ham, har birimiz bittadan xodaga chirmashib bo'lsa hamki, Polineziyaga qarab suzishimiz muqarrarlighi va orqaga qaytmasligimiz ravshan bo'lib qolgan edi bizlarga.

Ekspeditsiyamiz kotibi va qit'a bilan bizning o'rtamizdagi aloqachimiz Gerd Vold zimmasiga, solimizni kokos yong'og'i suti bilan chayib oq yo'l tilash vazifasi tushdi. Yana shunisi ham borki, bu taomil tosh davri uslublariga monand kelardi.

Solga inklarning ulug' ajdodi bir yarim ming yilcha muqaddam Perudan okean bo'ylab g'arbga qarab yo'lgan va Polineziyada paydo bo'lgan quyosh-qirolning nomi berilajagi to'planganlarga ingliz va ispan tillarida e'lon etilgandan keyin Gerd Vold «Kon-Tiki» deb atala boshlangan solni kokos yong'og'i sharbati bilan chayishga kirishdi. U kokos yong'og'ini sol burniga shunday qattiq urdiki, qobig'i suti va urug'lari yaqinroqda turgan tomoshabinlar sochigacha sachradi.

Keyin biz bambukdan yasalgan reyani baland ko'tardik. Uning o'rtasiga rassomimiz Erik qizil bo'yoq bilan soqoldor Kon-Tiki suratini chizgan edi. Bu quyosh-qirolning qizil toshdan yo'nib ishlangan, vayrona Tiaxuanako shahrida topilgan haykalidan aynan ko'chirma edi.

Port ustaxonasining bosh ishchisi yelkandagi soqoldor chehrani ko'rib:

– Eh, senor Danielsson!– deb yubordi zavq bilan.

Kon-Tikining qog'ozga chizilgan soqoldor suratini ko'rsatganimizdan beri u, ikki oy mobaynida Bengtni

senor Kon-Tiki deb atab kelgan edi. Bengtning haqiqiy familiyasi Danielssonligini u endigina tushungan edi.

Safar oldidan biz xayrlashuv uchrashuvi uchun Prezident huzuriga taklif etilgan edik. Keyin esa cheksiz okeanga safarga chiqish oldidan qoyalar va toshloqlarni ko'rib to'yib olish uchun baland tog'ga chiqdik. Sol qurish ishlari davom etgan chog'lar-da biz Lima yaqinidagi palmazor orasida joylashgan pansionda yashadik; Kalyaoga qatnashda aviatsiya ministrligi avtomobilidan foydalanardik. Ekspeditsiya tayyorgarligi chog'larida Gerd bu masalani hal qilishga ulgurgan edi. Bu gal biz shofyordan bizni to'g'ri tog'ga olib chiqib ketishini so'radik. Lekin shunday masofada bo'lsinki, bir kun ichida borib-qaytaylik, dedik. Kimsasiz yo'llar bilan, inklar davridan qolgan qadimiy sug'orish kanallari yoqalab ko'z tinadigan balandlikda – solimiz machtasidan 4000 metr yuqorida paydo bo'ldik. Biz bunda xarsang va qoyalar, tog' cho'qqilari, ko'm-ko'k o'tloqlarga tikilar, qarshimizda yastangan And tog'lari salobatiga to'yib-to'yib qarab olmoqchi bo'lardik. Mana shu tog'-toshlar, oyog'imiz ostidagi zamin jonimizga tegib ketgan, yelkan ko'tarib okean bilan tanishishga oshiqyapmiz, degan fikrga o'zimizni ishontirishga urinardik.

IV BOB

TINCH OKEANI BO'YLAB

I

Dramatik suzib ketish. – Shatakka ochiq dengizga chiqamiz. – Shamol ko'tariladi. – To'lqinlar bilan kurash. – Gumboldt oqimidagi hayot. – Samolyot bizni izlab topolmaydi. – Xodalar suvni shimib oladi. – Xodalar va arqonlar. – Ucharbaliqlar bilan ovqatlanamiz. – To'shakdagi antiqa qo'shni. – Ilonbaliq pand yedi. – Okeandagi ko'zlar. – Dengiz sharpasi haqidagi hikoya. – Jahondagi eng katta baliqqa duch kelamiz. – Dengiz toshbaqasini quvlash.

Shatakda «Kon-Tiki»ni ochiq dengizga olib chiqish lozim bo'lgan kuni Kalyao gavanida to's-to'polon bo'lib ketdi. Dengiz ministri «Guardian Rios» degan portdan shatakda bizni buxtadan olib chiqib, sohil-dan ancha nariga – dengizga, o'tmishda hindilar o'z sollarida ovga chiqadigan joygacha tortib borishni buyurdi. Gazetalar bu voqeaga bag'ishlab qizil va tim qora sarlavhalar bilan maqolalar berishdi. Shunday qilib, 28-aprel kuni olomon erta sahardan boshlab sohilga to'plandi.

Biz soat birlarga yaqin solda yig'ilishni kelishib olgan edik. Ungacha har kim shahardagi mayda-chuyda ishlarini bitirib olishi kerak edi. Men sohilga yetib kelganimda solda Germandan bo'lak hech kim yo'q edi. Men mashinani ataylab uzoqda to'xtatib, suzish oldidan oyog'imning chigilini yozib olish uchun to'siq-

ning bu yog'igacha piyoda keldim. Kim biladi, hali qancha suzishga to'g'ri keladi okeanda. Boylam-boylam bananlar, savatlar, meva to'ldirilgan qoplar uyib tashlangan solga sakrab tushdim. Bu narsalarning hammasi solga so'nggi daqiqada keltirilgan bo'lib, sal o'zimizga kelgach tartibga solishimiz zarur edi. German ana shu uyum o'rtasida bamaylixotir o'tirardi; Limadagi qaysidir bizga xayrixoh bo'lgan bir odam sovg'a qilgan yashil to'ti solingan qafasga qo'lini qo'yganicha jim o'tirardi u.

– To'tiga birpas qarab turing, – dedi German. – Sohilga chiqib, ketar jafosiga bir krujka pivo shimirib kelay. Shatakchi kema hali-beri keladigan ko'rinmaydi.

German sohildagi g'ala-g'ovur orasida ko'zdan g'oyib bo'lar-bo'lmas, odamlar nimagadir ishora qilib, qo'llarini silkiy boshladilar. To'siqning narigi boshida, to'la tezlik bilan suzib kelayotgan «Guardian Rios» kemasi ko'rindi. Shatakka oluvchi bu kema qalashib yotgan machtalarning narigi tomonida langar tashladi. Kemalar uning «Kon-Tiki»ga yaqinlashishiga xalaqit berardi. Bizni yaxtalar orasidan olib o'tish uchun shatakchi kemadan motorli katta kater tushirildi. Kater harbiy dengizchilar – matroslar va ofitserlar hamda kinooperatorlar bilan to'lgan edi: buyruqlar berilib, kameralar sharaq-shuruq qilguncha shatakchi kemandan pishiq arqoni sol burniga bog'lab mahkamlandi.

– Nn momento!¹ deb qichqirdim to'tiqushni ushlab o'tirgan yerimda jonholatda, – Hali juda erta. Boshqa Los expebicionarios²larni kutaylik, – deya tushuntirishga urinardim shahar tomonni ko'rsatib.

– Ammo hech kim so'zimga tushunmas edi. Ofitserlar xushmuomalalik bilan jilmayishardi. Xullas,

¹ Bir daqiqa! (isp.)

² Ekspeditsiya qatnashchilari (isp.)

solning burniga solingan arqon hamma qoidalar asosida mustahkam bog'langan edi. Men arqonni yechib suvga otdim va bu harakatlarimni tushuntirish niyatida zo'r berib imo-ishoralar qila boshladim. To'tiqush bu olatasirdan foydalanib tumshug'ini panjaradan suqib, ilmoqni chiqaribdi; orqaga o'girilib qaraganimda to'tiqush bambuk palubada bamaylixotir yurgan edi. Uni tutmoqchi bo'lgan edim, to'tiqush ispanchasiga bir necha xil qilib so'kib tashladi-da, par etib uchib banan uyumiga qo'ndi. Sol burniga yana arqon tashlayotgan matroslarni bir ko'zlab kuzatarkanman, to'tiqushni quvalay ketdim. To'tiqush qiyqirganicha o'zini bambuk kayutaga urdi. Uni burchakka siqib borib, ustimdan uchib o'tib ketmoqchi bo'lib turganida oyog'idan mahkam ushlab oldim. Men yana palubada paydo bo'lib, tipirchilab turgan o'ljamni qafasga solganimda, sohildagi matroslar solni yechib yuborishgan, solimiz yengilgina to'lqinda beixtiyor tebranib turardi. Jon-jahdim bilan kalta eshkakka yopishdim-u, solimiz sohilning taxta ihotasiga urilib ketmasin deya urina ketdim. Bu orada motorli kater yurib ketdi; bir siltab tortdi-yu, «Kon-Tiki» uzoq safarga yo'l oldi. Mening yakka-yu yagona hamrohim ispan tilida so'zlashadigan to'tiqush edi. U ham bo'lsa qafasida tumshayib o'tiribdi. Sohildagi xaloyiq shod qiyqirar, qo'l silkitishardi, motorli katerdagi qorachadan kelgan kinooperatorlar bo'lsa, Perudan dramatik suzib ketishning har bir ikir-chikirigacha suratga olishga urinib, dengizga tushib ketayozdilar. Men butunlay umidsizlanganimcha solning o'rtasida yolg'iz turib qolgan edim. Shu turishimda ko'zim bilan g'oyib bo'lgan hamrohlarimni izlardim. Lekin hech kimdan darak yo'q edi. Shu alpozda yelkanini ko'tarib, langardan bo'shab, yo'lga chiqishga tayyor turgan «Guardian Rios» yoniga yetib bordik. Men bir

nafasda arqon-trapdan osilib paroxodga chiqdim-da, shunday to'polon ko'tardimki, suzib ketish muddati kechiktirilib, motorli kater orqasiga qaytib, sohil tomon yo'l oldi. Kater uzoq yo'q bo'lib ketdi-da, go'zal senoritalar bilan limmo-lim to'lib qaytib keldi. Ammo shuncha odam orasida «Kon-Tiki»ning g'oyib bo'lgan ekipajidan nom-nishon yo'q edi.

Bu orada bir quchoq gazeta va jurnallar hamda turli mayda-chuyda ko'targan Erik bilan Bengt shoshilmaygina sohil bo'ylab kelishardi. Ular uy-uyiga tarqalayotgan olomonga duch kelishdi; politsiya mahkamasi yoniga yetishganda bir polismen ularni to'xtatib, tomosha qiladigan hech nima qolmaganini aytdi. Bengt bo'lsa, sigarasini silkib, e'tiroz bildirarkan, tomosha qilgani kelishmaganini, solda safarga chiqajaklarini bildirdi.

– Kech qolibsiz, – deydi polismen. – «Kon-Tiki» bir soat muqaddam yo'lga chiqqan.

– Bunday bo'lishi mumkin emas, – deydi Erik paketlarning birini ko'rsatib, – fonarlar menda-ku!

– Bu yigit – shturman, – qo'shimcha qiladi Bengt, – men kema ekonomisti.

Ular to'siqdan o'tib dengiz yoqasiga kelishadi, ammo soldan nom-nishon yo'q edi. Ular betoqatlanib, u yoqdan bu yoqqa yurib turganlarida ekspeditsiyaning boshqa a'zolariga duch kelishadi. Bular ham g'oyib bo'lgan solni betoqatlanib izlashayotgan bo'ladi. Shu choq ular yaqinlashib kelayotgan katerni ko'rib qolishadi. Ko'p o'tmay, nihoyat, biz oltovlon topishamiz. «Guardian Rios» bizni shatakka olib, ochiq okeanga yo'l olganda sol atrofidagi suv ko'pirardi.

Biz yo'lga tushganimizda kun choshgohdan og'gan edi. «Guardian Rios» bizni tonggacha, okean ichkarisiga shatakda tortib borishi kerak edi. To'lginto'sardan o'tishimiz bilan yirik-yirik po'rtanalar qarshiladi bizni. Kuzatib kelayotgan hamma kichik qayiqlar

birin-ketin izlariga qaytishdi. Faqat bir necha yirik yelkanli qayiq. U yog'iga ishimiz qanday ketishini ko'rish niyatida biz bilan birga qo'ltiqdan chiqiladigan joygacha borishdi.

«Kon-Tiki» arqon sudrab ketilayotgan o'jar echki-day shatakchi kema ketidan suzarkan, qarshisidan chiqqan to'lqinga tumshug'i bilan urilar, palubani esa suv bosardi. Bu yaxshilikdan dalolat bermasdi – kelajakda duch kelishimiz mumkin bo'lganiga qaraganda arzimas to'lqinlar edi bu. Qo'ltiqning o'rta yeriga yetganimizda shatak arqoni uzilib ketib, biz tomondagi uchi suvga cho'kdi-ketdi. «Guardian Rios» bo'lsa yo'lini davom ettiraverdi.

Arqonning uchini suvdan chiqarib olish uchun sol chekkasiga otildik, yelkanli qayiqlar esa paroxodni to'xtatish uchun oldinga otilishdi. Tog'oraday-tog'oraday keladigan meduzalar sol tevaragida to'lqinlar bilan ko'tarilardi. Arqonning suvga cho'kkan uchiga ham ana shu shilimshiq, sovuq jonivorlar yopishib olgan edi. Sol bir tomonga og'ganda, biz mukkasiga yotib olganimizcha bort ortiga engashib, suv betiga qo'limizni cho'zardik, barmoqlarimiz sirg'anchiq arqonga tegib-tegib qo'yardi-yu, lekin uni ushlayolmasdik. Sol ikkinchi tomonga og'ganida esa, boshimiz suvga sho'ng'irdi-da, sho'r va bahaybat meduzalar ustimizdan oshib o'tardi. Biz tupurib, so'kinib sochimizdan yopishqoq meduzalarning bo'laklarini tozalab tashlashga urinardik. Xullas, shatakchi kema qaytib kelguniga qadar arqon uchini suvdan chiqarib, ulashga tayyor qilib qo'ydik.

Biz arqonni shatakchi kema bortiga otishga shaylanib turganimizda paroxodning quyrug'i tagiga kirib ketayozdik. To'lqin solimizni kema quyrug'i tagiga urib, majaqlab yuborishi hech gap emasdi. Hamma narsani unutib, bambuk tayoq va eshkaklarga yopishdik. Vaqtni qo'ldan bermay solni chetga bu-

rishga kirishdik. Lekin buni eplashning ilojini qilolmadik: sol ikki to'ldin oralig'idagi chuqurlikda qolgan chog'da, bo'yimiz yetib tepamizdagi kema quyrug'iga tirmashishning ilojini qilolmadik. Sol to'ldin tepasida paydo bo'lib ko'tarilganda esa, «Guardian Rios»ning quyrug'i pastda qolar, mabodo tagiga tushib qolgudek bo'lsak abjag'imizni chiqarishi turgan gap edi. Tepada, palubada odamlar u yoqdan bu yoqqa yugurishar, qichqirishardi; nihoyat, solning yonginasida kemanding parraklari ishlay boshladi va buning oqibatida paydo bo'lgan to'ldin so'nggi daqiqada bizni yonga itqitib tashladi. Solning tumshug'i bir necha kuchli zarba tagida qoldi va shaklini biroz o'zgartirdi, lekin ko'p o'tmay, yana o'z holiga qaytdi.

– Ish bunchalar rasvo boshlanadigan bo'lsa, oqibati yaxshilik bilan tugashi kerak, – dedi German. – Bu ovoragarchilik tezroq barham topsaydi: ko'tarilib-tushaverib solimiz bo'lak-bo'lak bo'lib ketmasaydi.

«Guardian Rios» bizni kechasi bilan sudradi; hech qanday halokatsiz uning izidan suzib bordik. Yelkanli kemalar allaqachon xayrlashib jo'nab qolishdi, sohildagi so'nggi chiroqlar ham g'oyib bo'ldi. Ahyon-ahyonda, qorong'ilikda, yo'limizni kesib o'tayotgan kemalarning chirog'i ko'rinib qolardi. Biz, shatak arqonidan xabardor bo'lib turish uchun kechani vaxtalariga taqsimladik, natijada hammamiz ham binoyidek uyquga qondik. Ertasiga tongotarda ko'z o'ngimizda shunday bir manzara namoyon bo'ldi. Peru sohillari quyuq tuman pardasiga chulg'angan bir damda, biz yo'l olgan g'arb tomonda havo ochiq, osmon tiniq moviy tusda edi. Okean bo'ylab kichik taroqli uzun, sokin to'ldinlar yo'rg'alardi; liboslarimiz, xodalar, xullas, hamma narsa shabnamda namiqib qolgan edi. Havo salqin edi. Tevaragimizdagi yashil suv janubiy kenglikdagi 12° uchun nihoyatda sovuq edi.

Biz Antarktidadan shimolga, Peru sohillari yoqalab sovuq suv oqimini haydab ketayotgan Gumboldt oqimida suzmoqda edik. Keyin bu oqim g'arbga yo'l olib, ekvator yaqini bilan okeanni kesib o'tardi. Pissarro¹ bilan Sarate² va boshqa qadimiy ispanlar hindilarning yirik yelkanli sollariga xuddi shu oqimda duch kelganlar. Bu sollar tunets va oltin makrel baliqlarini Gumboldt oqimida ovlash uchun sohildan 50–60 mil nariga suzib ketardi. Kuni bilan sohil tomondan shamol esardi. Kechga borib shamol sohil tomonga qarab esgani uchun baliqchilarning uyga qaytishlariga ko'maklashardi.

Bizga xaritadan solimizning turgan o'rnini ko'rsatdilar. Bengt tarjima qilib berib turdi. Biz Kalyao-ning shimoli-g'arb tomonida, sohildan 50 dengiz mili chamasi yiroqda turardik; solimizni ulkan kemalar cho'ktirib ketmasligi uchun bir necha kungacha kechasi gulxan yoqib turishimiz kerak bo'ladi. Tinch okeanning bu qismidan hech qanday paroxod yo'li o'tmagani tufayli, keyin biz bironta ham kemaga duch kelmaymiz.

Bizni shatakda olib kelgan kemadagilarning hammasi bilan tantanali suratda xayrlashdik; qayiqchamizga o'tirib, «Kon-Tiki» tomon suzganimizda bizni g'alati nazar bilan kuzatib qolishdi ular. Keyin shatak arqoni bo'shatildi, sol o'zi tanho qoldi. «Guardian Rios» bortidagi o'ttiz besh kishi qator tizilib, to qoralarini ajratolmay qolgunimizcha qo'l silkitib borishdi. Biz oltovlon esa, yashiklarda o'tirganimizcha, shatakchi kema ko'zdan g'oyib bo'lguncha kuzatib qoldik. Olis-olislardagi qora tutun tumanday tarqab ketgach, biz bosh chayqashib, bir-birimizga qarab oldik.

¹ Pissarro, Fransisko (1471 – 1541-yillar) – Perudagi inklar davlatini istilo qilgan ispan konkvistador.

² De Sarate Augustin (1492 – 1560-yillar) – Ispanlar tomonidan Peruning istilo qilinishini tasvirlab yozgan ispan tarixchisi.

– Xayr, xayr, – dedi Torsteyn. – Yigitlar, mashinamizni ishga solaylik endi!

Biz kulib yubordik va barmoqlarimizni ho'llab shamol yo'nalishini aniqlay boshladik. Janubdan janubi-sharqqa qarab o'zgarib turgan yengil shamol esardi. Yelkan shalvirab turgani uchun unga chizilgan «Kon-Tiki»ning qiyofasi bujmayib, qovog'ini solganday ko'rinardi.

– Qariyaga yoqmay turipti, – dedi Erik, – yoshlik chog'ida kuchli shamol esardi.

– Ha, juda ham tez suzyapmiz-da, o'ziyam, – dedi German va bir parcha balza payraxasini solning tumshuq tomonidan suvga otdi.

– Bir, ikki, uch... o'ttiz to'qqiz, qirq, qirq bir.

Payraxa hamon sol yonida chayqalib turardi; endigina bortning yarmiga yetgan edi.

– Qoyil! – dedi Torsteyn. – Bu tarasha butun yo'l davomi bizni kuzatib boradigan ko'rinadi.

– Kechqurungi shabada orqaga qaytarib ketmasa edi, – dedi Bengt. – Kalyadagi xayrlashish juda qiziq bo'ldi-yu, lekin shunday bo'lsa ham, tezda qaytish bilan tabriklashlarini sira istamasdim!

Ammo payraxa sol yonidan suzib o'tib ketdi. Biz «ura» deb qichqirib yubordik va so'nggi daqiqada palubaga uyib tashlangan narsalarni tartibi bilan, mustahkamlab joylashtirishga kirishdik. Bengt bo'sh yashik ichida primus yoqdi va ko'p o'tmay biz qaynoq kofe ichib, kokos yong'og'ini tesha boshladik.

– Bir masalada ishlar joyida, – dedi Erik mamnun kulib. Egnida qo'y teridan ishton, boshiga hindilar shapkasini kiygan Erik, yelkasiga to'tini qo'ndirib palubada u yoqdan bu yoqqa yurib turardi.

– Bir narsa yoqmay turibdi menga, – qo'shimcha qildi u. – Yana shunday qimir etmay turaversak, mana shu kam o'rganilgan qarshi oqimlar bizni sohil qoyalarga olib borib urishi mumkin.

Biz eshkaklarni qo'lga olib ishga kirishsadmikan, deya maslahatlashdik-da, shamol turishini kutishga qaror qildik.

Mana shamol ham turdi. Janubi-sharq tomondan bir me'yorda shiddat bilan yela boshladi. Yelkanimiz qappayib havoga to'lgan ko'krak qafasi yanglig' oldinga bo'rtib chiqdi, «Kon-Tiki»ning chehrasida esa g'urur barq urganday bo'ldi. Nihoyat «Kon-Tiki» harakatga keldi.

Quvonganimizdan:

– Eh-ha!– deb qichqirib yubordik g'arbga o'girilib va vantani¹ torta boshladik. Rul eshkagi suvga tushirilgan, vaxta jadvali kuchga kirgan edi. Biz qog'ozdan yasalgan kemachalarni va payraxalarni solning tumshuq tomonidan suvga tashlab, necha daqiqada sol yoqalab suzib o'tganini belgilash niyatida qo'limizda soat bilan solning quyruq tomoniga qarab yugurardik:

– Bir, ikki, uch... o'n sakkiz, o'n to'qqiz, tamom!

Qog'oz kemachalar va payraxalar rul eshkagi yonidan suzib o'tar va ipga tizilgan marjon yanglig' sol ortidagi to'lqinlar orasida goh ko'tarilib, goh tushib qator tizilib olar edi. Biz sekin-asta ilgarilardik. «Kon-Tiki» tumshug'i qirrali poygachi yaxtalar singari suvni yorib suzmasdi. Keng, qo'pol, og'ir, beso'naqay solimiz lapanglab, to'lqindan to'lqinga sirg'alardi. U shoshilmas, lekin joyidan siljiganidan keyin tirishib-tirmashib ilgarilashda davom etardi.

Endi butun e'tiborimiz rul tuzilishiga qaratilgan edi. Sol ispanlarning tasvirlashiga binoan qadimgi sollarning aynan o'zidek qilib yasalgan edi. Ammo bizning davrimizga kelib, hindi solini boshqarishni amalda tajriba qilib ko'rsatadigan biron zot qolmagan. Biz bu masalani sohilda mutaxassislar bilan

¹ Vanta – yelkanli kemalarda machtani ushlab turadigan yo'g'on arqon.

batafsil muhokama qilgan esak-da, natija qoniqarsiz bo'ldi. Ular bizdan ortiqroq narsani bilishmas edi bu borada. Janubi-sharqiy shamol kuchayishi bilan biz solni shunday vaziyatda saqlashimiz kerakki, shamol yelkanga quyruq tomondan urmog'i lozim. Agar sol shamolga yonboshini tutib qolsa, yelkan birdan hilpiray boshlar, yuklarni, odamlarni, bambukdan yasalgan kayutani savalay ketar, sol esa quyrug'i bilan ilgarilay boshlardi. Bu nihoyatda og'ir kurash edi; uch kishi yelkan bilan olishar, qolgan uchovimiz yog'och solning tumshug'ini oldinga qilib, shamoldan olib qochish uchun kuchimiz boricha uzun rul eshkagiga yopishardik.

Uzunligi olti metr keladigan rul eshkagi solning quyruq tomoniga joylashtirilgan bahaybat kundaga qoqilgan eshkak halqasi orasida yotardi. Bu rul eshkagi, ekvatorida Palenke daryosi bo'ylab pastga qarab xodalarni tashiganimizda o'sha yerlik do'stlarimiz ishlatgan eshkak edi. Mangro daraxtidan yasalgan bu uzun tayoq po'latdek mustahkam va shunchalik og'ir ediki, qo'limizdan tushib ketsa bormi, shu zahotiyoq cho'kib ketgan bo'lardi. Tayoq uchiga qarag'ay yog'ochidan yasalgan kurak arqon bilan chambarchas bog'lab qo'yilgandi. Eshkakni qayirib, suvga botadigan qismini har doim suvga nisbatan tik tutish uchun bot-bot eshkakka jon-jahdimiz bilan yopishib turishga majbur etgani tufayli barmoqlarimiz tez charchab qolardi. Nihoyat, to'rt qirrali yog'och to'sinni kachal sifatida ko'ndalang qilib, rul eshkagi bandiga mahkam bog'lagach, bu azobdan qutuldik. Bu orada shamol ham kuchayib qoldi.

Kunning ikkinchi yarmiga kelib passat¹ kuchaydi. Okean orqamizdan o'rmalab kela boshlagan o'kirik to'liqlar-la ko'mildi. Shunda biz o'zimizning okean

¹ Passat – quruq tropik shamoli.

hukmidaligimizni birinchi bor his etdik. Endilikda bu shamol kun o'tgan sayin bizni okean ichkarisiga surib boraveradi. Qappaygan yelkan yordamida faqat olg'a ilgarilashimiz mumkin edi; mabodo biz orqaga qaytmoqchi bo'lib, solimizni qaytargan chog'imizda ham, quyruq tomoni bilan olg'a surib ketavergan bo'lardi. Oldimizda birdan bir yo'l bor edi – bu ham bo'lsa, sol tumshug'ini kun botish tomonga qarata tutib, shamol yordamida ilgarilayverish. Bizning muddaomiz ham shu – quyosh yo'nalishi bo'yicha suzish edi-da. Bizning fikrimizcha qadim-qadimda, Perudan okean ortiga quvganlarida «Kon-Tiki» quyoshga topinuvchi hamrohlari bilan xuddi shunday qilgan.

Yog'och solimiz qaynab-ko'pirib ustimizga bostirib kelgan ilk dahshatli to'lqinning ustiga chiqib olgani-ni ko'rib yengil tortib ketdik. Ammo eshkakni qimir etkizmay tutib turishga ruldagi navbatchining qurbi yetmasdi. O'kirib kelgan to'lqinlar eshkakni bosib, halqasidan yulib oladigandek yulqilaganda yo bir tarafga so'rib yuborganda ruldagi navbatchi nochorlik bilan osilib olar yo akrobat singari o'ynoqlardi. To'lqinlar yonginamizda ko'tarilib, ruldagilarga tashlanganda ikki kishi ham eshkakni ushlab qololmasdi. Eshkakning uchidan solning ikki tomoniga arqon tortib, uning harakati chegaralanadigan kuchli to'lqinlarga ham bardosh bera oladigan qilib, shu arqon bilan eshkakni halqaga mahkamlab bog'lasak, qanday bo'larkin, degan fikr keldi miyamizga. Shunday qilsak o'zimizni tutib turish imkoni bo'larmidi.

Nihoyat biz Gumboldt oqimining tezob qismida suzib borayotganimizga tushundik. To'lqinlarning shamol tufayli emas, oqim tezligi tufayli ko'tarilayotgani aniq edi. Yashil, muzdek suv har tomondan qurshab olgandi bizni, Peruning arrasimon cho'qqili tog'lari kemamiz ortida ko'tarilgan quyuq bulutlar

orasida ko'zdan yo'qolgandi. Okean uzra qorong'ilik cho'mganda esa tabiat kuchlari bilan dastlabki kurashimiz boshlandi. Okeanga ishonchimiz tugal emas edi. Shunchalar oshiqdik, intildik, mana, okean bilan yuzma-yuz qoldik ham, endilikda bizga do'stlik qiladimi u yo dushmanlikmi, buni bilmasdik. Qorong'ilikda atrofimizdagi to'qlinlarning bir me'yor-dagi shovqini to'satdan kayutamiz tomi barobarida bostirib kelayotgan po'rtananing o'kirigi ostida qolib ketganini eshitardik. Jon holatda to'g'ri kelgan nar-saga yopishardik-da, bir dunyo suvning solimizga yopirilishini tashvishlanib kuta boshlardik. Ammo har gal hayratga to'lgancha yengil tortardik. «Kon-Tiki» bu bir dunyo suvga parvo qilmay tumshug'ini ko'tarardi-yu, borti atrofida jo'sh urgan po'rtana tepasiga chiqib olardi. So'ngra sol yana quyi tushardi-da, keyingi undan ham yirik to'qlinni kutardi. Eng yirik po'rtana ikki yoki uch bora ketma-ket bostirib kelar, ular oralig'ida bir qator mayda to'qlinlar tizilishib o'tardi. Ikki yirik po'rtana ketma-ket bostirib kelganda shunday ahvolda qolardi: birinchi po'rtana solning quyruq tomonini bosib, uchini osmoni falakka ko'tarib turganda, ustiga-ustak ikkinchi po'rtana ham quyruqqa tashlanardi. Shu sababli, vaxtadagi rulchining belini arqon bilan mahkam bog'lab, arqon uchini solga bog'lab qo'yishni majburiy qonun qilib belgiladik. Solimizda falshbort yo'q edi-da. Rulni boshqaruvchi solning tumshug'i to'qlin va shamoldan chetlab ketmasligini ta'minlash uchun, yelkanining hamma vaqt qappayib turishini nazorat qilib turish kerak edi. Erikning yo'nalishimizni nazorat qilib, qayerdaligimizni, qay tezlikda ketayotganimizni hisoblab chiqishi uchun solning quyruq tomonidagi bir yashik ustiga eski kema kompasini mahkamlab o'rnatdik. Osmon bulut bilan qoplangan, atrofimizni

to ufqqacha, bir-birini quvalab kelayotgan to'fqinlar qurshab olganidan, biz ushbu daqiqada qayerdaligimizni aniq bilmasdik. Rul oldida bir yo'la ikki kishi vaxtada turishga majbur edi; ular yonma-yon turib olib, jon-jahdlari bilan qo'ldan otilib chiqib ketay deyayotgan eshkakni ushlab qolishga urinishlari kerak edi. To'fqin quyruq tomondan o'kirgancha kelib ularga yopirilar va sol xodalari orasidan sizg'ib yoki sol borti ortida eriganday yo'qolardi. Shunda vaxtadagilar, sol boshqa tomonga burilishga va yelkan hilpillashga ulgurmasdan, eshkakka yopishardilar. Negaki, agar sol to'fqinga yonboshi bilan turib qolgudek bo'lsa, to'fqinlar bambuk kayutani osongina cho'ktirib yubora qoladilar. To'fqinlar solga orqa tomondan yopirilib kelganlarida esa shu zamonoz tik xodalar orasida g'oyib bo'lar, kayuta devorigacha kamdan kam yetib borardilar. Quyruqdagi xodalar suvni panshaxa tishlari kabi tez o'tkazib yuborardi. Solning afzallik tomoni shunda ediki, xodalar oralig'i qancha keng bo'lsa, suv shuncha tez tushib ketardi pastga. Ammo shunisi ham borki, suv hech qachon tepaga urib chiqmasdi.

Yarim kechaga yaqin shimol tomonda paroxod chiroqlarini ko'rdik. Sahargi soat uchlarda xuddi shu yo'nalishda yana bir paroxod o'tib ketdi. Biz kichkinagina sham fonarni silkitib, elektr yoqib o'chirib signallar berdik, lekin paroxoddagilar bilan ko'rmadilar: chiroqlar sekin-sekin shimol tomon siljib, qorong'ilikda g'oyib bo'ldi: paroxoddagilarning birortasi bo'lsin, haqiqiy hindlar soli yonginalarida to'fqinda chayqalib turganini tasavvur qilmagan, albatta.

Bizlar xuddi pashsha kabi, qorong'ida ikki kishidan bo'lib, eshkakka yopishardik va shu zamonoz salqin dengiz suvida cho'milgandek boshdan oyoq shalabbo bo'lardik; eshkak shu daraja itarardiki,

a'zoyi badanimiz zirqirardi, qo'llarimiz uyushib qo'lardi. Ana shu dastlabki kun va tunlarda kechirganlarimiz biz uchun katta maktab bo'ldi; shu kunlar ichida biz haqiqiy dengizchiga aylandik. Birinchi kunlarda har birimiz navbatimiz bilan ikki soatdan rulda turardik-da, uch soat dam olardik. Biz shunday tartib o'rnatdikki, har soatda bir odam rulda navbatda turgan ikki kishidan birini, ya'ni ikki soat rulda turgan kishining o'rnini egallaydi. Vaxta paytida eshkakni epaqaga keltirish uchun navbatchilar jon-jahdlari bilan yopishardilar. Navbatchi eshkakni itaraverib charchaganida narigi tomoniga o'tib tortardi. Zarba tegaverib qo'limiz tolga va ko'kragimiz bezillab qolganida orqamizni o'girib, yelkamiz bilan itarardik. Shunday qilib ko'kragimizni ham, yelkamizni ham mo'mataloq qilib yuborardi. Navbat almashgach esa, biz holdan toygan holda kayutaga sudralib borardik-da, oyog'imizni arqon bilan chambarchas bog'lab, uyqu qopchig'iga kirishga ham ulgurmay, sho'r bosgan kiyimimizda uxlab qolardik. Ammo shu zahotiyiq allakim arqondan qattiq tortib uyg'otardi; qarabsizki, uch soat o'tibdi-ketibdi. Yana navbatga chiqish, rul eshkagi yonida vaxtada turganlardan birining o'rnini olish kerak.

Ikkinchi kecha avvalgisidan ham battar bo'ldi; tinchish o'rniga dengiz avvalgidan ham battar to'liqlandi. Ikki soat muttasil rul eshkagi bilan kurashishga madorimiz yetmay qoldi; vaxtaning ikkinchi soati boshlanganda shu daraja holdan toyardikki, to'liqlar bizdan ustun kelar, solimizni istagan tomoniga otib, suvga ko'mardi. Shundan keyin biz rulda bir soatdan navbatda turib, bir yarim soat dam olishga o'tdik. Shunday qilib, ilk oltmish soatimiz birin-ketin beto'xtov yopirilib kelayotgan to'liqlar ila kurash bilan o'tdi.

Uchinchi kechaga borganda esa kuchli shamol esayotganiga qaramay, dengiz biroz tinchlandi. Erta

bilan soat to'rtlarga borganda qorong'ilik qa'ridan to'satdan ko'pirib po'rtana bostirib kelib qoldi va solga yetib kelib, ruldagilar nima bo'layotganini to tushunib olgunlaricha solni 180°ga burib yubordi. Yelkan parcha-parcha qilib yuborilgandek shiddat bilan lopillab bambuk kayutaga urila boshladi. Hamma-miz palubaga chopib chiqib, yuklarni saqlab qolish va solni to'g'ri yo'lga solib yuborish umidida yelkan-bog'ni torta boshladik. Shunday qilsak, yelkan yana shamolga to'g'rilanib, bir me'yorda olg'a yo'l solishi mumkin edi. Lekin solni tumshug'i bilan olg'a qaratish qiyin edi. U quyruq tomoni bilan ilgarilamoqda edi. Asboblar va rul eshkagi bilan bo'lgan shuncha ovoragarchiligimizning natijasi shu bo'ldiki, ikkitamiz qorong'ida yelkanga o'ralashib qolib, dengizga tushib ketayozdik. Dengiz sekin-asta tinchiy boshlagan edi. Hamma yog'imiz mo'mataloq bo'lib ketgan, kaftlarimizning po'sti shilinib, charchoqdan oyoq-qo'limiz karaxt edi. Buning ustiga uyqu tortgan ko'zlarimiz suzilib, o'zimizni noxush sezardik. Shuning uchun, yaxshisi havo aynib, yana bizdan kuch-quvvat sarf etishni talab qiladigan bo'lsa, bo'sh kelmaslik uchun kuch yig'aylik – axir bu yog'iga o'zini nima kutayotganini oldindan bilolmaydi-ku, kishi. Shuning uchun biz yelkanni yig'ishtirdik-da, bambuk reyaga o'rab, bog'lab qo'ydik. «Kon-Tiki» to'lqinlarga yonboshini berib, po'kakdek irg'ishlab turardi. Soldagi hamma buyumlar mahkam bog'langan edi. Biz oltovlon kichkinagina bambuk kayutamizga suqilib oldik-da, qutiga joylashgan baliqdek siqilishib yotganimizcha toshdek qotib uxlab qoldik.

Biz shu kecha-kunduzlarda boshimizdan kechirgan kurash butun safar davomidagi eng og'ir kurash ekani-ni taxmin ham qilolmas edik. Okean sari juda ichkari-lab ketgandan keyingina biz, inklarning solni juda sod-da va mohirlik bilan boshqarish yo'llarini topib oldik.

Biz erta bilan juda kech, to'ti hushtak chalib, qichqirib, qo'nog'ida u yoqdan bu yoqqa yura boshlagandagina uyg'ondik. To'lqinlar kechagidan ham baland bo'lib yopirilib kelardi. Lekin endilikda ular uzun, bir tekisda harakatlanar, kechagidek o'kirib, tartibsiz bostirib kelmasdi. Birinchi ko'zimiz tushgan narsa, sarg'ish bambuk palubamizga nur sochib, atrofimizni qurshagan okeanga quvnoq do'stona tus berayotgan oftob bo'ldi. Solimizni o'z holiga qo'yib qo'ygandan keyin to'lqinlarning ko'pirib osmon-u falakka ko'tarilgani bilan bizning qanchalik ishimiz bor? Bir daqiqa o'tar-o'tmas solimiz to'lqinning naq ustiga tirmashib chiqib, ko'pirayotgan po'rtanani dazmollagandek tekislashini, og'ir, dahshatli suv tog'i bizni shundaygina balandga ko'tarib qo'yib, o'zining esa shovullab tagimizda yoyilishini bilganimizdan keyin to'lqinlarning shundoqqina qarshimizda tog'dek ko'tarilgani bilan nima ishimiz bor? Perulik qadimgi ustalar ichi suvga liq to'lishi mumkin bo'lgan qayiqlardan bir to'lqindan ikkinchi to'lqinga o'ynoqlab o'tolmaydigan uzundan uzun soldan voz kechganlarida qilayotgan ishlaridan o'zlariga yaxshi hisob berganlar, albatta. Balza yog'ochidan yasalgan solimizni po'kak desa bo'lardi.

Tushga borib Erik qayerda suzib ketayotganimizni aniqladi; bilsak, yelkanni yig'ishtirganimizdan keyin to'lqinlar bizni sohil bo'ylab shimolga qaratib surib ketibdi. Biz hamon Gumboldt oqimi chizig'ida, quruqlikdan rosa yuz dengiz mili masofada turardik. Endi jiddiy bir savol oldimizda ko'ndalang bo'ldi; bu oqim bizni Galapagos orollaridan janubga tomon oqizib ketmasmikin, tag'in? Buning oqibati yomon bo'lishi mumkin edi. Negaki, u yerdagi Markaziy Amerika tomon harakat qiladigan kuchli okean oqimlari bizni goh bir tomonga, goh ikkinchi tomonga surib ketishi

mumkin edi. Agarda hammasi biz ko'zda tutgandek bo'la qolsa va basharti bizni shimolga, Galapagos orollari sari xiyla joyga surib ketmasa, asosiy oqim bizni okean bo'ylab g'arbga qaratib oqizib ketadi. Shamol, hamon avvalgidek, janubi-sharqdan esardi. Biz yelkanni ko'tardik, solning quyruq tomonini shamolga to'g'rilab, rul qoshidagi vaxtani boshladik.

Knut mashaqqatli dengiz kasalligidan qutuldi; Knut bilan Torsteyn chayqalib turgan machtaning uchiga chiqdilar-da, allaqanday antennalarni havo shari yoki varrakka bog'lab uchirib, tajribani boshlab yubordilar: to'satdan ularning biri radiorubkadan¹ turib qichqirib yubordi, Lima dengiz radiostansiyasi ovozi eshitayotganini, u bizni chaqirayotganini xabar qildi. Biz bilan so'nggi bor xayrlashish va okeanda qanday ko'rinishimizga bir nazar tashlash uchun Amerika vakolatxonasi samolyoti qirg'oqdan uchib ketganini bizga xabar qildilar. Ko'p o'tmay biz samolyot radisti bilan aloqa bog'ladik. Keyin esa, kutilmaganda, ekspeditsiya kotibi Gerd Vold bilan suhbatlashish imkoni tug'ildi – Gerd xonim samolyot bortida ekan. Efirdan kelayotgan ovoz «ARMI-119»-ning solimizni izlab doira chizib goh yaqinlashib, goh uzoqlashishiga qarab dam baland, dam sekin eshilib turdi. Ammo na samolyot motorining gurullashini eshitdik va na samolyotning o'zini ko'rdik. Pastda, baland-baland to'lqinlar orasidagi solni ilg'ab olish oson bo'lmaganidek, soldan turib qaraganda ham osmonning bir parchasigina ko'rinardi. Nihoyat samolyot bizni izlashdan voz kechdi-da, sohilga qaytdi. Bu bizni izlab topish uchun qilingan so'nggi urinish edi.

Keyingi kunlarda dengiz qattiq chayqalib turdi-yu, shovullagan to'lqinlar janubi-sharqdan bir xil ora-

¹ Radiorubka – bu yerda radio eshittirish burchagi sifatida olingan.

liqda kelib turganidan solni boshqarish ancha oson bo'ldi. Shamol va to'liqlar solimizning orqa tomonidan chap yonboshiga kelib urilib turgani uchun ruldagi odamga ancha yengil tushar, solning muvozanati ham turg'unroq bo'lib, lopillayvermasdi. Janubi-sharqdan esayotgan quruq tropik shamol va Gumboldt oqimi kun sayin bizni Galapagos orollari ni yoqalab o'tadigan qarshi oqim tomon olib ketayotganidan tashvishlana boshladik.

Shimoli-g'arbga qarab shunday tezlikda ilgarilab borardikki, o'sha kunlari bizning kunlik o'rtacha tezligimiz, rekord tezlik 71 mil bo'lgani holda, 55–60 dengiz miliga barobar kelardi.

– Galapagos orollari qalay, yashab bo'larmikan? – deb so'rab qoldi kunlardan bir kun Knut xaritaga qararkan.

– Yashab bo'lmas-ov, – javob berdim men. – Aytishlaricha, ink Tupak Yupanki Kolumb davridan sal ilgari Ekvadordan suzib ketibdi-da, Galapagos orollarga borib yetibdi. Lekin na u, na uning hamrohlari-dan biror kimsa u yerda yashab qolmabdi. Negaki u yerda suv yo'q.

– Ok! – dedi Knut. – Unaqada bizga pishirib qo'yibdimi u yoqda. Ishqilib biz o'sha yoqqa borib qolmasmi deb umid qilaman.

Endilikda biz atrofimizda o'ynoqlagan to'liqlarga shu qadar o'rganib qolgan edikki, ularga e'tibor qilmay qo'ydik. Biz ham, solimiz ham suv yuzasida bo'lgandan keyin, tagimizdagi ming metr lab suv betida qalqib-qalqib tursak nima qilibdi? Balza yog'ochlari suv shimayotganini his qilish qiyin emasdi. Ammo quyruqdagi ronjinlarning ahvoli chatoq edi: barmog'ingizning uchini o'zagiga tiqsangiz, jiq-jiq suv shimiganini his qilasiz. Hamrohlarimga bildir-may, nam yog'ochdan bir bo'lagini sindirib oldim-da,

suvga tashladim. Yog'och suvga tushganicha ohista cho'kdi-ketdi. Keyinchalik o'rtoqlarimning ba'zi birlari ham, hech kim qaramayapti, deb o'ylab, shunday qilganlarini ko'rdim. Ular jiq-jiq suv shimgan yog'och parchasining asta-sekin yashil suvga cho'kib bora-yotganini indamay kuzatib turardilar. Yo'lga chiqish oldidan biz solning suvga botib turish vaziyatini belgilab qo'yan edik. Lekin endilikda dengiz betinim chayqalib, xodalar bir ko'tarilib, bir suvga cho'kib turganligidan, solning qay darajada suvga cho'kib turganini belgilash amri mahol edi. Lekin xodaga pichoq tiqqanimizda xodaning sirti 25 millimetrgacha iviganiga va undan ichkarisi quruq ekaniga ishonch hosil qilib sevinib ketardik. Biz hisob-kitob qilib ko'rgach esa, xodalar shu sur'atda suv shimadigan bo'lsa, biz quruqlikka yaqinlashgan chog'ga borib solimiz suv betida turolmay qoladi, degan xulosaga keldik. Lekin biz xodaning mag'zidagi shira suv shimishga xalaqit beradigan modda bo'lib xizmat qiladi, deb umid qilardik.

Dastlabki paytda, bir necha hafta davomida miyamizni g'ovlatib, tashvishga solgan narsalardan yana biri – arqonlar masalasi edi. Kunduzlari shu qadar band edikki, ular haqida kam o'ylardik; qorong'ilik cho'kib kayutadagi uyqu qopchig'iga joylashib olishimiz bilan, har qalay, o'ylashga, his etishga va qu-log'imizni ding qilib yotishga vaqtimiz yetarli bo'lardi. Har birimiz poxol to'shagimizda yotgan yerimizda, tagimizdagi bo'yralar xodalar bilan birga ko'tarilib, tushib turganini his qilardik. Solimizning hamma vaqt chayqalib turgani bir boshqa-yu, to'qqiz xodaning bir-biriga nisbatan holatini o'zgartirib turgani bir boshqa edi. Xodaning biri ko'tarilsa, ikkinchisi cho'kar, tebranma harakat sira tinmasdi. Bu chayqalish sezilar-sezilmas bo'lsa-da, ustida yotgan odam

o'zini harsillab nafas olayotgan bahaybat hayvon ustida yotgandek his etardi. Shunday qilib biz xoda ustida uzunasiga yotadigan bo'ldik. Bu chayqalish dastlabki ikki kechada hammadan ham ko'ra qattiqroq bilingan edi, lekin biz haddan tashqari holdan toyganligimizdan bunga ahamiyat bermagan edik. Bora-bora arqonlar suvda namiqib, shishgan xodalarning harakatlanib turishi kamaydi. Ammo, hech qachon tinmadi bu harakat. Xodalarning biri ko'tarilib, biri tushib turarkan, tutashgan yerida aylanar, ular bilan esa soldagi hamma narsa harakatlanardi. Bambukdan yasalgan paluba, qo'sh machta, kayutaning to'qima to'rt devori-yu taxtacha va yaproqlar bilan yopilib, arqonlar bilan chambarchas bog'lab qo'yilgan tom ham, baribir, bir joyi ko'tarilib, ikkinchi yeri past tushib hamma vaqt harakatlanib turardi. Bilinar-bilinmas harakat bo'lsa ham biz ravshan ko'rib turardik buni. Kayutaning bir burchi ko'tarilganda ikkinchi burchi pastlar, tomning bir yarmidagi bambuk tayoqchalar bir tomonga qiyshaysa, ikkinchi tarafidagi tayoqchalar boshqa tomonga qiyshayardi. Kayutada yotgan ko'yi devorning ochiq yeridan qaraydigan bo'lsak, osmon gumbazi tepamizda doira kasb etib to'liqlar unga peshvoz chiqib baland irg'ishlab turganidan hamma narsa nazarimizda lopillab, lapanglab turganday bo'lardi.

Hamma og'irlik arqonlarga tushardi. Kechasi bilan arqonlarning xodalarga ishqalanib g'iyqillab, nola qilganini eshitardik. Qorong'ilikda bu tovushlar, har bir arqon ingichka-yo'g'onligiga va bo'sh yo tarang bog'langaniga qarab o'ziga xos nota vazifasini o'tayotganday, hammasi qo'shilib yagona g'amgin simfoni-yaga aylanayotganday bo'lardi. Har tong arqonlarni sinchiklab nazorat qilardik. Bittamiz sol chetiga yotib olardik, ikki kishi oyog'imizdan mahkam ushlab

turishardi, suvga engashib, solning tag tomonidagi arqonlar holidan xabar olardik.

Lekin arqonlar mustahkam edi. Ikki hafta ichida arqonlar ishqalanib uzilib ketadi, deyishgandi dengizchilar bizga. Biroq yakdillik bilan aytilgan bu fikrning aksi o'laroq, to shu kungacha arqonlarning birontasi uzilganini ko'rmadik. Okean bo'ylab ancha ichkari-lab ketganimizdan keyingina buning sababini bildik. Balza xodalar shu qadar yumshoq ediki, arqonlar xodani o'yib kirib ketgan bo'lib, xodalar ishqalab uzib yuborish o'rniga arqonlarni uzilishdan saqlardi.

Oradan bir hafta o'tgach, okean ancha sokinlashib qoldi. Shunda biz okeanning yashil emas, zangori ekanini ko'rdik. Endilikda biz shimoli-g'arbga emas, g'arbi-shimol-g'arbga qarab suzardik. Bu bizning sohil bo'yi oqimidan chiqib, ochiq dengiz tomon suzajagimizni ko'rsatuvchi dalil edi.

Birinchi kuniyoq, okeanda yolg'iz qolgach, sol atrofida baliqlar ko'pligini ko'rgandik. Lekin u chog'lar, rul eshkagi bilan haddan ortiq band bo'lganimizdan, baliq ovi xayolimizga ham kelmagan edi. Ikkinchi kuni biz bir gala sardinlarga duch kelib edik. Sal o'tmay ikki metrli havorang akula paydo bo'ldi va dam-badam oq qornini tepaga qilib bilanglagancha, German bilan Bengt suvda yalangoyoq turib rul eshkagini ishga solayotgan sol ketidan ergashib kela-verdi. Akula anchagacha atrofimizda o'ynoqlab yur-di-da, qo'l garpuni¹ bilan qurollanganimiz hamonoq g'oyib bo'ldi.

Ertasiga tunets, bonit² va oltin makrel baliqlariga duch keldik. Kattagina ucharbaliq shaloplab solga tushgan edi, biz undan xo'rak sifatida foydalandik va

¹ Garpun – uzun arqonga bog'lab dengiz hayvonlariga otiladigan nayza.

² Bonit – Skumbriya baliqlarining bir turi.

birpasda og'irligi 10–15 kilogramm keladigan ikkita yirik oltin makrel baliq tutdik. Bu baliq bizga bir necha kunga yetarli oziq bo'ldi. Rulda, vaxtada turganimizda bizga tamomila notanish baliqlar ko'rinardi. Kunlardan bir kun biz boshi-keti ko'rinmagan delfinlar to'dasiga duch keldik. Ular qop-qora bo'lishib sol atrofida o'mbaloq oshishardi; biz machta tepasiga chiqib qarab, okean yuzasi ko'z yetgan joyga qadar delfinlar bilan to'lganini ko'rdik. Ekvatorga yaqinlashib, qirg'oqdan uzoqlashganimiz sari esa ucharbaliqlar ko'proq uchray boshladi. Oftob nuriga g'arq sokin to'lqinlar shamolda jimirlab turgan zangori suvga yetganimizda bo'lsa, ucharbaliqlar qarshimizdan snaryad yomg'iri kabi suvdan otilib chiqib, uchish kuchi tugaguncha to'g'ri chiziq yo'nalishida uchib borib, yana suv tagida g'oyib bo'la boshladi.

Oshpazning birinchi vazifasi shu ediki, u ertalab uyg'onishi bilan palubaga chiqar, kechasi bilan solimizga qo'ngan ucharbaliqlarni yig'ishtirib olardi. Odatda, olti-yettitadan kam bo'lmasdi. Bir kuni erta bilan soldan yigirma oltita semiz ucharbaliq yig'ib olibmiz. Yana bir kuni Knut baliq qovurish uchun tovada moy qizdirib turganida ucharbaliq shaloplab qo'lga urildi; Knut, to'g'ri qizib turgan moyga tusha qolmadi, deb ranjib ham qo'ydi.

Bu voqea bir necha kechadan keyin yuz berdi. Osmonni bulut qoplagan, zim-ziyo tun edi; tungi vaxtadagilar ustidan hatlab o'tayotganda oyog'ini qayoqqa bosishini ko'rib tursin deb Torsteyn boshi yoniga sham fonar qo'yib yotibdi... Soat to'rtlarga borib Torsteyn fonar ag'darilib ketib, allaqanday sovuq va ho'l narsaning shundoqqina yuzi yonida tipirchilaganidan uyg'onib ketadi. «Ucharbaliq bo'lsa kerak» deb o'ylaydi u va olib irg'itib yuborish uchun timirskilay boshlaydi. Shu chog' u ilonday bilanglayotgan uzun

va ho'l bir narsani changallab oladi-yu, qo'li kuygandek itqitib yuboradi. Torsteyn fonarni yoqquncha, ko'rinmas maxluq uning ustidan o'rmalab German yoniga o'tadi. German bo'lsa, bu suvlarda ahyon-ahyonda uchrab turadigan kalmar bo'lsa kerak deb irg'ib turadi. Fonarni yoqqanimizda ko'rsakki, German ilondek to'lg'anayotgan allaqanday bir cho'zinchoq baliqning bo'ynidan bo'g'ib, g'olibona qiyofada o'tirardi. Baliqning uzunligi bir metrcha kelar, gavadasining cho'zinchoqligi ilonni eslatardi; uning kattakon qora ko'zlari bo'lib, kallasi cho'zinchoq, yirtqich baliqniki simon jag'ida o'tkir tishlari qator terilgan edi. Tishlari esa pichoq singari o'tkir bo'lib, ilingan o'ljani tomog'iga o'tkazib yuborish uchun tanglayiga qayrilardi. German shu alpozda uni changallab turarkan, yirtqich baliq og'zidan to'satdan uzunligi yigirma santimetr keladigan – chaqchayma ko'z oqish baliq irg'ib chiqib qoldi. Zum o'tmay yana bir xuddi shunaqa baliq paydo bo'ldi. Bular ilonsifat baliqning tishi zahridan qattiq shikastlangan, chuqurda suzadigan baliqlar ekanligi aniq edi. Yupqa terili ilonbaliqning usti ko'kish-binafsharang tusda bo'lib, qorni zangori – simobi tusga moyil edi, uning terisi qo'ling tegishi bilan palahsa-palahsa bo'lib shilinib ketardi.

Bu shov-shuvdan nihoyat Bengt ham uyg'onib ketdi, biz fonar bilan uzun baliqni uning betiga yaqinlashtirdik. U uyqu aralash qopchig'ida yotgan yerida sal qaddini ko'tarib:

– Yo'q, bunaqa baliq bo'lmaydi! – deya e'lon qildi-da, ikkinchi yoniga ag'darilib yana uxlab ketdi.

Bengt yanglishmagan edi. Keyin ma'lum bo'lishicha, bambuk kayutada fonar atrofini qurshab o'tirgan olti kishi, bu baliqni tirik hoida ko'rgan ilk odamlar ekanmiz. Janubiy Amerika va Galapagos orollari sohillaridan bir necha bor shunday baliqlarning skeleti-

nigina topgan ekanlar; ixtiologlar¹ uni *Yempylus*, ya'ni ilonsimon makrel deb atashar va okean tubida, juda katta chuqurlikda yashaydi, deya taxmin qilisharkan, lekin uni tirikligicha hech kim ko'rmagan ekan.

Okean – uning sathi barobaridagi uyda yashagan, uning yuzasida ohistagina bir maromda suzib kelayotgan odamni sira kutilmagan narsalarga ro'baro' qiladi.

Hayotda shunday ham bo'ladi. Bir ovchi o'rmon ichkarisiga kirib ketadi, chakalakzorni kezib, aylanib keladi-da, hech nima ko'rmaganini aytadi. Boshda bir ovchi esa to'nkaga cho'qqayib o'tirib olib, kutadi. Qarabsizki, atrofida shitir-shitir, pitir-pitir eshitiilib qoladi, ko'zlarini javdiratib allaqanaqa hayvonlar mo'ralay boshlaydi. Okean ham xuddi shunaqa.

Odatda biz mashinalar gulduratib, porshenlarni sharaqlatib, kema atrofidagi suvni ko'pirtirib kezamiz uni. Keyin qaytib kelamiz-da, hatto okeanning naq o'rtasida ham tomosha qiladigan hech vaqo yo'q, deb yuramiz.

Suvning naq belida, okean bo'ylab suzarkanmiz, atrofimizda tanda qo'ygan g'aroyib maxluqlardan bi-rortasi mehmonimiz bo'lmagan kun yo'q edi; ularning ba'zi birlari, makrel va lotsman baliqlari, bizga shunday o'rganib qolishdiki, atrofimizda kecha-yu kunduz girdikapalak bo'lib, solimizni okean bo'ylab kuzatib borishardi.

Qorong'i tushib, tropik osmonida yulduzlar charqalay boshlaganda, atrofimizni qurshagan suvda turli baliqlar, yulduzlar bilan bahslashganday yaltirardi. Har bir yarqiroq plankton² qip-qizil cho'g'ni eslatar va har gal to'lqin shunday qip-qizil zoldirchalarni solga irg'itganda, beixtiyor yalang oyoqlarimizni

¹ Ixtiolog – baliqlar hayotini o'rganuvchi mutaxassis.

² Plankton – oqim kuchi bilan joydan joyga ko'chuvchi, dar-yo va dengizlarda yashovchi, hayvon va o'simlik organizmlari dunyosi.

yig'ishtirib olardik. Ularni qo'limizga olib ko'rarkan-miz, yarqiroq garneli¹ ekanligini bilib olardik. Shunday kechalarda solimiz yonboshida paydo bo'lib, kiprik qoqmay bizga tikilib qolgan ikki yum-yumaloq yarqiroq ko'zni ko'rib yuragimiz orqamizga tortib ketardi – kim biladi, balki, dengiz alvastisidir. Okean sokin bo'lgan chog'larda, sol atrofidagi sim-siyoh suvda kattaligi 60-90 santimetr keladigan dumaloq boshlar paydo bo'lib, kattakon yarqiroq ko'zlarini bizga tikib, qimir etmay turardi, bir necha bor shunday bo'ldi. Ba'zi-ba'zida esa kechalari suvda kattaligi bir metrcha keladigan yarqiroq soqqalarni ko'rib qolardik. Bu soqqalar elektr lampochkalarining charaqlab ketishini eslatib, vaqti-vaqti bilan charaqlab ketardi.

Bora-bora biz bu yer osti, to'g'rirog'i, bizning tagimizda yashovchi suv osti mavjudotlariga o'rganib ketdik. Lekin shunga qaramay, har gal yangi xillariga duch kelganimizda, hayron qolardik. Bulutli tunlarning birida, kechasi soat ikkilarda, ruldagi navbat-chining sim-siyoh suvni qop-qora osmondan zo'rg'a ajratadigan chog'da, suv tagidagi xira yorug'likka ko'zi tushgan. Bu yorug'lik bora-bora kattakon jonivor shakliga kirgan. Jonivorning o'zi nur taratyaptimi yo uning badaniga yopishib olgan planktonlar yorishib ko'rinayaptimi, bilib bo'lmay, bu jimirlash qora suvda yorishib ko'rinayotgan jonivorni shaklini o'zgartirib turganday qilib ko'rsatardi. Jonivor goh dumaloq, goh tuxumsimon shaklga kirar, goh uchburchak shakl olib, keyin birdan ikkiga bo'linib ketar va bo'laklarning har biri sol tagida oldinga qarab o'zicha alohida-alohida suzardi. Bora-bora ana shu yarqiroq bahaybat sharpa uchta bo'ldi. Ular solimiz ostida ohista doira chizishni davom ettirdilar. Bular haqiqiy bahaybat maxluq edi. Negaki ularning ko'zga

¹ Garpeli – kichkina qisqichbaqalar.

tashlangan qismigina 6 – 8 metr kelardi. Hammamiz shoshib-pishib palubaga chiqdik va xayoliy raqsni kuzatdik. Bahaybat maxluqlar sol tagida suzib kelishardi. Bu manzara bir necha soat davom etdi. Nur taratayotgan sirli, unsiz hamrohlarimiz suv tagida ancha-muncha chuqurlikda, ko'pincha, bortning o'ng tomonida – fonar yonib turgan tomonda suzishar, ba'zi-ba'zida solning naq tagida suzib borar yo chap tomonida paydo bo'lardi. Tanalaridan taralayotgan nurga qaraganda bu maxluqlar fildan katta bo'lishi kerak edi. Lekin ularni kit deb aytolmasdik, negaki, biron marotaba bo'lsin nafas olgani suv yuzasiga chiqishmadi. Bular yonboshiga ag'darilganida shaklini o'zgartib turuvchi skatdir¹ balki? Yaxshiroq ko'rib olish uchun, tepaga chiqarmikan deb, suv betiga fonarni yaqinlashtirganimizda esa ular bunga parvo ham qilmasdilar.

Hamma ajina-alvasti, xayoliy sharpalar singari ular ham tong otar-otmas chuqurlikda g'oyib bo'lidilar. Agar bir yarim kundan keyin yana bir maxluq yonginamizda paydo bo'lib, jumboq o'z-o'zidan hal bo'lmaganda, tundagi nur taratgan bu uch bahaybat maxluq haqida to'g'riroq bir fikr yuritishga ojiz edik. Bu voqea 24-mayda, yengilgina mavjlanib turgan suv yuzasida, naq 95° g'arbiy kenglikda va 7° janubiy kenglikda yelkanlar yordamida suzib borayotgan chog'imizda ro'y berdi. Tushga yaqin edi. Biz erta saharlab tutgan ikkita katta oltin makrelni tozalab, ichak-chavoqlarini suvga tashlagan edik. Muzdakkina bo'lib olish uchun men sol boshidan okeanga sakradim, belimga arqon bog'langandi, suv betida sergak bo'lib yotardim. Men bilan yaqinroqdan tanishish niyatida tiniq suvda suzib kelayotgan, uzunligi ikki metrcha keladigan semiz qo'ng'ir ba-

¹ Skat – o'zi yapaloq, dumi ingichka dengiz balig'i.

liqni ko'rib qoldim qo'qqisdan. Shoshib-pishib solga chiqib oldim-da, qattiq qizdirayotgan oftobda o'tirib, ohista suzib o'tayotgan baliqni kuzatdim; shu mahal bambuk kayutaning orqa tomonida o'tirgan Knutning jonholatda baqirgani eshitildi. U ovozi xirillab qolguncha: «Akula!» – deb qichqirdi. Deyarli har kuni sol atrofida akula paydo bo'lib, o'ralashib yurardi, hech kimga zarar yetkazganicha yo'q edi, shuning uchun ham biz bugun alohida bir voqea yuz bergani-ni tushundik va Knutga yordamga oshiqdik.

Knut cho'kkalab olgancha to'lqinlarda ishtonini yuvayotgan ekan; shunday boshini ko'tarib qarasa, qarshisida bahaybat, badbashara tumshuq turgan-mish – haqiqiy dengiz maxluqining o'zginasimish. Umrimiz bino bo'lib, birontamiz bunaqasini ko'rma-ganmiz. Qarishmizda dengiz alvastisi bo'lsa bu qadar ta'sir qilmasdi bizga. Bu maxluqning qurbaqanikiday yassi, keng kallasining ikki yonboshida ikkita kichki-na ko'zi bor edi, eni bir yarim metr keladigan, cho'l-baqanikiga o'xshash jag'i atrofida uzun-uzun bo'lib osilib turgan burmalari bor edi.

Uzun ingichka dum bilan tugallanuvchi bahaybat gavdaga ulanib ketgandi boshi. Bu dahshatli dengiz maxluqining kitlar oilasiga mansub emasligini ko'r-satuvchi uchli dum yuzgichlari bor edi. Tanasi suvda qo'ng'ir bo'lib ko'rinardi, ammo boshi va butun gav-dasida mayda-mayda oq dog'lar bor edi. Bahaybat dengiz maxluqi solimizning quyruq tomonida erinib-gina suzib kelardi. U buldog it singari irjaydi, dumini siltadi. Orqasidagi kattakon doira yuzgichi suvdan chiqib turar, dum yuzgichi ham ahyon-ahyon suv betida ko'rinib qolardi; maxluq ikki to'lqin oralig'iga tushib qolgan kezlarda to'lqin suv osti qoyasini yu-vib o'tayotgandek uning keng orqasini yuvib o'tardi. Uning kattakon jag'i qarshisida zebra singari chipor

lotsman baliqlar gala-gala bo'lib suzib yurishardi, yirik-yirik shilliqlar va turli isriqlar uning bahaybat gavdasiga yopishib olib, u bilan birga suvda suzishardi; bularning bari birlashib, suvga botib suzib kelayotgan qoyaga chirmashib olganga o'xshardi.

O'n kiloli oltin makrel balig'ini oltita eng katta qarmoqqa ilib, akulaga xo'rak sifatida sol orqasiga tashlab qo'ygandik; lotsman baliqlar oltin makrelga kelib tumshuqlarini surkashdi-surkashdi-da, ortiq parvo qilmay, orqaga, o'z hukmdorlari, dengiz podshohi yoniga oshiqishdi. U bo'lsa yasama maxluq kabi mexanizmlarni ishga solib, suvda yengilgina sirg'alla-sirg'ala oltin makrelga yaqinlashdi. Makrel balig'i uning bahaybat jag'i oldida o'yinchoqdek ko'rinardi. Biz xo'rakni sol chetiga qarab ohista torta boshlagan edik, dengiz maxluqi ham uning ketidan suzib kelaverdi. Og'ziga tegib turgan shu arzimas bir bo'lak narsani deb butun darvozani ochishning hojati yo'q, degandek u jag'ini ochmadi. Bahaybat maxluq yaqinlashib kelganida og'ir rul eshkagiga suykalgan edi, yarim beligacha suvdan chiqib qoldi. Endi juda yaqin joydan turib bu afsonaviy maxluqni tomosha qilar-kanmiz, esidan ayrilgan kishilardek qahqahlab kulib, allanimalar deb qichqira boshladik. Hatto Uolt Disney¹ ham qanchalik xayolparast bo'lmasin qarshimizda qo'qqisdan namoyon bo'lib, sol yonida dahshatli og'zini qimirlatib turgan dengiz maxluqi singari bir bahaybat maxluqni tasvirlay olmasdi.

Bu maxluq kitlar turiga mansub akula ekan. Ya'ni hozirgi kunda ma'lum va mashhur bo'lgan eng katta akula hamda dunyoda eng yirik baliq ekan.

Bu kamyob baliq ahyon-ahyonda uchrar, uning ba'zi turlari tropika yaqinidagi okeanlarda bo'lib turardi. Bunday akulaning kattaligi o'rta hisobda 15 metr

¹ Uolt Disney – Amerikaning multiplikator-kino rejissyori.

bo'lib, zoologlarning aytishicha, og'irligi 15 tonna keldi. Bu baliqning eng yirigining uzunligi 20 metr bo'larkan; garpun yordamida o'ldirilgan bolasining jigari 300 kilogramm kelgan, jag'ida 3 ming tishi bor ekan.

Bu maxluq shu qadar katta ediki, sol atrofida va tagida doira yasab suza boshlaganida, boshi solning bu boshidan chiqib turgan bo'lsa, dumi narigi boshidan bamaylixotir ko'rinib turardi. Old tomondan tumshug'i shunaqangi g'alati ko'rinardiki, mabodo hujum qilib qolgudek bo'lsa, dumini bir chayqatgandayoq balza xodalarini ham, ularni bir-biri bilan bog'lab turgan arqonlarni ham parcha-parcha qilib tashlashga qodir ekanligini bila turib xaxolab kulib yuborishdan o'zimizni tiyib turolmadik. Akula solimiz ostida borgan sayin tor doira chizib aylanar, biz bo'lsak, qani nima bo'lar ekan, degandek kutib o'tirardik. Solning quyruq tomonidan suzib o'tarkan, akula rul eshkagi tagi bilan suzar va quyruqni ko'tarib yuborardi. Ayni chog'da eshkak kuragi uning yelkasini silab o'tardi. Biz qo'l garpunlarini tayyor qilganча palubada turardik. Qo'limizdagi garpunlar qarshimizdagi bahaybat maxluq oldida tishcho'tkadek ojiz ko'rinardi nazarimizda. Akula bizni xoli qoldirib ketadiganga o'xshamasdi; u sol atrofida girdikapalak bo'lib aylanar, xuddi sodiq ko'ppakdek, ergashib keldi. Shunaqa bir maxluqni ko'rish-u shunaqa bir kayfiyatni boshimizdan kechirish hech qaysi birimizning yetti uxlab tushimizga kirmagan edi; solimiz ketidan ergashib suzib yurgan, tagidan suzib o'tayotgan dengiz dahshati tufayli ko'rgan-kechirganlarimiz shu qadar g'ayritabiiy tuyulardiki, biz bu voqeaga jiddiy e'tibor qilolmasdik.

Akula atigi bir soat mobaynida atrofimizda suzgan esa-da, nazarimizda uzzukun bizni notinch qilayotganday edi. Ikki metrli qo'l garpuni bilan sol

burchida turgan Erik ortiq toqat qilib turolmadi va allanima balolar deb qichqirganicha garpunni boshi uzra ko'tardi. Akula Erik tomon surilib, sol burchiga yetganda yalpoq boshini ko'tardi. Erik qulochkashlab turib garpunni otdi va uni akulaning suyakdor boshiga sanchdi.

Dengiz dahshati nima bo'lganini tushunib yetgunigacha bir necha daqida o'tdi. Keyin bu aqli zaif maxluq bir olam cho'yan muskulga aylandi. Garpun arqoni bort uzra uchib o'tganda vizillaganini eshitdik va dahshatli maxluq boshi bilan suvga sho'ng'iganda hosil bo'lgan suv fontanini ko'rib qoldik. Boshqalarga qaraganda yaqinroqda turgan uch kishi uchib ketdi; osmonda vizillab uchgan arqon zarb bilan ularning ikkitasiga kelib tekkan edi. Shlyupkani tortib turishga yaraydigan yo'g'on arqon sol chetiga ilinib qoldi-yu, lekin shu zahotiyoy ingichka kanop singari chirt uzildi-ketdi. Bir necha daqiqa o'tar-o'tmas, boyagi irg'itilgan garpun bandi ikki yuz qadamcha narida, suv betida paydo bo'ldi. Cho'chigan lotsman baliqlari bir to'da bo'lib, hukmdorlarini izlab shoshib suzib ketdilar.

Bahaybat maxluqni suv osti kemasi yanglig' ana paydo bo'lib qoladi, mana paydo bo'lib qoladi, deb uzoq kutdik; lekin akulani ortiq ko'rish nasib bo'lmadi bizga.

Endi biz Janubiy ekvatorial oqimda bo'lib, g'arbga qarab, Galapagos orollaridan 400 mil janubda edik. Galapagos oqimlariga tushib qolish xavfidan qutuldik; bir arxipelag bilan tanishishimiz kattakon dengiz toshbaqalari yetkazgan salomlar bilan kifoyalandi. Bu toshbaqalar o'sha orollardan suzib kelganiga shubha qilmas edik. Bir kuni biz, boshi bilan bir oyog'ini chiqarib suvda shapir-shupur qilib suzib kelayotgan kattakon dengiz toshbaqasini ko'rdik. Suv mavjlana boshlaganda toshbaqaning shundoqqina tagida ko'kish va zarhal sharpalarni ko'rdik-da,

toshbaqa oltin makrel baliqlari bilan hayot-mamot kurashi olib borayotganini angladik. Kurash bir tomonlama edi; 12 –15 tacha kallador, rangdor makrel baliqlari holdan ketkazib taslim qilish payida toshbaqaning bo'yni va oyog'ini talardi.

Solni ko'rishni bilanoq toshbaqa bir sho'ng'idi-da, oltin makrellar ta'qibida to'ppa-to'g'ri biz tomon suzib kela boshladi. Toshbaqa sol yoniga kelib, unga chiqib olishni mo'ljallab edi hamki, birdan bizni ko'rib qoldi. Tajribaliroq bo'lganimizda edi, toshbaqa beso'naqay kosasi bilan sol yoqalab ohista suzib o'tguncha, arqonlar yordamida osongina tutib olgan bo'lardik uni. Lekin biz uni tomosha qilamiz deb vaqtni boy berib qo'ygan edik. Sirtmog'imiz taxt bo'lganda esa, bahaybat toshbaqa solimiz tumshug'idan ancha uzoqlab ketgan edi. Biz darhol kichkinagina rezina qayiqni suvga tushirdik. Bengt bilan Torsteyn yiroqlab ketayotgan tog'oradan sal kattaroq qayiqchaga tushib olib, uni quvlay ketishdi. Bengtning pazanda sifatida toshbaqa go'shtidan bo'ladigan turli-tuman taomlar va xushxo'r toshbaqa sho'rvasi tayyorlash xayoli ham yo'q emas edi. O'rtoqlarimiz qanchalik tez haydashsa toshbaqa ham shunchalik tez suzardi; ular soldan yuz metr nari borar-bormas toshbaqa birdan g'oyib bo'ldi-qoldi. O'rtoqlarimiz har holda bir savob ish qilgan edilar. Kichkinagina sariq rezina qayiq suvda o'ynoqlab orqaga qaytarkan, boyagi bir to'p oltin makrel baliqlari uni quvalay ketishdi. Ular boshqa bir toshbaqani qurshab olishdi, dovyurakroqlari bo'lsa toshbaqa oyog'i singari suvga sho'ng'ib chiqayotgan eshkak parragiga yopishib ham ko'rishdi. Beozor toshbaqa esa bu orada surbet ta'qibchilaridan omon-eson qutulib ketgandi.

V BOB

YARIM YO'lda

Kundalik hayot va tajribalar. – Sol ekipaji uchun suv. – Batat va qovoq sirni ochadi. – Kokos yong'oqlari va dengiz qisqichbaqalari. – Yuxannes. – Biz baliq sho'rva uzra suzamyiz. – Plankton. – Yeyiladigan fosforessensiya¹ – Kitlar bilan tanishuv. – Chumolilar va dengiz o'rdaklari. – Suzuvchi arzandalar. – Oltin makrellar bizga yo'ldosh bo'lib qoladi. – Akula ovi. – «Kon-Tiki» dengiz vahshatiga aylanadi. – Akulalar bizga lotsman va shilimshiqlarni qoldiradi. – Uchar kalmarlar. – Noma'lum mehmon. – G'avvos savati. – Tunets va bonitlar olamida. – Mavjud bo'lmagan suv osti qoya. – Tagto'sin siri ochildi. – Yarim yo'lda.

Haftalar o'tardi. Hech qanday kemanday qorasi ko'rinmasdi; olamda bizdan bo'lak odamlar ham borligidan dalolat berib, suvda oqib yuradigan buyumlar ham uchramasdi. Butun okean bizning ixtiyorimizda edi; qay tomonga qaramaylik, ko'z ilg'agan yerga yastangan ufqqa tutashib ketgandi. Osmoni falakdan sokinlik va erkinlik ruhi yog'ilayotganday edi.

Okean tuzini emgan havo musaffo, har yonimizdan qurshagan moviylik ruhimizni ham, butun borligimizni ham yengil qilganday. Madaniy olam ahlining barcha murakkab masalalari solda bizga allaqanday sun'iy va xayoliy, insonning buzuvchi ongi to'qigan uy-dirma bo'lib ko'rinardi. Haqiqat faqat tabiat hodisalaridan iborat edi. Tabiat hodisalarining esa kichkina

¹ Fosforessensiya – yoritilgandan so'ng yaltillab turuvchi kimyoviy elementlar.

sol bilan ishi yo'q. Balki, ular solni okean uyg'unligiga putur yetkazmagan, quyosh yoki baliq singari oqim va to'qlinlarga ko'nikma hosil qilayotgan tabiiy bir narsa, deb qabul qilgan bo'lsalar ham ajab emas. Endi tabiat kuchlari biz uchun qaynab-ko'pirib, o'kirib ustimizga tashlanadigan dahshatli dushman emas, balki ilgari-lashimizga qat'iylik va ishonch bilan ko'maklashadi-gan sadoqatli do'st edi. Shamol va to'qlinlar itarishib yordamlashar, okean oqimi esa tagimizda turib ko'z-lagan marramiz tomon surardi bizni.

Biz okeanda o'tkazayotgan odatdagi kunlardan bi-rida birorta kema duch kelib qolguday bo'lsa, uning bortidan qaragan kishi bizning uzun, ohista yo'rg'a-lagan to'qlinda bir ko'tarilib, bir tushib turganimizni, quruq tropik shamol esa, zarg'aldoq rang yelkanimiz-ni qappaytirib, solimizni Polineziya tomon surib bo-rayotganini ko'rardi.

Kema bortida turganlar yana oftobda qoraygan, soqoldor, yalang'och bir kishining sol quyrug'ida zo'r berib uzun rul eshkagi bilan olishayotganini yoki – agar havo yaxshi bo'lsa – rul eshkagini oyog'i bilan bosganicha yashikda oftobda isinib o'tirganini ko'rishardi.

Agar Bengt rul yonida bo'lmasa, uni kayuta eshigi yonida, qornini yerga berib, sotsiologiyaga oid yetmish uch kitobidan birini o'qib yotgani usti-dan chiqish mumkin edi. Bundan tashqari, xo'jalikni boshqarish ham Bengtning zimmasida bo'lib, kun-dalik menyuni ham u tuzardi. Germanni kunning istagan soatida hamma yerda uchratish mumkin – dam meteorologik asbob-anjomlar bilan machtaning tos tepasida yursa, dam g'ovvos ko'zoynagini taqib, sol tagida tag to'sinni tekshirayotgan bo'ladi, yo bo'l-masam, solga bog'lab qo'yilgan rezinaa qayiqda havo shari va yana allaqanday o'lchov apparatlari bilan o'ralashib yurardi. German texnika qismimiz bosh-

lig'i bo'lib, meteorologik va gidrogeografik kuzatishlarni olib borardi.

Knut bilan Torsteyn doimo o'zlarining yarim qu-ruq batareyalari, qalaylaydigan asboblari va sxemalari bilan allanimabalolar qilishardi. Ularning kichkinagina radiostansiyalari suv qatralari va zaxda, suv sathidan 30 santimetr balandda bemalol ishlashi uchun urush davrida orttirgan tajribalari asqotar edi. Har kech ular galma-gal efirga ob-havo haqida ma'lumot yuborishardi. Ular yuborgan ma'lumotni to'g'ri kelgan radio havaskorlari tutib olardilar-da, Vashington Metereologiya institutiga hamda boshqa tegishli tashkilotlarga yuborardilar. Erik odatda yelkanni yamab, arqonlarning uchini o'rib o'tirardi; ba'zida u soqoldor kishilar va antiqa baliqlar shaklini yog'ochdan yo'nar yoinki qog'ozga suratini chizardi. Har kuni tush paytida esa u sekstantni olib, yashikka chiqar va quyoshga qarab bir kechada qancha masofa yurganimizni belgilashga tushardi. Men bo'lsam kema jurnaliga hisobotlar yozish, baliq ovlash hamda kinoga olish ishlari bilan mashg'ul, ishim boshimdan oshib-toshib yotardi. Har kim o'ziga yarasha bir ishga mas'ul qilib tayinlangan edi. Hech kim birovning ishiga aralashmasdi. Rulda vaxtada turish, ovqat pishirish kabi ko'ngilga xush yoqavermaydigan ishlar esa navbatma-navbat qilinardi. Har bir kishi kunduz va kechasi ikki soatdan rul eshkagi yonida navbatda turishi lozim. Oshpazlik vazifasini esa, har birimiz navbatimiz bilan bajarardik. Soldagi qonun-qoidalar ko'p emas edi: tungi navbatchi arqonni beliga bog'lab olishi kerak, qutqarish arqoni doimo ma'lum bir yerda bo'lmog'i zarur, kayutada ovqatlanish mumkin emas, quyruq tomonning eng so'nggi yog'ochlarigina «hojatxona» vazifasini o'tashi mumkin. Biror muhim qarorga kelish lozim bo'lsa, hindilar uslubida harbiy

kengash chaqirar edik-da, biror fikrga kelgunga qadar birgalikda muhokama qilardik.

Odatda «Kon-Tiki» bortida kunduzgi hayot shunday boshlanardi: tungi vaxtani o'tagan kimsa oshpazni uyg'otadi, u bo'lsa uyquli ko'zlarini ishqalay-ishqalay shabnamdan nam bo'lgan, tongi quyosh nuriga g'arq palubaga chiqadi-da ucharbaliqni yig'a boshlaydi. Polineziyaliklar va peruliklar kabi baliqni xomligicha yeyish o'rniga, biz ularni kayuta eshigi yonidagi palubaga mahkam bog'langan yashik ichidagi kichkina primusda qovurardik. Shu yashik bizning oshxonamiz edi. Solning faqat shu qismigina janubi-sharqiy tropik shamoldan xoli edi. Shamol va to'liqlar primus alangasi bilan haddan tashqari o'ynashgandagina yog'och yonib ketardi; kunlardan bir kun oshpaz uxlab qolibdi-yu, yashik yonib ketib, olov bambuk kayutaning devoriga uribdi. Lekin kayutaga tutun kirishi bilan olov darhol o'chirildi: chunki ««Kon-Tiki»da suv axtarib uzoqqa borishga ehtiyoj yo'q edi.

Yeyish-ichishdan kamchiligimiz bo'lmasdi. Biz ikki turli tajriba o'tkazardik: buning biri XX asr intendant boshqarmasiga oid bo'lib, ikkinchisi u asr va «Kon-Tiki»ga oid edi. Birinchi tajriba Torsteyn bilan Bengt ustida o'tkazilib, ularning yemishlari qutilarga joylangan kichkina, yupqa paketlarda bo'lib, bu qutilarni biz xodalar va bambuk paluba orasiga tiqishtirib qo'yan edik. Shunisi ham borki, Torsteyn bilan Bengtning baliq va boshqa dengiz taomlariga unchalik xushi yo'q edi. Bir necha haftada bambuk palubaga chambarchas bog'langan arqonni yechib, yangi qutini olardik-da, keyin kayuta yoniga yana mahkamlab bog'lardik.

«Kon-Tiki» birinchi bor okean bo'ylab safarga chiqqanda asfalt ham, germetik suratda berkitadigan bankalar ham bo'lmagan; shunga qaramay ular

oziq-ovqat borasida qiyinchilik ko'rishmagan. O'sha paytlarda ham dengizchilar quruqlikdan o'zlari bilan ola chiqqan oziqlari-yu yo'lda topganlari bilan tirikchilik qilishgan. Titikaka ko'li yaqinida mag'lubiyatga yo'liqqan «Kon-Tiki», Peru qirg'oqlaridan safarga chiqarkan, quyidagi ikki maqsadni ko'zda tutgan. Quyoshga topingan xalqi orasida quyoshning jonli timsoli bo'lgan «Kon-Tiki»ning to'g'ridan-to'g'ri okean bo'ylab quyosh yo'li bo'yicha safarga chiqishdan umidi yangi, sokin mamlakat topish bo'lgan bo'lsa ajab emas. Yoinki u o'z sollarini Janubiy Amerika sohillari bo'ylab safarga yo'llab, shimolroqqa tushib, o'sha yerga joylashib, ta'qib qiluvchilarning qo'li yetmaydigan joyda yangi podshohlik tuzishni niyat qilgandir.

O'sha quyoshga topinganlarning rejasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, vatanlarini tashlab chiqarkanlar, albatta, safar uchun oziq-ovqat g'amlab olgan ular. Quritilgan go'sht, baliq va shirin kartoshka – ularning asosiy yemishlari edi. O'sha zamonlarda odamlar sollarda Peruning odamsiz sohillari bo'ylab safarga chiqarkanlar, albatta, ko'pgina suv g'amlab olardilar. Sopol idishlardan ham ko'ra ular, har xil turtkilarga bardosh beradigan kattakon qovoqlarni afzal bilardilar. Bahaybat bambuk poyalari solda yaxshi ish berardi; bambuk poyalarning bo'g'inlari teshilardi-da, ana shu teshik orqali ichiga suv quyilardi, so'ng tiqin bilan berkitilar yoinki qatron, yoki daraxt yelimi bilan suvab tashlanardi. 30-40 ta bambuk poyalarni solning bo'yiga qilib, bambuk paluba tagiga boylab qo'yish mumkin edi. U yerda poyalar salqin dengiz suvida (ekvator oqimida suv 26° bo'ladi) hech zarar ko'rmaydi. Bu miqdor suv safar paytida biz sarflaganimizdan ikki hissa ortiq bo'lib, uni ko'paytirishning hech qanday qiyinchiligi yo'q edi. Buning uchun yana yigirma-o'ttizta bambuk po-

yani sol tagiga boylab qo'yilsa bas edi. Ular ortiq joy ham egallamas, og'irlik ham qilmas edi.

Oradan ikki oy o'tgach, ichadigan suvimiz buzilib, achimsiq hid kelib qolganini bildik. Lekin bu vaqt orasida okeanning yomg'ir kam yog'adigan qismidan o'tib, jala quyadigan qismiga yetib olish mumkin edi. Biz kuniga kishi boshiga bir litr-u chorakdan suv taqsimlagan edik. Lekin bu miqdor suv har kuni ham sarf bo'lavermasdi.

Qadimiy hindilar chanqov qondirishning g'aroyib yo'lini bilisharkan. So'nggi jahon urushi paytida kema halokatiga yo'liqqanlarning ko'plari shunday qilishgan – xom baliqni so'rib tashnalikni qondirishgan. Shuningdek, bir bo'lak baliqni biror lattaga o'rab suvini siqish ham mumkin. Agar baliq katta bo'lsa, tanasining bir necha yerini o'yib chuqurcha yasaladi-da, shu chuqurchalar baliqning limfatik bezlari chiqaradigan suyuqlik bilan to'lishi kutiladi. Agar boshqa ichimligingiz bo'lsa bu ichimlik unchalik yoqmaydi – ammo tarkibida tuz kam bo'lganidan tashnalikni tezda qondiradi.

Agar biz muntazam cho'milib tursak, cho'milgandan keyin ho'lligimizcha soya kayutada yotsak, suv ichishga bo'lgan ehtiyojimiz kamayib borardi. Agar atrofimizda akula salobat bilan poyloqchilik qilib, okeanda rohat qilib cho'milishga imkon bermay tursa, solning quyruq tomonida palubaga uzala tushib yotib olib, arqonlarga oyoq-qo'llarimiz bilan mahkam yopishib olsak kifoya. Shunda Tinch okeanning har soniyada solga sapchib turgan, tiniq suvida vanna qabul kilgandek bo'lardik.

Odatda, kun issiq paytida odam tashnalikdan qiyalsa, organizmim suyuqlik talab qilyapti deb o'ylaydi-da, huda-behuda suv ichaveradi. Aslida kun issiq kezlarda tropik o'rmonlarida shu qadar ko'p iliq suv

ichish mumkinki, ichgan suvingiz tomog'ingizgacha keladi-yu, ammo tashnaligingiz bosilmaydi. Bunday paytlarda organizm suyuqlik emas, balki, aksincha, tuz talab qiladi. O'zimiz uchun belgilangan maxsus oziq-ovqat o'lchamiga, ayniqsa kun isib ketgan kezlarda, muntazam qabul qilib turish uchun tuz tabletkalari ham kirardi. Negaki kun isiganda organizm ter bilan birga tuz ham chiqaradi. Shamol butunlay tinib, quyosh ayamay qizdirgan chog'larda issiqqa chidab bo'lmay qolardi. Bunday paytlarda ichimizni shu daraja suvga to'ldirib yuborardikki, qornimizda suv shilqillay boshlardi-yu, lekin tomog'imiz qaqrab, yana suv ichgimiz kelib turaverardi. Shunday kunlarda oziq-ovqat o'lchamidagi ichiladigan suvimizga 20–40 foiz taxir dengiz suvi qo'shardik-da, sho'rtakroq suv tashnalikni yaxshiroq qondirayotganiga ishonch hosil qilardik. Anchagacha og'zimizda dengiz suvining ta'mi sezilib turardi, biroq sira ko'nglimiz aynimasdi; shu yo'l bilan ichiladigan suv miqdorini ham birmuncha oshirib oldik.

Kunlardan bir kun nonushta qilib o'tirgan chog'imizda daydi to'lqin bostirib kelib, yeb turgan bo'tqamizga suv chalpidi va suli yormasi dengiz suvining taxir mazasini birmuncha bosishini bizga teppa-tekin o'rgatib qo'ydi.

Polineziyalik keksalar g'aroyib rivoyatlarni xotirlaydilar. Bu rivoyatlarga ko'ra, ularning qadim ajdodlari, okeanni suzib o'tgan chog'larida, yonlarida allaqanday o'simlik barglarini ola chiqqanlar va tashna bo'lganlarida og'izlariga solib chaynaganlar. Bu o'simlikning yana bir xususiyati shundan iborat bo'lganki, uning bir parchasini og'izga solib qo'yib dengiz suvi ichilsa, ko'ngil aslo behuzur bo'lmagan. Janubiy dengiz orollarida bunday o'simlik yo'q; bu o'simliklar polineziyaliklarning ajdodlari vatanida o'sgan bo'lishi kerak.

«Kon-Tiki»da biz koka yaproqlarini chaynab ko'rmadik; palubamizning oldingi qismida Janubiy dengiz orollaridagi hayotga katta ta'sir o'tkazgan boshqa xil o'simlik bilan to'ldirilgan savatlar bor edi. Palubaga bog'lab qo'yilgan savatlar kayuta devori soyasida turar, vaqt o'tgan sayin sariq novda chiqarib, ko'm-ko'k yaproq yozardi. Bu yog'och solda barpo bo'lgan mo'jizagina tropik bog'ni eslatardi. Ilk yevropaliklar Tinch okean orollarida paydo bo'lganlarida Pasxi va Gavay orollarida Yangi Zelandiya orollarida shirin kartoshka o'stiriladigan katta-katta plantatsiyalarga duch kelganlar; batat o'simligi boshqa orollarda ham ekilgan-u, lekin uning ekilish doirasi Polineziyadan nariga o'tmagan. Polineziyaliklarning juda ko'p rivoyatlari shu o'simlik haqidadir. Naql qilishlaricha, bu o'simlikni birinchi marotaba Tikining o'zi, xotini Pani bilan kelgan chog'da keltirgan. Shirin kartoshka ularning ajdodlari yashagan daryoda asosiy oziq hisoblangan. Yangi zelandiyaliklarning rivoyatlariga ko'ra esa, shirin kartoshkani qayiqqa o'xshamagan, «bir-biriga arqon bilan bog'lab yasalgan» kemalarda okean ortidan keltirganlar.

Polineziyani mustasno qilganda yevropaliklar paydo bo'lgunga qadar yer yuzida shirin kartoshka o'stirilgan birdan bir joy Amerika bo'lganligi hammaga ma'lum. «Kon-Tiki» tomonidan orollarga keltirilgan Jpomaea va tatas degan shirin kartoshka qadim zamonlardan buyon hindilar Peruda o'stirgan kartoshkaning xuddi o'zginasi bo'lgan. Quritilgan shirin kartoshka qadimiy peruliklarning ham polineziyaliklarning ham safarga olib chiqadigan birdan bir asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo'lgan. Janubiy dengiz orollarida batatlar yaxshi parvarish qilingan taqdirdagina hosil beradilar. Buning ustiga ular dengiz suviga chidash berolmaydilar. Shularni hisobga olganda,

bu orollarda ularning keng tarqalganligini Perudan 4 ming mil masofaga okean oqimi bilan kelib qolgan, deb izohlashlari asossiz, degan xulosa kelib chiqadi. Perudagi qadimiy hindilar ham shirin kartoshkani «kumara» deb ataganlar. Kartoshkaning nomi, uning izidan, okean osha kelgan.

Polineziyada ekib-undiriladigan muhim o'simliklardan yana biri bor edi bizning «Kon-Tiki»da. Bu o'simlik Lagenaria vulgaris deb nomlangan shishasimon qovoq edi. Qovoqning o'zidan kam ahamiyatga ega emasdi qobig'i. Polineziyaliklar qovoqning etini o'yib olib, qobig'ini gulxanda quritib, suvdon o'rnida foydalanardilar. O'z-o'zidan okean osha suzib kela olishi, yovvoyi holida orollarda tarqalishi mumkin bo'lmagan bu poliz ekini qadimiy polineziyaliklarga ham, Peruning ilk aholisiga ham ma'lum bo'lgan. Suv idishga aylantirilgan bunday shisha qovoqlarni Peru sohillaridagi qabrlarda uchratamiz; Tinch okeani orollarida ilk odamlar paydo bo'lishidan necha-necha asrlar ilgari baliqchilar bu idishlardan foydalanishgan. Shisha qovoqning polineziyacha «kimi» degan nomi Markaziy Amerika hindilari orasida ham uchraydi. Peru madaniyati tomiri bu joylarga ham yetgan-da.

Hali irib ketmasidan, biz bir necha hafta mobaynida iste'mol qilgan janubning tar mevalaridan yana bir xili bo'lib, bu meva shirin kartoshka qatorida Tinch okean tarixida katta rol o'ynagan edi. Bizni muzdekkina ichimlik bilan ta'minlab turadigan ikki yuz dona kokos yong'og'imiz ham bor edi. Ko'p o'tmay ba'zi yong'oqlarimiz ko'kara boshladi. Safarga chiqqanimizga rosa o'n hafta bo'lganda palubamizda bo'yi o'ttiz santimetr keladigan besh-olti palma paydo bo'lib, novdalari ko'm-ko'k barg ham yozdi. Kokos yong'og'i Kolumbgacha bo'lgan davrlarda Panama bo'g'ozi va Janubiy Amerikada ham ko'kargan. Tarixiy yilnomalar muallifi

Ovedoning¹ yozishicha, Peruning Tinch okeani tomonidagi sohillarida ispanlar paydo bo'lgan kezlarda, bu yerlarda kokos palmalari ko'p o'sgan. O'sha vaqtlarda kokos palmalari Tinch okeandagi barcha orollarda o'sgan. Kokos palmalarining Tinch okeani sohillarida tarqalish yo'li qanday bo'lgani haqida botaniklar hali aniq bir xulosaga kelmaganlar. Lekin hozirning o'zida shu bir narsa aniqki, hatto ma'lum va mashhur qattiq qobig'i bo'lgan kokos yong'og'i ham inson yordamisiz okean osha o'tolmaydi. Palubadagi savatga solib qo'ygan yong'oqlarimiz, boyagi besh-oltitasidan tashqari, to Polineziyaga yetib borgunimizgacha ham buzilmay, ko'karmay turdi. Xuddi shu miqdordagi yong'oqlarni biz paluba tagidagi oziq-ovqat saqlanadigan qutilar orasiga joylagandik. Bu qutilar bora-borguncha to'liqlar orasida bo'ldi. Bu yong'oqlarning hammasi baravar buzilgan edi. Axir bironta ham yong'oq okean bo'ylab, shamol yordamida yelib suzgan balza soli tezligida suzolmaydi-ku. Avvalo, yong'oqlarning ko'zi suv shimib yumshardi-da, ichiga suv o'tardi. Undan tashqari, okean bo'ylab suzgan biror-bir yegulik narsaning dunyoning bir qit'asidan ikkinchi qit'asiga yetib bori-shiga monelik qiladigan gala-gala baliqlar suzardi.

Ba'zan havo sokin kezlarda, ko'm-ko'k okean bag'rida qirg'oqlardan juda-juda uzoqda, solimiz bilan yonma-yon suzayotgan oppoq qush patini ko'rib qolardik. Quruqlikdan minglab mil narida ham yakka-yolg'iz bo'ron qushlarini yoiniki suv betida uxlay oladigan boshqa dengiz qushlarini ko'rib qolardik.

Tirnoqcha keladigan, ba'zida undan sal katta-roq qisqichbaqalar, ushlab olishning ilojini qilolgan taqdirimizda, bizlar uchun mazali xo'rak bo'lardi. Lekin solning quyruq tomonida rul eshkagi joylanadigan

¹ De Ovedo i Baldes (1478 – 1557) – ispan tarixchisi, xronikalar muallifi.

kunda yonidagi kichkina yoriqqa bir qisqichbaqa joylashib olgan edi. Biz Yuxannes deb nom qoʻygan bu qisqichbaqa xuddi oʻrgatilganga oʻxshardi. Hammadamizning arzandamiz toʻti bilan bir qatorda qisqichbaqa Yuxannes ham soldagi ulfatlar qatoriga kirardi. Agar vaxtada turgan kimsa, kayutaga orqasini qilib oʻtirarkan, yonida Yuxannesni koʻrmasa, poyonsiz koʻm-koʻk okean qoʻynida oʻzini yakka-yolgʻiz his qilardi.

Boshqa jimit qisqichbaqalar oddiy kemalardagi suvaraklarday tum-taraqay boʻlsalar, Yuxannes kavagi yonida koʻzlarini loʻq qilib vaxta almashinishini kutadi. Negaki, vaxtani qabul qilgan har kimsa Yuxannes uchun non uvogʻi yoki biror burda baliq ola kelardi. Navbatchi uning ini tepasida engashsa bas, bir zumda qisqichbaqa ostonada paydo boʻlardi-da, qisqichini choʻzardi. U non ushoqlarini barmoqlarimizdan qisqichlari bilan bittalab terib olardi-yu, yana iniga kirib ketardi-da, kavak ogʻziga joylashib olib, lunjiga ovqat toʻldirib olgan oʻquvchi bola singari kavshanib oʻtirardi.

Oqim ixtiyorida okean boʻylab behisob miqdorda suzib yurguvchi, koʻzga deyarli koʻrinmaydigan planktonlar juda toʻyimli oziq hisoblanadi. Baʼzi baliq va dengiz qushlari plankton bilan oziqlanmaganlari bilan, shu planktonlarni yeydigan boshqa baliq yo dengiz jonivorlari hisobiga yashaydilar. Plankton – okeanda, suv yuzasida suzib yuradigan koʻzga koʻringan va koʻrinmagan minglab mayda organizmlarning umumiy nomidir. Ularning baʼzilari oʻsimlik (fitoplankton) boʻlib, boshqalari – erkin suzuvchi baliq urugʻlari yoki jimit jonivor (zooplankton)dir.

Ularning koʻplari qisqichbaqanamo jonivorlar boʻlib, baʼzilari erkin suzuvchi baliq tuxumlari edi. Lekin ular orasida endigina tuxumdan chiqqan baliqlar, molluskalar, rango-rang, gʻaroyib jimit qisqichbaqalar, meduzalar va Uolt Disneyning «Xayolot»idan olingandek koʻringan turli-tuman mayda jonivorlar boʻlardi.

Ekvatoridan janubroqda sovuq Gumboldt oqimi g'arbga burilganda, biz har bir necha soatda to'rdan og'irligi bir-ikki kilogramm keladigan plankton bo'tqasini ag'darib olaverdik. Plankton to'r ichida, har rangda qavat-qavat qilib yasalgan tort kabi – qay turli plankton dalasidan o'tganimizga qarab, qo'ng'ir, qizil, kulrang va yashil rangda to'planardi. Kechasi, atrofigimizni qurshagan suv fosforlanib tovlangan chog'larda, xaltadagi yaltiroq qimmatbaho toshlarni kovlashtirayotgandek bo'lardik. Ularni qo'lga olganimizda esa, qaroqchilar xazinasini millionlab mayda yarqiroq toshlarga va nur taratadigan baliq urug'lariga aylanardi. Ular qorong'ida qip-qizil cho'g'dek lovullardi. Biz ularni chelakka ag'darganimizda esa, sanjoblanib qolgan bo'tqa yoyilib, yaltiroq qurtlardan tarkib topgan sehrli bo'tqaga aylangan tungi ovimiz yaqindan qaraganda juda jirkanch ko'rinardi. Agar ovimiz mayda garnellardan iborat bo'lsa, omar¹ yoki krevetka² mazasini berardi. Agarda ovimiz chuqurlikda suzadigan baliq urug'laridan iborat bo'lsa, qora ikra yoki ustritsa³ mazasini berardi. Yeb bo'lmaydigan o'simlik planktonlar shu daraja mayda zarralardan iborat bo'lardiki, suv bilan birga to'r xonalaridan o'tib ketar, yoki shu darajada katta bo'lardiki, qo'limiz bilan olib tashlardik. Bu yemish ichida «zararli aralashmalar» – shisha zoldirsimon jonivorlar va kattaligi bir santimetr keladigan meduzalar ham uchrardi. Ularning mazasi achchiq bo'lganidan terib tashlashga to'g'ri kelardi. Boshqalarining hammasini qanday bo'lsa shundayligicha yoki suvda qaynatib, sho'rva yoki bo'tqa shaklida tanovul qilish mumkin edi.

– Biz planktonxo'rlar ham shunday qilsak bo'lmaydimi? – deyishdi Torsteyn bilan Bengt suvni fontan

¹ Omar – dengizda yashovchi katta qisqichbaqa.

² Krevetka – mayda dengiz qisqichbaqasining bir turi.

³ Ustritsa – yeyiladigan dengiz mollyuskasi.

qilib chiqarayotgan kitga imo qilib. – Qani, og‘zingizga suv to‘ldirib, mo‘ylovingiz orasidan purkang-chi!

Kitlarni uzoqdan turib paroxodlardan ko‘rganman, ularning bahaybatini muzeylarda ko‘rganman, lekin hech qachon, bu ulkan maxluq ot yoki fil qabilidagi issiqqon hayvon degan fikr xayolimga ham kelmagan. Biolog sifatida men kitning haqiqiy sut emizuvchi ekanligini tan olardim, albatta. Lekin boshqa hamma tomonlaridan kit kattakon sovuq baliq bo‘lib tuyulardi menga. Endilikda bo‘lsa, bahaybat kitlar solimizning yonginasida suzganda taassurot boshqacha bo‘ldi. Bir kuni odatimizga ko‘ra solning chekkasida ovqatlanib o‘tirardik. Suvga shu qadar yaqin o‘tirardikki, qo‘limizni cho‘zsak bas, krujka-mizga suv to‘ldirib olaverardik; birdan orqa tomonimizda allanima xuddi suvda suzib kelayotgan otday pishqirib nafas ola boshlaganda hammamiz cho‘chib tushdik. Shu payt suv sathida kattakon kit paydo bo‘ldi. U shu qadar yaqin joydan turib bizga tikilib qarardiki, yaraqlatib qo‘yilgan botinkaga o‘xshash nafas yo‘li ham ko‘rinib ketdi. Okeanning qoq o‘rtasida biron maxluqning nafas olishini eshitishning o‘zi allaqanday favqulodda ajoyibot bo‘lib tuyularkan. Chunki bundagi barcha tirik mavjudot o‘pkadan mahrum bo‘lib, tovushsizgina jabralarini qimirlatib qo‘ya qoladilar. Shunday bo‘lgach, biz singari okean ichkarisiga kelib qolgan qadimiy ajdodimiz bo‘lmish kit odamzodga shunaqa yaqin ko‘rinib ketdiki, asti qo‘yaverasiz. Tumshug‘ini suvdan chiqarib, sof havodan nafas olishni xayoliga ham keltirmagan sovuq, baqasifat kitsimon akula o‘rniga bu gal hayvonot bog‘idagi baqaloq, xushchaqchaq begemotni eslatuvchi allanima yonginamizda paydo bo‘ldi, suvga botib, g‘oyib bo‘lishdan ilgari bir necha bor nafas olib, nafas chiqaradi (shunisi menda yoqimli taassurot qoldirdi).

Kitlar bir necha marta kelishdi. Ko'pincha ular, atrofimizda to'da-to'da bo'lib suv betida o'ynoqlaguvchi kichkina dengiz cho'chqasi va tishdor kitlardan iborat bo'lardi; lekin vaqti-vaqti bilan haybatli kashalotlar¹ yoki bahaybat kitlar uchrab turardi. Ular yakkam-dukkam yoki bir nechtdan gala bo'lib suzishardi. Ba'zida ular ufqdagi kemaga o'xshab, suvni osmonga fontan qilib otib naridan suzib o'tishardi. Ba'zi-ba'zida esa to'g'ri bizga qarab suzishardi. Birinchi gal kit yo'lini o'zgartirib, to'g'ri solimizga qarab yo'l olganda biz bu xavfli to'qinishga tayyor bo'lib turdik. Kit bizga yaqinlashgani sayin, har gal boshini suvdan chiqarganida, uning pishillab, og'ir-og'ir nafas olishini yaqqol eshitib turdik. Nazarimda, bahaybat, terisi qalin, qo'pol, quruqlikda yuruvchi hayvon suvda zo'rg'a harakatga kelayotgandek tuyulardi. Ko'rshapalak qushga naqadar o'xshasa bu hayvon ham baliqqa shunchalar o'xshardi. Kit hammamiz to'planib turgan chap bort yoniga suzib keldi; hamrohlarimizdan biri machta tepasida o'tirarkan, yana yetti-sakkiz kit biz tomon suzib kelayotganini o'sha yerdan turib xabar qildi.

Birinchi kitning kattakon yaltiroq qora peshanasi ikki metrcha narida paydo bo'ldi va u to'satdan suvga sho'ng'idi. Keyin biz uning ko'kish-qora yelkasi naq oyog'imiz tagida, sol ostiga qarab, asta-sekin suvga botib borayotganini ko'rdik. Kit bir necha mahal sol ostida tim qora bo'lib, qimir etmay yotdi, biz bo'lsak nafasimizni ichimizga yutib, uzunligi solimizdan sal kattaroq bu sut emizuvchi jonivorni hayrat bilan tomosha qildik. Keyin u ko'kimtir suvga sekin-sekin botib bordi-da, g'oyib bo'ldi. Bu orada kitlar galasi sol yoniga yetib kelgan edi. Lekin ular bizga aslo parvo qilmas edilar. Bitmas-tuganmas kuchga ega bu jo-

¹ Kashalot – tishi kitsimonlar oilasidan, sut emizuvchi hayvon.

nivorlarni quturtib, dumlari bilan bir urib kit ovlovchi barkaslarni cho'ktirib yuborgan kitlarga birinchi bo'lib odamlar hujum qilgan bo'lsalar kerak. Kitlar shu kuni ertalab ancha vaqtgacha pishqirib nafas olgancha atrofimizda yurishdi. Lekin biror marta bo'lsin na solimizga, na rul eshkagimizga tegishmadi. Quyosh nuriga g'arq to'lganda o'ynoqlab, chayqalib yurish bilan kifoyalanishdi. Tushga yaqin borib butun galasi bilan xuddi signal berilganday baravariga sho'ng'idi-yu, g'oyib bo'ldi-ketdi.

Ko'pincha, oltin makrel va lotsman baliqlari solimizga ergashib olishardi. Gumboldt oqimida Kalyao qo'ltig'idan chiqishimiz bilan oltin makrellar solimizga ergashib olganidan buyon, yiriklari atrofimizda o'ynoqlab yurmagan kun yo'q. Solga ularni nima jalb etishini bilmasdik; ularni harakatga kelib turgan soya panasida suzish jalb qilganmi yoki hamma xodalar va rul eshkagidan uzun-uzun bo'lib osilib yotgan suv o'lanlari va chig'anoqlardan tarkib topmish polimizdan topib turgan oziqlari qiziqtirarmidi, bunisi bizga qorong'i.

Bir vaqt solni chumoli bosdi. Ba'zi xodalarda mayda qora chumolilar bor edi. Dengizga chiqqach xodalar suvni shima boshlagach, chumolilar joylarini tashlab qochishdi va uyqu qopchig'imizga joylashib olishdi. Qisqichbaqa bilan bir qatorda solda uzunligi 25–40 millimetr keladigan dengiz o'rdaklarigina o'zlarini yaxshi his etdilar. Ular yuztalab ko'payishardi. Solning shamolga teskari tarafi ayniqsa mos kelardi ularga. Yiriklarini ovqatga solishimiz bilan bolalari o'sib yetilib turardi. Ularning mazasi ancha xushxo'r edi; salat uchun suv o'lanlarini uzardik – ular ham yeyishga yarardi-yu, lekin unchalik mazali emas edi.

Odatda oltin makrelning – yaltiroq rangdagi tropik balig'ining uzunligi 100 dan 135 santimetrgacha boradi. Tanasi yalpoq bo'lib, bo'yni va boshi uzun bo'la-

di. Bir kuni biz uzunligi 143 santimetr keladigan baliqni solimizga tortib oldik. Baliqning boshi 37 santimetr edi. Oltin makrelning rangi juda chiroyli bo'ladi. Suvda u xuddi yaltiroq qo'ng'izdek goh ko'k, goh to'q yashil tusda tovlanadi, zarhal suzgichlar yaraqlaydi. Uni suvdan olganimizda esa g'alati bir hol yuz beradi. O'la turib baliq avval qora xolli simobiy tus olib, bora-bora oqish kumushrang tusga kirib rangini o'zgartiradi. Bu hol to'rt-besh daqiqa davom etadi-da, keyin baliq yana avvalgi tusiga qaytadi. Oltin makrel hatto suvda ham, ba'zan buqalamun singari tusini o'zgartadi; ko'pincha biz yaltiroq baliqlarning «yangi bir turini» – mis rangdaxisini uchratardik. Ularni yaqinroqdan turib o'rganganimizda o'zimizning eski qadrdomimiz – oltin makrel balig'i bo'lib chiqardi.

Makrel balig'i suvga sho'ng'ishi bilanoq yanagi irg'ishlashga tayyor holda suv betida paydo bo'lib, to'lqinlar osha sakrardi. Kayfiyati yomon chog'larda esa, u tishlardi. Torsteyn bir necha kungacha oyog'ining bosh barmog'ini boylab, oqsoqlanib yurdi. Negaki, u bilmasdan oyog'i bilan oltin makrelning og'ziga tegib ketgan-u, baliq ham vaqtdan foydalanib, odatdagidan ko'ra qattiqroq tishlagan. Vatanimizga qaytib kelgach esa, oltin makrel baliqlari cho'milayotgan odamlarga tashlanib, yeb yuborishi ham mumkinligini eshitdik. Bizning deyarli har kuni oltin makrel baliqlari ichida cho'milib yurganimiz ajib bir hol ekan. Vaholanki, oltin makrel baliqlari bizga ortiq e'tibor ham qilishgani yo'q. Lekin ularning xavfli yirtqich ekanligi haqiqat. Negaki, ularning oshqozonidan kalmar baliqlarini ham, but-butun ucharbaliqlarni ham topardik.

Ucharbaliqlar oltin makrellarning eng sevimli yemishi edi. Suv yuzasida biror nima chayqalib ketsa, ucharbaliq bo'lsa kerak, degan umidda oltin makrel balig'i o'zini shu tomonga otardi. Ba'zida esa, sol chekkasida bamaylixotir nonushta qilib o'tirga-

nimizda oltin makrel balig'i suvdan irg'ishlab chiqib, yonboshiga shunday kuch bilan shaloplab tushardiki, dengiz suvi orqamizni shalabbo qilib, yeb turgan ovqatimizga ham sachrardi.

Bir kuni tushki ovqat paytida Torsteyn bilan shunday voqea ro'y berdiki, bunaqasi ovchilarning aqlga sig'maydigan hikoyalaridagina bo'lishi mumkin. Torsteyn vilkasini qo'ydi-da, qo'lini okeanga tiqdi; nima hodisa yuz berganini tushunib yetishga ulgurmasimizdan, suv jo'sh urib ketdi va kattakon oltin makrel balig'i bilanglab o'rtamizda paydo bo'ldi.

Keyin bilsak, Torsteyn solimiz yonidan ohista suzib o'tib ketayotgan qarmoq ipining bir uchidan ushlab tortgan ekan. Ipning ikkinchi uchida esa, bir necha kun muqaddam baliq ovlayotganida Erikning qarmog'ini uzib ketgan oltin makrel balig'i bilanglab yotardi.

Oshpaz kaltagina bambuk tayoqqa bir bo'lak kanop ulab, qarmoqqa yarim ucharbaliq ilardi. Qarmoq suvga tashlangan hamono oltin makrel balig'i qarmoqni quvalab suv betida paydo bo'lar, ketidan yana ikki-uchtasi ergashib kelardi. Bu xildagi baliq ovi juda qiziqarli bo'lish bilan birga, yangi tutilgan oltin makrel balig'ining go'shti to'yimli va mazali edi – ayni zamonda ham treskaning¹, ham semganing² mazasini berardi. Oltin makrelning go'shti ikki kungacha buzilmasdi. Bizga esa ortig'ining keragi ham yo'q edi. Negaki okeanda baliq oshib-toshib yotardi.

Safarga chiqqanimizdan ko'p kun o'tmay, solimiz yonida birinchi akula paydo bo'ldi. Keyinchalik ular har kungi mehmonga aylandilar. Ba'zan akula solni bir ko'zdan kechirish uchun yonimizda paydo bo'lar, atrofimizda bir-ikki doira yasab, o'lja izlab ketardi. Le-

¹ Treska – baliqning bir turi.

² Semga – sulaymon baliqlari oilasiga mansub baliqning bir turi.

kin ko'pincha akulalar quyruq tomonda, rul eshkagi orqasida tizilishib olardi, akulalar goh u bortga, goh bu bortga ko'z tashlab, suvda jimgina yotishar, bir me'yorda suzayotgan soldan qolib ketmaslik uchun, ahyon-ahyonda dumlarini qimirlatib qo'yishardi. Akulaning suv betida yotgan ko'kish kulrang tanasi oftob nurida qo'ng'ir bo'lib jilolanardi. Orqa yuzgichi esa xavf solganday, har doim suvdan chiqib turardi. Dengiz mavjlanib turgan bo'lsa, to'liqlar akulani soldan yuqoriga ko'tarardi. Shunday paytlarda akula tek turmas mulozimlari – mayda lotsman baliqlari kuzatuvida ulug'vorlik bilan biz tomon suzib kelayotgan akulani xuddi shisha yashikda yotgandek, boshidan dumigacha aniq-tiniq ko'rardik. Bir necha daqiqaga, nazarimizda, akula o'zining chipor hamrohlari bilan birgalikda solga tashrif buyuradiganga o'xshardi go'yo. Lekin shu chog' solimiz jilva bilan, shamolga teskari tomonga yonboshlardida, to'liqlar tepasiga ko'tarilib, narigi tomoniga ohista tushardi.

Akulalar haqida tarqalgan vahima gaplar va ularning dahshatli qiyofasiga qarab avvaliga hayiqib yurdik. Po'lat muskullardan tarkib topmish bu cho'zinchoq tanada tiyib bo'lmaydigan kuch to'plangan edi. Mushukniki singari, kichkina, yashil ko'zlari va futbol to'pi sig'adigan kattakon og'zi beshafqatligi hamda ochofatligidan dalolat berardi. Rul yonida turgan odam, «o'ng bort yonida akula» yoki «chap bort yonida akula», deb qichqirgudek bo'lsa, hammamiz palubaga irg'ib chiqardik-da, qo'l garpuni va changaklarni olib, sol chetiga turib olardik. Odatda akula orqa yuzgichi bilan xodalarga surkangudek bo'lib atrofimizda ohista suzardi. Akulaning jilvir qog'ozga o'xshash po'stiga tekkanida changaklarning makaron kabi egilib ketganini, qo'l garpunlarining olishuv paytida sinib ketganini ko'rganimizda, akulaga bo'lgan ehtiromimiz

yana ortdi. Akulaning terisiga bir amallab changak sanchib, muskullari va kemirchaklariga yetgudek bo'lganimizda esa, katta jang boshlanib ketardi; atrofimizda suv qaynagandek bo'lib ko'pirardi va oxiri qutulib qochardi u. Suv betida qolgan kichkinagina moyli doira asta-sekin yoyilib ketardi.

Birinchi akulaning kemirchagida o'zimiz otgan gapun sanchilib yotganini ko'rdik va shu sababli akula qattiq qarshilik ko'rsata olmagan bo'lsa kerak, degan xayolga keldik. Keyinchalik esa, xuddi shu usulda akula ovlaydigan bo'ldik, lekin unchalik qiynalmasdik. Akula qanchalik qarshilik ko'rsatmasin, suvdan tortib chiqarish naqadar qiyin bo'lmasin, «kim kimni tortib ketarkin» degan kurashda biror santimetrni bo'lsin boy bermasak, akula bo'shashib, dahshatli kuchini ishga sololmay, nochor bo'lib qolardi. Biz solga tortib chiqargan akulalarning kattaligi ikki metrdan uch metrghacha kelar, ular orasida zangorilari ham, qo'ng'irlari ham uchrardi. Qo'ng'irlarining muskullarni qoplab turgan terisi juda qattiq bo'lardi; o'tkir pichoq bilan terisini yoradigan bo'lsak, bor kuchimiz bilan urishga to'g'ri kelardi. Shunda ham pichoq sapchib ketardi. Qorin tomonning terisi ham orqa tomonnikidek qattiq bo'lib, birdan bir bo'sh yeri oyquloq teshiklari edi. Bunday teshiklar har tomonda beshtadan bo'lardi.

Akulalarni tortib chiqarganimizda uning gavdasi-da mahkam yopishib olgan qop-qora shilliqlar bo'lardi. Shilliqlar, yapasqi boshining tepasidagi tuxum shaklidagi so'rg'ichlari yordamida shunday qattiq yopishib olardiki, bor kuchimiz bilan dumidan tortganimizda ham ajratib ololmasdik. Lekin shilliqlarning o'zlari osonlik bilan ko'chib, shu zahoti boshqa joyga yopishib olardilar. Yopishib yotaverish jonlariga tegsa yoki eski xo'jayinlarining okeanga qaytishga mayli yo'qligini bilishsa bormi, ular darhol yumalab tushib

sol yoriqlarida g'oyib bo'lar va boshqa akulalarni izlab suzib ketardilar.

Lekin shilliqlar bema'ni va beo'xshov bo'lganidan, xushchaqchaq do'stlari lotsman baliqlari singari bizga yoqib tushmadi. Lotsmanlar – sigarasifat, zebra singari chipor, kichkina baliqlardir. Ular dengiz akulasi oldida gala-gala bo'lib suzadilar. Ularga lotsman deya nom qo'yilishining sababi shundaki, aytishlaricha, qachonlardir shunday bir fikr tarqalgan. Go'yo ular shabko'r og'aynilari bo'lmish akulaga yo'l ko'rsatib, lotsmanlik vazifasini o'tasharmish. Aslida esa ular akula bilan shunchaki birga harakatda bo'lishadi. Mabodo yemish topgudek bo'lsalar undan ajralib ketadilar. Lotsmanlar so'nggi daqiqagacha o'z janoblari va hukmdorlariga sodiq bo'ladilar. Lekin shilliqlar singari unga yopishib olishning ilojini qilolmaganlaridan, eski xo'jayin birdan havoga ko'tarilib g'oyib bo'lganda, hayron qolaveradilar. Ammo har gal, akula g'oyib bo'lgan joyga, sol quyrug'i tomon qaytib, shunda uymalanishadi. Vaqt o'tib boradi. Ammo akuladan darak yo'q. Endi ular yangi ega va hukmdor izlashlari kerak o'zlariga. Uzoqqa borishning hojati yo'q – yonginalarida «Kon-Tiki».

Bizning lotsmanlarimiz ikki guruh bo'lib suzishardi: ularning ko'pchilik qismi tagto'sinlar oralig'ida suzishar, qolganlari esa nozik yelpig'ich shaklini olib, solning burun tomonini egallashardi. Vaqti-vaqti bilan ular yonlaridan suzib o'tgan biror yegulik narsani tutish uchun yonga otilishardi; ovqatlanib bo'lganimizdan keyin idish-tovoqlarni yuvayotganimizda qaragan odam, bir yashik chipor lotsmanlarni okeanga ag'darganmi bular, deb o'ylashi mumkin edi. Ular suvga tushgan har bir ushoqni nazoratdan o'tkazardilar va o'simlikdan tayyorlangan ovqat bo'lmasa darhol yutib yuborardilar. Bu g'aroyib baliqchalar qanotimiz ostida bizga shunday ishonch bilan

yashardilarki, akulalarga o'xshab, bizda ham ularga nisbatan otalarcha homiylik hissi paydo bo'ldi. Lotsmanlar «Kon-Tiki»ning dengizdagi suyukli erkatoylari bo'lib qoldi va ularga tegish qat'ian man qilindi.

Lekin ba'zida lotsman baliqlari dog'uli chiqib qolardi. Kunlardan bir kun vaxtada turganimda, janub tarafimizda birdan suv jo'sh urib qoldi. Qarasam, bir gala oltin makrel baliqlari yaltiroq torpeda singari biz tomon otilib kelyapti. Odatda ular irg'ishlab, yana yalpoq yonboshlari bilan suvga shaloplab tushib o'ynoqlab suzishardi; bu gal esa ular haddan tashqari tez suzib, yo'q, suzib emas, uchib kelishardi. Okeanning ko'm-ko'k mavji betartib suzgan qochoqlarning shoshqin harakatlari bilan ko'pirib ketgan edi. Ular ortidan esa tezyurar motorli kater singari o'zini goh o'ngga, goh chapga otib kelayotgan allaqanday mavjudotning qora yelkasi ko'zga tashlanib turardi. Oltin makrel baliqlari jon alpozda solga yetib keldilar; shu yerga kelganda bir sho'ng'ib, yuztachasi gala bo'lib sharq tomonga otildi – quyruq tomondan dengiz rango-rang tovlanib ketdi. Ta'qibchining yarqiroq orqasi suvdan xiyol ko'tarildi, yarim doira chizib sol tagiga sho'ng'idi va oltin makrellar galasi ketidan torpedadek otildi. Bu bo'yi olti metrcha keladigan haybatli havorang akula edi. Akula g'oyib bo'lganda lotsmanlarimizning bir qismi u bilan badarg'a ketdi. Ular solimizdan ko'ra jozibadorroq dengiz qahramonini topgan va u bilan ketishga jazm qilgan edilar.

Mutaxassislarning fikricha, barcha dengiz maxluqlaridan ham ko'ra, kalmar baliqlaridan ehtiyot bo'larkanmiz. Negaki ular solga chiqib olishi mumkin emish. Vashingtondagi Milliy geografiya jamiyatida bizga bu boradagi hisobot va magniy nurlari yordamida olingan dramatik suratlarni ko'rsatishdi; suratlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Gumboldt oqimi rayonlaridan birida dahshatli kalmarlar ko'p bo'lib,

kechalari okean yuzasida suzisharkan. Kalmar baliqlari shunaqa ochofat bo'larkanki, ulardan birontasi bir parcha go'shtga yopishib qarmoqqa tushib qolsa, ikkinchisi paydo bo'lib, asirdagi qarindoshini yeb qo'yarkan. Ularning qisqichi shunaqa ekanki, uning yordamida yirik akulani osongina o'ldirar, haybatli kitlarni qattiq jarohatlarkan; changallari oralig'ida burgutnikidan qolishmaydigan tumshug'i bor ekan. Tunlarning birida sovuq qo'llar tomog'imizdan qisib, uyqu qopchig'imizdan sudrab chiqarishi nihoyatda noxush gap edi biz uchun; shu sababli, mabodo o'sha changallarning yopishishidan uyg'onib ketsak, noiloj qolmaylik deya, kishi boshiga bittadan o'tkir pichoq olivolgan edik. Safarga chiqish oldidan kalmarlar haqidagi fikr bizni ko'p tashvishlantirdi. Perudagi okeanograflar bizga shu to'g'rida hikoya qilib, okeanning bu borada xavfli qismini xaritadan ko'rsatganlarida tashvishimiz yanada ortgan edi. Negaki o'sha xavfli qism shu Gumboldt oqimida edi.

Anchagacha solimizda ham, okeanda ham bu molluskalardan nishon bo'lmadi. Lekin bir kuni ertalab ularning biz ketayotgan yo'lda mavjud ekanligidan darak topdik. Quyosh ko'tarilganda biz solda kalmar zotini – kattaligi mushukdek keladigan bolachasini ko'rib qoldik. U tunda hech kimning yordamisiz palubaga chiqib olgan bo'lib, endilikda changali bilan kayuta eshigi oldidagi bambuk xodaga mahkam yopishgan o'lib yotardi. Qora siyohdek qop-qora quyuq suyuqlik bambuk palubada oqib yotar, kalmar atrofiga halqob bo'lib qolgan edi. Biz kema jurnalining bir necha sahifasini qora tushga o'xshagan mana shu siyoh bilan yozib to'ldirdik-da, kalmar bolasi o'limtigini bort ortiga itqitib, oltin makrellarni sevintirdik.

Bu arzimas voqeani biz, bundan keyingi tunlarda yirikroq mehmon paydo bo'lishidan dalolat, deb bildik. Bolasiki solga chiqib olibdimi, demak uning och

padari ham, hech shubhasiz bunga qodir. Bizning ajdodlarimiz, vikinglar davrida o'z kemalarida safarga chiqarkanlar, o'zlarini shunday his qilgan bo'lsalar kerag-u, hammasini dengiz jinlariga to'nkagan bo'lsalar ne ajab. Lekin bundan keyin bo'lgan voqea aqlimizni shoshirib qo'ydi. Bir kuni erta bilan palma yaproqlaridan yopilgan tomimizda avvalgidan ham kichik kalmar yotganini ko'rdik. Bu voqea bizni juda notinch qilib qo'ydi. Kalmar bolasi o'z holicha u yerga chiqolmaydi desak, siyohrang dog'lar faqat uning atrofidagi-na bor edi. Biror dengiz qushi tushirib yuborgan desak, tanasida tumshuq izi ko'rinmaydi. Biz solga tashlangan to'lqin kalmarni tomga itqitgan bo'lsa kerak, degan xulosaga keldik. Lekin vaxtada turganlarning birontasi bo'lsin, kechasi okean to'lqinlanganini eslolmadi. Tun ketidan tun o'tardi. Biz esa solda har kuni kichkina kalmarlarni topib olardik. Kalmarlarning eng kichigi o'rta barmoqdek kelardi.

Dengiz kechasi sokin bo'lgan chog'larda ham, har tong palubadan ucharbaliqlar bilan birga bitta yoki ikkita kichkina kalmar topishga ko'nikib qoldik. Bu kichkina kalmarlar bizga hikoya qilib berishgan o'sha dahshatli jonivorlar toifasiga kirardi; ularning sakkiz changali bo'lib, beti doira so'rg'ichlar bilan qoplangan edi. Bundan tashqari, uchida tikanakka o'xshash ilmoqli yana ikkita uzunroq panjasi bo'lar-kan. Qorong'i kechalarda suv betida suzayotgan baliqlar ko'zining cho'g'dek yonganini ko'rardik; faqat bir martagina, kattakon g'ildirakka o'xshash bir narsa suv betiga suzib chiqib, osmonda o'mbaloq oshganda, tevarak atrofimizda okean jo'sh urib, qaynab ketdi, bizning oltin makrel baliqlarimiz esa jon holat-da suvdan irg'ishlab ko'tarilib, tiraqayladi. Kichkina kalmar baliqlari doimo kechalari paydo bo'lib turgan bir holda kattalari ko'rinmaganligi biz uchun sir bo'lib keldi; oradan tajribalarga boy ikki oy o'tgandan

keyingina kalmarga kon o'sha rayondan chiqib olganimizdagina buning sababini bildik.

Kichkina kalmarlar hamon solda paydo bo'lib turardi. Oftob charaqlab turgan tonglarning birida, bir gala allaqanday jonivorlarning suvdan irg'ishlab chiqib, yirik yomg'ir tomchilarini eslatib havoda uchganini, dengiz esa ularni izma-iz quvalab kelayotgan oltin makrel baliqlariga to'lib ketganini ko'rdik. Avvaliga biz bularni ucharbaliqlar to'dasi deb o'yladik. Negaki shungacha ucharbaliqlarning uch turi bilan tanishgandik. Ular bizga yaqinlashib kelganda, ba'zilar sol tepasidan bir yarim metr balandlikda uchib o'ta boshladi. Shunda baliqlarning biri Bengtning ko'kragiga urilib ketdi va shaloplab palubaga tushdi. Bu kichkinagina kalmar balig'i edi. Biz juda hayron qoldik. Biz uni brezent chelakka solib qo'yganimizda ham u otilib, yuqoriga irg'ishlayverdi, lekin tor joyda yetarli tezlikka erisholmay, suvdan sal-pal ko'tarilib turdi. Kalmar balig'ining raketa samolyoti usulida suzishi hammaga ma'lum. Kalmar balig'i tanasining yon tomonidan o'tgan yopiq naycha orqali zo'r bilan suv o'tkazadi, shuningdek, xuddi shu yo'l bilan orqaga harakat qilishi ham mumkin; qisqichlarini yig'ib, boshiga qo'yib olsa, baliqnikiga o'xshash suzganda suv qarshiligiga kam uchraydigan shaklga kiradi.

Ko'p voqealardan keyin biz ularga alohida ahamiyat beradigan bo'ldik va ko'pincha ularning yakka-yolg'iz yoki ikki-uchtadan bo'lib 45–55 metr gacha uchganini ko'rdik. Kalmar baliqlarining uchgani haqidagi fakt ekspeditsiyadan qaytib kelganimizdan keyin uchratgan barcha zoologlarimiz uchun yangilik bo'ldi.

Tinch okean orollaridagi yerli xalq orasida mehmon bo'larkanman, ko'pincha kalmar yeganman. Ulardan qisqichbaqa bilan rezina mazasi keladi. Lekin «Kon-Tiki»da kalmarga uncha qiziqmasdik. Agar

osongina qo'limizga tushib qolgudek bo'lishsa, biror boshqa narsaga ayirboshlab olardik. Almashtirish usuli quyidagicha bo'lardi: biz kalmarni qarmoqqa ilib okeanga tashlardik-da, uni yutib qarmoqqa ilingan katta baliq bilan qo'shib tortib olardik.

Okean bo'ylab ohista suzarkanmiz, yangi-yangi tanishlar orttira borardik. Kundaligimda quyidagiga o'xshash yozuvlar ko'p:

«11. V. Bugun kechqurun sol chekkasida ovqatlanib o'tirganimizda allaqanday kattakon dengiz hayvoni ikki marta yonginamizdagi suv betida paydo bo'ldi. U zarb bilan chayqaldi-da, g'oyib bo'ldi. Qanaqa hayvonligini hech qaysimiz bilmaymiz.

6. VI. German dumi ingichkagina, yapasqi oppoq qorinli va qoramtir baliqni ko'ripti. Bu baliq o'ng bort tomonda bir necha bor suvda irg'ishlab ko'rinibdi.

16. VI. Chap bort tomonda g'alati bir baliq ko'rdim. Bo'yi ikki metr, eni 30 santimetr; cho'zinchoq ingichka boshi qo'ng'ir tusli, boshiga yaqin kattakon, belida kichikroq suzgichi bor. Dum yuzgichi o'roq-nusxa, nihoyatda katta. Suv betida yotadi, vaqti-vaqti bilan ilonday buralib suzadi. German ikkovimiz qo'l garpuni bilan rezina qayiqqa unga yaqinlashganimizda sho'ng'ib ketdi. Keyin yana bir ko'rindi-da, ko'p o'tmay butunlay g'oyib bo'ldi.

17. VI. Choshgoh payti edi. Machta tepasida o'tirgan Erik, xuddi oldingi kundagi kabi, qo'ng'ir tusli 30–40 tacha uzun baliqni ko'ribdi. Bu gal ular chap tomondan o'qdek otilib yaqinlashishibdi-da, suvda qo'ng'ir soyadek bir paydo bo'lib, g'oyib bo'libdi-qolibdi.

18. VI. Knut uzunligi 60–90 santimetr keladigan ilonga o'xshash bir maxluqni ko'rib qolgan; maxluq suv betida bilanglab ko'zga tashlangan-u, yana ilonday buralib ko'zdan yo'qolgan».

Ba'zida biz kattaligi uydek keladigan suv osti qoya-sini eslatib qimir etmay yotgan kattakon qoramtir narsa yonidan suzib o'tib ketardik. Bu yomon nom chiqargan bahaybat skat bo'lsa ajab emas. Lekin u biror marta joyidan jilmadi, biz esak uning turqi-ni ko'rib olishga imkon beradigan darajada yaqin yo'lamadik.

Suvda mana shunday rango-rang jonivorlar suzib yurgani uchun ham biz vaqtning qanday o'tib keta-yotganini bilmay qolardik. O'zimiz okeanga sho'ng'ib, solning tag tomonidagi arqonlardan xabar olgan paytlarimiz chatoq edi. Bir kuni tag to'sinlardan biri tushib ketib, sol tagiga kirib ketdi; u yerda arqonlar-ga o'ralashib qolganligidan biz uni tortib ololmadik. German bilan Knut sho'ng'ishga hammadan ham usta edi. German ikki marta sol tagiga suzib kirib, oltin makrellar va lotsman baliqlari orasida yotib taxtani chiqarib olishga uringan. U endigina ikkin-chi bor suvdan chiqib, nafasini rostlash uchun sol chetiga o'tirib ham ediki, birdan uch metrcha narida to'g'ri uning oyoqlarini mo'ljalab suv tagidan chiqib kelayotgan ikki yarim metrli akulaga ko'zimiz tushib qoldi. Balki, biz akulaga nisbatan adolatsizlik qil-gandirmiz-u, lekin o'sha paytda uni yomon niyatda kelyapti deb o'yladik-da, miyasiga garpun sanchdik. Akula o'zini tahqirlangan his etdi, suvni shaloplatib kurasha ketdi va suv betida moyli dog' qoldirib qo-chishga muvaffaq bo'ldi. Arqonlarga o'ralashib qol-gan tagto'sin sol tagida yotaverdi.

Shunda Erikda g'avvos savati tayyorlash kerak, degan fikr uyg'ondi. Bizda kerakli xomashyo kam edi, lekin bambuk, arqon va kokos yong'oqlari solingan eski chiptasavat bor edi. Bambuk va arqon yordami-da savat tepasiga qo'shimcha to'qidik. Endi shu sa-vatga o'tirib, dengizga tushish imkoniyatimiz bor edi.

Akulalarni qiziqtiradigan oyoq savatga yashiringan edi. Yuqoriga qo'shimcha suratda arqonlardan to'qilgan savat biz uchun ham, baliqlar uchun ham psixologik ta'sir ko'rsatishdan nariga o'tmagan taqdirda ham, har holda, biron-bir maxluqning yomon niyat bilan yaqinlashganini ko'rganimizda, g'ujanak bo'lib savat tagiga o'tirib olishimiz mumkin edi. Palubada qolgan o'rtoqlarimiz esa, shu zahoti bizni suvdan tortib chiqarishadi.

G'avvos savati biz uchun foydaligina bo'lib qolmay, hatto tagimizdagi suzuvchi akvariumni o'rganishga yaxshi imkoniyat berardi u.

Okean to'liqlarini xotirjam yumalatib turgan paytda, biz navbatma-navbat savatga o'tirardik va bizni suvga tushirishardi. Biz nafasimiz yetgunga qadar suv ostida o'tirardik. Suv tagida yorug'lik allaqanday bo'lib o'zgarib ketardi. Ko'zimiz suv tagida bo'lgan chog'da, yuqoridagi singari nur taratuvchi bo'lmasdi. Siniq nurlar yuqoridangina emas, pastdan ham taralayotgandek tuyulardi; quyosh ortiq nur sochmasdi, u hamma yerda hozir edi. Agar biz tepaga, sol tagiga qaraydigan bo'lsak, solning tagi yorug' bo'lib ko'rinardi; to'qqiz xoda, solning hamma yog'idan va rul eshkagidan osilib yotgan yam-yashil suv o'simliklari va arqon bog'ichlarimiz sirli bir nurga g'arq bo'lib ko'rinardi. Ba'zan yoriqdan chiqib qolgan kilning suv shimib shishgan bo'lagi yorishib ko'rinardi; taxtada oppoq, yovvosh dengiz o'rdaklari sariq jabralarini bir me'yorda qimirlatib, kislorod olib, ovqatlanib, terilib o'tiradi. Biror kimsa ularga yaqinlashsa bormi, ular shu zahoti qizil va sariq hoshiyali chig'anoqlarining darchasini darhol yopib oladilar-da, xatar tugaganiga ishonch hosil qilma-gunlaricha qimir etmay o'tirardilar. Bunda, quyida yorug'lik tiniqligi bilan farqlanar, palubada tropik

quyoshiga o'rganib qolganimiz uchun bizga niho-yatda mayin tuyilib, tinchitgandek bo'lardi. Hatto pastga, okeanning hamma vaqt zimistonlik hukm surguvchi tubsiz chuqurligiga qaraganimizda ham shu zimiston yoqimli zangor tusga bo'yalgandek ko'rinardi. Negaki, unda quyosh nurlari aks etardi.

Oltin yuzgichlik yirik Tunets baliqlari paydo bo'l-ganda suvga tushishni ayniqsa yaxshi ko'rardik. Ba'zida ular sol yoniga gala-gala bo'lib kelardilar. Lekin ko'pincha ikki-uchtadan paydo bo'lib, to biz qarmoqqa ilintirib olguncha, bir necha kungacha at-rofimizda doira chizib yuradilar. Soldan turib qaral-ganda kattakon, qo'ng'ir rang, hech qanday bezaksiz, beo'xshov baliqqa o'xshab ko'rinadi; lekin ular olami-ga kirganimizda esa, ular bir lahzada rang va shakl-larini o'zgartishadi. Bu o'zgarishga izoh topa olmaga-nimizdan, suvda ko'rganimiz o'sha baliqmidi, yo'qmi-di aniqlash niyatida bir necha bor yuqoriga chiqib, yo'nalishni belgilardik-da, yana suv tagiga tushardik.

Okean bilan va unda yashovchilar bilan yaqinlash-ganimiz sari kam hayratlanadigan bo'la borardik. Tinch okean bilan yaqin aloqada bo'lgan, shu sa-babdan ham uning hali biz tasavvur ham eta olma-gan xususiyatlarini bilgan ibtidoiy xalqlarni hurmat qilishni o'rgandik. Albatta, bu kunga kelib biz okean suvi tarkibida tuz borligini aniqladik, tunets va oltin makrel baliqlariga lotincha nom berdik. Qadimgi poli-neziyaliklar buni qilishgani yo'q. Lekin shunday esa-da, ibtidoiy xalqlar okean haqida bizdan ko'ra to'g'ri va mo'roq tasavvurga ega bo'lishgan, deb qo'rqaman.

Okeanda yo'l ko'rsatadigan qoziq yo'q. To'lqinlar va baliqlar, quyosh va yulduzlar bir paydo bo'lib, bir g'oyib bo'lib turadilar. Janubiy dengiz orollarini Peru-dan ajratib turgan 4300 dengiz mili davomida hech qanday quruqlik yo'q, deya taxmin qilinadi. Shu sa-

babdan ham, 100° gʻarbiy kenglikka yaqinlashganimizda Tinch okean xaritasida, bizning yoʻlimiz ustida suv osti qoyasi borligi belgilanganini koʻrib hayron boʻldik. Uni kichkinagina doira shaklida tasvirlagan edilar. Xarita shu bu yil nashr qilingan boʻlganidan biz «Janubiy Amerika lotsiyasi»ga¹ qaradik. Unda: «Galapagos orollaridan janub-gʻarb tomon taxminan 600 mil narida 6°42 janubiy kenglikda va 99° 43 gʻarbiy uzunlikda 1906-yili, soʻngra 1926 yillarda qoya koʻzga chalingan. 1927-yilda paroxod shu joydan gʻarbga tomon bir mil naridan oʻtgan, lekin undagilar qoyani koʻrishmagan; 1934-yili boshqa paroxod janubdan bir mil naridan oʻtgan, bundagilar ham qoyani koʻrishmagan. 1935-yili «Kauri» degan motorli kema shu joyni oʻlchaganida 300 metr chuqurlikda ham dengiz tubiga yetmagan».

Xaritalarga binoan, bu rayonda suzish shubhali boʻlib, ogʻir kema sayozlikka yaqin kelib qolsa, bizning solimizdan koʻra yomon ahvolga tushib qolar-di. Biz toʻppa-toʻgʻri xaritada belgilangan joyga qarab suzmoqchi va oʻsha yerda nima borligini oʻz koʻzimiz bilan koʻrmoqchi boʻldik. Suv osti qoyasi biz yoʻnalgan tomondan sal shimolroqda koʻrsatilgan edi; shuning uchun biz rulimizni oʻngga burdik va toʻrt burchakli yelkanimizni, soʻl bortni shimolga qarab, oʻng bortni toʻlqin va shamolga berib suzadigan qilib belgiladik. Endi uyqu qopchigʻimizga Tinch okean suvi odatdigidan bir qadar ortiq sachraydigan boʻldi; buning ustiga shamol ham shu vaqtga kelib ancha salqin esa boshladi. Lekin biz «Kon-Tiki»ni shamolga yon berib boʻlsa ham, agar uni adashtirib qoʻymasak, barmaylixtir boshqarish mumkinligiga qoniqish bilan ishonch hosil qildik. Shamol yoʻnalishini adashtirib

¹ Lotsiya – dengiz va sohillar muntazam tasvirlanib yozilgan maʼlumotnoma.

qo'ysak, yelkanimiz silkina boshlar va solni yana rulga bo'ysindirish uchun rosa irg'ishlashga to'g'ri kelardi. Ikki kecha-kunduz davomida solni shimoliy-shimoli-g'arbga qarab haydadik. To'lqinlar baland ko'tarilar, tropik shamol yurishi o'zgarib, goh janub-sharqdan, goh sharqdan esganida, ular keti uzilmay qator bo'lib kelishaverardi. Lekin biz ustimizga yopirilgan po'rtanada goh ko'tarilib, goh tushib suzishda davom etardik. Machta tepasida doim birortamiz navbatchilik qilardik. Kechasi biz kayutaga kiriladigan eshikni oziq-ovqat solingan yashiklar bilan to'sdik; lekin bari bir, okean tinchimizni buzib turdi. Hali uyquga ketganimiz yo'q ediki, bambuk devorimiz qasir-qusur qilib ketdi; bambuk devor oralig'idan otilib kirgan suv hamma yoqni shalabbo qildi, ko'pirib kelgan suv oziq-ovqat solingan yashiklarga urildi-da, keyin kayutani to'ldirdi.

Suvning poldan sizg'ib chiqib ketishini kutib g'ujanak bo'lib olganimizda allakimning uyqusirab:

– Telefonda vodoprovodchini chaqiring! – deb g'o'ldiraganini eshitaman. Vodoprovodchi kelmadi. Shu kecha yotgan yerimizda yana bir bor «vanna» qabul qildik. German vaxtada turganida, solda tasodifan katta oltin makrel balig'i paydo bo'ldi.

Tushdan keyin suv betida solga qarab suzib kelayotgan kattakon qilich baliqni ko'rib qoldik. Suvdan chiqib turgan ikkita qirrali yuzgichi bir-biridan ikki metr oraliqda bo'lib, qilichi tanasi kabi cho'zinchoq edi. Qilich baliq rulda turgan navbatchi yonidan vizillab o'tib, to'lqinlar orasida g'oyib bo'ldi. Dengiz suvi sachrab sho'rtak bo'lgan tushlikni yeb o'tirganimizda esa pishqirgan to'lqin boshi va oyoqlari osilib turgan qalqonli kattakon dengiz toshbaqasini yuzimiz barobarida ko'tardi. Bu to'lqin boshqa ikki to'lqinga

o'rin berganida esa, toshbaqa qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday, to'satdan g'oyib bo'ldi. Biz yakka-yolg'iz dengizchi oq chorloqlarni ham ko'radik. Fregatlar¹ bo'lsa tez-tez uchib kelar, sol tepasida u yoqdan bu yodda uchar, ayri dumlari bilan bahaybat qaldirg'ochlarni eslatishardi. Fregatlarning paydo bo'lishi, odatda, yerning yaqinligidan dalolat berardi, soldagilarning kayfiyatini yaxshilardi.

«Balkim, darhaqiqat, shu suv ostida qoya yoki qumloq sayozlik bordir», – deb o'ylardik ba'zilarimiz. Eng umidlilarimiz esa:

– Ko'm-ko'k ko'katlar o'sib yotgan orolga duch kelib qolsak-chi? Kim biladi, hammasi ham bo'lishi mumkin-ku. Bizgacha bu yerlarga odam kam kelgan. Qarabsizki, biz yangi yer ochibmiz – «Kon-Tiki oroli» deb nom qo'yamiz, – derdi.

Tushdan keyin Erik tez-tez oshxona yashigimizga chiqib, ko'zini qisib sekstantga qaray boshladi. Tushki soat olti-yu 20 daqiqada u holatimizni aytdi: 6°42' janubiy kenglikda va 99°42' g'arbiy uzunlikda. Biz xaritada belgilangan qoyadan sharq tomondan bir mil narida edik. Biz bambuk reyani tushirdik va yelkanni palubada yumaloqlab qo'ydik. Shamol sharqdan esardi va sekin-asta bizni o'sha joyga yetkazib qo'yishi kerak edi. Quyosh okeanga botishi bilanoq uning o'rniga butun hashamati bilan to'lgan oy ko'tarildi-da, ufqdan ufqqacha bir qorayib, bir kumushrang tovlanib okean yuzini yoritdi. Machta tepasidan hamma yoq ravshan ko'zga tashlanardi. Hamma yoqda bir-biri bilan to'qnashib turgan to'lqinlardan hosil bo'lgan po'rtana ko'zga tashlanar, lekin suv osti qoyasi yoki sayozlikdan darak beruvchi doimiy burunlardan asar yo'q edi. Hech qaysi birimiz kayutaga kirmadik; hammamiz palubada uzoqlarga tikil-

¹ Fregat – dengizda yashovchi katta qush.

ganimizcha turardik, ikki-uch kishi esa machtadan turib kuzatardi. Xaritada belgilangan joydan ohista suzib o'tarkanmiz, chuqurlikni o'lchashdan to'xtamadik. 54 ipdan pishitilgan 800 metr uzunlikdagi ipak chilvirimiz uchiga, o'zimizda topilgan narsalarining hammasini bir qilib, po'lat cho'ktirgich bog'ladi; solning shamol kuchi yoki odim ta'sirida o'z yo'lidan og'gani tufayli chilvir tikka tushmagan chog'da ham, har holda cho'ktirgich 600 metrga yetgan edi. O'sha ko'rsatilgan joyning sharqida ham, markazida ham, g'arbida ham chilvir suv tubiga yetmadi. So'ngi bor okeanning sathiga ko'z tashlab, bu rayonda hech qanday sayozlik yo'q, degan xulosaga kelgach, endi bu joylarni tekshirishdan o'tgan hisoblab, yelkanni o'rnatdik-da, rulni mo'tadil holatga keltirdik. Endi shamol va to'lqinlar yana quyruqning orqa tarafidan itara boshladi. Solimiz yana odatdagicha xotirjam yuza ilgariladi. Quv to'lqinlar quyruqqa kelib urilar va xodalar oralig'idan oqib yo'qolardi.

Mana, amaliy mashg'ulotda sir ochildi. Shamol bir me'yorda esib, okean tinib-tinchib qoldi. Endi «Kon-Tiki»ni ma'lum yo'nalishda saqlash uchun boylab qo'yilgan rul eshkagiga bir necha kungacha tegmasa ham bo'laverardi. Biz sol tagidan olib chiqilgan kilni quyruq tomondagi bir yoriqqa tiqib qo'ydik. Qarasak, shu zahotiyoq «Kon-Tiki» kursini g'arbdan shimol-g'arbg'a qaratib bir necha gradusga o'zgartirdi-da, yangi kurs bo'yicha bamaylixotir suzib ketdi. Kilni tortib chiqargan edik, sol yana avvalgi yo'nalishiga tushdi. Yog'ochning bir qisminigina tortsak, sol ham eski yo'nalishiga bir qadar yaqinlashardi. Kilni tortib olish va botirib qo'yshi bilangina, rul eshkagiga qo'l tekkizmasdan turib, yo'nalishni o'zgartirsak bo'larkan. Inklar kashf etgan usul shu edi. Ular oddiy richag sistemasini o'ylab chiqargan edilar. Bunga

binoan shamolning yelkanga bosimi ta'sirida machta qilt etmasdi. Solning machtadan oldingi qismi va orqa qismi richag yelkasi vazifasini o'tardi. Agar oldingi qismda kilning umumiy yuzasi katta bo'lsa sol burni osongina shamolga yuz tutardi, agar orqa qismda kilning umumiy yuzasi katta bo'lsa, shamolga quyruq tomon qarardi. Yelkanning uzunligi va kuchning nisbati qonuniga ko'ra, machtaga yaqin turgan killarning ta'siri oz edi. Shamol quyruq tomondan esganidan surilma killarning ta'siri bo'lmasdi; bunday chog'larda, solning bir tekis yurishi uchun, tinmay rul eshkagini ishga solib turishga to'g'ri keldi. Bunday paytlarda sol shamol kuchi bilangina siljirdi, to'liqindan to'liqinga yengil ko'chib suzish uchun esa sal uzunlik qilardi. Kayuta eshigi va ovqatlanadigan joyimiz o'ng tomonda bo'lgani uchun biz, hamma vaqt, to'liqlar solimizga orqa tomondan, sal chapdan kelib urilishiga harakat qilardik.

Uzoq safar davomida rulda navbatda turuvchi, rul eshkagi arqonini goh bir tomonga, goh ikkinchi tomonga tortish o'rniga kilni bir tortib, bir itarib turish bilangina kifoyalanishi ham mumkin edi. Lekin biz eshkakka shunday o'rgangan edikki, kil yordamida umumiy yo'nalishni belgilab olgach, eshkakni boshqarishga kirishardik.

Safarimiz davomida navbatdagi muhim davr ham, xuddi faqat xaritada ko'rsatilgan sayozlik singari mavhum edi.

Bu voqea okeanda suza boshlaganimizga qirq besh kun to'lganda yuz berdi; biz 78° g'arbiy kenglikdan 108° gacha masofani bosib o'tgan va oldinda duch keladigan orollargacha bo'lgan yo'lning yarmiga yetgan edik. Biz bilan Janubiy Amerika oraliq'ini sharq tomondan 2 ming mildan ortiq masofa ajratib turadi. G'arbda Polineziyagacha bo'lgan masofa ham

shuncha keladi. Sharq-shimoliy-sharq tarafdan Galapagos orollari, janub tomondan esa Pasxi oroli bizga eng yaqin quruqlik edi. Lekin ulargacha orani 500 mil poyonsiz okean ajratib turardi. Tinch okeanning bu qismida paroxod yo'llari bo'lmaganidan biz biror korabl uchratmadik, bundan keyin uchratmasligimiz ham tayin edi.

Lekin aslida esa, biz bu katta masofani his etmas edik; ufq sezilmaygina biz bilan birga harakat qilar va bizni qurshagan muhit birdayligicha qolardi – ufq bilan chegaralangan doira markazida osmonga ko'tarilib tushayotgan sol va har kecha biz bilan birga suzayotgan o'sha-o'sha yulduzlar.

VI BOB

TINCH OKEAN BO'YLAB

II

Alomat kema. – Rezina qayiqda okean o'rtasida. – Xavfli ehtiyotsizlik. – Cheksiz moviylik. – Okean o'rtasida bambuk chaylada. – Pasxi oroli meridianida. – Pasxi orolining siri. – Bahaybat xarsanglar. – Qizil tosh pariklar. – «Uzunquloqlar» – Tiki – bog'lovchi bo'g'in. – Ma'nodor geografik nomlar. – Qo'lda akula ovlaymiz. – To'tiqush. – «2B» signali – Yulduzlarga qarab suzish. – Uch to'lqin. – Shtorm. – Okeanda qonli hammom, solda qonli hammom. – Bort ortida odam. – Yana bir dovul. – «Kon-Tiki»ning burdi ketadi. – Polineziya elchilari.

Dengiz sokin kezlarda, biz ko'pincha, rezina qayiqqa tushib nariroqqacha suzardik-da, surat olardik. Ilk tajribamiz hech qachon esimdan chiqmaydi. Okean shunday sokin ediki, ikkitamiz havo shariga o'xshash kichkina qayiqni suvga tushirib, eshkak eshgimiz keldi. Soldan nari ketgach, eshkak eshishdan to'xtadik-da, ovozimiz boricha xaxolab kula boshladik. To'lqin hamrohlarimizni hamon nari surib, ular to'lqinlar orasida g'oyib bo'lishar va yana paydo bo'lishardi. Har gal bizga bir qarab qo'yishsa, bas, shunaqangi xaxolab kulishardiki, ularning kulgisi okean sathida jaranglardi. Nega kulishayotganini bilmay, biz hayron bo'lib alanglardik va o'zimizning paxmoq boshimiz va soqoldor yuzimizni hisobga ol-

maganda, boshqa kuladigan sabab sezmasdik; lekin qayiqdagi ikki o'rtog'imiz bunga allaqachon ko'nikkan bo'lishi kerakligidan, ular aqldan ozmadimikan, deya tashvishlana boshladik. Balkim, oftob urgandir ularni. Kulaverib kuchdan ketgan ikkala og'ayni, pishillay-pishillay, bir amallab «Kon-Tiki»ga chiqib olishdi va ko'zlarining yoshini arta-arti qayiqqa tushib, o'z ko'zimiz bilan tomosha qilishni taklif etishdi.

Men yana bir hamroh bilan, o'ynoqlab turgan rezina qayiqqa tushdim; to'lqin qayig'imizni o'ynoqlatib nari surib ketdi. Biz shu zahoti o'zimizni o'tirg'ichga otdik va ovoqimiz boricha xaxolay boshladik. Hali qayiqda tushib ko'rmaganlarni tinchitish uchun tezda solga qaytishimizga to'g'ri keldi. Negaki, ular bizni, aqldan ozib qoldi, deb o'ylashgan edi. Birinchi bor nariroqdan qaraganimizda, o'zimiz – purviqor kema-miz ana shunday ayanchli bo'lib ko'ringan edi bizga. Shungacha solni ochiq okeanda uzoqdan turib sira ko'rmagan edik. Okean sal jilvalangandayoq sol xodalari g'oyib bo'lar va biz, mabodo ko'rish mumkin bo'lib qolguday bo'lsa to'lqinlar ichida irg'ishlab turgan, keng eshikli pastak kayutani va yaproq yopilgan hurpaygan tomni ko'rardik. Sol ochiq okeanda noiloj suzib kelayotgan, oftobda qoraygan soqoldor sayoqlarni bag'riga olgan, eski, qiyshayib ketgan norveg pichanxonasini eslatardi. Orqamizdan biror kimsaning vannada suzib kelayotganini ko'rsak ham, xuddi shunday qahqahlab kulardik. Hatto oddiy to'lqin sol chetidan oshib o'tarkan, bort bilan kayuta eshigi oralig'idagi masofani bosib ketar va narigi tomonida soqoldor kishilar esnashib yotgan, keng ochiq eshikdan kirib ketadigandek tuyulardi. Keyin bema'ni pichanxona yana paydo bo'lar, kayutadagi sayoqlar esa boyagidek quruq, boyagidek soqoldor, sihat-salomat yotgan bo'lishardi. Yirikroq to'lqin bostirib kelguday

bo'lsa, kayuta ham, yelkan ham, butun machta ham bir olam suv tog'i ortida g'oyib bo'lardi-yu, keyingi daqiqada sayoqlar yotgan kayuta yana boyagi-boyagi paydo bo'lardi-qolardi.

Ko'rinishimiz ajoyib va g'aroyib edi. O'ziga xos kemamiz bortida hamma ishlarning bexatar o'tayotgani-ning sababini biz zo'rg'a tushunardik.

Sol Polineziyaning yarim yo'liga yetganda shunaqangi osoyishtalik hukm surardiki, ulug'vor okean yer kurrasini quchib, ufqdan ufqqacha yas-tangandi. Endi biz «Kon-Tiki»ni tashlab, osmon bilan okean oralig'idagi moviy kenglikka tomon suzishi-miz mumkin edi. Uzoqlashgani sayin kemamizning qorasi kichiklasha borar, kattakon yelkanimiz ufqda ko'z zo'rg'a ilgaydigan qora to'rtburchakka aylangan-da yuragimizni yolg'izlik hissi qamrab olardi. Beufq osmon ostida moviy okean uzoq-uzoqlargacha yas-tangandi. Suv bilan osmon tutashgan joyda esa, mo-viylik birlashib, ular oralig'idagi chegara yo'qolardi. Biz esa o'zimizni bo'shliqda muallaq qolganday his etardik; bizni bo'm-bo'sh moviy olam qurshagan edi; oltinday yaraqlagan, bo'yinlarimizni kuydirgan qay-noq tropik quyoshidan boshqa ko'z tikadigan hech nima yo'q. Ufqdagi yagona solning uzoqdagi yelkani bizni magnitday o'ziga tortadi. Biz qayig'imizni orqaga buramiz, solga chiqib olamiz-da, o'zimizni uyimizga, ishonchli tuproqqa, o'z olamimizga qaytgandek his etamiz. Bambuk kayuta ichida esa bizni bambuk-ning soya va isi, palmaning so'ligan yaproqlari hidi kutardi. Kayutaning ochiq devoridan ko'zga tashla-nib turgan, oftobga g'arq moviylik, endi biz uchun kifoya edi. Bu manzaraga biz ko'nikib, poyonsiz mo-viylik yana bizni solni tark etishga chorlamaguncha, u bizni qanoatlantirardi.

Omonatgina bambuk kayutaning bizga bu qadar ruhiy ta'sir etishi ajablanarli edi. Kayutamiz eni ikki

yarim, uzunligi to'rt metr kattalikda bo'lib, shamol va to'lqin bosimini kamaytirish niyatida biz uni shu qadar past qilib qurganmizki, ichida hech qaysi birimiz tikka turolmasdik. Kayutaning devori va tomi pishiq bambuk poyalarni bir-biriga bog'lab yasalgan edi; bambuk poyalari tilingach, quyuq qilib to'qib qo'yilgan edi. Tepasidan yaproqlar osilib turgan yashil va sarg'ish rangdagi to'qima kayuta, oppoq rangga bo'yalgandan ko'ra chiroyliroq edi. O'ng tomondagi bambuk devorning uchdan bir qismi ochiq bo'lib, tomi va devoridan quyosh hamda oy yog'dulari jilo sohib turgani bilan bu ibtidoiy uya, xuddi shu sharoitda oppoq taxta devorlar-u yopiq illyuminatorlardan ko'ra xavfsizroqdek ko'rinardi. Biz bu alomat faktga izoh qidirdik va quyidagicha xulosaga keldik. Palma yaproqlari bilan yopilgan bambuk chaylani dengiz safari bilan o'zaro bog'lamoq ongimizga sira sig'masdi. Mabodo rezina qayiqqa tushguday bo'lsakchi, to'lqinlar bilan chayla rolini almashtirardi. Balza xodalari, oqchorloq kabi to'lqinlar uzra sirg'alar, quyruqni bosgan suvning oqib chiqib ketishiga imkon berardi. Bu hol esa dilimizda, solning kayuta turgan o'rta yerida hamma vaqt quruq joy bor, degan ishonch uyg'otardi. Safar qanchalik uzoq davom etgani sari biz o'zimizni shinam uyamizda bexavotir va xotirjam his etardik; shunday qilib biz, eshigimiz oldida o'ynoqlagan to'lqinlar qirrasiga hayajonli film-da ko'rinib, bizga aslo xavfli bo'lmagan bir narsadek parvo qilmaymiz. Eramizgacha bo'lgan 1947-yilmidi bu yoki eramizdagi, birdan ahamiyatini yo'qotdi. Biz yashayapmiz – mana shuni juda aniq his etdik. Texnika asri kelgunga qadar ham hayot odamlar uchun to'liq bo'lganini angladik. Ko'p masalalarda, hozirgi odam hayotidan ko'ra to'liqroq va boyroq bo'lgan bo'lsa ajab emas. Vaqt va rivojlanish, shu daqiqqa, mav-

jud emasdek tuyuldi. Inson hayotida nimaiki haqiqiy va ahamiyatli bo'lsa, bugungi kunda ham bir vaqtlar qanday bo'lsa shunday, bundan keyin ham, hamma vaqt, shundayligicha qoladi. Biz tarixning yalpi absolyut o'lchoviga qo'shilib ketgan edik: g'uj yulduzlar tagida zim-ziyo qorong'ilik. Tun qorong'isida qarshimizdan, to'lqinlar ichra «Kon-Tiki» ko'tariladi-da, o'rtamizda yastangan sim-siyoh suvga bag'rini beradi. Oy nurida solni allaqanday bir vaziyat chulg'aydi. Suv o'lanlaridan tarkib topmish shokila osgan yo'g'on xodalar, vikinglarga xos qora yelkanning chorsi taxliti, sarg'ish nur taratgan sham osilgan hurpaygan bambuk chayla – shularning barchasi haqiqatdan ham ko'ra, sehrli ertakdagi manzaralarga o'xshab ketardi.

Kechalari sehrli yakka solimizga ko'z tashlarkanmiz, fikran shunday bir manzarani tasavvur etamiz. Bir vaqt odamlar mana shu okeanda ilk bor yo'l ocharkanlar, xuddi shunday sollarda qator bo'lishib, quruqlikni ko'rish oson bo'lsin uchun, yelpig'ich shaklda suzib kelishgan. Ispanlar paydo bo'lginga qadar, Peru bilan Ekvadorni o'ziga qaram qilgan inka Tupak Yunanki, ko'p ming kishilar hamrohligida, balza sollarida, aytishlariga ko'ra, Tinch okeanning allaqayerlarida joylashgan orollarni qidirib okeanga safarga chiqqan. U ikki orolni topgan; ba'zilar bu Galapagos orollari edi, deb taxmin qilishadi. Sakkiz oy g'oyib bo'lib ketgach, Tupak Yunanki va bir qancha eshkakchilar, zo'r qiyinchiliklar bilan, Ekvadorga qaytishga muvaffaq bo'lganlar. Kon-Tiki ham o'z hamrohlari bilan, bir necha asr ilgari, xuddi shunday saf tortib suzgan. Lekin ular Polineziya orollarini kashf etganlari tufayli, qiynalib orqaga qaytishga ehtiyoj bo'lmagan.

Bu sayyoh murabbiylar balkim, Atlantik okeani ortida yashagan bo'lib, bir vaqtlar, okeandagi g'arbiy

oqim va tropik shamol yordamida Kanar orollaridan Meksika bo'g'oziga suzib kelgan qadimiy madaniy xalqlardan chiqqandir? Albatta, bu masofa biz suzib o'tayotgandan ko'ra ancha qisqa. Buning ustiga, endilikda biz, okean mutlaq ajratib turadigan vosita ekanligiga ishonmaymiz. Ko'p tekshiruvchilar asosli dalillar keltirib, buyuk hindi taraqqiyoti – Meksikadagi atsteklardan tortib, Perudagi inklargacha, – okean ortidan, g'arb tomondan qo'qqisdan kelgan xalqlarning joydan-joyga ko'chishi natijasida paydo bo'lgan, deya tasdiqlaydilar. Ularning taxminicha amerika hindilari, 20 ming yil va undan ham ortiq davr davomida, Amerikaga Sibirdan bir-bir kelgan ovchi va baliqchi qabilalaridan tarkib topgan. Bizni, Meksikadan Perugacha bo'lgan masofadagi buyuk taraqqiyotning asta-sekin rivojlanishi izini topmaganimiz hayron qoldirishi kerak. Arxeologlarning qazishlari chuqurlashgani sari, avvalgisidan buyuk madaniyatga duch kelishavergan, bu qadim madaniyat hech qanday ibtidoiy madaniyatga tayanmay barpo bo'lganini ko'rsatuvchi ma'lum fikrga olib kelgan.

Yana shunisi ham borki, madaniyatning rivojlanishi uchun sharoit, qadimda ham, hozirda ham qo'l kelgan mo'tadil iqlimli oblastlarda emas, balki markaziy va Janubiy Amerika sahrosi va jungli o'rmonlari bag'rida rivoj topgani qiziq.

Xuddi shu manzarani Janub dengizi orollarida ham kuzatish mumkin. Tuprog'i quruq, unumsiz bo'lgani va Tinch okeanidagi boshqa orollarga qaraganda Osiyodan uzoq bo'lgani bilan, Peruga eng yaqin bo'lgan kichkinagina Pasxi orolida mana shunday taraqqiyot izlarini ko'ramiz.

Yarim yo'lga yetgach biz, Pasxi oroli bilan Peru oralig'icha bo'lgan masofani bosib o'tdik. Endi bu afsonaviy orol bizdan janubda yastangandi. Solning

okeandagi odatiy yo'lini takrorlash uchun biz materikdagi o'ng'ay joydan – Peru sohillarining o'rtalig'idan suzib ketdik. Agar biz janubroqdan, Kon-Tiki-ning xarobaga aylangan poytaxti Tiaxuanakadan suzib ketganimizda, shu-shu shamol yo'ldosh bo'lgani bilan, hozirgidan bo'shroq oqim bizni Pasxi oroli tomon surib ketardi.

Biz 110° g'arbiy kenglikdan o'tganimizda polineziyaning okean oblastiga yetib qoldik. Endi polineziyaning Pasxi oroli bizdan ko'ra Peruga yaqin bo'lib qoldi. Biz Janub dengizi orollarining avanposti bilan, orollarining qadimiy taraqqiyoti markazi yonidagi qamti meridianda edik. Qizigan, yo'l ko'rsatuvchi shar ufqqa yonboshlab, spektrning hamma rangida tovlanib g'arbda, okeanda g'oyib bo'lganda, yengil tropik shamol Pasxi orolining favqulodda sirlarini tiriltardi.

Lekin janubda, Pasxi orolida, toshdan yo'nilgan, oq tanlilarning yuz bichimi namoyon bo'lgan, cho'qqi soqol, bundan ham bahaybat, besh yuz yillar siri haqida xayol surib turadi. 1722-yili yevropaliklar birinchi bor orolni kashf etgan chog'larida ham xuddi shunday turgan bular. Hozirgi polineziyaliklarning ajdodlari qayiqalaridan qirg'oqqa tushib, orolda yashagan taraqqiyotga erishgan sirli xalqning qo'lga tushgan barcha erkaklarini qirib tashlagan chog'larida ham bu haybatli kallalar qator turgan bo'lgan. O'shandan beri, Pasxi orolidagi xarsanglardan yasalgan haybatli kallalarni qadim zamonning hal qilib bo'lmaydigan siri deb sanashadi. Bu daraxtsiz orolning tepalikdagi yonbag'rida, balandligi uch-to'rt qavatli uyday keladigan katta xarsangdan, nihoyatda did bilan yasalgan bahaybat haykallari turadi. Qadimgi odamlar bu haybatli haykallarni qanday qilib yasashdi ekan, qanday qilib joyidan qo'zg'atib, bu yerlarga o'rnatishdi ekan? Bunisi kamlik qilganday, ba'zi haykallar-

ning boshiga, qo'shimcha sur'atda, kattakon parikni eslatuvchi qizg'ish xarsangni yerdan o'n ikki metr balandlikda qo'ndirishgan. Bularning ma'nosi nimada? Hozirgi kuchli mutaxassis muhandislar uchun ham bu jumboqlarni yechish qiyin va o'sha davr me'morlari qanday mexanika ishlatib, qanday bilimga ega bo'lishgan ekanlar-a? – degan fikr tug'diradi.

Lekin, agar ma'lumotlarni chog'ishtiradigan bo'lsak, Pasxi oroli siri u qadar hal etib bo'lmaydigan emasligini tez anglaymiz; Perudan solda suzib kelgan odamlar bu muammoni hal qiladigan kalit vazifasini o'tashi mumkin. Qadimiy taraqqiyot bu orolda shunday iz qoldirganki, hatto vaqt ham uni o'chirib yubora olmagan. Pasxi oroli o'chgan qadimiy vulqon cho'qqisini eslatadi. Qadimda taraqqiy etgan xalq tomonidan qurilgan tosh yo'llar sohilda hali-hanuz yaxshi saqlangan, kema kiradigan joylarga olib boradi. Bu hol orol atrofidagi suvning chuqurligi bizning kunlargacha o'zgarmaganidan dalolat beradi. Bu cho'kkan qit'aning qoldig'i emas, balki, bir vaqtlar, Tinch okeanning madaniyat markazi bo'lgan chog'ida ham, mana shunday kichkina va yakka orol bo'lgan joydir.

Konus shaklidagi orol o'rtaligida o'chgan vulqon krateri bor. Krater tubida esa ajoyib toshtaroshliklar, haykal yasash ustaxonalari saqlangan. Qadimiy haykaltaroshlar va me'morlar, yuz yillar muqaddam, orolning sharq tarafidagi burni tomon shoshilganlarida ustaxonalarni qay ahvolda tashlab ketgan bo'lsalar, shundayligicha turibdi. Rivoyatlarga ko'ra, kelgindilar, oroldagi barcha erkaklarni o'sha yerda qirib tashlaganlar. Haykaltaroshlarning ishi chala qolgani sharofati bilan biz Pasxi orolidagi krater tubida qay tarz ishlaganliklari haqida tasavvurga egamiz. Haykaltaroshlarning, ish joyida tashlab ketgan, chaqmoqtoshdan ishlangan tosh bolta va asboblari

bu madaniy xalq temirni bilmaganligidan dalolatdir. Kon-Tiki haykaltaroshlari Perudan qochgan paytlarida And yassi tog'ida o'zlaridan keyin qoldirgan tosh haykallar ham xuddi shunaqa edi. Afsonaviy soqolli oq tanli kishilar tog'ning shundoqqina yonboshidan bo'yi to'qqiz-o'n ikki metr keladigan xarsanglarni undan ham qattiq tosh bilan yo'nishgan toshtaroshliklar goh unda, goh bunda uchrab qoladi. Bir qancha tonna keladigan bu bahaybat xarsanglar, haybatli odam shakli sifatida yerga qo'ndirilguncha yoki bir-birlari ustiga zina yo devor taxlit taxlab qo'ygunlaricha bunda ham, unda ham, baland-past yo'llardan necha-necha kilometrta tashib olib borilgan.

Pasxi orolidagi krater tubida haybatli haykallar taroshlanayotgan joyning o'zida chala qolganicha yotadi: ular turli bosqichda ish qanday olib borilganligini ko'rsatadi. Haykaltaroshlar to'satdan qochishga majbur bo'lib qolgan chog'da, bitay deb qolgan, eng haybatli odam haykalining balandligi 22 metr bo'lgan; haykal bitib, qo'ndirilgan chog'da, bu haybatli odam boshi sakkiz qavatli bino tomi bilan baravar kelgan bo'lardi. Har bir haykal alohida yaxlit xarsangdan tarashlab ishlangan bo'lib, haykallar atrofidagi ustalarga ish joyi xizmatini o'tagan takchalar esa, har bir haykal ustida, bir yo'la bir necha odam ishlaganini ko'rsatadi. Pasxi orolidagi haykallar xuddi Perudagi xarsang haykallarini eslatar, tirsakni bukib, panjalarni qoringa qo'yib, chalqancha yotardilar. Haykallar ustaxonada mayda detallarigacha puxta ishlanib, shundan keyingina, belgilangan joyga olib ketilarkan. Toshtaroshlikda ishning so'nggi bosqichi bahaybat haykalning orqa tomonidagi qoyaga ulanib turgan bir bo'lagi ustida ishlashdan iborat bo'lardi; buning uchun, haykal yumalab ketmasin deya, tagiga xarsanglar qo'yilardi-da, o'sha ulangan bo'lak qirqilardi.

Shunday haykallardan bir qanchasi krater tubiga tushirib, yonbag'irga suwab qo'yilgan edi. Lekin haykallarning eng kattalaridan juda ko'pi yuqoriga tortib chiqarilib, yurish qiyin bo'lgan yo'ldan bir qancha kilometr joyga olib borib qo'yilgan edi. U yerda ularni xarsangtosh ustiga o'rnatardilar-da, boshiga qo'shimcha qizil lava xarsang qo'ndirardilar. Mana shu tashib olish ishining o'zi mo'jizadek ko'rinadi. Lekin Perudan izsiz yo'qolgan me'morlar And tog'i etaklarida, ularning hech tenggi ko'rilmagan usta bo'lganlaridan dalolat beruvchi xarsang haykallar qoldirganlarini inkor etib bo'lmaganidek, buni ham inkor etib bo'lmasdi. Haykallarning eng ko'pi va eng kattalari Pasxi orolidan topildi. Yana shunisi ham borki, bundagi haykaltaroshlar o'z uslublarini topgan edilar; xuddi ana shu izsiz yo'qolgan madaniyat vakillari Tinch okeanning Amerikaga yaqin bir qator orollarida xuddi shunday bahaybat odam haykallarini o'rnatganlar.

Haykaltaroshlarning toshtaroshlikdagi ishi ko'p vaqt talab qilgan, lekin atigi bir necha mutaxassis tomonidan bajarilgan. Tayyor haykallarni o'rnatiladigan joyga ko'chirish esa, tezda bitadigan ish bo'lsa-da, ko'p odam kerak bo'lardi. O'sha davrlarda kichkina-gina Pasxi oroli baliqqa boy bo'lib, Perudan keltirilgan shirin kartoshka plantatsiyalari katta edi, yaxshi ishlov berilardi. Mutaxassislarning hisobiga ko'ra, ana shu ajoyib davrlarda, orol 7 yoki 8 mingdan iborat aholini boqa olardi. Bahaybat haykallarni kraterning tik yonbag'ridan ko'tarib chiqarish uchun esa ming kishi yetarli edi. Haykalni orolning kerakli joyiga eltib joylashtirishga yana 500 kishi kerak bo'lardi.

Daraxt va o'simliklarning uzun tolali po'stlog'idan shunaqa pishiq arqon yasashardiki, xaloyiq bahaybat haykallarni yog'och romga mahkamlab olgach, rom oson sirg'anishi uchun taro ildizi ishqalgan xoda va

yumaloq xarsangtoshlardan yasalgan, sirpang'ichlar ustida tortib borishardi.

Janub dengizi orollarida va, ayniqsa, Peruda topilgan topilmalar, taraqqiyotga erishgan qadimgi xalqlar chilvir va yo'g'on arqonlarni to'qishga mohir bo'lganliklaridan dalolat bergan. Ilk yevropaliklar bunda jo'shqin daryolar va daralar ustidan tashlangan, yo'g'onligi erkak kishi beliday kelgan arqondan yasalgan, uzunligi yuz metr keladigan, osma ko'priklarni uchratganlar.

Xarsangdan yasalgan haykal belgilangan joyga keltililgach, uni qanday qilib joylashtirish kerak, degan masala ko'tariladi. Orol aholisining bir qismi tosh va qumlardan maxsus tepalik bunyod qilishadi. Tepalikning bir tomoni qiya, bir tomoni tik bo'ladi. Bahaybat haykalni, oyog'ini oldinga qilib, tepaga tortib chiqaradilar. Haykal tepalik ustiga chiqqach, tik qirra bilan pastga, oldindan tayyorlab qo'yilgan chuqurga tushiriladi. Haykalning gardani tepalik boshigacha yetib turadi. Silindr shaklidagi qo'shimcha xarsangni shu tepa ustida haykal boshiga qo'ndiradilar-da, shundan keyingina tepalikni tekislab yuboradilar. Xuddi shunday tayyor tepaliklar, Pasxi orolining bir qancha yerida, endi hech qachon paydo bo'lmaydigan bahaybat haykallarni kutib yastanganlar. Bu ajoyib bir texnika edi. Lekin qadimgi odamlar aql-farosatiga yetarli baho bersak hamda, ularning vaqti va ishchi kuchi ko'pligini hisobga olgan taqdirda, bular juda hayratlanadigan voqea emasligiga ishonch hosil qilamiz.

Lekin nima uchun yasashgan bu haykallarni? Kraterdagi ustaxonadan yetti kilometrcha naridagi boshqa toshtaroshlikka borib, haykallar boshiga qo'ndirish uchun boshqa navdagi qizil tosh kesib kelishining qanchalik zarurati bo'lgan? Janubiy Amerikada ham, Markiz orollarida ham, haykal boshdan oyoq

shu qizil toshdan yasalgan bo'lib, bu toshni uzoqdan keltirishga to'g'ri kelardi. Chunki, Polineziyada ham, Peruda ham qizil bosh kiyimini kiyish yuqori tabaqa kishilariga xos bo'lgan.

Haykallar qiyofasida kimlar tasvirlanganini o'zimiz uchun aniqlaylik-chi! Ilk yevropaliklar Pasxi oroliga kelganlarida sohilda sirli «oq tanlilarni» ko'rganlar. Ular favqulodda bir holni, ya'ni bu odamlar orasida uzun qizil soqolli kishilar ham borligini, shuningdek, orolning ilk aholisiga mansub bo'lgan xotin va bolalarni va bosqinchilar tomonidan shafqat qilinib qoldirilgan tub aholini ko'rganlar. Orol ahli, ajdodlaridan ba'zilarining oq tanli bo'lganini, ba'zilarining esa tusi jigarrangda bo'lganini aytganlar. Ular, boshqalar kelib Polineziya orolini bostirib olganlaridan beri yigirma ikki avlod kelib ketganini, asl avlodlari katta kemalarda sharqdan kelganlaridan buyon esa ellik yetti avlod davri o'tganini (ya'ni eramizning 400–500-yillari oralig'ida bo'lganini) aytadilar. Sharqdan kelgan odamlarni «uzun quloqlar» deb ataganlar. Ular quloqlari solinchog'iga biror og'ir narsa ilib sun'iy ravishda quloqlarini uzaytirganlari uchun quloqlari yelkalarigacha osilib tushgan. «Kalta quloqlar» orolga bostirib kelgach, «uzun quloqlar»ni qirib tashlashgan; lekin Pasxi orolidagi haykallarning hammasining qulog'i uzun, ularni yasagan haykaltaroshlar qulog'i singari yelkasigacha osilib turadi.

Perudagi inklarning rivoyatlariga ko'ra esa, qu-yosh qirol Kon-Tiki soqoldor oq tanlilarning hukmroni bo'lgan. Ular quloqlarini sun'iy sur'atda uzaytirib yelkalariga osiltirib qo'yganelari uchun ularni inklar «katta quloqlar» deb ataganlar. Inklarning ta'kidlashicha, And tog'i etaklaridagi qarovsiz qolgan bahaybat haykallar, «Kon-Tiki»ning «katta quloq» odamlari tarafidan, ular qisman qirib tashlanib, qisman Titikaka

ko'li yonidagi orolda inklar bilan bo'lgan urushdan so'ng qochib ketgunlaricha qurilganini ta'kidlaydilar.

Janub dengizining ba'zi orollaridagi bahaybat haykallarni Peru orolidagi haykallar bilan solishtirganimizda Janub dengizining orollaridagi turli haykallardan ko'ra bular bir-birlariga o'xshashligini ko'ramiz. Markiz orollari tarixida va Taitida-da bunday haykallar mashhur bo'lgan, ular o'lganidan so'ng Xudo deb ataluvchi ajdodlarni tasvirlar va Tiki nomi bilan atashardi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Polineziya orollarining barchasida sochi qizg'ish, o'zi oq odamlarni, hatto oilalarni uchratish mumkin; orol ahlining aytishiga ko'ra, xuddi shu odamlar bunda yashagan oq tanlilarning avlodidir. Ba'zi bir orollarda diniy bayramlarning ishtirokchilari o'zlarining qadimgi ajdodlariga o'xshab ketmoq uchun terilarini oqqa, sochlarini qizg'ish rangga bo'yaganlar. Pasxi orolida har yilgi marosimda, bayramning asosiy ishtirokchisi, sochini qizg'ish rangga bo'yashga imkon topish uchun, sochini qirqqan. Pasxi orolidagi bahaybat haykallar boshiga qizil toshdan yo'nilib qo'ndirilgan qalpoqlar shu yerliklar sochini oroyishi tartibida – tugun qilib miyaga qo'ndirib qo'yilgan bo'lgan. Negaki, udumga ko'ra, yerlik erkaklar sochlarini tugun qilib qo'yishgan ekan.

Haykallarning kallasi katta bo'lib, oyog'ining mutanosibsiz ravishda kichkinaligi va qo'lining qovush tirib qo'yilganligi esa, Perudagi haykaltaroshlarga shu shaklda haykal yasash odat bo'lib qolganidandir. Pasxi orolidagi haykallarning birdan bir ziynati bellariga bog'lab qo'yilgan belbog'dan iborat bo'lardi. Titikaka orolidagi qadimiy Kon-Tiki shahri xarobalaridagi har bir haykalda mana shunday ramziy belbog'larini ko'ramiz. Bu quyosh qirolning afsonaviy belgisi – kamalak kamardir. Mangareva orolida shunday af-

sona bor. Afsonaga ko'ra, quyosh qirol, sehrli belbog'i bo'lmish kamalakni yechganda, oq tanli farzandlarini joylashtirib ketish uchun kamalak usti bilan yurib Mangareva oroliga tushgan. Bir vaqtlar, xuddi Perudagi singari hamma orollarda ham odamlar aslida quyoshdan bunyodga kelgan deb hisoblangan.

Biz ko'pincha yulduzlar charaqlagan osmon tagida, palubada o'tirarkanmiz, odim solimizni Polineziyaning qoq markaziga olib ketayotgan bo'lib, bu yakka orolni xaritada emas, aynan o'zini ko'rish imkoniyatiga ishonch bo'lmas-da, biz shu Pasxi orolining sirli tarixi haqida tinmay so'zlashardik. Pasxi orolida sharqqa yetaklovchi izlar shu qadar ko'pki, hatto uning qadimiy nomi ham yechilmagan muammoga kalit topishga yordam beradi.

Xaritada «Pasxi oroli» nomi paydo bo'lishining sababi shundaki, allaqanday bir gollandiyalik orolni pasxa¹ kuni «kashf etgan». Biz esa orolda yashagan yerli xalq o'z vatanlarini boshqacha, ibratli va ma'nodor nom bilan atashlarini unutib ham yuborganmiz. Polineziyaliklar bu orolni kamida uch nom bilan atashadi.

Bu nomlardan biri Te-Pite-te-Xenua bo'lib, buning ma'nosi «orollar kindigi» demakdir. O'zlarini eng qadimiy xalq sanagan polineziyaliklarning aytishlaricha esa bu poetik nom Pasxi orolini g'arbga tomon yastangan boshqa orollarga qaraganda, alohida o'ringa qo'yadi. Orolning sharq tomonida, birinchi «uzun quloqlar»ning kelib tushgan afsonaviy joylariga yaqin yerda, pishiq-puxta qilib ishlangan tosh shar bo'lib, uni «oltin kindik» deb atashadi, Pasxi orolining «kindigi» deb ham hisoblashadi. Polineziyaliklarning poetik ajdodlari orolning belgisini sharqiy sohildagi kindik shaklida yasaganlari ham, Peruga eng yaqin bo'lgan orolni g'arbga tomon joylashgan behisob orollarning

¹ Pasxa – xristian va yahudiylarning diniy bayrami.

«kindigi» deya eʼlon etganliklari ham ramziy ahamiyatga egadir.

Pasxi orolining ikkinchi nomi Rapa-nui boʻlib, buning maʼnosi «Katta Rapa» demakdir; shuningdek, kattalikda Pasxi oroliga teng keladigan va bu orolning gʻarbida, uzoqda joylashgan Rapa-iti, yaʼni «Kichik Rapa» deya atalgan orol ham bor. Hamma xalqlarda oʻzining ilk vatanini, Katta Rapa, ikkinchi vatanini esa – Yangi Rapa yoki Kichik Rapa deya ataydigan odat bor. Ikkala joyning kattaligi bir xil boʻlgan taqdirda ham, odatda shunday qilinadi. Kichik Rapa aholisi orasida, to shu bugungi kungacha, shunday rivoyat yuradi. Bu rivoyatga koʻra, ularning orollarida yashovchilarning ajdodlari Katta Rapadan – sharqda yastangan, Amerikaga yaqin boʻlgan Pasxi orolidan kelgan. Bu, ilk bor koʻchib kelish sharq tomondan boʻlganiga ishoradir.

Bu orolning uchinchi nomi esa Mata-Kite-Rani boʻlib, buning maʼnosi «Osmonga tikilgan koʻz» deganidir. Birinchi qaraganda bu juda gʻalati tuyulishi mumkin; boshqa orollarga qaraganda past joylashgan Pasxi orolidan koʻra, tepalik, togʻli joylardagi Ta-iti, Markiz yoki Gavay orollarini – osmonga koʻz tikkan, desa boʻladi. Ammo «rani» (osmon) soʻzi polineziyaliklarda ikki maʼnoda yuradi. Maʼnosi shuki, ajdodlarining ilk vatanlari quyosh-qirolning muqaddas tuprogʻi, Tikining togʻliqdagi tashlab ketilgan podshohligiga ishora hamdir. Bu juda ham mazmundor topilgan nomdir. Negaki, okeanda yastangan minglab orollarning Amerikaga eng yaqini Pasxi oroli boʻlib, vatan tomon tikilgan koʻz nomini olgandir. Yana tang qoldiradigani shundaki, polineziyaliklar tilida «osmon koʻzi» maʼnosini beruvchi Mata-Rani degan nom Perudagi bir joyning qadimiy nomiga yaqindir. Bu joy Peruning And togʻi etaklarida, Tinch okeani sohillari-

ning Pasxi oroliga ro'para qismida bo'lib, shu tog'ning balandroq qismida Kon-Tikining xarobaga aylangan qadimiy poytaxti bo'lgan.

O'zimizni shu tarixga qadar bo'lib o'tgan voqealar ishtirokchisidek his etib, yulduzlar charaqlagan osmon tagida palubada o'tirarkanmiz, faqat Pasxi oroli-ning o'zigina bizga yetarli mavzu berardi. Nazarimizda go'yo, o'sha Tiki davridan buyoq, quyosh va charaqlagan yulduzlar ostida yer izlab yurgandek bo'lamiz.

Endi to'lqin va okeandan hayiqmas edik. Biz sol-da turib ulardan nimalar kutish kerakligini bilardik. Hatto akula ham bizni tashvishga solmay qo'ydi; biz uning fe'lini va odatini bilib oldik. Yonginamizda akula paydo bo'lganida ortiq qo'l garpunini izlamaymiz, hatto sol chekkasidan uzoqlashmaymiz ham. Aksincha, xodalar yonida vazmingina suzganda, orqa yuzgichidan ushlab olmoqchi bo'lardik. Bora-bora bu sportning yangi bir turiga – arqonsiz «kim kimni tortib ketadi» degan o'yinga aylanib qoldi.

Keyin, bora-bora, akulalar bilan shunday o'yin qiladigan bo'ldik. Arqon uchiga bir parcha baliqni yoki, ko'pincha, ovqat qoldiqlari solingan xaltani bog'lab, xo'rak sifatida bort ortiga tashlaymiz. Akula esa, o'mbaloq oshish o'rniga, boshini suvdan chiqarib, ziyo-fatni yutib yuborish uchun jag'ini katta ochib, suzib keladi. Akula og'zini yumishga hozirlangan hamono arqonni tortishdan o'zimizni tiyolmasdik; aldangan akula yana yaqinlashar va xo'rakni yutish uchun og'zini ochardi. Akula har gal endi yutaman deb turganida xo'rak og'zidan irg'ib chiqib ketardi. Axiri akula xoda yonigacha suzib kelardi-da, ovqat so'ragan ko'ppak singari, boshi ustida lapanglab turgan xaltaga o'zini otib, irg'ishlay boshlardi. Bu hayvonot bog'ida og'zini katta ochib turgan begemotni boqishni eslatardi. Shunday qilib, iyul oxirlarida, okeanda

suzganimizga uch oy bo'lganda, kundalik daftarimda shunday yozuv paydo bo'ldi:

«Bizni kuzatib kelayotgan akula bilan do'stlashib oldik. Ovqat paytida qoldiqlarni uning ochiq turgan og'ziga otib boqib turdik. Shundoqqina yonginamizgacha suzib kelarkan u, iyib turgan qopag'on kuchukni eslatardi. Tokim o'zingiz og'ziga tushmaguningizcha akulalar alomat bo'lib ko'rinarkan. Ularning atrofigimizda suzishib yurishi, cho'milayotgan bo'lmasak agar, ko'nglimizga ancha xush yoqadi».

Kunlardan bir kun akula uchun ovqat solingan xalta bog'langan bambuk tayoq taxt qilib sol chekkasiga qo'yilganicha yotardi. Birdan to'lqin kelib, uni yuvib ketdi. Mana bambuk tayoq soldan 200 metrcha narida suzib yuribdi; to'satdan tayoq suvda tikkaydi va iltifot bilan o'z joyiga qaytmoqchi bo'lgandek, o'z-o'zidan sol ketidan suzib ketdi. Qarmog'imiz chayqalachayqala yaqinlashganda uning tagida suzib kelayotgan uch metrli akula ko'rindi; bambuk tayoq periskop singari suvdan chiqib turardi. Akula ovqat solingan xaltani yutib yuborgan-u, arqonni g'ajib tashlamagan. Ko'p o'tmay qarmoq bizga yetib oldi, yonimizdan xotirjamgina suzib o'tib, oldinda g'oyib bo'ldi.

Bora-bora akulaga boshqacha ko'z bilan qaray boshlagan esak-da, jag'ida yashirinib yotgan, ustara-dek o'tkir besh-olti qator tishdan hamon hayiqardik.

Bir kuni Knutga, beixtiyor akula yonida cho'milishga to'g'ri keldi. Hech qaysi birimizga, soldan nari suzib ketishga ijozat yo'q edi. Avvalo, solni to'lqin surib ketishi mumkin bo'lsa, ikkinchidan, akulaga yem bo'lib qolish xavfi bor edi. Shu kuni havo ayniqsa sokin edi, orqamizdan ergashib yurgan akulalarining bir nechasini tutib olgan edik; shuning uchun men okeanda cho'milishga ijozat berdim. Knut suvga sho'ng'idi, suv tagida ancha joyga suzib borib, suv

betida paydo bo'ldi va orqaga qaytishga hozirlandi. Shu chog' biz machtadan turib, uning tagida o'zidan katta bir soya harakatga kelayotganini ko'rdik. Knutni qo'rqitib yubormaslik uchun iloji boricha xotirjamlik bilan ehtiyot bo'lgin, deb qichqirdik. Knut sol tomon shoshib suza ketdi. Lekin uning tagidagi soya suzishga undan ko'ra ustaroq jonivorga taalluqli bo'lib, u chaqqonlik bilan Knutni quva ketdi. Ular solga barobar yetib kelishdi. Knut palubaga osilib chiqarkan, ikki metrli akula uning shunday qorni tagiga kelib to'xtadi. Knutning oyog'ini uzib olmaganligi uchun, minnatdorlik evaziga, akulaga oltin makrel balig'ining mazali kallasini taqdim etdik.

Akulalar bilan munosabatimiz bora-bora juda yengiltaklashib ketdi. Biz ularning dumidan tortadigan bo'lib qoldik. Hayvonlarning dumidan tortish u qadar qiziqarli sport emas. Ammo to bizgacha hech kim akula bilan shunday fokus qilmagan-da. Lekin, har holda bu, juda ajoyib sport.

Akulaning dumidan tortish uchun, avval biz unga biror-bir mazali ovqat taklif qilishimiz kerak. O'ljani olish uchun akula suvdan boshini chiqarishga tayyor. Odatda ovqat bilanglab turgan xaltachada unga uzatiladi. Ammo akulani qo'ldan ovqat berib boqish albatta ko'ngilga xush ish emas. Agar it yoki o'rgatilgan ayiqni qo'ldan ovqat berib boqilsa, ular go'shtni mahkam tishlab olib, to bir bo'lak uzib olgunlaricha yoki butun bo'lakni olib olmagunlaricha tortqilayveradilar. Lekin siz, akula boshi tepasida, oltin makrel balig'ining katta bir bo'lagini xatarsiz masofada tutib tursangiz, akula bir irg'ishlaydi-da, jag'ini ochib-yopadi. Shunda siz tutib turgan balig'ingizni tortqilashganini his etmaysiz-u, lekin qarabsizki, baliqning yarmi to'satdan g'oyib bo'lipdi, baliqning dumini tutganingizcha qolaverasiz. Oltin makrel balig'ini pi-

choq bilan ikkiga bo'lish uchun biz ozmuncha urina-
mizmi. Ammo akula ko'p jon koyitib turmay, jag'ini
bir harakatga keltirib, uchburchak arrasifat tishla-
ri bilan, baliq umurtqasini kolbasa kesadigan ma-
shina kabi uzib oladi. So'ng akula, suvga sho'ng'ish
uchun orqasini o'girganida dumi suv yuzasida silki-
nadi. Ana shunda uning dumidan ushlab olish oson.
Akulaning terisidan ushlaganingizda jilvir qog'ozni
eslatadi, dumining uchida, past tomonida chuqur-
cha bo'lib, kim biladi, balki tabiat mahkam ushlab
olish uchun bu chuqurchani ato qilgandir. Dumining
shu joyidan ushlab olishga muvaffaq bo'lgan chog'la-
rimizda tortishuv ancha jiddiy bo'ladi. Akula o'ziga
kelishga ulgurmay, siltab tortish kerak. So'ngra esa,
dumini solning o'rtaroq yeriga tortib, xodaga mah-
kam bosiladi. Bir-ikki soniya davomida hech nima-
ga fahmi yetmagan akula gavdasining oldingi qismi-
ni bilanglatib to'lg'anadi. Dumi yordamisiz tezlikka
erisha olmaganligi tufayli tezda bo'shashadi. Qolgan
yuzg'ichlar muvozanatni saqlash uchun xizmat qiladi
va rul vazifasini o'taydi. Akulaning bir necha foydasiz
urinishlari paytida, bizning vazifamiz, dumni qo'yib
yubormaslikdan iborat bo'ladi. Shundan keyin aku-
laning ruhi tushib juda passiv bo'lib qoladi; chunki
joydan joyga yengil ko'chadigan oshqozoni boshi to-
moniga tushadi, akula esa tamoman paralich holiga
keladi. Akula jimib, nima bo'lishini kutib shalpayib
qolganda esa, kuchning boricha tortqilash kerak. Bu
og'ir baliqni biz zo'rg'a yarim beligacha solga chiqa-
rib olishga muvaffaq bo'lardik. Bunday chog'da akula
o'ziga kelar va qolgan ishni o'zi bajarib qo'yardi. U
jon-jahdi bilan sapchib, boshini biz tomon o'girardi
va xodaga chiqarib olardi; shunda biz bor kuchimiz
bilan uni tortqilardik-da, oyog'imizni salomat saqlab
qolish uchun darrov qochardik. Negaki, kayfi buzuq

akula oyog'imizni g'ajib olishi mumkin. Akula palubada irg'ishlar, dumi bilan bambuk devorni, bolg'a urganday, taraqlatib urardi. Endi u muskullarini ortiq avaylamasdi. Uning bahaybat jag'i ochiq turar, qator tishlari duch kelgan narsani tishlardi. Ba'zida harbiy raqs shunday holatda tugardiki, akula ittifoqo suvga tushib ketar va g'oyib bo'lardi; lekin ko'pincha u, jon holatda, sol xodalarida tipirchilab yotar va biz, uning dumiga arqonni halqa qilib tashlashga muvaffaq bo'lardik.

Akulani palubaga chiqarib olganimizda to'tiqushimiz bezovtalanardi. U bambuk kayutadan hovliqib chiqardi-da, palma yaproqlari bilan yopilgan tomga yetib olguncha shosha-pisha devordan yo'rg'alay ketardi; u yerda esa to'tiqush yo boshini chayqab o'tirar, yoinki tom chekkasida u yoqdan bu yoqqa yurib, qichqira boshlardi. To'tiqush allaqachonoq Korchalon dengizchilardek o'zini dadil tutar va xushchaqchaq edi. Biz solda olti nafar odam bo'lib yashil to'tiqush bilan o'zimizni – yettitamiz deb hisoblardik. Sovuqqon qisqichbaqa Yuxannes esa to'la huquqli sherik deb tan olmasligimizdan norozi emas edi. To'tiqush kechalari kayuta shiftidagi qafasiga kirib olardi. Lekin kunduzlari palubada kerilib yurar yoki vanta va shtagalarga osilib, hech qiyosi ko'rinmagan akrobatik mashqlar qilardi. Oldiniga shtaga va vantalarimizda tenderlar¹ bor edi. Lekin arqonni ish-qalab yuborgani uchun ularni oddiy dengiz tuguni bilan almashtirdik. Shtaga bilan vantalar quyosh va shamol ta'sirida cho'zilib, shalvillab qolgach, mangro yog'ochidan temirdek og'ir machtani mahkamlashga kirishishga to'g'ri keldi. Aks holda, borgan sayin qiyshayib ketayotgan machtaning ag'anab ketib, arqon-

¹ Tender – arqon yoki sim tortib qo'yadigan vintli kichkina metall ramka.

larga o'ralashib qolish xavfi tug'ilgan edi. Jonimiz boricha tortib turganimiz eng og'ir paytda to'tiqush keskin ovozi bilan:

– Tort! Tort! Xo-xo-xo-xo, xa-xa-xa!– deb qichqira boshlar va xaxolab kular, xursandligidan shtagada chir-chir aylana ketardi.

Avvaliga radistlarimiz to'tiqush bilan chiqisholmay yurishdilar. Ba'zida shunday bo'lardi. Ular sehrli naushniklarni quloqlariga tutib, bor dunyoni unutib, biror-bir radio havaskor bilan aloqani bog'lagan bo'lishadi. To'satdan naushnik jimiyladi-qoladi. Ular similarni qanchalik tekshirishmasin, tugmalarni bosib ko'rishmasin, hech nima chiqarisha olmaydi. To'tiqush bo'lsa, xuddi shu mahal, antenna simini cho'qiyotgan bo'ladi. Asosan ilk kunlarda, antenna havo shariga bog'lab osmonga chiqarib qo'yilgan kezlarda shunday bo'lardi. Kunlardan bir kun to'tiqush qattiq og'rib qoldi. U qafasiga kirib olib, mung'ayib o'tirardi. To'tiqush ikki kungacha hech nima yemadi, tezagida esa antenna maydalari yiltillardi. Shunday qilib, radistlarimiz uni qarg'aganlariga, to'tiqush esa qilgan gunohlariga pushaymon bo'lishdi; shu kundan boshlab Torsteyn bilan Knut to'tiqushga do'st bo'lib qolishdi va u faqat radiorubkada uxlaydigan bo'ldi. To'tiqush solimizga kelganda uning ona tilisi – ispan tili edi; Bengtning aytishicha, to'tiqush, Torsteynning asl norveg tilidagi hayqiriqlarini takrorlashni o'rganmasidan ilgari norveg shevasi aralash ispancha so'zlagan.

Patlari rango-rang tovlangan to'tiqush ikki oy davomida hammamizni kuldirib yurdi. Lekin kunlardan bir kun u machta tepasidan shtaga bilan yurib tushib keldi. Xuddi shu mahal yirik bir to'lqin orqa tomondan kelib solga yopirildi. To'tiqushning bortda yo'qligidan darak topganimizdan vaqt o'tgan edi. Tevarak-atrofdan undan nom-nishon ko'rinmasdi.

«Kon-Tiki»ni esa burib ham, to'xtatib ham bo'lmadi; biror-bir narsa bort ortiga tushsa, ketdi deyavering.

To'tiqushning halokatidan keyingi birinchi oqshom hammamizning kayfiyatimiz yomon edi: kechalari yakka-yolg'iz vaxtada turgan paytida bortning nari-gi yog'iga yiqilgudek bo'lsak, har birimiz bilan xuddi shunday voqea ro'y berishi mumkinligini bilardik.

Biz bu voqeadan so'ng yanada ehtiyotkor bo'lib, qat'iy tartiblar o'rnatdik: tungi vaxta paytida foydalanib yurgan arqonlarimizni yangiladik. Ilk ikki oy mobaynida ishimiz yaxshi bo'lib ketganligi sababli, beparvo bo'lmashimiz kerakligini bir-birimizga uqtirdik. Birgina ehtiyotsiz bo'lishlik hatto, kuppa-kunduz kuni ham, yashil to'tiqush ketgan jahannamga olib ketishi mumkin.

Biz bir necha bor, kalmar balig'i tuxumining tuyaqush tuxumi po'chog'i yoki oppoq bosh suyagini eslatuvchi kattakon po'chog'ini okeanning moviy mavjida suzib yurganini ko'rdik. Faqat bir galgina po'choq ostida mollyuskaning bilanglaganiga ko'zimiz tushdi. Yonginamizda suzib yurgan sharlarni ko'p ko'rdik. Avvaliga, nazarimizda qayiqda quvib borib tutib olish osondek ko'rindi. Planktondan bo'lgan to'r arqon uzilib ketib, ipak to'r ortimizda qolib, sol ketidan suzib kelgan chog'larda ham ishimizning o'ng kelishiga iymonimiz komil edi. Shuning uchun ham, solga qaytishni osonlashtirish niyatida qayiqqa arqon bog'lab suvga tushirdik. Lekin shamol va arqon qayiqning nari suzib ketishiga imkon bermasligini, «Kon-Tiki»ga bog'langan arqon esa suvda uni tutib qolayotganini sezdik; ammo biron marta hozirgina solimiz turgan joyga eshkak eshib yetishga qodir bo'lmadik. Ba'zida, o'sha tutib olmoqchi bo'lgan buyumimizgacha, boryo'g'i, bir necha gaz masofa qolardi. Lekin shu chog' arqon taranglanar va «Kon-Tiki» bizni g'arbgaga tomon

sudrab ketardi. «Bortdan tushding bizdan ayrildim, deyaver» – degan xulosaga keldik va buni safarimiz oxirigacha yoddan chiqarmadik.

Omon-eson qolishni istasak, «Kon-Tiki» okeanning nari tomonidagi biror quruqlikka borib tumshugʻi bilan urilmaguncha, undan nari jilmaslik kerakligini uqdik.

Toʻtiqush yoʻqolgach, radiatorbka boʻshab qoldi; lekin ertasi ertalab Tinch okeani ustida tropik quyoshi yogʻdu sochganda, bizning motam tez barham topdi. Soʻnggi bir necha kun ichida ozmuncha akula tutdikmi. Lekin har gal uning oshqozonidan tunets baliqlari boshi va boshqa gʻaroyib narsalar bilan birga, qora tusdagi qayrilgan tumshuq topardik-da, toʻtiqushning tumshugʻi boʻlsa kerak, deya oʻylardik. Ammo sinchiklab qaraganimizda, kalmarning tumshugʻi boʻlib chiqardi.

Safarning boshidan beri ikkala radistga rubkada ish yetarli edi. Gumboldt oqimiga yetganimizdan soʻng, batareyali yashiklardan dengiz suvi tomchilay boshladi. Shundan keyin ochiq dengiz sharoitida nimaiki saqlab qolishning imkoni boʻlsa, hammasini asrab qolish uchun namiqish toʻgʻri kelmaydigan radiatorbkanini brezent bilan yopishga toʻgʻri keldi. Kichkinagina solda uzundan uzun antennani oʻrnatish uchun esa radistlar rosa bosh qotirishdi. Ular avval antennani varrakka bogʻlab qoʻyishga harakat qilishdi. Lekin shamol esishi bilan varrak bir kalla qoʻydi-da, toʻlqin ichra shoʻngʻidi-ketdi. Shundan keyin ular antennani havo shari yordamida koʻtara boshlashdi. Ammo tropik quyoshi uni teshib yuborgani sababli shar burishib, okeanga gʻarq boʻlaverdi. Yana ikki haftalik mashaqqatli suzishdan keyin jonsiz And zonasidan chiqdik.

Kunlardan bir kun esa qisqa toʻlqinlararo bir yoʻl ochilib, Torsteynning pozivnoyini Shvetsiyadagi ra-

diohavaskor Los-Anjeloslik bir radiohavaskor bilan aloqa bog'lamoqchi bo'lib radioperedatchigining u yoq bu yog'ini burab turganligini eshitib qoladi. Amerikalik, peredatchigimiz qaysi sistemadan ekanligini, qayerda yashashimizni surishtirdi. Torsteyn Tinch okeanda suzayotgan solda, bambuk kayutada yashayotganini aytganida esa, apparat bir necha bor tasir-tusur qilib qolgandi, Torsteyn ba'zi tafsilotlarni aytib qolishga shoshildi. Efirdagi odam o'ziga kelgach, ismi Gal bo'lib, xotining ismi Anna shved ekanini, bizning sihat-salomatligimizni esa oilamizga xabar qilishini aytdi.

Gal ismli begona odam, uzoq Los-Anjelosda yashaydigan minglab kishilardan biri notanish kino-operator, bizning qayerdaligimizni, sihat-salomatligimizni biluvchi o'zimizdan bo'lak, olamda yagona kishi ekanligi shu kecha bizga behad g'alati tuyuldi. Shu oqshomdan boshlab Gal, uning asl ismi Garold Krempl va uning do'sti Frenk Kyueves har kecha navbati bilan bizning solimiz signalini izlashardi. Germanning ham ishi yurishib AQSh ob-havo byurosi boshlig'idan bir kecha-kunduzda ikki mahal shifr bilan ob-havo ma'lumoti yuborib turgani uchun minnatdorchilik telegrammalari olib turdi. Bu rayondan ma'lumot kamdan kam tushar, axborot esa sira olinmas edi. Keyinchalik Knut bilan Torsteyn, deyarli har kecha, boshqa radiohavaskorlar bilan aloqa bog'lardi. Ular esa bizning salomlarimizni Nutoddenda¹ yashovchi qisqa to'liqinchi Egil Berg orqali Norvegiyaga yetkazib turishdi.

Okean o'rtasida bo'lgan chog'imizda radiostansiyamiz faqat bir necha kungina ishini butunlay to'xtatib qo'ydi. Negaki, radiorubkaga sho'r suv kirib qol-

¹ Nutodden – Janubiy Norvegiyaning Telemark viloyatidagi shahar.

gan edi. Radistlarimiz kun uzzukun yetmagandek, kechalari ham vint va qalayg'ichlarini ishga solib, o'lib-tolib ishlardilar. Ammo uzoqdagi ba'zi radiohavaskorlar soldan umidlarini uzib qo'ygan edilar. Lekin bir kuni kechqurun «J 12V» pozivnoylari efirga yo'l oldi va shu ondayoq bir necha yuz amerikalik qisqa to'lqinlar bizga javoban kalitlarini to'qillata ketganliklari tufayli radiorubka ari uyasidek g'uvullay ketdi. Hamma yoqdan suv baravar sizg'ib kirayotgani sababli barcha narsamiz nam edi; radistlarimiz balza xodalariga rezina gilamcha tashlab qo'yib shuning ustida o'tirishardi. Lekin qolganlardan birortamiz Morze kalitiga tekkudek bo'lsak bormi, bir vaqtning o'zida ham orqamizdan, ham barmoqlarimiz uchidan tok urganini his qilamiz. Yoki nomutaxassislardan birortamiz, har xil murvatlarga boy bo'lgan radio-rubkadan qalam o'g'irlamoqchi bo'lsak, shu chog'ning o'zida sochimiz tikkayib ketar, qalam parchasidan uchqunlar sachrardi. Faqat Torsteyn, Knut va to'tiqushgina kayutaning bu burchida bexatar yura olardilar. Shuning uchun biz boshqalar uchun xavfli bo'lmish bu zona chegarasini belgilash uchun bir bo'lak karton qoqib qo'ydik.

Bir oqshom Knut radiorubkada, fonar yorug'ida allanima qilib o'tirardi; u birdan oyog'imdan tortdi va Oslo yaqinida yashovchi Xristian Admundsen ismli yigit bilan so'zlashayotganini aytdi. Buni radiohavaskorlari rekordi desa bo'lardi. Negaki, soniyasiga 13.990 kilotsiklli kichkinagina qisqa to'lqinli peredatchigimiz olti vattcha, ya'ni kichkina elektr fonaricha kuchga ega edi xolos. Bu 2-avgust kuni bo'lib o'tgandi. Shungacha biz g'arb tomonga 60° suzib qo'ygandik. Oslo shahri esa yer kurrasining narigi betidadir. Ertasiga qirol Xokonning 75 yoshga to'lishi nishonlarnar ekan. Biz soldan turib unga tabrik telegrammasi

yo'lladik; oradan bir kun o'tgach, Xristian bizga qirolning javobini yetkazdi: qirol ishimizga muvaffaqiyat, safarimizning bexatar bo'lishiga istak bildirgandi.

Boshqa bir voqea esa soldagi butun hayotimizning ziddiyati sifatida esdan chiqmaydigan bo'lib xotiramizda saqlanib qoldi. Bizda ikki fotoapparat bor edi. Erik bo'lsa, safar davomida suratlarni chiqarish uchun ximi-kaliylar ola kelgandi. Suratimiz yomon chiqqudek bo'lsa, qayta olishimiz mumkin. Kit akulasiga duch kelgach Erik, ortiq sabr qilolmadi va bir kechqurun, fotograflar qoidasiga qat'iy rioya qilgan holda, ikki plyonkani dorilab chiqardi. Negativlarning hammasi sepkildor va bujmaygan bo'lib chiqdi. Bizga bildtelegrafda olingan suratlarni eslatardi. Plyonka ishdan chiqqandi. Biz radio orqali maslahat so'radik; radiogrammamizni Gollivuddagi bir qisqa to'lqinchi qabul qildi; u fotolaboratoriyaga telefon qilib bildi va bizga proyavitelimiz hozir normadan ortiq issiq ekanini, 16°dan yuqori darajadagi suvdan esa foydalanish mumkin emasligini, aks holda negativlar burishib qolishini aytdi.

Maslahat uchun minnatdorchilik bildirdik. So'ng suv darajasini o'lchab ko'rib, atrofimizni qurshagan okean suvning eng past darajasi 27°ga yaqinligini aniqladik. Oramizdagilardan German sovituvchi injener bo'lgani tufayli men hazillashib, suv darajasini 16° ga keltirib berishni iltimos qildim. U esa rezina qayiqni puflashdan ortib qolgan kichik bir shishadagi ko'mir kislotasini ishlatishga ijozat so'radi: shundan keyin u uyqu qopchig'i va jun fufayka yopilgan metall kastryulkada allaqanday fokuslar qildi. Qarabsizki, sal so'ng soqollarini qirov bosgan German qo'lidagi kastryulda oppoq muz bilan kayutada paydo bo'ldi.

Erik yana surat chiqarishga kirishdi. Bu gal natija a'lo bo'ldi.

Janub dengizi orollariga boradigan yo'limizning yarmidan o'tganimizda ob-havo ancha buzilib qoldi. Vaqti-vaqti bilan shiddatli yomg'ir quyardi. Tropik shamol esa yo'nalishini o'zgartirgan edi. Ekvatorial oqimning ko'pgina qismini bosib o'tgunimizcha tropik shamol janub-sharqdan esib turdi; keyin bora-bora u sharqqa burila boshladi. 10-iyun kuni biz shimoliy nuqtaning 6° 19-janubiy kengligiga yetdik. O'sha paytda biz ekvatorga behad yaqin kelgandik. Nazarimizda shamol solimizni, eng shimoliy Markiz orollari yonidan surib o'tib ketadigandek va biz, quruqlikka duch kelmay, okeanda yo'qoladigandek ko'rinardik. Keyin tropik shamol yo'nalishini o'zgartirdi-da, sharqdan emas, shimol-sharqdan esa boshladi va janubiy orollar tomon surib ketdi.

Biz yulduzlarning osmon bo'ylab qilgan harakatlari bir necha hafta kuzatib o'rganib olgach, yulduzlarga qarab solni ham boshqarish oson bo'lgani bizni hayratga solardi. Rostini aytsak, oqshomlari charog'on yulduzlardan bo'lak qaraydigan hech vaqo yo'q ham edi-da. Yulduzlar turkumi har kecha qayerda bo'lishi kerakligini biz yaxshi bilardik; ekvatorga yaqinlashganimizda esa Katta Ayiq yulduzi shimoliy ufqdan shu qadar aniq ko'rinardiki, ekvatorдан o'tganimizdan so'nggina ko'rinishi lozim bo'lgan Qutb yulduzi ham ko'rinib qolmasaydi, deya vahimaga tushardik. Lekin shimoliy sharq tomondan epkin kelishi bilan Katta Ayiq yana g'oyib bo'lardi.

Qadimgi Polineziyada yaxshi dengizchi, u yoki bu yulduzning osmonning qaysi qismida chiqishini, tunning turli vaqtida, hamda yilning turli faslida qayerda bo'lishi kerakligini yaxshi bilardi. Ular qaysi yulduzlar qaysi orol tepasida tikkaga kelishini bilishardi va orollarni, har kecha va har yil shu orol tepasida yuqori nuqtaga yetgan yulduz nomi bilan atashardi.

Polineziyaliklar yulduzli osmon sharqdan g'arbga tomon harakatga keladigan bahaybat yarqiroq kompas ekanligini bilish bilan kifoyalanibgina qolmasdan, ular boshlari tepasidagi g'ujanak yulduzlar dengizchilarning shimol yo janubga qanchalar ichkarilab borganliklarini bildiruvchi mayoq ekanligini ham tushunardilar. Polineziyaliklar okeanning Amerikaga yaqin bo'lgan qismida joylashgan o'z orollarini yaxshi o'rganib, bilib olganlaridan so'ng boshqa orollar bilan aloqa ham bog'laganlar. Keyingi ko'p avlod esa shu yo'ldan foydalandi. Tarixiy rivoyatlarga qaraganda Taiti oroli boshliqlari shimolga tomon 2 ming dengiz mili uzoqlikda va bir necha gradus g'arbda bo'lgan Gavay orollariga qay yo'sinda suzib borganlari haqida hikoya qiladilar. Ruldagi odam quyosh va yulduzlarga qarab kemani boshqargan. Tos tepasidagi yulduzlar esa to qayig'i Gavay orollari kengligiga yetganidan darak bermaguncha suzavergan. So'ng esa, qayiqni g'arb tomon keskin burgan-da, orol yaqin qolganidan darak beruvchi qushlar va bulutlarni ko'rib ko'ngli taskin topgan.

Polineziyaliklar bu qadar chuqur astronomik bilimni va aniqlik bilan hisob qilingan kalendarlarni kimlardan o'rganishdi ekan? G'arbda yashagan melaneziyaliklar yoki malayyaliklardan emas, albatta. Ammo atsteklar, mayyalar va Amerikadagi inklarga o'zlarining ajoyib madaniyatlarini o'rgatib g'oyib bo'lgan o'sha qadimiy madaniyatli xalq – «Oq tanli, soqoldor odamlar» ham yuqoridagiga juda o'xshagan kalendar yaratgan paytlarida yevropaliklar hali buni xayol ham qilmagan astronomik tushunchalarga ega bo'lganlar.

Polineziyada ham, Peruda ham kalendar yilining boshlanishi Pleyad yulduzi turkumining ufqda ilk bor paydo bo'lgan kunidan boshlanib, ikkala mamlakatda ham bu yulduz turkumi, dehqonchilikning homiysi sanalgan.

Peruda, bu tog'liq mamlakatning Tinch okean tomon nishab bo'lib borgan yeri – qumli sahroda, juda qadimiy astronomik rasadxona hozirgi kungacha ham saqlanib qolgan. Bahaybat toshlardan haykal yasab, piramidalar ko'targan, shirin kartoshka va shisha qovoq ekib undirgan, yilni Pleyad yulduzi turkumi ko'ringan kundan boshlagan o'sha sirli madaniy xalq qoldirgan yodgorlikdir. Ulug' Kon-Tiki ham yelkanini Tinch okean tomon jo'natgan paytida yulduzlar turkumini yaxshi bilardi.

2-iyul kuni tungi navbatda turuvchiga yulduzli osmonni tomosha qilib o'tirishga to'g'ri kelmadi. Oqshom allapaytgacha oydin bo'ldi, yengilgina muvofiq shamol esib turdi. Biz, sol tumshug'idan tashlangan cho'p quyruqqa yetguncha necha soniya ketishini hisoblab, harakatimiz tezligini xomcho't qildik-da, rekord qo'yganimizni bildik. O'rta tezlik bizning tilimizda gapirilsa, soniyasiga 12–18 «cho'pga» to'g'ri kelgani holda, bu gal «6 cho'p» yetarli chiqdi.

To'rt kishi bambuk kayutada uxlardi. Torsteyn Morze kalitini tiqillatib o'tirar, men esam rul tepasida vaxtada turardim.

Tun yarimga yetib qolganda men, quyruq tomondan butun ufqni to'sib, biz tomon o'mbaloq oshib kelayotgan g'alati to'fqinni, uning ortidan esa biri u tomonda, ikkinchisi bu tomonda yopirilib kelayotgan yana ikki po'rtana qirrasini ko'rdim. Agar biz, hozirgina shu yerdan o'tib kelmagan bo'lsak, xoinona sayozlikka yoprilayotgan baland burunni ko'ryapman, deb o'ylagan bo'lardim. Birinchi to'fqin oy yog'dusida, uzun devor tarzida, biz tomon bostirib kelayotganida men hamrohlarni ogohlantirish uchun qichqirdim, solni o'zimizga qulay vaziyatga keskin burdim va nima bo'lishini kuta boshladim.

Birinchi to'fqin bizga yetib olganda sol quyrug'ini tepaga va yonga ko'tardi-da, shu chog' yoprilgan

po'rtana qirrasiga chiqib oldi. Atrofimiz ko'pirib, vi-shillab ketdi. Qudratli to'lg'in solimiz tagida guldu-rab o'rmalayotgan bir chog'da biz jo'sh urayotgan ko'piklar ichra suzib borardik. Sol tumshug'i eng keyin, dahshatli to'lg'in o'tib bo'lgach, yuqori ko'ta-rildi na solimiz quyruq tomoni bilan ikki to'lg'in ora-lig'idagi jarlik sari sirg'ala boshladi. Shu zahotiyog, ikkinchi to'lg'in tikkayib yoprildi va solimizni ko'tarib otdi, biz to'lg'in qirrasiga chiqib olganda ortimizdan tiniq oqim bostirib qoldi. Solimiz to'lg'inga yonboshi bilan turib qolganidan, zudlik bilan uni to'g'rilab olishning imkoni bo'lmadi. Uchinchi to'lg'in yopiri-lib kelib, parcha-parcha ko'piklar orasidan yarqiroq devorsifat ko'tarildi-da, yuqori chekkasi bizga ye-tib olgan hamon yopirildi. Po'rtana solga yopirilgan chog'da, kayuta tomi tagidan chiqib turgan bambuk tayoqqa mahkam yopishib olishdan bo'lak ilojim qolmadi; men to'lg'in solni bir baland ko'tarib tashla-ganini, atrofimdagi hamma narsa ko'pirib quturgan girdob ichida qolganini his qilib, nafasimni ichim-ga yutganimcha shu turishda turib qoldim. Daqiqa o'tmay biz va «Kon-Tiki» yana suv betida paydo bo'l-dik va to'lg'in qiyalamasi bilan pastga sirg'ala bosh-ladik. Keyin to'lg'inlar yana me'yoriga tushdi. Uch haybatli po'rtana old tomonimizda bir-birini quva-lab borar, quyruq tomonda bort ortida bo'lsa, oy-dinda kokos yong'oqlarining qator tizilib, suv betida qalqib kelayotgani ko'rinardi.

Ikki kundan keyin birinchi dovulni boshimizdan kechirdik. Bu shamolning taqqa to'xtashi bilan bosh-landi. Keyin shamol turganda tepamizdan suzib o'tib turuvchi momiqday oppoq bulutlar, janub tarafdin, yopirilib kelgan quyuq qora bulutlar tomonidan surib chiqarildi. So'ngra shamol har tarafdin esib kelaver-di. Rulda turgan navbatchi solni boshqarish imkoni-

yatidan mahrum edi. Bir amallab solning quyruq'ini shamolning yangi yo'nalishiga to'g'rilab, yelkan bir me'yorda shamolga to'lgan chog'da, shamol boshqa tarafdin esib qolar va yelkan o'z shaklini yo'qotib hilpiray boshlar, komandani ham, yuklarni ham xavfga solib, to'g'ri kelgan narsaga shalop-shalop urilardi. Shundan keyin shamol qo'qqisdan, qora bulut yopirilib kelayotgan tarafdin esa boshladi. Qora bulutlar tepamizga yetib kelganda shamol sovuqlashdi, kuchaydi va bora-bora haqiqiy bo'ronga aylandi.

Sal vaqt o'tmay, atrofimizdagi to'liqlar besh metr-gacha ko'tarildi, ba'zilarining qirrasi olti-sakkiz metr balandlikda vishillardi. Ikki to'liqlin oralig'ida qolgan chog'imizda machtamizning uchi barobarida bo'lardi. Biz bukchayganimizcha palubada zo'rg'a turardik. Shamol esa bambuk devorni silkir, hamma yerda chiyillar va o'kirardi.

Radiorubkani saqlab qolish uchun orqa devor bilan kayutaning chap tomonini brezent bilan yopdik. Mahkamlab qo'yilmagan buyumlarni mahkamladik, yelkanni tushirib, o'radik va bambuk reyaga bog'lab qo'ydik.

Xomcho't qilib ko'rsak, dengiz sokin chog'ida, eng baland to'liqlar yetti daqiqa oralatib yopirilib turgan bo'lsa, bir kecha-kunduzda solimiz quyruq'iga 200 tonna suv tusharkan; lekin suv ruldagi navbatchi-ning yalang oyoqlarini atroflab, xodalar oralig'idin sizg'ib turganligidin biz buni payqamasdik. Lekin dovul paytida, har besh soniyada bir necha o'n metr-dan tortib, ikki yoki uch kubometr, ba'zida undan ham ko'p suv yopirilib turgan bo'lsa, bir kecha-kunduzda 10 ming tonna suv solimiz quyruq'iga tushib turgan bo'ladi. Ba'zida to'liqlin momaqaldiraqday qaldirab kelib solga uriladi. Bunday paytlarda ruldagi navbatchi beligacha suvga botadi.

German qo'lda anemometr¹ bilan, bir kecha-kunduzdan beri tinmagan bo'ron kuchini o'lchash bilan ovora bo'lib, palubada yurardi. Keyin bo'ron sekin-ashta yomg'ir aralash kuchli shamolga aylandi, okean sathi biqirlab ketdi. Biz esak, muvofiq shamol yordamida to'liqindan to'liqinga qo'nib, g'arb tomon ilgarilab ketdik. Tikkayib ketgan to'liqlar oralig'iga tushib qolgan chog'larda shamol tezligini aniq o'lchash uchun German, sal imkoniyati bo'ldi deguncha, chayqalib turgan machta tepasiga chiqib olardi. Bu yerda unga, iloji boricha, mahkam yopishib olishga to'g'ri kelardi.

Havo sal yaxshi bo'lishi bilanoq atrofimizdagi hamma yirik baliqlar quturib ketdi. Okeanning sol atrofidagi qismida akula, tunets, oltin makrel baliqlari va u qadar ko'p bo'lmagan, jon hovuchlagan bonitlar g'ij-g'ij bo'lib yotarkan, ular orasida tinimsiz hayot-mamot kurashi borardi. Yirik baliqlarning orqasi bilanglab suvdan chiqib ko'rinardi; to'satdan yirtqichlari otilib quvalab qolar va solning yon-veridagi suv qonga bo'yalardi. Asosan tunetslar bilan oltin makrel baliqlari kurashardi; oltin makrel baliqlari gala-gala bo'lib suzar, odatdagidan ko'ra tezroq harakat qilar, har vaqtdagidan sergakroq edi. Tunetslar hujum qilishardi; ko'pincha biz 70–80 kilogrammlik baliqning jag'ida qonga belangan makrel kallasi bilan baland irg'ishlaganini ko'rardik. Ba'zi oltin makrel balig'i, izma-iz quvalab kelayotgan tunets balig'idan, tiraqaylab qochayotgan bir paytda makrellar galasi, ba'zilarining bo'yinlari chaqa bo'lgan esa-da, raqib oldida chekinmasdilar. Vaqti-vaqti bilan akulalarning ham jazavasi tutib qolardi. Ba'zida biz ularning katta-katon tunetsni quvalab, tutib olganlarini ko'rib qolardik. Vaholanki tunets akuladan kuchsiz emas.

¹ Anemometr – shamolning kuchini va tezligini o'lchaydigan asbob.

Bironta ham yuvosh lotsman balig'i ko'rinmasdi. Ularni yo tunetslar yeb yuborgan, yoki ular sol tagidagi yoriqlarga yashirib olishgan. Kim biladi, balki ular jang maydonidan nariroqqa qochib qolishgandir. Sol tagiga qarash uchun suvga bosh tiqishga yuragimiz dov bermasdi.

Bir qancha vaqtdan keyin yirik, gangib qolgan bo-nit balig'i shalop etib solimizga kelib tushdi. Biz uni va kecha ovlab olgan tunets balig'imizni baliq ovida xo'rak sifatida ishlatadigan bo'ldik. Atrofimizdagi to's-to'polonni tartibga solishimiz kerak-ku, axir.

Kundaligimizda shunday gaplar bor:

«Birinchii bo'lib qarmog'imizga ikki metrli akula ilindi. Biz uni solga tortib chiqardik. Qarmoq suvga ikkinchi bor tashlanishi bilan uni ikki yarim metrli akula yutib yubordi. Biz bunisini ham solga tortib chiqardik. Qarmoq yana suvga tashlangan edi, ikki metrli akula ilindi; biz uni tortib sol chekkasiga chiqargan ham edikki, akula birdan yulqinib chiqdi va suvga sho'ng'ib ketdi. Qarmoq suvga yana tashlanganda ikki yarim metrli akula ilingan edi, o'rtamizda qattiq kurash boshlanib ketdi. Biz akulaning kallasini tortib sol chetiga chiqargan ham edikki, to'rttala po'lat simni g'ajib qirqib yubordi-da, suvga sho'ng'idi-ketdi. Yangi qarmoqni suvga tashlab edik, yana bir akulani tortib chiqardik.

Patir-putur qilayotgan baliqlar okeanda hamon g'ij-g'ij edi. Ovimiz o'ngidan keldi, yana bir akula qarmoqqa ilindi, lekin uni solga chiqarayozgan paytimizda ip uzilib suvga tushdi-ketdi. Keyin biz yana ustma-ust ikki metrli, bir yarim metrli va yana ikki metrli akulalarni tutib oldik-da, bortga tortib chiqardik. Qarmoqni suvga tashlashimiz bilan yana bir katta akula ilindi. Ba'zi kunning sadag'asi ketsang arziydi».

Palubaning qayeriga oyoq qo'ymaylik, hamma yoq, jon holatdi bilanglab, dumini palubaga tapillatib urib yoki bambuk kayutaga urilib ketayotgan akula bilan to'lib ketgan edi. To'qqizta bahaybat akula palubani to'ldirib yotganda biz qarmoqni tortaverib, sillamiz qurigan edikki, besh soatlik og'ir mehnatdan keyin, ortiq baliq ovlashdan voz kechishga qaror qildik.

Illu oqshom hamrohlarimdan birining og'zidan «Qani endi biror orolda, palma tagida, ko'm-ko'k o'tloqda yonboshlab yotsang», degan gapni birinchi bor eshitdim; sovuq baliqlar va okean o'rnida, so'lim ko'katlar bilan to'la yerni ko'rishga orzumand edi u.

Yana havo yaxshilanib qoldi. Lekin endigi havo avvalgidek turg'un emas; unga ortiqcha ishonib bo'lmas edi. Vaqti-vaqti bilan, qo'qqisdan esib qolgan kuchli shamol jalani boshlab kelardi. Jamg'arib qo'ygan toza suvlarimiz qisman buzilib, sassiq botqoq suvi mazasini berib qolganidan, jala quyganda sevinardik. Jala qattiq quygan chog'larda biz, kayuta tomidan oqib tushgan suvlarni yig'ardik, salqin yomg'ir gavdamizdagi tuzni yuvsin deya palubada huzur qilib yalang'och turardik.

21-iyul shamol qo'qqisdan tinib havo ko'ngilni g'ash qiladigan tarzda edi – hamma yoq sokin tus oldi; tajribamizga asoslanib, bundan qanday ma'no chiqarishni bilardik. Darhaqiqat, sharq va g'arb hamda janubdan qattiq esgan sovuq shamoldan keyin izg'irin ufqni vahimali qop-qora bulutlar bilan qoplangan janub tomondan esa boshladi. Anemometr bilan shamol kuchini o'lchayotgan German hamma vaqt palubada edi. Anemometr shamolning soniyasiga 15 metr esayotganini ko'rsatardi. Shu chog' shamol to'satdan Torsteynning uyqu qopchig'ini uchirib ketdi. Keyingi bir necha soniya ichida ro'y bergan voqealar, hikoya qilib berishga ketadigan vaqtdan ko'ra kamroq vaqt ichida yuz-berdi.

German uchib ketayotgan qopchiqni ushlab qolaman deb, qoqilib ketdi va suvga yiqildi. To'liqlar talato'pi orasidan nogahon yordamga chaqirgan ovoz eshitdik va Germanning boshi bilan quloch otib suzayotgan qo'lini va xuddi shu onning o'zidayoq, uning yaqinida o'ralashayotgan g'ira-shira yashil soyani ko'rdik. German baland to'liqlar bilan mardonavor kurashib, joni boricha sol tomon suzar, lekin och to'liqlar uni ko'tarib, chap bordan uzoqlatib ketardilar. Kemaning quirug'ida rul eshkagi yonida turgan Torsteyn bilan men uni birinchi bo'lib ko'rdik va qo'rqqanimizdan muzdek bo'lib ketdik. «Suvga odam tushib ketdi!» deb jon holatda qichqirdik-da, yaqindagi qutqarish arqoni tomon yugurdik. Okeanning shovullashi tufayli boshqalar Germanning ovozi eshitishmagan edi. Mana, endi, bir daqiqada paluba jonlanib, yugur-yugur boshlanib ketdi. German suzishga usta edi. Lekin shu topda biz uning hayoti qil ustidaligini darhol tushunib yetgan esak-da, vaqtни o'tkazmay, solga yetib oladi, deb umid qilardik.

Qutqarish qayig'i uchun belgilangan arqon bambuk silindrga o'rab qo'yilardi. Shu silindr yonida turgan Torsteyn darhol arqonga yopishdi. Safar davomida birinchi bor arqon o'rinsiz ilinib qoldi. Hamma falokat bir necha soniya ichida ro'y berdi. German endi sol quyrug'i bilan bir qatorga kelib qolgan, undan bir necha metr yonda edi. Agar rul eshkagi parragini ushlab, osilib olgudek bo'lsa, eson-omon qutulib qolishi mumkin. German xodalarning chiqiq yerini ushlab ololmagach, eshkak parragiga qo'l uzatgan edi, lekin qo'li yetmadi. Endi bo'lsa u, shunday masofada ediki, u yerdan solga hech nimani qaytarib olish oson emasligi tajribamizdan ma'lum edi. Bengt bilan men qayiqni suvga tushirgunimizcha, Knut bilan Erik Germanga qutqarish kamarini tashlashga

urinishdi. Uzun arqonga bog'langan belbog' kayuta tomi burchagida hamma vaqt tashlashga tayyor turardi; lekin shu kuni shamol shunday qattiq ediki, qutqaruv kamarini, tashlangan hamono, orqaga itqitib tashlar edi. Belbog'ni Germanga yetkazib tashlashga harchand urinmaylik, harakatlarimiz bekor ketardi. German bo'lsa rul eshkagidan ancha uzoqda, soldan keyinda qolmaslik uchun kuchining boricha suzardi. Lekin shamol har gal ko'tarilganda sol bilan German oralig'idagi masofa ortib borardi. Bundan buyoq masofa borgan sayin ortib borishini German tushunib yetgan edi. Lekin suvga tushirilgan qayiqdan umidvor edi. Tormoz sifatida xizmat qilayotgan arqon bo'lmaganda rezina qayiqni suzib kelayotgan odam yoniga haydab borish mumkin bo'lardi; lekin rezina qayiq «Kon-Tiki» yoniga qaytib kela oladimi – bunisi dargumon edi. Har holda rezina qayiqdagi uch odamning xalos bo'lishga umidi bo'ladi, lekin okean o'rtasidagi yakka-yolg'iz odamda esa – yo'q.

Birdan Knutning suvga o'zini otib okeanga sho'ng'ib ketganini ko'rib qoldik. U bir qo'lida qutqaruv kamari bilan joni boricha suzib borardi. Har gal Germanning boshi to'liq qirrasida ko'ringanda Knut g'oyib bo'lar, har gal Knut paydo bo'lganda German ko'rinmasdi. Mana, nihoyat ikkovining boshi bir vaqtda ko'rindi: ular bir-birlari tomon suzishib yetib olishdi-da, qutqaruv belbog'ini ushlab olishdi. Knut qo'l silkitardi; bu orada rezina qayiqni bortga tortib olganimiz uchun endi qutqaruv kamari arqoniga to'rtovlon yopishib kuchimiz boricha torta boshladik. Lekin bu orada okeandagi ikki do'stimiz orqasida ko'rinib qo'yayotgan qoramtir narsaga ham ko'z tashlab-tashlab qo'yardik. Bu sirli maxluq vaqti-vaqti bilan to'liq qirrasiga kattakon qoramtir-ko'kish uchburchak narsa ko'tarib qo'yardi; German tomonga

suzib borayotganda shu narsa Knutni juda qo'rqitib yubordi. Bu uchburchak narsaning akulaga ham, boshqa bir dengiz maxluqiga ham o'xshash emasligini o'sha payt faqat German bilardi. Bu Torsteynning suv o'tmaydigan uyqu qopchig'ining shishib ketgan bir uchi edi. Ikkala do'stimizni sog'-salomat solga tortib olganimizdan keyinoq, ko'p o'tmay, uyqu qopchig'i yo'q bo'ldi-qoldi. Uyqu qopchig'ini okean tubiga olib tushib ketgan maxluq arzirlik o'ljadan mahrum bo'lib qolgan edi.

– Yaxshiyam ichida yotmagan ekanman, – dedi Torsteyn va rul eshkagini boshqarishga kirishdi.

Shunisi ham borki, shu oqshom hazil-mutoyibalar ko'ngilga sig'mas edi. Hammamizni allapaytgacha qaltiroq bosdi. Lekin avvalgidek solda olti kishi ekanligimizni eslaganimizda sovuq titroq quvonch hissi bilan almashardi.

Shu kuni German ham, boshqalarimiz ham Knutga xo'p minnatdorchilik bildirdik.

Biroq, bo'lgan voqea haqida bosh qotirib o'tirishga vaqtimiz yo'q edi; tepamizda havo qorong'ilasha boshlagan sayin shamol kuchaya boshladi. Qorong'i tushguncha yana dovul boshlanib ketdi. Uzun arqonga bog'lab qo'yilgan qutqaruv kamari endi quyruq tarafda, suvga tashlab qo'yilgan edi; bo'ron paytida birortamiz yana suvga yiqilib ketgudek bo'lsak, rul eshkagi ortida suzib kelayotgan qutqaruv kamariga yopishib olsak ajab emas. Qorong'i tushganda hamma yoqni shunday zim-ziyo qorong'ilik bosdiki, sol ham, okean ham ko'rinmasdi; qorong'ilikda biz shamolning to'liqindan to'liqinga o'tib, machta va boshqa asboblari yonida uvullaganini eshitardik, quturgan bo'ron bambuk kayutaning yupqa devoriga urilib uchirib ketgudek bo'lardi. Lekin kayuta brezent bilan zich yopilib, mahkamlab qo'yilgan edi. «Kon-Tiki»-

ning ko'pirgan to'liqlar ustida lopillaganini, xodalar to'liqin harakatiga hamohang royal klavishi singari bir ko'tarilib, bir tushib turganini his etardik. Biz kayuta polidagi katta-katta yoriqlardan suv kirmaganiga har gal hayron qolardik. Bu yoriqlar nam havo olib kirib chiqib turadigan mesh rolini o'ynardi.

Besh kungacha havo shunday olatasir bo'ldi: goh bo'ron quturardi, goh susayib qolardi. Okean sathi ko'pirayotgan ko'kish-kulrang to'liqlar tufayli palaxsa-palaxsa bo'lib siyrak tutun qoplaganday ko'rinardi. To'liqlar qirrasi shamol zarbidan yalpayib, uzunasiga cho'zilganday edi. Nihoyat beshinchi kuni osmon sal yorishganday bo'ldi, bo'ron bizdan yiroqlashgani sari qora bulutlar g'olib zangori osmonga yo'l berdi.

Dovul kunimizni ko'rsatib ketdi: rul eshkagi singan, yelkan yirtilgan, suv tagida ularni mustahkamlab turgan arqonlar uzilib ketganidan ko'tarma killar pashang singari bo'shashgan, xodalarga urilib-urilib qolardi. Lekin o'zimiz bilan yuklarimizga hech balo urmagan edi.

Ikki dovuldan keyin «Kon-Tiki»ning shalag'i chiqdi. Tik to'liqlar qirrasiga ko'tarilganda zo'r kelaverib arqonlar cho'zilib ketgan, xodalarning hadeb harakat qilaverishidan arqonlar yog'och badaniga botib ketgan edi. Biz, inklar ko'rsatmasi bilan ish tutib, po'lat arqonlardan voz kechganimizga ming-ming shukur qildik. Nega deganda, po'lat arqonlar shtorm chog'ida solni mayda-mayda qilib arralab tashlashi mumkin edi. Agar boshidayoq suzishga juda mos bo'lgan, qup-quruq balza xodalaridan sol yasaganimizda edi, sol allaqachonlar dengiz suvini shimib olib, biz bilan birgalikda dengizga cho'kib ketgan bo'lardi. Yangi kesilgan daraxtlar tanasidagi shira po'k balza yog'ochining suv shimishiga xalaqit berardi. Endilikda arqonlar shu qadar bo'shashib ketgan ediki, ikki xoda ora-

lig'iga oyoq bosish xavfli bo'lib qoldi; xodalar urishib ketib oyoqni majaqlab tashlashi mumkin edi. Solning boshi va quyruq tomonida bambuk paluba bo'lmaganidan, tizzamizni bukib, oyog'imizni kerib bir yo'la ikki xodada turishga to'g'ri kelardi. Nam suv o'lanlari bosgan quyruq tomon banan yaproqlari yanglig' sirg'anchiq edi; doim o'tib yuradigan joyimizda ko'katlar orasida so'qmoq paydo bo'lgan edi; rul yonida vaxtada turguvchi uchun esa keng taxta tashlab qo'ydik; shunday esa-da, to'lqin solni ko'tarib tashlagan kezlarda, oyoqda turish oson emas edi. Chap tarafda esa, to'qqiz xodaning biri kecha-yu kunduz ronjinga urilib turardi. Ikkita qiya machta tepasini ulab turadigan arqonlar ham vahimali g'ijillaydigan bo'lib qolishdi. Negaki, machtalar uyasi, ikki boshqaboshqa xodalarda yo'nilgan bo'lib, bir-biridan mustaqil harakat qilardi.

Biz rul eshkagiga temirdek qattiq mangro yog'ochining uzun bir bo'lagini ulab uzaytirdik. Erik bilan Bengt yelkanni tuzatishdi. Shunday qilib «Kon-Tiki» yana g'urur bilan boshini ko'tarib, Polineziya tomon ko'kragini kerdi. Rul eshkagi esa, quyruq tomonda havo tinchishi bilan yuvosh va mayin bo'lib qolgan to'lqinda o'ynoqlardi. Lekin killarni asl holiga keltirishning iloji bo'lmadi; killar joyidan qo'zg'alib qolganligidan, sol tagida tebranib yotar, suv bosimi bilan avvalgidek, o'z vazifasini o'tashga kirishmas edi. Suv ko'katlari bilan qoplanib ketganligidan, solning tag tomoniga o'tib arqonlar holidan xabar olishning iloji yo'q edi. Bambuk palubamizni boshdan oyoq ko'zdan kechirib, asosiy arqonlardan faqat uchtagina uzilganini ko'rdik; arqonlar qaysi yukka ishqalanib uzilgan bo'lsa, shunga o'ralashib yotardilar. Bir tomondan xodalar o'ziga ancha-muncha suv shimib olgan bo'lsa, ikkinchi tomondan yuklar kamayib mu-

vozanatni bir tekis tutardi. Oziq-ovqatlarning, ichiladigan suv va radistlarning quruq batareyalarining ko'p qismi sarf bo'lib ketgan edi.

Shularga qaramay, keyingi dovuldan keyin biz, solning to'kilib-sochilib ketmasligiga, oldindagi orol-largacha bo'lgan ozgina masofani bamaylixotir bosib o'tishiga ishonch hosil qildik. Endi boshqa bir masala birinchi planga ko'chdi: safarimiz qay yo'sinda tugar ekan?

«Kon-Tiki» sohil qoyalari yoki biror-bir qo'zg'almas to'siqqa borib taqalmaguncha g'arbga tomon harakat qilaveradi. Oldinda yotgan juda ko'p Polineziya orollaridan biriga butun komanda, eson-omon borib yetib, quruqlikka chiqqanda safar tugaydi.

Keyingi dovul o'tib ketgan paytda, solimiz qayerga borib yetishini tasavvur ham qilolmasdik. Biz Markiz orollari bilan Tuamotu tizma orollari oralig'idagi bir masofada edik. Bundan tashqari, shu ikki orollar guruhi o'rtalig'idan, unisini ham, bunisini ham ko'rmay o'tib ketib qolishimiz ham mumkin edi. Markiz orollarining bizga eng yaqini shimol-g'arbda 300 mil masofada bo'lib, Tuamotu tizma orollarining eng yaqini janub-g'arbda 300 mil masofada edi. Shamol va oqim beqaror bo'lib, bizni g'arb tomon, shu ikki guruh orollar o'rtalig'idagi keng darvoza tomon quvib borardi.

Shimoliy g'arb tarafdagi eng yaqin orol jungli o'rmoni bilan qoplangan o'sha kichkinagina Fatu-Xiva oroli bo'lib, bir vaqtlar men sohildagi chaylada yashaganman, qariyaning qahramon ajdodi Tiki haqidagi hikoyalarni tinglaganman. Mabodo «Kon-Tiki» shu orolga borib yetadigan bo'lsa, ko'pgina tanishlarni uchratardim. Lekin, u cholni omon topamanmi, yo'qmi – bunisi dargumon. Qadim ajdodi, qahramon Tiki bilan u dunyoda uchrashuviga qattiq ishongan u chol allaqachonoq dunyodan o'tgan ham bo'lishi

mumkin. Agar solimiz tog'li Markiz orollarining shu tizmasiga qarab suzadigan bo'lsa, quruqlikka chiqib olish oson bo'lmaydi. Bu guruhdagi orollar bir-biridan uzoqda bo'lib, okean tik qoyalarga hech ma'nosiz yoprilaveradi. Shu sababdan ham torgina qumloq bilan boshlanadigan vohaga yaqinlashish uchun juda ehtiyot bo'lish kerak bo'lardi.

3-iyulda, biz Polineziyadan hali necha ming mil narida ekanmiz, bir vaqtlar ibtidoiy davrda, o'z sollarida bu yerga yetib kelgan perulik dengizosharlarga xabar qilgani kabi, tabiatning o'zi bizga, qayerdadir oldinda, darhaqiqat quruqlik borligini xabar qildi. Peru sohillaridan ming milcha uzoqlashgunimizgacha biz vaqti-vaqti bilan fregatlar galasini uchratib turdik. 100° g'arbiy kenglikka yaqinlashganimizda ular g'oyib bo'ldilar va bizning nigohimiz okeanda yashaydigan mayda bo'ron qushlariga tushdi. Lekin 3-iyul kuni 125° g'arbiy kenglikda erkin fregatlar yana paydo bo'ldilar, shu kundan boshlab endi tez-tez kichik fregatlar galasini ko'rib turdik. Ular osmonda baland parvoz etishar yoki to'liqlar qirasi yuzalab uchib, oltin makrel baliqlaridan qochib, suv betiga iring'ishlab chiqqan uchar baliqlarni ovlashardi. Bu qushlarning ortimizda qachonlardir qolib ketgan Amerikadan uchib kelmagan ekanliklarini bilgach, ular vatani oldinda ekanligini taxmin qildik.

Ertasi atrofimizda Polineziya orollaridan uchib kelgan ilk mehmonlar paydo bo'ldi. G'arbiy ufq tarafdan ikki nafar kattakon glupish¹ qushlarining uchib kelayotganini ko'rishimiz solda qiyqirishimizga sabab bo'ldi. Ko'p o'tmay, ular machtamiz tepasidan pastlab ucha boshladilar. Bir yarim metr keldigan ulkan-supra qanoatlarini yoyib, tepamizda uzoq aylandilar, so'ng esa ular qanotlarini mayingi-

¹ Glupish – qutb suv qushining bir turi.

na yig'ib, solning yonginasiga, suvga qo'ndilar. Buni payqagan shumshuk oltin makrel baliqlari darhol shu yerga tashlandilar va suzar qushlar atrofida xiralik qila boshladilar. Ammo ikkala taraf ham bir-biriga tegmadi. Bular go'zal Polineziyadan bizga salom keltirgan ilk darakchilar edi. Kechqurun ham ular uchib ketishmas, suvga qo'nganlaricha qolishdi. Yarrow kechadan keyin ham, machtamiz atrofida bu turfa qushlarning parvoz qilishgani ko'rinib turdi.

Uch kecha-kunduz biz Fatu-Xiva tomon suzdik, lekin shimoliy-sharqdan kuchli shamol esib, solimizni janubga, Tuamotu yassi marjon orollari tomon, ekvatorial oqimdan tashqariga surib ketdi; endi okean oqimlariga ishonib bo'lmadi. Oqim bir kun sezilsa, ikkinchi kun sezilmay qoldi. U ba'zida ko'zga ko'rinmas daryo singari, har tarafga tarmoq otib ketardi. Agar oqim tezlashsa to'liqlar hayqirig'i kuchayar, suv issiqligi bir darajaga pasayardi. Oqimning yo'nalish kuchini, biz Erikning quyoshga qarab solning holatini hisoblashi bilan taqqoslab belgilardik.

Polineziya bo'sag'asida shamol, «men bas qildim» degandek, bizni oqimning sokin tarmog'iga topshirdi. Bu oqimning Antarktida tomon yo'nalganini bilgach, yuragimiz orqamizga tortdi. Okeanda to'la sokinlik cho'kmagandi. Butun safarimiz davomida biror marta bu xil sokinlikni his etmadik. Shamol pasaygan chog'da biz, sal bo'lsa ham foydasi tegar deya, hamma latta-luttalarimizni machtaga osardik. Lekin biror kun bo'lsin, solimizning orqaga Amerikaga suzganini payqamadik; bir kecha-kunduzda eng sekin suzganimizda 9 dengiz mili masofasini bosib o'tdik; vaholanki, safarimiz davomida, bir kecha-kunduzdagi o'rtacha tezlik $42 \frac{1}{2}$ milga to'g'ri kelgandi.

Mo'jiza yuz berdi. Tropik shamoli ayni mo'ljalga yetganda bizni tashlab ketishga jur'at qilmadi

chog'ı, yana o'z ijrosiga kirishdi va yangi, favqulodda mamlakatga qadam bosishga tayyor turgan, shlag'i chiqqan kemamizni itarib, yo'lga soldi.

Kun sayin dengiz qushlarining galasi ko'payar, ular tepamizda charx urishardi. Bir kuni kechqurun, zarrin quyosh okeanga yonboshlayotganda, biz qushlarning negadir bezovtalanayotganini sezdik. Ular bizga ham, uchar baliqlarga ham parvo qilmay, g'arbga qarab uchishardi. Tepamizdan uchib o'tgan qush galalarining bir tomonga shoshilayotganlarini ilg'adik. Balkim ular osmon-u falakdan turib, biz ko'rmagan narsalarni ko'rishayotgandirlar. Balki, tabiiy tuyg'uga tayangan holda buni qilishayotgandir. Har qalay, ular ma'lum bir maqsad bilan, yaqinda joylashgan orolga, uyalariga oshiqishardi.

Biz rul eshkagini buradik va solni aynan shu tomonga, qushlar uchib ketgan tarafga burdik. Hatto qorong'i tushgandan keyin ham biz, orqada qolgan gala qushlarning ovozi eshitib turdik. Bu qushlar yulduzli osmon fonida, tepamizdan, biz yo'l olgan tarafga uchib borishardi. Ajoyib tun edi bu; «Kon-Tiki» safarga chiqqanidan bu yog'iga uchinchi bor to'lin oy to'lgan tun edi...

Ertasiga tepamizda avvalgidan ko'p qush charx urdi. Lekin kechqurunga borib ularning bizga yo'l ko'rsatishlariga ortiq ehtiyojimiz qolmadi. Shu vaqtga kelib biz ufqda qimir etmay turgan g'alati bir bulutni ko'rib qoldik. Boshqa bulutlar kichkinagina, yengil junga o'xshar, janubda paydo bo'lgach, tropik shamol ularni osmon bo'ylab quvalab kelar, g'arbga borib ufqda yana g'oyib bo'lardi. Bir vaqtlar Fatu-Xi-va orolidalik chog'imda ham tropik shamolning shu yo'sin bulutlarni quvalaganini ko'rganman. «Kon-Tiki» bortida turib ham xuddi shunday bulutlarni ko'rdik. Lekin janubiy-g'arbda, ufqda ko'ringan yolg'iz

bulut esa, bir joyda qotgan tutun singari qimir etmasdi. Boshqa bulutlar bo'lsa, tepamizdan suzib o'tib turardi. Bunday bulutlar lotin tilida Cumulonimbus deb ataladi. Polineziyaliklar buni bilishmaydi. Lekin shunday bulutlar ostida quruqlik bo'lishini yaxshi bilishadi. Tropik quyosh tuproqni qizdirganda atmosferaning sovuq qatlamida uning tarkibidagi bug' quyuqlashadi.

Quyosh botib, g'oyib bo'lgunga qadar biz solimizni shu bulut tomon haydadik. Shamol bir me'yorda esardi. Rul eshkagi mahkam bog'lab qo'yilgan «Kon-Tiki», havo yaxshi turganda okeanda bo'lgani kabi bizning ishtirokimizsiz belgilangan yo'nalish bo'yicha ilgarilardi. Vaxtadagi navbatchining vazifasi, endilikda, machta maydonchasida iloji boricha uzoq o'tirib, yaqin o'rtada quruqlik alomati ko'rinib qolgudek bo'lsa tez ilg'ashdan iborat edi.

Shu kechasi tepamizda charx urgan qushlar ovozi allamahalgacha eshitilib turdi. Oy to'lishib qolgan edi.

VII BOB

JANUB DENGIZI OROLLARIDA

Biz quruqlikni ko'ramiz – Bizni Puka-Pukadan nari surib ketdi. – Angatau cho'girtoshi yonida shodiyona kun. – Jannat ostonasida. – «Kon-Tiki»ning yangi ko-mandasi. – Knutga sohilga chiqishga ijozat tegdi. – Boy berilgan kurash. – Bizni yana okeanga oqizib ketadi. – Xatarli oqimda. – Takumedan Rariogacha. – Bizni «alvasti qozoni»ga oqizib ketdi. Suv osti qoyalari tepa-sidagi to'lqinlar hukmida. Kema halokati. – Marjon ri-figa uloqtirilamiz. – Kimsasiz orolga chiqib qolamiz.

30-iyulga o'tar kechasi «Kon-Tiki» boshqacha havo sharoitida qoldi. Turli-tuman qushlarning tepamiz-da charx urib qichqirishi qandaydir voqealarning ro'y berishi ehtimoli borligini xayolga solayotgandir. Uch oy mobaynida okean shovqini va jonsiz arqonlarning bir xilda g'ijirlashidan bo'lak hech nimani eshitma-ganimiz uchun qushlarning qichqirig'i bizni hayajon-ga solar va ayni vaqtda, yoqimli tuyilardi. Kuzatuv punktimiz bo'lmish machta tepasida suzayotgan oy esa, odatdagidan ko'ra yumaloqroq ko'rinardi. Na-zarimizda, oy sathida palmalarning uchlari va jonli dunyoning bor romantikasi aks etayotganday edi; so-vuq baliqlar suzgan okeandaligimizda oy bunchalar yorug' nur sepmasdi nazdimizda.

Soat oldida Bengt machta tepasidan tushdi, Ger-manni uyg'otdi-da, uxlash uchun yotdi. Chayqa-lib, g'ijirlab turadigan machtaga German chiqqan chog'da kun endi yorishib kela boshlagandi. Oradan o'n daqiqa o'tar-o'tmas u arqon shotidan osilib tush-di-da, oyog'imdan tortdi.

– Bu yoqqa chiqing-a, orolimizni bir tomosha qiling-a!

Germanning chehrasi gulgun edi; men irg'ib o'rnimdan turdim. Hali uxlab ulgurmagan Bengt ham darhol oyoqqa qalqdi. Itarishib, bir-birimizga xalaqit berishib, iloji boricha balandga, machtaning chatishgan joyigacha chiqdik. Atrofimizda talay qushlar uchishardi, och zangori ko'kish tasma chekinayotgan tunning so'nggi izi bo'lib okeanda aks etardi. Mana, sharqda butun ufq qizara boshladi, janub-sharqda, uzoq-uzoqlarda esa osmon sekin-sekin qonni eslatuvchi shafaq qip-qizil rangga bo'yaldi va shu qizil fonda, okean chekkasi yoqalab, ko'k qalam bilan tortilganga o'xshash kichikkina chiziqlik bo'zargan soya-dek ajralib ko'rindi.

Quruqlik! Orol! Biz orolga yeb qo'ygudek bo'lib tikilardik. Keyin o'rtoqlarimizni uyg'otdik; ular uyqu aralash palubaga yugurib chiqdilar va solimiz hozirning o'zida tumshug'i bilan sohilga uriladigandek alang-jalang qilib tevarak-atrofga qaray boshladilar. Qichqirishib uchib yurgan dengiz qushlari biz bilan uzoqdagi orol oralig'ida go'yo osma ko'priki tashkil etgan edilar. Orol bo'lsa, borgan sayin ufqda aniqroq ko'rini borardi. Quyosh ko'tarila borib, kun yorishgani sayin qizil shafaq yorishib oltin rang ola borardi. Nazarimizda, orol kutilgan joydan tamomila boshqa tarafdadek ko'rindi. Orol o'rnini o'zgartirmasligi tayin bo'lganligidan, kechasi oqim solimizni shimol tomonga oqizib ketgan, degan qarorga keldik. Okeanga bir ko'z tashlab, to'liqlarining yo'nalishiga qaraboq, tong otguncha biz shu yerda qo'nish imkonidan mahrum bo'lganimizni tushundik. Shamol, hozir biz turgan joydan solni orol tomon yo'naltirishga imkon bermasdi. Tuamotu tizma orollari atrofida, okeanda juda kuchli oqim bo'lguvchi edi. Bu oqim qirg'oqqa borib urilib, har tarafga shox yozib ket-

guvchi edi; oqimlarning ko'pi cho'girtosh va ko'rfazlar osha goh orqaga, goh oldinga harakat qilib, yo'nalishlarini o'zgartirardilar.

Foydasi bo'lmasligini bilsak ham, rul eshkagini burdik. Soat olti yarimda okean ustida quyosh chiqdi va xuddi tropiklardagi kabi to'g'ri tepaga ko'tarila boshladi. Orol bizdan bir qancha mil uzoqda, ufq bo'ylab suvdan sal ko'tarilib turgan o'rmondek ko'rinardi. Sohildagi kuzgi daraxtlar torgina tasma-dek ilg'anardi va shu qadar past ediki, o'qtin-o'qtin to'lqin ortida ko'rinmay ketardi. Erikning aniqlashi-cha, bu Tuamotu tizma orollarining eng chekkadagisi, Puka-Puka oroli edi. «Tinch okeanning 1940-yil lotsiyasi», ikkita xaritamiz va Erikning kuzatishlari bu orolning to'rt turli koordinatini¹ ko'rsatardi. Yaqin o'rtada bo'lak quruqlik bo'lmaganligidan, ko'rib turganimiz shu Puka-Puka orolidan bo'lak joy emas, degan qarorga keldik.

Hech qaysimiz quvonchdan juda yayrab ham ketmadik. Biz yelkanni tarangroq yozib, eshkakni burib, paluba yo machta tepasida, chegarasiz okean o'rtasida qo'qqisdan paydo bo'lgan quruqlikka suqli boqardik. Nihoyat biz, shuncha oy badalida, to'lqinlarda chayqalibgina turmay, suzganligimizga ishonch hosil qildik. Nazarimizda, markazida bizning turar joyimiz joylashgan moviy okean o'rtalig'ida allaqanday suzar orol ko'rib qolgandek bo'lardik. Go'yo shu orol sharqqa tomon suzayotgandek edi. Darhaqiqat, Polineziyaga yetdik, degan tushuncha ko'nglimizni ko'tarib yuborgan edi, lekin qarshimizda sarob kabi paydo bo'lgan orolga tikilish bilangina kifoyalanib, okean bo'ylab g'arbga tomon nihoyasiz safarimizni davom ettirishga majburligimiz ko'nglimizni xijil qilardi.

¹ Koordinat – nuqtaning tekislik vaziyatini belgilovchi raqamlari.

Quyosh ko'tarilishi bilanoq, orolning chap tomonidagi daraxtlar tepasida qop-qora tutun ko'tarildi. Biz bu tutunni kuzatarkanmiz, oroldagilar uyg'onib, nonushta tayyorlashyapti, deb o'yladik. O'sha chog'da, orol aholisi o'z kuzatuv postidan turib bizni ko'rgan va orolga qo'nishni taklif qilib tutun bilan signal beriyapti, degan fikr aslo xayolimizga kelmadi. Sho'r bosgan dimog'imizni qitiqlab yonayotgan palma yog'ochi isi anqiganda soat yettilar chamasi edi. Bu is Fatu-Xi va oroli sohilidagi gulxanni esimga soldi. Yarim soatdan so'ng o'rmon va yangitdan kesilgan daraxt hidi kelib urildi dimog'imizga. Orol asta-sekin uzoqlasha boshladi, faqat solimizga goho-goho orol tomondan yelgan yengil shabada yetib kelib turardi. German bilan men machta tepasiga yopishganimizcha, o'n besh daqiqaga yaqin yaproqlar va ko'katlarning mayin hidini simirdik. Bu Polineziya edi – to'lqinlar ichida to'qson uch kunlik safardan so'ng quruqlikning rom etuvchi isi edi bu. Bengt uyqu qopchig'iga kirib qaytadan xurрак ota boshladi. Erik bilan Torsteyn kayutada chalqancha yotgancha munozara yurgizishardi. Knut esa, yaproqlar isini hidlash uchun vaqti-vaqti bilan palubaga yugurib chiqardi-da, keyin tusha sola kundaligiga allanimalarni yozardi.

Soat sakkiz yaringa borib Puka-Puka oroli orqa tomonimizda, okeanga sho'ng'idi. Lekin soat o'n birgacha ham, sharqiy ufqda och zangori tasma machta tepasidan qaraganda, ko'rinib turdi. Keyin u ham g'oyib bo'ldi. Faqat osmonda muallaq qotgan bir turkum bulutgina Puka-Pukaning qayerdaligini anglatardi, xolos.

Shu kuni kechqurun Bengt stol va stulni orzu qilayotganini, goh chalqancha, goh qornini yerga berib yotib o'qish juda sillasini quritayotganini aytdi. Shu-nisi ham borki, sohilga chiqolmaganimizga Bengt xur-

sandmish, nimaga deganda hali yana uchta o'qilma-gan kitobi turgan emish. Torsteynning olma yegisi ke-lib qoldi. O'zim kechasi piyozli bifshteksning hididan uyg'onib ketdim. Lekin bu kir ko'ylakning isi ekan.

Ertasiga ertalab ufq tomonda, ikki parovozdan chiqayotgan tutunni eslatuvchi ikki yangi bulutni ko'rdim. Xaritaga qarab, tepasidan tutun ko'tarila-yotgan marjon orollarning Fangaxina va Angatau¹ ekanini aniqladik. Shamol shunday esardiki, Anga-tau tepasidagi bulutlarga yetib olishning imkonini qilish mumkin edi; shuning uchun eshkakni mah-kam bog'lab olib, Angatau tomon yo'naldik va Tinch okeanning ajoyib osoyishtaligidan lazzatlanib suzdik. Havo yaxshi bo'lganida «Kon-Tiki»ning bambuk palu-basidagi hayoti ko'ngilga xush yoqardi. Bizni oldinda nima kutmasin, baribir, yaqin orada safarimiz tuga-shiga bo'lgan ishonch ko'nglimizni ko'tarardi.

Uch kecha-kunduz davomida Angatau tepasida-gi bulutlar tomon suzdik; havo soz edi; rul eshkagi hech kimning ishtirokisiz solni kurs bo'yicha bosh-qarardi. To'rtinchi kun saharlab, soat oltida, Tors-teyn vaxtada Germandan smena oldi. Shunda Ger-man oy yog'dusida orol tarzini ko'rgandek bo'lgan. Ko'p o'tmay quyosh ko'tarilganda Torsteyn boshini kayuta eshigiga tiqib:

– Oldinda yer! – deb qichqirdi.

Hammamiz palubaga otildik. Ko'z oldimizda namoyon bo'lgan manzara bayroqlarning hammasi-ni ko'tarishga majbur etdi. Birinchi bo'lib quyruq-da norveg bayrog'i ko'tarildi, undan keyin machta tepasiga fransuz bayrog'i ko'tarildi, negaki biz fran-suz koloniyasiga yaqinlashayotgan edik. Ko'p o'tmay

¹ Polineziyaning Xeyerdal eslab o'tgan orollaridan ba'zilari rus dengizchilari tomonidan kashf etilgan va ular nomi bilan atalgan. Angatau oroli Arkacheyev nomi bilan atalgan.

bayroqdorlarimizning hammasi – amerika bayrog‘i deysizmi, ingliz, peru, shved bayrog‘i deysizmi, yengil tropik shamolida hilpiray boshladi. Sayohatchilar Klubi bayrog‘igina bundan mustasno edi. «Kon-Tiki» keragicha yasanganligiga endi hech kim shubha qilmasdi. Bu gal orolning vaziyati ko‘ngildagidek edi – to‘rt kun muqaddam tong saharda qarshimizda Puka-Puka paydo bo‘lgandagidan ko‘ra uzoqroqda edi. Quyosh orqa tomonimizda ko‘tarilgan hamono, tumanli ko‘kda, orol tepasida och yashil tusda mil-tillash paydo bo‘ldi. Bu sokin yashil cho‘girtoshlar oralig‘idagi ko‘rfazning aksi edi. Ba’zi pastak yassi marjon orollar tepasida bunday sarob bir necha ming metr balandda osmonda ko‘rinadi. Ibtidoiy dengizoshar sayyohlar ufqda orol ko‘rinmasidan bir qancha kun avval bu sarobni ko‘rganlar.

Soat o‘nlarga borib rulni qo‘lga oldik; endi, solni orolning qaysi tomoniga qarab yo‘llashimizni hal qilish kerak edi. Biz oftobda yashnagan daraxtlarning uchlarini, bir qator daraxtlarni ko‘rdik.

Solimiz bilan orol oralig‘ida, orolga yaqinlashgan har bir narsani pusib poylab suvosti cho‘girtoshlari borligini bilardik. Sharqdan ma’nisizgina yoprilayotgan baland-baland to‘lqinlar mavji bu cho‘girtoshlarni yashirib turadi; bir olam-bir olam suv sayozlikda to‘xtalib qolganligidan, ular kuch bilan osmonga otildilar va ko‘pirib pastga quyiladilar-da, marjon riflari uzra yoyiladilar. Bu tuzoqqa tushgan, Tuamotu tizma orollari yoqalab ketgan suvosti cho‘girtoshlari domiga tortilib ketgan kemalar oz bo‘lmagan.

Dengiz tomondan biz dog‘uli tuzoqlarni ko‘rmas edik. Biz to‘lqinlar ketidan suzarkanmiz, birin-ketin orol tomon surilib g‘oyib bo‘layotgan yarqiroq egik qirralarinigina ko‘rardik. Cho‘girtoshlar ham, ular ostidagi ko‘pikdek ko‘tarilib, yarim vayron bo‘lgan barrikadani eslatardi.

«Kon-Tiki» har gal cho'girtoshlarga yaqinlashib, keyin undan uzoqlashgan chog'da, solga boylangan rezina qayiqda o'tirgan German bilan mening yuragimiz orqaga tortib ketardi. Negaki, biz cho'girtoshlarga shu daraja yaqinlashib qolardikki, to'lqin vazni tezlashib, xatarli tus olganini his qilardik. Har gal biz, endi Erik qizishib ketdi, dahshatli qizg'ish cho'girtoshlarga tortayotgan to'lqinlar doirasidan chiqib ketishning iloji bo'lmaydi, deb o'ylardik. Lekin har gal Erik chaqqonlik bilan solni burar va «Kon-Tiki» yana xiyonatkor girdobdan uzoqlashib, ochiq dengiz tomon eson-omon chiqib ketardi. Shu vaqt mobaynida biz orol sohili yoqalab shu qadar yaqin masofada suzdikki, sohildagi mayda tafsilotlarga cha ko'rdik; lekin ko'pirayotgan to'siq tufayli bu jannatliy manzara-ga yaqin yo'lay olmas edik.

Soat uchlarga borib sohildagi palma o'rmoni chekinib, kenggina yalanglik oralig'idan biz oynadek silliq moviy ko'rfazni ko'rdik. Lekin cho'girtoshlar halqasi avvalgicha zich edi, avvalgicha ko'piklar ichidan qonga o'xshash qip-qizil tishlarini irjaytirardi. Ko'rfazga o'tishga yo'l yo'q edi. Ko'rfaz atrofida kokos palmalari o'sar, yaraqlagan plyaj ko'zga tashlanardi. Yashil palmalardan iborat xushmanzara orol ko'rfaz atrofini halqasifat o'rab olgan, ikkinchi halqa esa «Jannat darvozasini» qizg'ish qilich kabi qurshagan edi.

Kechgacha Angatau yoqalab, dam u yonga, dam bu yonga burilib shamolga qarshi suzib, yonginamizdagi, kayutamizning shundoqqina qarshisidagi orolning go'zal manzarasini tomosha qildik. Quyosh palmalarning uchlarini yoritar, oroldagi jamiki narsa go'zal va shodiyona bo'lib tuyilardi. Bengt bo'lsa paluba chekkasida xushxo'r tushlikka tayyorgarlikni oxirlab qo'ydi. Perudan olib kelayotgan eski kokos yong'og'ini chaqdik va oroldagi daraxtlardan osilib

turgan yangi yong'oqlarning salomatligi uchun ichib yubordik. Shu kunning butun ruhi – yerga chuqur ildiz otgan, oftob yog'dusida yashnagan och yashil palmazorlar tepasida hukm surgan tinchlik, palmar ustida charx urgan oq qushlar atrofini chulg'agan tinchlik, tegrasini yumshoq qumloq sohil o'ragan oynadek silliq ko'rfaz ustidagi tinchlik va qizg'ish cho'girtoshlar qahri, osmonni tutgan gulduros va o'kirik – okean ichkarisidan paydo bo'lgan dahshatli g'ala-g'ula ham bir qator to'lqinlarning yag'rindor qirralariga yashiringan edi.

Biz solimizni ana shu «jodugar qozoni» chegarasiga yaqinlashadigan qilib ilgari yo'naltirdik. U yerga yetgach, burunni aylanib o'tguncha yassi marjon orol yoqalab suzamiz va shamolga teskari tomondan chiqamiz, deb o'ylagan edik; xullas biz, har qanaqa bo'lganda ham, to'lqin bizni orol yonidan surib ketmasidan burun, sayozroq yerga yetib olishni, o'zimiz yasagan langar yordamida solni to'xtatgach, shamolning o'zgarishini kutib, shu yo'l bilan orol himoyasiga o'tib olishni fikr etgandik.

Tushga yaqin, durbinga qarab sohildagi ko'm-ko'k narsa, uchlari bir-biriga o'ranib ketgan yosh kokos nihollari ekanini, old qatordagi quyuq mayda bulutlar tepasida chayqalayotganini ko'rdik. Sohilda, o'rmon yoqasida katta marjontoshlar yotardi. Palmalar tepasida charx urayotgan oq qushlarni hisobga olmaganda, hayot izi ko'rinmasdi.

Og'ir rul eshkagini ikki kishi boshqarar; ular bambuk kayuta orqasida bo'lganlaridan oldinda nima bo'layotganidan bexabar, Erik shturman sifatida oshxona yashigi ustiga chiqib olib, ular ikkoviga ko'rsatma berardi. Bizning rejamiz, xatarli cho'girtoshlarga iloji boricha yaqinroq borishdan, lekin xavfsiz masofada bo'lishdan iborat. Marjon halqa oralig'ida biror-bir

yo'l ko'rinib qolmasmikan, deya machta tepasidan turib kuzatib borardik. Mabodo shunaqa bir yo'l ko'rinib qolgudek bo'lsa, darhol shu joydan sohilga o'tib ketishga harakat qilmoqchi edik. Oqim bizni cho'girtosh yoqalab oqizib borar, hech qanday hunar ko'rsatmasdi. Shalpillab qolgan killar, u yoki bu tomonga, shamolga 20° burchak ostida harakat qilishga imkon berar, shamol esa cho'girtosh yoqalab esardi.

Erik solni ilang-bilang yo'nalishda, girdobga tushib qolish xavfi tug'ilmasligi uchun cho'girtoshdan ma'lum bir masofada boshqarib borgan bir paytda, German bilan men arqonga bog'langan rezina qayiqda suza ketdik. Shamol solning o'ng tomonidan esgan chog'da arqon bizni o'ngga tortar va biz, cho'girtoshlar ustida o'kirayotgan to'lqinlarga shu qadar yaqin borardikki, hayqirib qaytayotgan yashil shisha tushdagi devorni yonginasidan turib ko'rardik; to'lqinlar girdob bo'lib aylanib, orqaga chekingan chog'larda nigohimiz suvdan chiqib turgan yalang'och cho'girtoshlarga tushardi. Bu cho'girtoshlar zanglagan temir rudasi biz olti kishiga juda kuchli ta'sir qildi. Bu taassurot hech qachon esimizdan chiqmaydi. Okeanning narigi tomoniga yetganimizga endi shubha qolmadi: qarshimizda haqiqiy Janub dengizi oroli. Bu orolga tusha olamizmi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, biz Polineziyaga yetgan edik; nihoyasiz okean bo'shlig'i orqamizda qoldi.

Angatau etaklaridagi shodiyona kun safarimizning to'qson yettinchi kuni edi. Qizig'i shundaki, Nyu-Yorkdaligimizda qilgan xomcho'timizga ko'ra ham, nazariy jihatdan juda qo'l kelgan sharoitda ham Polineziyaning eng yaqin orollarigacha yetib olish uchun eng kamida to'qson yetti kun kerak bo'ladi, deb hisoblagan edik.

Soat beshlarga borib biz, sohildagi daraxtlar orasidagi palma yaproqlari bilan yopilgan, ikki chayla

yaqinidan suzib o'tdik. Tutun ham, tirik zotdan darak beruvchi boshqa bir alomat ham ko'rmadik.

Besh yarimda biz yana cho'girtoshlar tomon yo'naldik; biror yo'l izlab topish uchun so'nggi bor urinib ko'rishimiz kerak edi. Quyosh shu daraja pastlab qolgan ediki, oldinga ko'z tiksak ko'zimizni qamashtirib yuborardi; okean cho'girtoshlarga urilayotgan yerda, orolning chekkadagi burnidan bir qancha metrli yerda, havoda kichkinagina kamalakni ko'rdik. Endi burun shakli qarshimizda shundoqqina ko'zga tashlanib turardi. Orol ichkarisida esa bir to'da harakatsiz qora nuqtalar ko'zga tashlandi. Qo'qqisdan nuqtalarning biri suv tomon ohista siljidi, bir nechtesi esa o'rmon yalangligi tomon yo'naldi. Odamlar edi bular! Biz imkon boricha cho'girtoshlarga yaqin suzardik; shamol butunlay tindi; biz endilikda, orolning shamolga teskari tomoniga borib qolamiz, deb o'ylay boshladik. Shu chog' biz, suvga uzun tor qayiq tushirganlarini, ikki kishi unga irg'ib tushib, cho'girtosh tomon eshib ketganlarini ko'rdik. Bir qancha masofa suzib borgach, ular qayiqni ochiq okean tomon burdilar; ular to'g'ri biz tomon yo'nalib cho'girtoshlar oralig'idan o'tayotganlarida to'lqinlar qayiqni baland osmonga ko'tarib tashlaganini ko'rib qoldik.

Demak, cho'girtoshlar oralig'idagi yo'lak shu yerda ekan; bizning birdan bir umidimiz shunda edi. Endi biz palmazorda joylashgan butun qishloqni ko'rib olish imkoniyatiga ega edik. Lekin qarabsizki, soylar uzayib qoldi.

Uzun qayiqda o'tirgan odamlar qo'llarini silkita boshladilar. Biz ham jon holatda qo'l silkita ketdik, eshkakka zo'r berdik. Bu ikki yelkanli pishangli Polineziya qayig'i bo'lib, maykachan ikki jigarrang odam, yuzini bizga qaratib, eshkak eshib kelardi. Endi yana til bilmaslik qiyinchiligi boshlanadi. Soldagilar ichida

yolg'iz mengina, Fatu-Xiva orolida o'rganganlarimizdan, Markiz orollari aholisi shevasida bir necha so'znigina bilardim; bizning shimol o'lkalarda tarjimaga yetarli imkoniyat bo'lmaganidan, polinez tilini unutib qo'yish oson edi.

Shuning uchun ham uzun tor qayiq solimiz bortiga kelib urilib, orolli ikki kishi palubaga irg'ib chiqqanda, ularning biri og'zining tanobi qochib, jigarrang qo'lini bizga uzatib ingliz tilida:

– Xayrli kech! – deganida juda yengil tortib ketdik.

– Xayrli kech, – hayratda qolib javob berdik biz. – Inglizcha so'zlashishni bilasizmi?

Erkak yana jilmaydi va bosh irg'itdi.

– Xayrli kech, – takrorlari u. – Xayrli kech.

Uning chet tilida bilganlarining bori shu edi.

Qayiqda kelgan ikkinchi odam esa sherigining bilimdonligidan mag'rurlanib, nariroqda, tirjayganicha turardi.

– Anglatau? – so'radim men orol tomon ishora qilib.

– X' Anglatau, – dedi erkak tasdiqlab bosh irg'itar-kan.

Erik mag'rur bosh irg'itdi. U haq bo'lib chiqdi; uning aniqlashicha, qayerda bo'lishimiz kerak bo'lsa, shu yerdan chiqib qoldik.

– Maimai xee iuga, – gap boshlashga urinib ko'rdim men.

Fatu-Xivada orttirgan tajribamga ko'ra bu «biz sohilga tushmoqchimiz» degan ma'noni bildirishi kerak edi.

Oroldan kelgan ikkala odam cho'girtoshlar oralig'idagi ko'zga ko'rinmas yo'lakka ishora qilishdi va biz, baxtimizni bir sinab ko'rmoq uchun rul eshkagini shu taraf burdik. Ko'rfaz tepasida yomg'ir quyishga tayyor turgan kichikkina bulut paydo bo'ldi. Shamol bizni cho'girtoshdan nari surib ketish xavfini tug'dirardi.

Biz rul eshkagi yordami bilan «Kon-Tiki»ni shamolga qarshi zarur burchak bo'ylab yurg'izolmasligimizni, cho'girtosh oralig'idagi yo'lakka yetolmasligimizni his qilardik. Biz suv tagining chuqurligini bilmoqchi bo'lgan edik, lekin yakor arqoni juda kaltalik qildi. Endi eshkaklarga zo'r berishdan bo'lak ilojimiz qolmagan edi. Lekin bu ishni iloji boricha tezroq, shamol hukmida qolmasimizdan oldinroq amalga oshirmoq kerak edi. Yashin tezligida yelkanni tushirdik va har birimiz eshkak bilan qurollanib oldik. Men, bizdan olgan sigaretalarini huzur qilib chekib turgan orolli ikki qo'noqqa ham eshkak bermoqchi bo'ldim.

Ular zo'r berib, boshlarini chayqadilar-da, qayoqqa suzishni ko'rsatdilar. Men imo-ishora bilan ular ham eshkak eshishi kerakligiga ishora qilib: «Sohilga tushmoqchimiz» degan so'zlarni takrorlay boshladim. Ikki orollining gapga tushunadiganrog'i bukildi-da, o'ng qo'lini havoda aylantirib:

Brrrrrrr! – dedi.

U bizga dvigatelni ishga solishni taklif etayotgani aniq edi. Orolli kishilar qandaydir, nihoyatda og'ir yuklangan kema palubasidamiz, deya o'ylashgan edi. Parrak yo'qligiga ishonch hosil qilishlari uchun biz ularni sol quyrug'iga boshlab bordik-da, xodalarni ushlab ko'rishni taklif etdik. Ular hang-mang bo'lib qoldilar, og'izlaridan sigaretni olib sol borti tomon yugurdilar; endi, solning har tarafida to'rttadan eshkakchi o'tirib, eshkak bilan suvni eshardi. Shu chog' quyosh burun ortida shundoqqina okeanga bosh qo'ydi, orol tomondan esayotgan shamol kuchaydi. Nazarimizda, joyimizdan jilmayotgandek ko'rinardik. Oroidan kelganlar cho'chigan qiyofada uzun tor qayiqclariga tushib, g'oyib bo'ldilar. Qorong'i tushdi, biz esa shamol yana okeanga surib ketmasin deb, zo'r berib eshkak eshardik.

Orolni qorong'ilik qamrab olgan chog'da, cho'girtoshlar oralig'idan, to'liqlarda o'ynoqlab, yana to'rt uzun tor qayiq chiqib qoldi va ko'p o'tmay bir guruh polineziyaliklar bortda paydo bo'ldi; ularning hammalari ham biz bilan qo'l siqishishni, sigareta olishni istashardi. Shu yer sharoitini yaxshi biladigan bu yigitlar bilan birga ekanmiz, hech nimadan qo'rqmasak ham bo'ladi; shamol bizni yana okeanga surib ketishiga va bizning ko'zdan g'oyib bo'lishimizga yo'l qo'yishmaydi; xullas, bugun kechqurun biz sohilda bo'lamiz!

Biz darhol «Kon-Tiki» burniga arqon bog'ladik-da, har bir cho'zinchoq qayiq quyrug'iga uladik. Pishangli to'rt qayiq, yog'och sol oldida it qo'shilgan chana singari yelpig'ich shaklida yoyilib tortib ketdi. Knut rezina qayiqqa irg'ib tushdi-da, solni tortayotganlar qatoriga qo'shildi. Biz esa, qo'llarimizda eshkak bilan «Kon-Tiki»ning ikki chekka xodasida joylashdik.

Oy hali ko'tarilganicha yo'q. Hamma yoq zim-ziyo qorong'i, salqin shamol esadi. Qishloq aholisi shox-shabba to'plab, cho'girtoshlar oralig'idagi yo'l qaysi tomondaligiga ishora qilish uchun sohilda katta gulxan yoqib yuborishdi.

Bizni shatakka olib, oldingi qayiqlarda tortib ketayotgan eshkakchilarni ko'rmasdik-ku, lekin polineziya tilida ovozlari boricha kuylab ketayotgan sho'x, jangovar qo'shiqlarnigina eshitardik. Knutning ular bilan birgaligini shundoqqina bilib turardik. Negaki, polineziya qo'shiqlari tingan chog'da, har gal, uning polineziya xori jo'rligida norveg xalq qo'shiqlarini kuylayotganini eshitib qolardik. Qo'shiqdagi nosozlikni yashirish uchun biz solda: «Bechora tom Braunning burniga chipqon chiqdi» degan qo'shiqni cho'za ketdik; oq tanlilar ham, jigarrangdagilar ham, hammamiz o'ynab-kulishib eshkakka kuch berdik.

Hammamizning kayfiyatimiz yaxshi edi. To'qson yetti kun o'tdi. Polineziyaga yetib keldik. Bugun oq-

shom qishloqda bayram bo'ladi. Orolliklar xushchaqchaq irg'ishlar va qichqirishardi. Olibsotarlar Taitidan shxunada¹ kokos yong'og'i mag'zini olib ketish uchun kelganlarida, yilda bir marta, bu sohilga kema yaqinlashardi. Shuning uchun ham bugun gulxan atrofida haqiqiy bayram bo'ladi.

Biz orolli kishilarga quruqlikdan yana yordam bo'lishi kerak, degan fikrimizni bildirdik. Ular esa sohilda odam ko'p-u, lekin orolda shu to'rt uzun qayiqdan bo'lak, dengizda suzadigan kema yo'q, deb tushuntirdilar.

Shu chog' Knut, qayiqchasida, qorong'ilikdan sho'ng'ib chiqib qoldi. Unda bir fikr uyg'onibdi: rezina qayig'ida sohilga borib, oroldan yana bir necha kishini olib kelarmish. G'ujanak bo'lib olsa yana besh-olti odam sig'ar emish qayiqqa.

Bu juda xavfli edi. Knut bu orlarning sharoitini bilmasdi. Bunday zim-ziyo qorong'ilikda u, marjon riflari oralig'idagi yo'lakdan aslo o'tib ololmaydi. Shunda Knut orolliklarning boshlig'ini ola ketishni, u Knutga yo'l ko'rsatib borishini taklif qildi. Men bu rejani ham xatarli topdim. Negaki yerli aholi hech qachon bu qo'pol rezina qayiqni boshqarib, tor va xatarli yo'lakdan o'tib ko'rmagan. Lekin men Knutdan, bizning old tomonimizda, qayerdadir qorong'ilikda uzun qayiqda eshkak eshayotgan boshliqni chaqirib kelishni so'radim.

Knut qorong'ilikka sho'ng'ib, boshliqni izlay ketdi. Oradan bir qancha vaqt o'tdi, lekin Knut bilan boshliqdan darak yo'q edi; biz ovoqimiz boricha qichqirib ularni chaqira boshladik; lekin oldida polineziyaliklarning allanimalar deb o'zaro baqirib-chaqirishlaridan bo'lak javob eshitmadik. Knut qorong'ilikda g'oyib bo'lgan edi. Nima bo'lganini shunda tushunib qoldik. G'ala-g'ovur to'polonda, shoshilinchda, Knut

¹ Shxuna – ikki-uch machtali kichkina yelkanli kema.

mening so'zlarimni boshqacha tushungan-da, boshliq bilan birgalikda sohilga qarab yo'l olgan. Baqirib-chaqirishlarimiz befoyda edi. Negaki Knut hozir borib yetgan joyda, to'siqqa borib urilayotgan to'lqinlar guldurosi hamma tovushlarni bosib ketardi.

Shunda bittamiz fonarni olib, machta tepasiga chiqdik-da: Morze alifbosi bilan: «Orqaga qayting. Orqaga qayting» ma'nosida signal bera boshladik.

Lekin hech kim qaytmadi.

Ikki kishi yo'q edi, uchinchisi machta tepasida signal berib o'tirardi. Natijada to'lqin va shamol solimizni borgan sayin ortga tomon sura ketdi va biz juda ham charchab qolganligimizni his qila boshladik. Biz suvga cho'p tashlab ko'ra boshladik va borgan sayin asta-sekin butunlay boshqa tarafga surilib ketganimizni anglay boshladik. Gulxan yog'dusi kichraydi, to'lqinlar shovqini pasaydi. Bizni muhofaza qilayotgan palmazordan yiroqlashganimiz sayin sharqdan esayotgan shamol hukmida qolaverdik. Hozir biz shuni anglab yetdik. Endilikda okeandagi ahvolga tushdik. Asta-sekin biz butun umidimiz puchga chiqqanini angladik. Shamol bizni okean tomon surib ketmoqda edi. Lekin biz avvalgiday, kuchimiz boricha eshkak eshishni davom ettirishimiz kerak.

Besh daqiqa o'tdi. O'n daqiqa o'tdi. Yarim soat o'tdi. Gulxan shu'lasini kichraya boshladi; vaqti-vaqti bilan, biz ikki to'lqin oralig'ida qolgan chog'larimizda, shu'la tamoman ko'zdan g'oyib bo'lardi. To'lqinlar shovqini uzoqdagi shivirlashga aylandi. Oy chiqdi: sohildagi palmalar ustida oy jimirlay boshladi, lekin osmon yarmigacha bulut bilan qoplangan edi.

Biz orolli kishilarning o'zaro shivirlashayotganlarini eshitdik. Qo'qqisidan biz, qayiqlardan biridagi arqon suvga tashlanib, qayiqning o'zi g'oyib bo'lganini ko'rib qoldik. Qolgan uch qayiqdagilar charchagan

va tashvishga tushgan edi; ular ortiq bor kuchlarini ishga sololmasdilar. «Kon-Tiki» ochiq dengiz tomon surilishda davom etdi.

Ko'p o'tmay uchala arqon ham bo'shashdi va uch qayiq solga kelib urildi.

Orollilardan biri palubaga chiqdi va boshini chayqab:

– Iuta (sohilga), – dedi sekin.

U, endilikda, necha-necha vaqtgacha ko'zdan g'oyib bo'lib ketib, bir paytda yaraqlab ketayotgan gulxan shu'lasiga tashvishlanib qarab qo'ydi. Bizni oqim tez surib ketmoqda edi. To'liqlar tovushi tindi: endi har vaqtdagidek faqat okean o'kirar, «Kon-Tiki» g'ijir-g'ijir qilardi.

Biz orollilarni sigaretalar berib ziyofat qildik. Men shoshib-pishib bir xat yozdim va Knutni topolsalar berib qo'yishlarini so'radim. Xatda shunday deyilgan edi:

«Orolli ikki odam bilan uzun qayiqqa tushib, rezina qayiqni shatakka olib qayting. Rezina qayiqda yolg'iz qayta ko'rmang».

Biz, ko'ngilchan orolli kishilar agar okeanga chiqishni xatarli deb topmasalar, Knutni o'z qayiqlarida olib chiqadilar, mabodo buni xatarli deb hisoblasalar, Knut to'liqlar surib ketayotgan solga yetib olish niyatida okeanga chiqishga jur'at qilmaydi, deb o'ylagan edik.

Orollilar xatni olishdi, qayiqlariga irg'ib tushishdi va kecha qorong'isida g'oyib bo'lishdi. Eng so'nggi eshitgan ovozimiz, birinchi tanishgan odamimizning qorong'ilikdan turib:

– Xayrli kech! – deb muloyimgina qichqirishi bo'ldi.

Tilshunoslikka u qadar usta bo'lmagan boshqa orollilarning uni ma'qullab gapirganlari eshitildi-da, so'ng hamma yoq jim bo'lib qoldi; go'yo biz eng yaqin quruqlikdan ikki ming mil uzoqlikda yurgandek, ortiq biror ovoz eshitilmadi.

Shamoldan himoyasiz, ochiq okeanda, to'rt kishi-ning eshkak eshishidan foyda bo'lmagani uchun biz machta tepasidan fonar bilan signal berishni davom ettirdik. «Qayting!» deya signal berishga ortiq botinmas edik; biz endi vaqti-vaqti bilan shu'la yuborib turish ila kifoyalanardik. Angatau ustida to'plangan yomg'irli bir to'p bulut ostida bo'lsak kerak.

Soat o'nga borib, Knutni qaytib ko'rishdan umidimizni uzib qo'ydik. Biz sol chekkasida qotgan non kavshab jimgini o'tirardik. Goho navbati bilan machta tepasiga chiqib signal berardik; «Kon-Tiki» boshi surati tushirilgan yelkansiz machtamiz qo'qqayib turgan xodaga o'xshardi.

Knutning qayerda qolganini bilmaganimiz uchun, kechasi bilan unga signal berishga qaror qildik. Uning to'lqinlar ichra halok bo'lib ketganiga ishongimiz kelmasdi. Har qanaqa ahvolga tushib qolganida ham Knut hech qachon o'zini yo'qotib qo'ymas edi; u albatta tirik. Lekin har qanday kema yo'lidan yiroqda qolgan Tinch okean orolchasida, polineziyaliklar ichida uni yakka-yolg'iz qoldirish naqadar ko'ngilsiz hodisa. Xunuk voqea! Shuncha uzoq safarda bo'lib, Janub dengizidagi yakka orolga salgina vaqtga yaqinlashsak-da, bir odamimizni unda qoldirib yana suzib ketsak. Bir necha polineziyaliklar tabassum bilan solimizda bir muddatgina paydo bo'lishdi. «Kon-Tiki» bilan birgalikda g'arbga tomon suzib ketib qolmaslik uchun, shosha-pisha qaytib ketishdi. Rasvo bir holatda qoldik. Shu kecha arqonlar o'lgudek g'ichilladi. Hech qaysi birimizning uyqumiz kelmasdi.

Soat o'n yarim edi. Bengt chayqalib turgan machtadan tushib edi, biror boshqa odam uning o'rnini olishi lozim edi. To'satdan hammamiz cho'chib tushib, qorong'ilikka burkangan okeanda odamlar ovozi aniqlik eshitdik. Mana, yana eshitilayotir. Polineziya

tilida so'zlashishardi. Hammamiz barobar, qorong'i okeanga qarab ovozimiz boricha qichqira boshladik. Unga javoban qichqirganlarini eshitdik; ovozlari orasida birdan Knutning ovozini tanidik! Sevinganimizdan aqldan ozib qolayozdik; charchaganimizdan asar ham qolmadi; yelkalardan tog' ag'darilgandek bo'ldi, Okean bizni Angataudan surib ketgan bo'lsa nima bo'пти? Okeanda boshqa orollar ham bor. Endi yana oltovlon solda bo'lganimizdan keyin, safarga o'rganib qolgan to'qqiz balza xodasi istagan tomoniga qarab suzavermaydimi!

Pishangli uchta uzunchoq qayiq to'liqida sirg'alib, qorong'ilikdan sho'ng'ib chiqdi va Knut birinchi bo'lib qadrdon «Kon-Tiki» palubasiga chiqib oldi; olti jigar-rang erkak u bilan izma-iz solga chiqishdi. Izoh berib o'tirishga vaqt yo'q; orolliklar sovg'alarini olishlari va iloji boricha tezroq orqaga qaytishlari, xatarli safarga tushishlari kerak. Sohilda hech qanday chiroq ko'rinmaydi, osmonda esa birorta yulduz; toki gulxanlari shu'lasiga kuch kelgunlariga qadar, qorong'ilikda, shamolga qarshi eshkak eshishlari shart ularning. Biz ularga saxiylik bilan, oziq-ovqat, sigareta va boshqa narsalardan iborat sovg'a ulashdik. Ularning har biri xayrlasha turib, qo'llarimizni mahkam qisdi.

Biz solni o'z holiga qo'yib berdik-da, Knutning hi-koyasini tinglay boshladik.

Mening topshirig'imni bajaryapman deb o'ylagan Knut orolliklar boshlig'i bilan qayiqda sohil tomon suza boshlabdi. Orolliklar boshlig'i kichkinagina eshkakni ishga solib, cho'girtoshlar oralig'idagi yo'lak tomon yo'nalibdi. Shunda Knut birdan, «Kon-Tiki»dan berilayotgan, unga qaytishni taklif qilayotgan yog'du signalni ko'rib hayron qolibdi. Knut qaytish lozimligini imo-ishora bilan eshkakchiga tushuntirgan ekan, u quloq osmabdi; shunda Knut eshkakni o'zi olib

esha boshlagan ekan, orollik kishi uning qo'ldan tortib olibdi; atrofda to'lqinlar gurullab turganidan, talashib-tortishishni o'rinsiz topibdi Knut.

Knut ko'rinishda juda chaqqon yigitlardan bir nechasini ajratib, rezina qayiqda yo'lga tushishni imoishora bilan tushuntiribdi. Lekin shu chog' lapanglab bir bo'ydor, semiz kishi kelib qolibdi; bu odamning eski formadagi furajka kiyib, baqirib-chaqirib gapirishidan Knut uni qabila boshlig'i deb o'ylabdi. Hamma unga yo'l beribdi. Knut, to'lqinlar surib ketib qolmasidan burun solga yetib olishiga yordamlashishi uchun bir necha odam kerakligini norveg va ingliz tillarida tushuntiribdi. Qabila boshlig'i tirjayib turibdi-yu, lekin hech nima tushunmabdi. Knutning jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatishiga qaramay, olomon baqirib-chaqirib uni qishloqqa sudrab ketibdi. U yerda Knutga itlar va cho'chqalar duch kelibdi; Janub dengizining xushro'y qizlari unga yangigina uzilgan mevalar olib kelib berishibdi. Orolliklar Knutning orolda kechirgan vaqtini xush qilish uchun xo'p urinishayotgani sezilib turibdi. Lekin Knutning ko'ngli aslo ko'tarilmabdi; u g'arbga qarab suzib ketayotgan sol haqida o'ylayveribdi.

Bir qancha qiziq voqealardan keyin Knut ulardan qutulishga muvaffaq bo'lgan va ikkala jinsdagi muxlislari qurshovida shosha-pisha qayig'i tomon yo'l olgan. Knutning o'zi bilgan barcha tillarda tushuntirishga urinishi bekor ketmagan; orolliklar Knutning qorong'ilikda g'oyib bo'lgan, qayoqqadir shoshilgani tufayli, tezroq jo'nab ketishi lozim bo'lgan alomat kemaqa qaytishi lozimligini tushunganlar.

Shunda orolliklar hiylaga o'tishgan; ular imoishora bilan Knutga uning boshqa o'rtoqlari burunning boshqa tarafidan sohilga chiqqanlarini tushuntirishgan. Bir necha daqiqagacha Knut nima qilarini bilmay

turgan. Lekin shu mahal sohilda, xotin-xalaj va bola-chaqa gulxanga shox-shabba qalab turgan joyda, qattiq-qattiq ovozlar eshitilgan. Uch uzun qayiq qaytib, eshkakchilar Knutga xat olib kelgan edilar. Maktubda okeanga yolg'iz chiqmaslik aytilgan bo'lib, orolliklar esa, u bilan birga yo'lga chiqishdan bosh tortganlar.

Polineziyaliklar orasida tortishuv boshlanib ketgan. Uzun tor qayiqda okeanga chiqqanlar va solni ko'rganlar, boshqalarni ham chaqirib olish niyatida Knutni tutib turish befoydaligini bilishardi. Axiri, Knut imo-ishora bilan bergan va'dalari va po'pisalari ta'sir qilgan chog'i, uch qayiq ekipaji u bilan okeanga yo'l olib «Kon-Tiki»ni quvlashga rozi bo'lgan. Shunday qilib ular, to'lqinlarda irg'ishlagan rezina qayiqni shatakka olib, tropik tuniga burkangan okeanga chiqqanlar. Orol ahli esa, so'nib borayotgan gulxan yonida, qanday tez paydo bo'lgan bo'lsa shunday tez g'oyib bo'lgan malla do'stlari ortidan qarab qolganlar.

– Sohilda vaqtingizni xush o'tkazdingizmi? – havas bilan so'radi Torsteyn.

– O, nimasini aytasiz, oroldagi qizlarni ko'rganingizda edi! – jig'iga tegdi Knut.

Biz yelkanni ko'tarib, eshkaklarni bort ortiga tashlab o'tirmadik-da, oltovlon bambuk kayutaga kirib olib, Angatau sohillaridagi marjon toshlar singari dong qotdik. Uch kungacha okean bo'ylab suzdik, lekin quruqlikdan nom-nishon ko'rmadik.

Shamol bizni Takume va Raroia orollarini qurshab olgan mudhish cho'girtoshlar tomon surib borar, bu toshlar esa, 40–50 mil keladigan masofada okeanni bizdan pana qilib, yo'limizni to'sgan edi. Bu xatarli cho'girtoshlarga ro'para kelmaslik uchun biz butun kuchimizni ishga solib, shimolroq tomondan o'tdik; ishimiz binoyidek edi, lekin kunlardan bir kun kechasi vaxtadagi navbatchi kayutaga otilib kirdi-da, hammamizni palubaga chaqirdi.

Shamol o'zgargan va bizni to'g'ridan to'g'ri Takuma cho'girtoshi tomon surib borardi. Yomg'ir shivillab yog'a boshlaganidan hech nima ko'rinmasdi. Cho'girtoshgacha juda oz masofa qolgan edi.

Tun yarmida biz harbiy sovet chaqirdik.

Agar falokat muqarrar bo'lgudek bo'lsa nima qilishimiz kerakligi haqida so'zlashib oldik. Biz har qanaqa qilib bo'lsa ham «Kon-Tiki»ni tark etmasligimiz kerak. Machtaga chiqmaslik lozim, aks holda to'lqin bizni u yerdan irigan mevani qoqib tashlagandek silkitib tushiradi. To'lqinlar ustimizdan surilib o'tgan chog'larda, yaxshisi, yelkanbog'larga mahkam yopishib olishimiz lozim. Biz rezina solga suv o'tmaydigan kichkina radioperedatchik, birozgina oziq-ovqat, suv to'ldirilgan shisha va medikamentlar bog'ladi-da, o'zini shunday palubaga qo'yib qo'ydik. Rezina sol to'lqin bilan, axiyri, qirg'oqqa borib uriladi. Agar o'zimiz qup-quruq bo'lsagam, bir amallab cho'girtoshlardan o'tib olsak, qo'l kelib qolishi mumkin. «Kon-Tiki» quyrug'iga uzun arqonga bog'langan buyni¹ chambarchas bog'ladi. «Kon-Tiki» sohilga urilgan taqdir-da ham sohilga tushadi. Agar solimiz cho'girtoshlar orasida tiqilib qolsa, shu buy yordamida tortib chiqarishimiz mumkin. Shu ishlarni saranjom qildik-da, uxlash uchun yotdik.

Oqshom tushganda, okeanda suza boshlaganimizga yuz kun to'ldi. Tun yarimdan og'ganda men yuragim g'ash holda uyg'ondim. To'lqinlarning harakati odatdagidan boshqacharoq edi. «Kon-Tiki»ning yurishi bu sharoitda bo'ladigandan ko'ra o'zgacha tuyuldi. Biz soldagi xodalar harakati ritmidagi o'zgarishlarni juda tez seza-digan bo'lib qolganmiz. Men, suvning biz yaqinlashayotgan sohilga urilib qaytishi natijasida ro'y bergan hol bo'lsa kerak, deb o'yladim-da, palu-

¹ Buy – daryolarda xatarli joylarni ko'rsatuvchi belgi.

baga chiqib, machtaga tarmasha, atrofni kuzatdim. Tevarakda okeandan bo'lak hech nima ko'rinmaydi. Lekin shunga qaramay, tinchib uxlay olmadim. Vaqt o'tib borardi.

Tongga yaqin, soat oltilarda Torsteyn shoshib machtadan tushdi. Oldinda, uzoqda, palmalar o'sgan qator mayda orollarni ko'ribdi u. Avvalo, rul eshkagini shunday qilib burdikki, sol burni ko'proq janubga qaradi. Torsteynning ko'rgani, Raroia cho'girtoshi ortida ipga tizilgan marjondek qator cho'zilgan marjon orollar bo'lsa ne ajab. Shimolga yo'nalgan oqim surib ketgan bo'lsa kerak bizni.

Machta tepasini ko'rib chiqqach, sol tumshug'i halqadagi eng chekka orolga qaragani bilan baribir yonboshining qiyshayishi shu daraja katta ediki, tumshuq qaragan tarafga ketmayotganimiz aniq bilindi. Biz diagonal bo'yicha to'ppa-to'g'ri cho'girtosh tomon yo'nalgan edik. Kil mahkamlangan bo'lganda ham cho'girtosh yonidan bir amallab o'tib olishga umid bo'lardi. Lekin akulalar sol quyrug'i bilan yonma-yon suzib kelayotganidan sol tagiga sho'ng'ib, salanglab yotgan kilni yangi arqon bilan mahkamlab bog'lashning iloji bo'lmayotir.

«Kon-Tiki»da bir necha soatlik umrimiz qolganini tushundik. Bu vaqtdan foydalanib marjon rifga urilish natijasida muqarrar ro'y beradigan halokatning oldini olishimiz kerak. Mudhish daqiqa kelganda har birimiz qiladigan vazifani aniqlab oldik; halokat ro'y berib, soniyalar hisobda bo'lgan chog'da, biz u yoqdan bu yoqqa yugurib bir-birimizga xalaqit bermaymiz. «Kon-Tiki» bir ko'tarilib, bir tushib turar, tezob shamol bizni cho'girtosh sari surib borardi. Old tarafimizdagi tartibsiz suratda bir-biriga qalashgan to'lqinlar cho'girtoshlar tufayli bunyod bo'lganligiga shubha qolmagan edi. To'lqinlarning bir qismi oldin-

ga yo'rg'alar, bir qismi oldida duch kelgan to'siqqa urilib, shitob bilan orqaga qaytardi.

Cho'girtoshlar oraliq'idan bir amallab o'tib ketishga muvaffaq bo'larmiz, degan umidda hamon yelkanni yozganimizcha suzardik. Oqim surib ketayotgan solimiz ularga yaqinlashganda esa, machta tepasidan turib qarab, palma o'sgan orolchalar, o'rtada qatorlashgan, ba'zan suvdan chiqib turib, ba'zi yerda suv tagida yotgan marjon riflari bilan ulanganligini ko'rdik; bu cho'girtoshlar to'liqinto'sarga o'xshab ketardi; bir-birini quvalab kelgan to'liqlar cho'girtoshlarga urilib, oppoq ko'pik sachratib, baland ko'tarilardilar. Tuxum shaklidagi yassi marjon orol Raroia-ning kattaligi, unga yopishgan Takume cho'girtoshini hisobga olmaganda, 25 mil kelardi. Uning eng uzun tarafi shimoldan janubga qarab yastangan bo'lib, biz unga sharq tarafdin yaqinlashmoqda edik. Yaxlit chiziq shaklida ufqdan ufqqacha cho'zilgan cho'girtosh bizdan bir necha yuz metr narida edi, xolos. Uning naryog'ida bo'lsa, ichki ko'rfazni halqa shaklida qurshab olgan, osoyishta orolchalar yotardi.

«Kon-Tiki»da safarning tugashiga hamma tayyorlik ko'rib qo'yilgan edi. Barcha ahamiyatli narsalar kayutaga kiritilib, saranjomlangandi. Hujjatlar va kundalik daftarlarni, plyonkalar va suvda zarar ko'radigan boshqa buyumlar qatori, suv o'tkazmaydigan xaltalarga tiqib qo'ydik. Bambuk kayuta ustiga brezent yopib, uni pishiq-puxta arqonlar bilan bog'ladik. Boshqa umid qolmaganligini tushunib yetganimizdan keyin esa, bambuk palubani ochdik va oyboltalar bilan sol tagidagi kilni ushlab turadigan arqonni kesdik.

Bisotimizda qolgan arqonning eng uzunini qo'lbo-la langarga bog'ladik-da, uchini chap machta tagiga mahkamlab qo'ydik; yakor bort ortiga tashlangan

chog'da «Kon-Tiki» to'liqlar doirasiga quyrug'i bilan oldinga qarab kiradi. Langarimiz esa ichiga radioperedatchik batareyalari va metallom tiqilgan suv to'ldiriladigan bo'sh bidonlardan iborat edi; mangro daraxtidan kesilgan yo'g'on-yo'g'on tayoqlar salbo-salb bo'lib bidonlardan chiqib turardi.

Hisobda birinchi va eng so'nggi bo'lgan birinchi son buyruqda «Hech kim solni tark etmasligi kerak!» deyilgan edi. Har qanday sharoitda ham biz sol bortida, to'g'ri kelgan narsaga mahkam tarmashganimizcha, to'qqiz yo'g'on xodaning cho'girtoshlar tazyiqiga dosh borishini kutishimiz kerak. Suv bosimiga qarshilik ko'rsatgan chog'imizda esa bizga yordam beradi. Agar bortdan tashqariga otiladigan bo'lsak-chi, girdobning ayanchli qurboni bo'lamiz va girdob bizni goh orqaga, goh oldinga itqitib, qirrador marjon qoyalarga uloqtiradi. Rezina qayiq bo'lsa, qattiq to'liqlar chog'i yo to'ntariladi, yoinki cho'girtoshlarga urilib parcha-parcha bo'lib ketadi. Negaki, bizning og'irligimiz ostida u suvga ancha cho'kib turadi. Ammo xodalar bo'lsa, axiri borib sohilga itqitiladi. Mabodo mahkam tura olsak, shu narsalar bilan birga sohilda bo'lamiz.

Undan tashqari ekipajga – shu yuz kun badalida birinchi bor – botinka kiyib olish va qutqarish kamarini tayyor tutish buyurildi. Qutqarish kamarining foydasi kamligi esa muqarrar edi; biror kimsa suvga tushib ketguday bo'lsa, cho'kishga cho'kib ketmaydi-yu, to'liq uni cho'girtoshga olib borib ura-ura; axiri parcha-parcha qilib tashlaydi. Pasportimiz va saqlanib qolgan bir qancha dollarni cho'ntakka solishga ozgina vaqt qolgan edi. Vaqtning qolmaganligidan tashvish tortmas edik biz.

Qadam-baqadam cho'girtoshga yaqinlashib, biror chora ko'rishga ojiz bir ahvolda yonbosh bilan sugan tashvishli soatlar boshlandi. Solda beqiyos so-

kinlik hukm surardi; biz faqatgina zarur bo'lganda so'zlashib, goh kayutaga kirib, goh chiqib, o'z ishimiz bilan ovora edik. Qiyofamizning jiddiyligi, bizni nima kutayotganini qanchalar yaxshi anglab yetganimizni, xotirjamligimiz esa shuncha vaqt mobaynida sinash-ta bo'lgan solimizga qattiq ishonganimizni ko'rsatardi. Solimiz bizniki, okeandan eson-omon olib o'tibdimi, demak, sohilga ham eson-omon olib chiqadi.

Oziq-ovqat solinib bog'lab qo'yilgan qutilar va boshqa narsalar uyilib yotgan kayuta to's-to'polon bo'lib yotardi. Torsteyn qisqa to'liqinli radioperedatchik joylashgan radiorubkada, bir amallab, o'ziga joy bo'shatdi. U ishini davom ettirardi. Endilikda biz, Peruning harbiy-dengiz maktabi biz bilan doimiy aloqa olib borib turgan joydan – Kalyaodagi eski bazamizdan 4 ming mildan ortiq masofada bo'lib, Gal bilan Frenk va Qo'shma Shtatlardagi boshqa radiohavas-korlardan esa undan ham ko'proq masofa uzoqda edik. Omadimiz kelib qolib, bir kun burun biz, Kuka tizma orollaridagi oroldan Rarotongada yashovchi, uchiga chiqqan radiohavaskor – qisqa to'liqinchi bilan aloqa bog'lagan edik; radistimiz, odatdan tashqari ish qilib, u bilan erta saharlab aloqa bog'lagandi. To'liqin bizni borgan sayin cho'girtoshga yaqin surib borar, Torsteyn esa kalitini tiqillatib, Rarotonga bilan aloqa bog'lashga urinardi.

«Kon-Tiki»ning kema jurnalida shunday yozuv bor:

«8. 15. Biz quruqlik tomon ohista yaqinlashyap-miz. O'ng bort tomonda palmalarni shunday yaqqol ko'rib turibmiz.

8.45. Shamol bizga nomuvofiq yo'nalishda esa boshladi. Cho'girtoshga yo'liqmaslikning iloji qolma-di. Solda sarosima sezilmaydi, lekin zo'r berib tay-yorgarchilik borayotir. Qarshimizdagi cho'girtoshda, parchalangan yelkan uskunasi eslatuvchi allanima

ko'rinayotir. Lekin bu, to'dalanib yotgan yuzgich ham bo'lishi mumkin-ku.

9.45. Shimol bizni so'nggi oroldan oldindagisi-ga qarab suryapti. Lekin yo'limizda cho'girtosh bor. Marjon rifi bizni qarshi olmoqda; bu yerda u, suvdan tortib chiqib, butun orol atrofini qurshagan oq va qizil tusdagi ola-bula g'ovdan iborat bo'lib ko'rinadi. Oppoq ko'pirib osmonga otilgan to'lqinlar cho'girtosh yoqalab yoyilgan, Bengt xushxo'r issiq nonushta tortayotir – kim bilsin, bu – buyuk voqealar oldidan so'nggi ovqatlanishimizdir, balki! Hu, ana cho'girtoshda avval parchalangan kemanding uskunasi yotibdi. Hozir shu darajada yaqin kelib qoldikki, cho'girtosh ortidagi yarqiragan ko'rfazni va narigi tomondagi ikki orolning taxlitini juda ravshan ko'rib turibmiz».

Bu yozuvni tugallagan vaqtimizda sohil yoqasidagi to'lqinlar guldurosi yaqinlashib qolgan edi; cho'girtosh yoqalab ketgan bu gulduros safarning hayajonli tamomlanishi yaqinlashganidan darak berib chalina-yotgan baraban do'piriga o'xshardi.

«9.50. Endi juda ham yaqinlashdik. Mana, cho'girtosh yoqalab surib ketyapti bizni. Cho'girtoshga yuz metrcha qoldi. Torsteyn Rarotongalik kishi bilan so'zlashayotir. Hammasi tayyor. Endi jurnalni o'rab qo'ymoq vaqti yetdi. Hammamiz bardammiz; ishimiz ancha pachavaga o'xshaydi, lekin biz bu g'ovni ham yengamiz!»

Bir necha daqiqadan keyin langar bort ortiga itqitildi va suv tagiga yetib, sanchilib qoldi; «Kon-Tiki» yarim doira chizdi-da, quyrug'ini to'lqinlarga tutdi. Torsteyn telbalarcha kalitini to'qillatib turgan bir chog'da, langar jonga ora kirib bir necha daqiqa solni to'xtatib turdi. Torsteyn Rarotonga bilan aloqa bog'lashga muvaffaq bo'lgan edi. To'lqinlar gurullar, okean shiddat bilan ko'tarilib, tushib turardi. Butun ekipaj paluba-

da band edi. Torsteyn bo'lsa radioperedatchik orqali so'zlashardi. Bizni Raroia cho'girtoshi tomon surib ketayotganini aytdi u. So'ng, Rarotongadan, har bir soatda, xuddi shu to'ldiqda bizni tinglashni iltimos qildi. Agar 36 soat ichida bizdan darak bo'lmasa, Rarotonga Vashingtondagi norveg vakolatxonasiga xabar qilsin. Torsteyn so'zini shunday tugatdi: «Okey, 50 metr qoldi. Boshlanyapti. Xayr». Shunday dedi-yu, Torsteyn radiostansiyani o'chirdi. Knut hujjatlarni berkitdi. So'ng ikkovlari ham palubaga chiqib boshqalarga qo'shilishga shoshilishdi. Negaki, langar bo'sh kelayotgani ravshan bo'lib qolgan edi.

To'liqlar borgan sayin balandlashib, ular oralig'idagi pastlik chuqurlashib borardi. Biz solni bir balandga-bir pastga, bir balandga-bir pastga borgan sayin kuchliroq ko'tarib tashlayotganini his qildik. Men avvalgi buyruqni takrorlab qichqirdim:

– Solga mahkam yopishinglar, yukni o'ylamanglar, mahkam ushlanglar!

Quturayotgan sharsharaga shu qadar yaqin kelib qolgan edikki, cho'girtosh yoqalab ketgan tinimsiz guldurosni ortiq oshirmasdik. Endi biz, bizga eng yaqin to'liq zarb bilan qoyaga urilganda yangragan guldurosningina kutardik.

Hammamiz tayyor, har kim o'zi mustahkam deb bilgan arqonni mahkam ushlagan holda turardi, faqat Erikgina, so'nggi daqiqada, kayutaga kirib ketdi: u programmaning bir punktini bajarishga ulgurmagan va botinkasini topmagan edi!

Sol quyruq tomoni bilan cho'girtoshga urilishi kutilgani sababli hech kim quyruqda turmadi. Machta tepasidan quyruqqa tortilgan ikki puxta shtagaga ham ishonib bo'lmas edi; agar machta qulaydigan bo'lsa, uni ushlab turganlar solning narigi yog'ida, cho'girtoshga osilib qoladilar. German, Bengt va

Torsteyn kayuta devori yoniga bog'lab qo'yilgan yashikka chiqib oldilar; German tomga ziynat uchun yog'ochdan yasab qo'yilgan ot boshidan tortib qo'yilgan arqonga mahkam yopishgan edi, qolgan ikkitasi esa machtadan osilib turgan shkotni ushlab olishdi. Bir vaqtlar shu shkot yordamida yelkanni joylashtirgan edik. Knut bilan men, sol tumshug'idan machta uchiga tortilgan shtagga tayanishni lozim topdik; machtadan tortib kayutagacha va yana boshqa barcha narsalar bort ortiga uchib ketgan taqdirda ham tumshuqqa bog'langan arqon solda qolganicha tura-di, deb o'ylardik biz. Negaki, shu tobda sol tumshug'i to'lqinga yuz tutgan edi.

To'lqinlar hukmida qolganimizni tushungach, langar arqonini kesib yubordik, to'lqin bizni surib ketdi. Shu chog' tagimizda to'lqin paydo bo'ldi. Biz «Kon-Tiki»ning osmon bo'yi ko'tarilib ketganini his qildik. Hal qiluvchi payt keldi; biz yurakni o'ynatuvchi tezlikda to'lqin qirrasida uchib boramiz, shalag'i chiqqan kemamiz esa oyog'imiz tagida larzaga kelib, g'ijillaydi. Hayajonning zo'ridan qonimiz miyaga uradi. Biron-bir yaxshiroq narsa o'ylab topolmaganimdan, qo'limni silkitib, ovozim boricha «ura» deb qichqirganim esimda. Bu bizga ozgina yengillik berardi-yu, har holda, zarari yo'q edi. O'rtoqlarim meni aqldan ozib qoldi, deb o'ylardilar. Lekin ularning ham og'zi qulog'ida – tirjayishardi. Biz yeldek uchayotgan to'lqin bilan olg'a surilishda davom etardik; bu «Kon-Tiki»ning jangovarlik ko'rigi edi.

Lekin ko'tarinki kayfiyatimiz ko'p o'tmay tushib ketdi. Ko'k shishadan tarkib topgan yaraqlagan devor ortidan yangi to'lqin ko'tarildi; sol quyi tushayotgan chog'da to'lqin biz tomon bostirib kela boshlagan edi. Men uni shundoqqina tepamda paydo bo'lganini ko'rgan daqiqada, kuchli bir zarbni his etdim va suv

oqimi tagida ko'milib ketdim. Butun gavdamni girdob so'rib tortib ketayotganini his etdim. Shu tobda men butun kuchimni ishga solib, faqat bir narsani, mahkam yopishib turish kerakligini o'ylardim! Keyin men bir tog' suvning taralib yo'qola boshlaganini, gavdam bu jon talvasasidagi talashuvdan qutulganini his etdim. Bir tog' suv o'kirib, guldurab nari surilib ketgan chog'da esa, men yana Knutni ko'rib qoldim. U mening yonginamda arqonga mahkam yopishganicha, g'ujanak bo'lib o'tirardi. Katta to'lg'in orqasidan yassi va kulrang bo'lib ko'rinardi; to'lg'in olg'a qarab surilarkan kayuta tomidagi suvdan chiqib turgan ziynat uchun qo'yilgan ot boshi osha dumalab o'tib ketdi; u yerda esa, o'tib ketgan to'lg'in kayuta tomiga qisib qo'ygan uch o'rtog'imiz osilib turganini ko'rdik.

Biz hamon suvda turardik.

Men bir daqiqaga mushaklarimni bo'shatdim-da, keyin yana qo'llarim va oyoqlarim bilan pishiq arqonga mahkam chirmashib oldim. Knut pastga sirg'alib tushdi va yo'lbarsdek sapchib, kayuta himoyasida yashikda turganlar qatoriga qo'shildi. Men ularning dalda beruvchi qichqiriqlarini eshitdim va xuddi shu onning o'zidayoq okeandan turib, baland ko'tarilib biz tomon surila boshlagan yangi ko'k devorni ko'rib qoldim. Boshqalarni bundan ogoh etish uchun qichqirib yubordim-da, arqonga chirmashganimcha, iloji boricha kichkina bo'lib, g'ujanak bo'lib oldim. Undan keyingi soniyada tepamizga jahannam kelib quladi – «Kon-Tiki» bir tog' keladigan suv ostida qolib ketdi. To'lg'in biz bebaxt odamlar gavdasiga butun kuchi bilan yopirilib, tortqilar, yulqilardi. Ikkinchi to'lg'in ham ustimizdan yo'rg'alab o'tdi, keyin yana xuddi shunaqa uchinchisi...

Shu payt men Knutning g'olibona qichqirig'ini eshitdim. U arqon shotida osilib turgan yeridan turib:

– Qaranglar, solimiz bo‘sh kelmayapti! – deb qichqirardi.

Uch to‘lqindan keyin qo‘sh machta bilan kayutagina sal qiyshaydi. Bizni yana tabiat ustidan g‘oliblik hissi qamrab oldi. G‘oliblik hayajoni esa bizga yana kuch berdi.

Keyin men, oldingilarning hammasidan ham ko‘ra baland ko‘tarilib, bizga qarab surilib kelayotgan navbatdagi to‘lqinni ko‘rdim va ovozim boricha qichqirib boshqalarni ogohlantirgach, iloji boricha shtagning balandroq yeriga chiqib, mahkam osilib oldim. Keyin to‘lqin meni bir tomonga itqitib yubordi va men tepamizda baland ko‘tarilgan to‘lqindan tarkib topmish ko‘kish devor ichida g‘oyib bo‘ldim; solning quyruqqa yaqin yerida turgan va mening birinchi bo‘lib to‘lqin ichida g‘oyib bo‘lganimni ko‘rgan o‘rtoqlarim to‘lqinning balandligi sakkiz metr kelishini chamalaganlar. To‘lqinning ko‘pirgan qirrasi esa men g‘oyib bo‘lgan suv devordan besh metr balandda shitob bilan yo‘rg‘alardi. Keyin haybatli po‘rtana ularga ham yetib borgan – bu daqiqa hammamizning fikr-xayolimiz bir edi – qanday qilib bo‘lsa ham yopishgancha turaverish, yopishgancha turaverish, yopishgancha turaverish!

Bu gal cho‘girtoshga urilgan bo‘lsak kerak. Men shtagning tarangligi o‘zgarib turganligini, goh tortilib, goh bo‘shashayotgandek bo‘lganligidan his qildim. Lekin shtagda osilib turarkanman, gulduros tepamda eshitilyaptimi yoki pastda, anglab ololmasdim. Biz suv ostida bir necha soniyagina bo‘ldik. Lekin shu daqiqalar bizdan, odatiy hayotda gavdamizda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan kuch talab etdi. Inson organizmida muskullar kuchidan ko‘ra ancha ko‘p kuch-quvvat bo‘ladi. Agar o‘ladigan bo‘lsam ham shu alpozda, shtagda g‘ujanak bo‘lib osilib yotganim holda o‘lishga qaror qildim. To‘lqin guldurab kelib biz-

ga yoprildi va ustimizdan o'tib ketdi. Uning o'kirigi sal uzoqlashganda esa, biz dahshatli bir manzarani ko'rdik. «Kon-Tiki», sehrli tayoq hukmi bilan bo'lgani kabi, tamomila o'zgarib ketgan edi. Haftalar va oylar mobaynida biz okeanda bilgan kemadan asar qolmagan edi; shinamgina xonamiz bir necha soniya ichida tilka-pora va xonavayron bo'lgandi.

Solda faqat bir kishini ko'rdim. U kayuta tomidagi bezak ot ustida ko'ndalang tushib, ikki qo'lini ikki yonga yoyib yuztuban yotardi; kayutaning o'zi esa karton uya yanglig' g'ijimlanib, quyruqda, o'ng bort tomon surilib ketgan edi. Qimir etmay yotgan bu odam German edi. Shundan bo'lak tirik jondan nishon ko'rmadim. Tog'dek-tog'dek to'lqinlar esa hamon yonginamizda cho'girtoshga yopirilib turardi. Og'ir o'ng machta gugurt cho'pidek sinib ketgan va uning yuqori qismi ag'anagan paytida kayuta tomini shunday ezib yuborganki, endilikda machta bor uskunalari bilan o'ng tomondagi cho'girtosh ustiga yonboshlab qolgan edi. Quyruq tomondagi rul to'nkasi uzunasiga burilib ketgan, ronjina singan, rul eshkagi chilparchin bo'lib ketgan edi. Solning tumshuq tomonida falshbort sigara qutisiday majaqlanib ketgan, paluba yulinib, ho'l qog'oz kabi yashik va bidonlar, brezentlar va boshqa yuklar qatori kayutaning old devoriga borib qisilib qolgan edi. Bambuk tayoqlar, arqon parchalari hamma yoqda yoyilib yotar, hammasi bir bo'lib, solda tartibsizlikni oshirib yuborgan edi.

Dahshatga tushganimdan muzlab ketdim. Hammasiga bardosh berganimdan nima ma'no chiqdi? Shu yerga kelganda, maqsad amalga oshib turgan bir paytda, biror hamrohdan ayrilsam, hamma qilingan toat-ibodat bekor; hozir esa, to'lqinlar bilan bo'lgan so'nggi olishuvdan keyin men faqat bir odamni ko'rib turardim. Shu daqiqa, sol borti ortida Torsteynning

bukchaygan qaddi ko'rindi. U machta uskunalariga maymundek yopishib olgan edi; u xodaga chirmashib olishga muvaffaq bo'lgach, kayuta oldidagi uvin-to'dalariga emaklab bir amallab chiqib oldi. Endi German ham boshini ko'tarib qaragan bo'ldi va meni tinchitish uchun, majburan tirjaydi; lekin u qimir etmas edi. Boshqalarning qayerdaligini bilish uchun umidsizgina qichqirdim va Bengtning osoyishta ovozi eshitdim. U butun komanda bortdaligini aytdi. Ular, g'alati bir yo'sinda chirmashib ketgan, palubaga to'shaladigan elastik buyumlardan uyulgan barrikada ortida, arqonlarga mahkam yopishgancha yotishardi.

Shularning hammasi «Kon-Tiki» to'lqin qaytishi bilan birga jahannamdan qaytib chiqayotganda, bir necha daqiqa ichida ro'y berdi. Solga endi yangi to'lqin bostirib kelayotgan edi. Men guldurosni bosib ketish uchun, so'nggi bor, ovozimning boricha: «Tarmashinglar!» deb qichqirdim. Shunday deyishdan bo'lak ilojim qolmagan edi; arqonga mahkam chirmashdim-u, nihoyasi yo'qdek ko'ringan, ikki-uch soniya ichida yopirilib kelib, o'tib ketgan bir olam suv ostida qolib ketdim. Kuchim ketayotganini his qildim. Xodalar uchi zarb bilan marjon rifning o'tkir qirrasiga borib urilayotganini, lekin undan oshib o'tib ketolmayotganini ko'rib turardim. Keyin to'lqin bizni yana orqaga surib tashladi. Shuningdek men, tomdagi bezak ot shakli ustida ko'ndalang yotgan ikki kishini ham ko'rib turardim. Lekin hech qaysi birimiz ortiq jilmaymas edik.

Yana ikki yo'uch to'lqin ustimizdan guldurab o'tdi. Lekin bular avvalgilardan ancha kuchsiz edi. Nima bo'lganini bilmayman; faqat suvning ko'pirib yopirilib kelgani va yana qaytgani, o'zimiz esa, tiqilib qolganimiz, qizil cho'girtoshga borgan sayin singib ketaverganimiz esimda, xolos. Keyin sho'r tomchilarda

to'liq ko'piklarning pishqirgan qirralarigina bizga yetib kela boshladi. Men esam solga qaytib chiqib olishga o'zimda kuch topdim; hammamiz ham solning cho'girtosh tepasida ko'tarilib turgan quyruq tomoniga o'tib oldik.

Shu chog' Knut solning quyruq tarafida yotgan arqonning uchini changallaganicha, bukchayib turib cho'girtoshga irg'ishladi. To'liqin qayta boshlagan chog'da u, engashganicha, o'ttiz metrlar chamasi yugurib bordi-da, ikkinchi to'liqinning pishqirib u tomon yopirilib borganini, yassi cho'girtoshga urilib, yoyilib chekinishini bamaylixotir tomosha qilib turdi.

Yarim vayron kayutadan Erik emaklab chiqib qoldi. Botinkasi oyog'ida edi. Hamma ham o'zini Erikday tutganida ishimiz ancha o'rinli bo'lardi. Kayutani bort ortiga oqizib ketmagan edi. Ustiga yopilgan brezent tagida kayuta pachag'i chiqqan bo'lsa ham, Erik yuklar yonida cho'zilganicha yotavergan; u tepasida to'liqlarning gulduraganini, majaqlangan bambuk devor ustidan bosayotganini his qilib yotavergan. Machta qulagan chog'da Bengtning miyasiga qattiq tushgan esa-da, u bir amallab majaq kayuta ichiga emaklab kirgan va Erik yoniga cho'zilib yotib olgan. Agar bambuk va arqonlardan tarkib topmish kayutamiz, suv bosimi ta'sirida asos xodaga mahkam bosilganicha turaverishini bilsak edi, hammamiz ham xuddi shunday qilib qo'ya qolmasdik.

Erik quyruqdagi xodalar ustida tayyor turardi. To'liqin qaytishi bilanoq bir irg'ib marjontoshga o'tib oldi. Endi navbat Germanniki edi. Undan keyin Bengt sakrash kerak edi. To'liqin surib kelganda, har gal sol marjon rifga yaqinroq kelardi. Torsteyn bilan mening navbatim yetganda sol marjon rifga qo'nib qo'ya qolgan edi, undan sakrashga ehtiyoj qolmadi.

Endilikda biz, birin-ketin kelgan to'liqlar urilib chil-chil bo'layotgan dahshatli marjon rifidan

yigirma metrcha narida edik. Marjontoshlar yassi marjon orolni shunday baland qilib yasagan edilarki, to'liqlarning uchlarigina yonimizdan oshib o'tib, baliqlar g'ij-g'ij suzgan ko'rfazni toza dengiz suvi bilan to'ldirardi. Marjon rifining bu tomonida marjonlar hukmron edi: ular rango-rang va ajoyib shaklda edi.

Marjon rif yoqalab anchagina yurgach, o'rtoqlarimiz rezina solimizni topib olishdi. Solimiz suvga to'lib, suv betida chayqalib yotgan ekan. Ular rezina solning suvini to'kib tashlab, pachag'i chiqqan solimiz tomon olib ketishdi; keyin rezina solga eng zarur buyumlarni – radiostansiya, oziq-ovqat va suvli shishalarni yukladik. Hammasini marjon rifdan oshirib olib o'tib, marjon rifning ichkari tomonida bahaybat meteoritni eslatib turgan kattakon marjon qoya ustiga eltib qo'ydik. So'ng yana orqaga qaytib, boshqa narsalarni tashib keldik. Suv qalqib ko'tarilganda to'liqlarning qanchalar ko'tarilishini biz qayoqdan bilaylik.

Marjon rifning ichkari tomonida, suvning sayoz joyida allanarsaning oftobda yaraqlaganini ko'rib qoldik. Suv kechib borib, u narsaning ikkita bo'sh konserva bankasi ekanligini ko'rib hayron bo'ldik. Biz umid qilgan narsa bu emas edi; undan tashqari biz, bu kichik bankachalarning yaraqlab turganini, yaqinligida ochilganligini, beliga yopishtirilgan «ananas» degan yozuv intendant boshqarmasining topshirig'i bilan biz sinab ko'rayotgan oziqlarning aynan o'ziligini ko'rib hayratda qoldik. Bular «Kon-Tiki» bortida so'nggi bor ovqatlanganimizdan keyin tashlab yuborgan bankalarimiz edi. Demak, shu bankalarimiz ortidan qoyagacha suzib kelibmiz.

Biz qirrador, g'adir-budir marjon qoyalar ustida turardik. Keyin toshlar oralig'idagi jilg'alar va kannalarda goh tizzagacha, goh ko'kragimizgacha botib

kechib oʻtdik. Anemonlar¹ va marjonlar qoyalarga koʻkalamzor tusini bergan, toshlar qizgʻish, koʻkish, sargʻish, oqish oʻsimliklar bilan qoplanganday koʻrinardi. Marjonlar, suv koʻkatlari, chigʻanoq toshlar, dengiz mollyuskalari, atrofimizda bilanglagan afsonaviy baliqlar har turli rangda tovlanardilar. Suvi tiniq, chuqurroq kanallarda uzunligi bir metrdan sal oshadigan akulalarning pisib kelayotganini koʻrib qolardik. Shunda kaftimiz bilan suvni shaloplatsak bas, ular orqaga qaytib, nari suzib ketardilar.

Biz qoyaga irgʻitib tashlangan yerda, atrofimizni halqob suvlar orasidan turtib chiqib turgan, kichik hoʻl marjon orollar qurshagan boʻlib, undan u yogʻida koʻm-koʻk koʻrfaz yastgangan edi. Suv ancha qaytgan. Shu sababli suv tagidan yangidan yangi marjon orollar turtib chiqqan, marjon qoya yoqalab betoʻxtov guldurayotgan toʻlqinlar bir qavat pastga tushgandek koʻrinardi. Suv yana koʻtarilganda bu tor qoyada nima boʻlishini tasavvur qilolmasdik. Har holda bu yerdan daf boʻlishimiz kerak.

Qoya yarim beligacha suvga choʻkkan qalʼa devorini eslatar, biz turgan joydan shimolga va janubga qarab choʻzilgan edi. Uning janub tarafida palmalardan tarkib topmish quyuq oʻrmon bilan qoplangan uzun orol koʻzga tashlanardi. Shimol tomonda esa, bizdan bor-yoʻgʻi 600–700 metr narida, palma daraxtlari oʻsgan, avvalgidan koʻra ancha kichik orol bor edi. Bu orol marjon qoyaning ichkari tarafida edi; palmalar uchi osmonga boʻy choʻzgan boʻlib, oppoq qumloq sokin koʻrfazgacha yastangan edi. Orol gul toʻldirilgan kattakon savatga yoinki moʻjazgina orolga oʻxshardi. Biz shu orolni tanladik.

Ogʻzi qulogʻiga yetib iljaygan soqoldor German men bilan yonma-yon turardi. U hech nima demadi.

¹ Anemon – ayiqtovon oilasiga mansub oq, sariq gulli oʻsimlik.

Faqat qo'lini cho'zib, sekingina kulib qo'ydi. «Kon-Tiki» hamon qoyaning narigi tomonida bo'lib, suv qalqiganida paydo bo'lgan tomchilar undan oshib o'tardi. Sol faxrli invalid edi. Palubada hamma narsa majaq bo'lib ketgan esa-da, Ekvadordagi kivedo o'rmonidan kesib olingan to'qqiz xoda, avvalgidek, bus-butun edi. Hayotimizni shu to'qqiz xoda saqlab qolgan edi. Yuklarimizdan juda ozginasi okeanga nasib qildi. Kayuta ichiga joylashtirgan narsalarimizning hammasi omon qolgan edi. Zarur bo'lgan narsalarning barchasini soldan tushirdik. Endi buyumlarimizning hammasi marjon qoyaning ichkari tarafida quyoshda qizigan tepalik cho'qqisida, xavf-xatardan xoli edi.

Soldan tushganimdan beri, menga, solimizning old tarafida suzgan lotsman baliqlari yetishmayotgandek bo'lib tuyulardi. Bahaybat balza xodalari 15 santimetrga yaqin suvga botib, qoya ustida yotardi, solning tumshuq tarafida jigarrang dengiz mollyuskalari bilanglardi. Oltin makrellar ham yo'q edi. Faqat bizga tanish bo'lmagan, tovusday tovlangan, dumi to'mtoq yapasqi baliqlar xodalar oralab ilang-bilang suzishardi. Biz yangi bir olamga kelib qolgan edik. Yuxannes ham kavagini tashlab ketgan edi.

Men so'nggi bor solga nazar tashladim va pachiq savat ichida nish urgan jimitday palmani ko'rib qoldim. Kokos yong'og'idan nish urgan nihol 45 santimetrcha kelar, pastda ikki ildizi ko'zga tashlanardi. Yong'oqni olib, orol tomon suv kechib ketdim. Mendan bir necha qadam oldinda ketayotgan Knutga ko'zim tushdi. U sol modelini ko'tarib, suv kechib borardi; bu modelni u safar davomida allaqancha vaqt ketkazib yasagan edi. Birozdan keyin biz Bengtga yetib oldik. U ajoyib oshpaz edi. Peshonasi g'urra, ho'l soqolidan dengiz suvi tomchilab turgan Bengt, ikki bukilib, yashikni itarib borardi. Yashik esa, qoyaning

narigi tomoniga urilgan to'liqlar suvi har gal ko'rfazga otilib kirganda irg'ishlardi. U mag'rurlik bilan yashik qopqog'ini ochdi. Bu oshxona bo'lib xizmat etgan yashik ekan, primusimiz va boshqa oshxona asboblarmiz joy-joyida edi.

Qoyadan qoyaga o'tib, palmalar o'sgan mana shu ajoyib orolga ko'chishimizni hech qachon unutmaman. Ilgarilaganimiz sayin orol kattalashib borardi. Oftobga g'arq qumloq sohilga yetgach men, botinkamni ochib olib, iliq, quruq qumga bota-bota yurib ketdim. Yuqoriga, palmazorga qarab ketgan qumloq sohilda qolgan izlarni ko'rib ilgarilash menga huzur baxsh etardi. Ko'p o'tmay tepamdagi palmalarning uchi bir-biri bilan tutashib ketdi. Men esam, hamon shu kichik orol bo'ylab ichkarilab borardim. Palmalarning qir uchida yashil yong'oqlari osilib turar, allaqanday paxmoq butalarni qoplagan oppoq gullar shu qadar muattar is sochardiki, boshim aylanib ketdi. Ikkita suv qushi yelkan uzra qanot qoqardi. Ular shu qadar oq, shu qadar yengil edilarki, kichkinagina cho'zinchoq oq momiq bulutlarga o'xshardi.

Men hang-mang bo'lib qolgan edim. So'ngra tiz cho'kdim-da, barmoqlarimni quruq, iliq qumga tiqdim.

Safarimiz nihoyasiga yetgan edi. Hammamiz eson-omon edik. Janub dengizidagi odam yashamaydigan orolga tushgan edik. Orol bo'lganda ham qanday orol! Torsteyn yonimga keldi, qopchig'ini yerga tashladi va qumga cho'zildi-da, chalqancha tushgani-cha palmalarning uchiga, tepamizda shovqinsiz parvoz etgan parday yengil oppoq suv qushlariga tikilib qoldi. Ko'p o'tmay, oltovlon qumda qator cho'zilgan edik. Hamma vaqt g'ayrat va shijoatga to'liq German pastroq palmalardan biriga chirmashib chiqdi va kokos yong'oqlaridan uzib bizga tashladi. O'tkir

pichoqlarimiz bilan kokos yong'oqlarining yumshoq uchlarini, tuxum uchini teshganday qilib ochdik-da, boshimizni orqaga tashlab, dunyodagi ajoyib ichimlikni – kokos urug'isiz muzdakkina shirin sharbatni shimirdik. Marjon qoyaning narigi tarafida «jannat darvozasi»ni qo'riqlayotgan qo'riqchilar do'mbirasi-ning bir me'yordagi guldurosi eshitilardi.

– Jannat yo'lagi ancha zax edi, – dedi Bengt, – lekin «jannat» xuddi men tasavvur etgandek ekan.

Biz maza qilib yerga cho'zildik va tepamizda, pal-malar ustidan g'arbga tomon suzayotgan oppoq momiq bulutlarni kuzatib, jilmayishib yotdik. Ortiq biz bulutlar ketidan nochor suzmasdik; endi biz joyidan jilmaydigan orolda, qattiq yerda, asl Polineziya tuprog'ida cho'zilishib yotardik.

Biz cho'zilishib yotarkanmiz, qoyaning narigi tomonida to'lqinlar, butun ufq bo'ylab, goh u yoqqa, goh bu yoqqa urilib xuddi poyezd singari guvullardi.

Bengt haq edi: biz jannatga tushib qolgan edik.

VIII BOB

POLINEZIYALIKLAR ORASIDA

Salgina robinzonlik. – Bizni izlab qolishmasmikan, deya cho'chiymiz. – Hammasi joyida. – «Kon-Tiki»! – Yana bir kema falokati qoldiqlari. – Odam yashamaydigan orollar. – Dengiz ilonlari bilan olishuv. – Polineziyaliklar bizni topishadi. – Qoyadagi ruhlar. – Qabila boshlig'iga elchi yuborish. – Qabila boshlig'i huzurimizga tashrif buyuradi. – «Kon-Tiki» tan olinadi. – Suvning baland qalqishi. – Kemamiz quruqlik bo'ylab safarda. – To'rtovlon orolda. – Orolliklar bizni olib ketgani ke-lishadi. – Qishloqda qabul marosimi. – Quyosh ko'ta-riluvchi mamlakatdagilarning qadim ajdodi. – Polineziyaliklar raqsi. – Efir orqali davolash. – Bizga qirollik ismlari beriladi. – Yana bir kema falokati. – «Tamara» «Maoae»ni qutqaradi. – Taitida. – Sohilda kutib olish. – Bizni izzat-ikrom bilan kutib oldilar. – Olti gulchambar.

Orolimizda odam yashamas edi. Ko'p o'tmay bун-
dagi har bir palma, sohilidagi har bir tosh bizga ta-
nish bo'lib qoldi. Negaki, orol eniga 200 metrcha ke-
lardi, xolos. Orolning eng baland nuqtasi ko'rfaz sat-
hidan ikki metrcha baland edi.

Boshimiz uzra, palmalar uchida ko'm-ko'k kokos
yong'oqlari shig'il osilib yotardi. Yong'oqning qalin
po'chog'i ichidagi sutni tropik oftobidan saqlab tur-
ganidan, hamma vaqt muzdekkina bo'lardi. Demak,
birinchi hafta mobaynida tashna qolmasligimiz tayin.
Bundan tashqari, pishgan kokos yong'oqlari, gala-ga-
la qizil qisqichbaqalar, ko'rfazda bo'lsa xil-xil baliqlar
bor edi; hech nimadan kamchiligimiz bo'lmaydi.

Orolning shimol qirg'og'ida eski, bo'yalmagan, yarmigacha qumga ko'milib ketgan yog'och krest topib oldik. Shu joydan turib, qoya yoqalab shimol tarafga qaralsa, pachaqlangan kema uskunasiga ko'z tushadi. To'lqin bizni uning yonginasidan surib olib o'tgan chog'da ilk bor yaqindan ko'rgan edik. Yana shimolroq qaraydigan bo'lsak, ko'kish havoda yana boshqa kichkina oroldagi palmalarning uchi ko'rinadi. Janub tomondagi daraxtlar, quyuq o'sgan orol yaqinroq edi. Shu orollarning birontasida hayotdan asar sezmadik. Lekin hozir boshqa tashvishlarimiz ko'p edi.

Kattakon poxol shlyapa kiygan Robinzon Xesselburg oqsoqlanib yonimizga keldi; u bir hovuch qizil qisqichbaqa keltirdi. Knut shox-shabballardan gulxan yoqdi. Ko'p o'tmay biz qisqichbaqa yeb, kokos suti bilan kakao ichib o'tirdik.

– Sohilda o'tirish soz-a, og'aynilar? – dedi Knut huzur qilib.

Safar davomida u bir bor shunday his etgan o'zini. Shu so'zlarni aytarkan, u birdan qoqilib ketdi va Bengtning oyog'iga yarim choynak qaynoq suv to'kib yubordi. Solda 101 kun suzgandan so'ng, sohilda kechayotgan birinchi kunda hech qaysi birimiz oyoqda mustahkam turolmasdik; ba'zi palmalar tagida birdan chayqalib ketardik. Negaki biz, yopirilib keladigan to'lqinni kutgandek oyoqlarimizni kerib qolardik.

Bengt bizga ovqatlaish uchun idish-tovoqlarimizni berganda Erik og'zi qulog'iga yetib iljaydi. Solda so'ngi bor ovqatlanganimizdan keyin men, odatdagidek, bortdan engashdim-da, idishimni chayib oldim. Erik bo'lsa qoyaga qarab qo'ydi-da: «Bugun idish yuvib ovora bo'lib o'tirmayman», dedi. Oshxona vazifasini o'tagan yashikka qaraganida esa idishi xuddi menikidek top-toza edi.

Ovqatlanib bo'lgach, huzur qilib yerda yumalashib yotdik-da, keyin namiqib ketgan radiostansiya-

ni yig'a boshladik; bu ishni tezroq bitirishimiz kerak edi. Aks holda rarotongalik do'stimiz bizning halokatimiz haqida xabar berib yuborishi mumkin.

Radioasboblarning ko'p qismi sohilga tashib o'tilgan edi; qoyada uyilgan buyumlar orasida Bengt yashikni ko'rib qoldi va unga yopishdi. Yopishdi-yu, shu zamonotok urib, irg'ishlab ketdi; bu yashikdagi narsalar radiotexnikaga aloqadorligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Radistlar asboblarni burab, ulab, yig'ib tayyorlashguncha, qolganlar lager tayyorlashga kirishishdi.

To'lqin bizni qirg'oqqa chiqarib tashlagan joyga yaqin yerdan biz ivib yotgan yelkan topib, sohilga olib keldik. Biz yelkanni kichkinagina o'tloqdagi ikkita yo'g'on palmaga tortib boyladik. Bu yerdan ko'rfazga chiroyli manzara ochilardi; yelkanning qolgan ikki uchini halokat yuz bergan yerdan suzib kelgan ikki bambuk xodaga boyladik. Quyuq o'sgan butalar yelkanini tirab turgandek atrofni qurshab olgan edi. Go'yo atrofimiz uch tomondan devor bilan o'ralgan-u, tepamizda tom ham bor; qarshimizda esa ko'rfaz yaraqlar, havo gullarning muattar islari-la to'liq edi. Bunda yashash huzur bo'lib, hammamiz mamnun edik, jilmayishardik, rohat qilib cho'zilishardik; har kim palma yaproqlaridan uzib o'ziga to'shak yasardi. Yaproqlarni to'shashdan avval qumdan turtib chiqib turgan chig'anoqlarning siniqlarini terib tashladik. Qorong'i tushguncha, uxlash uchun, juda qulay joy tayyorladik. Tepamizda esa mehribon «Kon-Tiki»ning soqoldor chehrasi ko'zga tashlanardi. Ortiq u, sharqdan esgan shamol ta'sirida, ko'kragini kermas edi. Endi u chalqancha yotgancha, Polineziya ustida miltillagan yulduzlarni tomosha qilib yotardi.

Tevarak-atrofimizdagi butalarga bayroqlarni, uyqu qopchiqlarini yoyib qo'ygan edik. Ho'l kiyim-boshla-

rimiz esa qumda yotardi. Bu oftobli orolda yana bir kun tursak, hamma narsamiz quriydi. Hatto radistlar ham, ertagacha apparatlar o'zi qurib qoladi, degan fikr bilan ishlarini ertaga qoldirdilar. Butalardan uyqu qopchiqlarini oldik-da, «kimniki quruq» o'yinini o'ynab ichiga kirib joylashib oldik. Bu musobaqada Bengt g'olib chiqdi: u qopchiqda ag'darilganida, qopchig'idagi suv shilqillab ketdi. Yo alhazar, yotib uxlash imkoniga ega bo'lishga ne yetsin!

Tongda uyg'onsak, yelkanimiz hovuz bo'lib, tiniq yomg'ir suvi bilan to'lib qolibdi. Kutilmaganda nasib etgan bu tortiqni Bengt darhol idishga solib oldi, keyin ko'rfazga borib, qumloqqa ariq tortib, hovuzcha qilib qo'yan joyiga adashib kelib qolgan g'alati baliqchalarni qirg'oqqa otdi.

Germanning Limadan chiqish paytida lat yegan bo'yni va orqasi kechasi bilan og'rib chiqdi. Erikning esa ko'pdan beri tutmagan bodi tutib qoldi. Lekin umuman olganda esa, qoyaga ko'chishimiz bizga yengil ko'chgan edi: u yer bu yerimiz qirilgan, sal-pal chaqa bo'lgan edi. Faqat ag'anagan machta Bengtning boshiga tushib, miyasini chayqatib yuborgandi. Hammadan ham mening ahvolim g'aroyib edi – arqonni shunday qattiq qisgan ekanmanki, qo'l-oyoqlarim mo'mataloq bo'lib ketgan edi.

Birontamiz ham tip-tiniq ko'rfaz suvini ko'rganda, nonushta oldidan bir cho'milib olishdan o'zimizni tiya olmas edik. Ko'rfaz behad katta, uning uzoqroq qismi ko'm-ko'k bo'lib ko'rinar, shamolda jimirlardi; ko'rfaz shunday keng ediki, narigi tarafdagi palmar ko'kargan orollar va ularni hoshiyalagan marjon orolni ko'z zo'rg'a ilg'ab olardi. Orollarning shamoldan pana bu tomonida shabada palmalar yaprog'ini hilpiratar, ko'rfaz esa oynadek yaraqlar, orol go'zalligini o'zida aks ettirardi. Sho'rtak taxir suv nihoyat-

da tiniq edi; uch metrcha chuqurda, suv tubida yotgan rangdor chig'anoqlar shundoqqina suv yuzasida ko'rinar, cho'milganda oyog'imizni kesib olamiz, deya qo'rqardik. Ko'rfazda rango-rang xil-xil baliqlar ko'p edi. Qarshimizda g'aroyib bir olam namoyon bo'lib, o'ziga rom etardi. Suv yetarli darajada salqin edi, havoning iliqligi esa xush yoqardi. Lekin bugun tezroq suvdan chiqishimiz kerak edi: agar kechgacha soldan hech qanday xabar bormasa, Rarotonga tashvishli xabar tarqatib yuboradi.

Radioperedatchikning g'altaklari va boshqa qismlari qup-quruq chig'anoqlar ustiga terilib, tropik quyoshida qurilayotgan edi. Torsteyn bilan Knut ularni bir-bir ular, burar edilar. Erta o'tdi hamki, ishimiz bitmay, tashvishimiz orta boshladi. Biz hamma ishlarimizni tashlab, biror yordamimiz tegib qolar, degan umidda radistlarimizni qurshab oldik. Biz kechki soat o'ngacha efirga chiqishimiz kerak. Shungacha o'ttiz olti soatlik muddat o'tadi va rarotongalik radiohavaskor samolyot va qutqaruv ekspeditsiyasini jo'natish haqidagi chaqiriqni radio orqali yetkazadi.

Tush bo'ldi, keyin oqshom tushdi, quyosh ham botdi. Rarotongalik kishining sabr-toqati yetsa bas! Soat yetti, sakkiz, to'qqiz bo'ldi. Tashvishimiz ortib ketdi. Peredatchik tiq etmaydi. Lekin «LS – 173» priyomnigi sekin-asta qiziy boshladi, allaqanday musiqa eshitila boshladi. Ammo havaskorning diapazonida hech nima eshitilmasdi. Mana sekin-asta ovozlari eshitila boshladi – gap nam bo'lib qolgan o'ralgan simda bo'lsa kerak, bir chekkadan qurib kelayotgan bo'lishi kerak. Peredatchik hanuz o'lik edi – chars-churs etib, zamikaniya bo'lardi nuqul.

Bir soatdan kam vaqt qoldi. Hech nima chiqmasligi aniq! Peredatchik ishdan chiqqan. Endi biz, urush chog'ida yashirin harakatda ish bergan kichkina pe-

redatchikni ishga solib ko'rmoqchi bo'ldik. Kuni bo'yi bir necha bor uringan edig-u, hech nima chiqarolmagan edik. Endi qurib qolgandir balki? Hamma batareyalar ishdan chiqqan edi. Tok olish uchun kichkina qo'l dinamikasini almashtirishimiz lozim edi. Bu juda mashaqqatli ish edi. Radiotexnikada bexabar to'rt odam, kechgacha ana shu mashinaning qulog'ini aylantirish bilan ovora bo'ldik.

O'ttiz olti soat mana hozir o'tib ketadi. Esimda, allakim: «yetti daqiqa», «besh daqiqa» deb shivirlab daqiqalarni sanay boshladi. Keyin hech qaysi birimiz soatga qaramay qo'ydik. Peredatchik hamon gung esa-da, priyomnik bizga zarur to'lqinga yaqin yerda allanimalarni g'o'ngillardi. To'satdan u rarotongalik havaskorning to'lqinida chatirlay boshladi. Biz uni Taiti radiostansiyasi bilan gaplashyapti, degan qarorga keldik. Ko'p o'tmay, Rarotongadan berilgan quyidagi radiogrammani eshitib qoldik:

«...Samoa orollarining bu tomoniga birorta ham samolyot. Qat'iyon ishonchim komil...»

Keyin yana hamma yoq jimib qoldi. Yuraklarimiz siqilib ketdi. Nima balolarni boshlashyapti? Nahotki samolyotlarni, qutqarish ekspeditsiyasini jo'natishayotgan bo'lsa? Endi biz haqimizdagi xabarning efirda har tomon tarqalishi so'zsiz.

Ikkala radist o'lar-qutulariga qaramay ishlardi. Ularning yuzidan ham, dinamik qulog'ini burayotganlar yuzidan oqqandek ter quyilardi. Peredatchik antennisasi konturida elektr tebranishi hosil bo'la boshladi. Torsteyn esa quvonchini ichiga sig'dirolmay, Morze kalitini bosganida strelkaning shkala bo'ylab ohista ko'tarilishiga imo qilardi. Ishimiz o'ngidan kela boshlagan edi!

Biz telbalardek zo'r berib dinamik qulog'ini bu-rardik, Torsteyn bo'lsa Rarotongani chaqirish bilan

mashtg'ul edi. Bizni hech kim eshitmasdi. Yana bir urindik. Bu gal ham priyomnik uyg'ondi-yu, lekin Rarotonga bizni eshitmasdi. Biz Los-Anjelosdan Gal bilan Frenkni, Limmadan dengiz maktabini chaqira boshladik, lekin ular bizni eshitishmasdi.

Shundan keyin Torsteyn «S» signalini yubordi: boshqacha qilib aytganda, bizning havaskorlik qisqa to'loqimizni eshita olgan jahondagi barcha radio-stansiyalarni chaqirardi.

Buning natijasi darrov bilindi. Allakimning zaif ovozi efirda bizni chaqira boshladi. Biz signalimizni takrorladik va uni eshitayotganimizni aytdik. Shunda efirdagi zaif ovoz:

– Mening nomim Pol, Koloradoda yashayman; sizning ismingiz nima, qayerda yashaysiz? – dedi.

Bu allaqanday radiohavaskor edi. Biz dinamik qulog'ini burashda davom etardik. Torsteyn bo'lsa kalitni olib:

– Bu «Kon-Tiki», to'loq bizni Tinch okeandagi odam yashamaydigan orolga uloqtirdi, – deb javob qildi.

Pol bu gapga tariqcha ishonmadi. Qo'shni mahallalik allaqanday qisqa to'loqinchi uni mazax qilyapti, deb o'yladi va ortiq efirda paydo bo'lmadi. Alami-mizdan sochimizni yulishga tayyor edik. Biz bunda, odam yashamaydigan orolda yulduzlar charaqlagan kechada, palmalar tagida o'tirsag-u, so'zimizga hech kim ishonmasa.

Torsteyn tinib-tinchimasdi; u yana kalitni ishga solib, «Ishlar joyida, ishlar joyida, ishlar joyida» degan xabar yubora boshladi efirga: har qanday qilib bo'lsa ham, Tinch okeanning turli burchaklarida qutqarish ekspeditsiyasiga tayyorgarlikni to'xtatishimiz kerak.

To'satdan priyomnikda allakimning:

– Ishlar joyida bo'lsa nega hovliqasiz? – degan ovozi eshitildi.

Keyin efir yana jim bo'lib qoldi. Ortiq hech kimning ovozi eshitilmadi.

Alam qilganidan palmaning qir uchi barobarida irg'ishlashga, hamma kokos yong'oqlarini silkitib tashlashga tayyor edik. Agarda to'satdan Rarotonga bilan Gal bizni eshitishib qolishmaganda nimalar qilardik, hech qaysi birimiz bilmaymiz. Galning aytishicha, «J₂V» chaqiriqlarini yana eshitib qolganida sevinganidan yig'lab yuboribdi. Hamma shov-shuv birdan tindi; biz yana yolg'iz qoldik; Janub dengizidagi orolimizda endi yana o'zimiz qolgan edik. Horibcharchab, holdan toyib palma yaproqlaridan bo'lgan to'shaklarimizga yastandik.

Ertasiga biz hech qayoqqa shoshilmay, hayot nash'asini surishga kirishdik. Birimiz cho'milsak, boshqalarimiz baliq ovlar, g'aroyib dengiz hayvonlarini izlab marjon qoyalar oralab kezardik; g'ayratliroqlarimiz lagerni tartibga keltirib, atrofini tozalashga kirishdi. Sohilning «Kon-Tiki» ko'rinib turgan yerida, palmazor etagida chuqur qazidik-da, ichiga yaproqlar to'shab, Perudan olib kelgan, ildiz otib qolgan kokos yong'og'imizni ekdik. Shunga yaqin joyda, «Kon-Tiki» qoyaga o'tirib qolgan yerda marjon toshlardan piramida yasadik.

Kechasi bilan suv qalqiganda «Kon-Tiki» ko'rfazga yana ham yaqinroq surilib qolgan edi. Hozir u bir necha halqob o'rtasida, tamomila quruqlikda, marjon rifning tashqi chekkasidan ancha narida marjon qoyalar orasida yotardi.

Qizigan qumda yotib qizigach, Erik bilan German o'zlarini yaxshi his qildilar va marjon qoya yoqalab janub tomon safar qilmoqchi bo'ldilar. Ular bu yerdan kattaroq orolga o'tish ilojini topish umidida edilar. Men ularga akulalardan, hamma ilon – ugri baliqlardan¹ ehtiyot bo'lishni tayinladim. Ular o'tkir pichoq-

¹ Dengiz ugrilari – uzunligi 2 - 3 metr, og'irligi 65 kg keladigan yirtqich baliqlar. Hind, Atlantik va Tinch okeanlarida bo'ladi.

larni bellariga qistirib yo'lga tushdilar, Uzun zahar tishli, dahshatli ilonbaliqlar, odatda, marjontoshlar orasiga yashirinishardi. Ular shu o'tkir tishlari bilan odamning oyog'ini uzib olishlari ham mumkin. Bu baliqlar hujum qilganda, bilanglab, yashin tezligida harakat qiladilar, akula bilan yonma-yon suzishdan qo'rqmagan yerli aholini dahshatga soladilar.

Erik bilan German ancha joygacha halqob kechib, janubga qarab yurdilar. Lekin ba'zi-ba'zida chuqurroq jilg'alar uchrab qolar, shunday paytlarda ular suvga o'zlarini tashlab suzishga majbur bo'lardilar. Ular eson-omon katta orolga yetib bordilar va suv kechib sohilga chiqdilar. Palma o'rmoni bilan qoplangan uzun va tor orol janubga qarab yastangan edi; orolning of-tobro' qumloqlarini qoyalar shamoldan to'sib turardi. Erik bilan German janub chegaragacha orol yoqalab borishdi. Oppoq ko'piklar-la qoplangan marjon qoyalar boshqa orollarga qarab cho'zilgandi. Tadqiqotchilalarimiz bu yerda kattakon kemanding pachoq uskunasini topishibdi; uning to'rtta machtasi bo'lib, sohilda ikki qismga ajralib yotardi. Bu rels ortilgan eski ispan yelkani edi. Zanglagan rels, qoya yoqalab, har qayer-har qayerda sochilib yotardi. Erik bilan German orolning boshqa tomonidan qaytib keldilar. Shuncha yurib qumda birorta ham iz uchratmagan edilar.

Qaytishda ular g'alati baliqlarni cho'chitib yuborganlar va tutmoqchi bo'lganlar; shunda to'satdan sakkiztacha yirik ilonbaliq ularga hujum qilgan. Erik bilan German ularning yaqinlashib kelayotganlarini tiniq suvda ko'rib qolganlar va kattakon marjon qoyaga irg'ib chiqib olganlar; ilonbaliqlar qoya atrofida bilanglab izg'iy boshlagan. Yo'g'onligi erkaklar boldiriday keladigan dahshatli sirg'anchiq baliqlar terisida zaharli ilonlarni eslatuvchi yashil va qora dog'lar bor edi; kichkinagina boshida ilonnikidaqa qahrli ko'zla-

ri bo'lib, bigizdek o'tkir tishlarining uzunligi ikki-uch santimetr kelardi. Ilang-bilang qilib kelayotgan kichkinagina boshlar yaqinlashganda Erik bilan German poylab turib pichoq otishgan; bir ilonbaliqning boshi uzilgan, ikkinchisi yaralangan. Suvda yoyilgan qon bir gala ko'k akula bolalarini jalb etgan. Akulalar o'lik va yarador ilonbaliqqa tashlanishgan, Erik bilan German esa, vaqt g'animatda, boshqa marjon qoyaga irg'ib o'tishgan-u, qochishgan.

Shu kuni men orolimiz tomon suv kechib ketayotganimda, birdan allakim, ikki tarafdin to'pig'imga otilib, mahkam yopishib oldi. Qarasam, sakkizoyoq. Bu sakkizoyoqning yirigi emas edi. Lekin uning sovuq changali oyog'imga chirmashib, tana bo'lib xizmat qilmish qip-qizil shilliq qopchiqdan jahldor kichkina ko'zlar menga tikilgandagi dahshatni so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydi. Men kuchim boricha oyog'imni silkitdim, uzunligi bir metrcha keladigan sakkizoyoq ham silkindi-yu, changalini qo'yib yubormadi. Oyog'imning boylanganligi uning e'tiborini tortgan bo'lsa ajab emas. Oyog'imga yopishgan badbashara maxluq bilan sohil tomon irg'ishlay-irg'ishlay yugurdim. Quruq qumga yetgan chog'imdagina sakkizoyoq changalini qo'yib yubordi-da, asta-sekin suv tomon tisarilib ketdi; changallari bo'lsa hamon sohil tomon cho'zilgan bo'lib, ixtiyor bildirsam yana hujumga tayyordek, shu tarafdin ko'zini uzmasdi. Bir necha yirik chig'anoqni otganimdan keyingina, sakkizoyoq shosha-pisha g'oyib bo'ldi.

Qoyalar orasida ro'y bergan turli-tuman sarguzashtlar bizning oroldagi farog'atli hayotimizga rang kiritib turardi. Lekin butun umrimizni shunda o'tkazish niyatimiz bo'lmagani uchun, odatiy hayotga qaytish yo'llari haqida o'ylab ham ko'rishimiz kerak edi. Hafta oxiriga kelib «Kon-Tiki» marjon qoyaga surilib kelib

qolgan bo'lib, endilikda shu yalang'och qoyada mustahkam joylashgan edi. Katta xodalar ko'rfaz tomon yo'l ochishga urinib, itaraverganlaridan katta-katta marjon qoyalarni sindirib yuborgan bo'lsalar-da, endilikda shunday mustahkam o'rnashib olgan edilar-ki, har qancha uringanimiz bilan joyidan jildira olmas edik. Pachag'i chiqqan solimizni ko'rfazga tushirishga muvaffaq bo'lganimizda edi, machtani joyiga o'rnatib, shamol yordamida, hech bo'lmasa, shu sokin ko'rfazni suzib o'tadigan holga keltirardik-da, u tomonda nimalar borligini ko'rib kela qolardik. Bunda odam yashaydigan orol bo'lsa agar, g'arb tarafdagi ufqda yassi marjon orol shamolga qarshi tarafda buriladigan joyda bo'lishi mumkin.

Kunlar o'tardi.

Kunlardan bir kun yigitlarimiz oyoqlarini qo'llariga olib yugurib kelib qoldilar va ko'rfazda oq yelkan ko'rganlarini aytdilar. Palmalar yoqasidagi teparoq joyga chiqib qaraganimizda, ko'm-ko'k ko'rfaz suvida kichkinagina oq dog' yaqqol ajralib turganini ko'rdik. Buning narigi sohildan suzib kelayotgan yelkanli qayiq ekanligi ravshan edi. Biz yelkanning harakatini o'zgartirganini aniq ko'rdik. Ko'p o'tmay yana bir yelkan ko'rindi.

Ular yaqinlashgani sayin kattalasha borardi. Yelkanlar to'ppa-to'g'ri biz tomon suzishardi. Biz fransuz bayrog'ini palmaning qir uchiga chiqarib qo'ydik va tayoqqa bog'lagan norveg bayrog'ini silkita boshladik. Yelkanlarning biri shu darajada yaqin kelgan ediki, biz uning ikki yelkanli pishangi borligini ko'rdik. Anjomlari ancha zamonaviy edi. Ikki jigarrang odam, qayiqda tik turgancha, bizga tikilgan edi. Biz qo'l silkita boshladik. Ular ham bizga javoban qo'l silkitishdi va to'g'ri bizga qarab suzib kelishdi.

– Ia ora na, – polineziya tilida salomlashdik ular bilan.

– Ie ora na! – barobar javob qilishdi ular. So‘ng ular-dan biri qayiqdan irg‘ib tushdi va biz tomon keldi.

Ikkala mehmon ham yevropaliklar libosida edi. Le-kin ularning kelishgan qomatlari jigarrang tusda edi. Ularning oyoqlari yalang bo‘lib, oftobdan saqlanish uchun boshlariga o‘zlari yasagan poxol shlyapa kiy-gan edilar. Polineziyaliklar sohilga chiqdilar va biroz bo‘shashibgina biz tomon yurdilar: biz galma-gal jil-mayishib qo‘l siqishganimizdan keyin ular ham op-poq tishlarini ko‘rsatib iljayishdi; bu tabassumlar so‘zdan ko‘ra ko‘proq narsani ifoda etardi.

Bizning polineziya tilida salomlashganimiz meh-monlarni hayron qoldirgan, dalda bergan va ularning angataulik qabiladoshlari bizga ingliz tilida: «Xayrli kech!» deb qichqirganida biz chalg‘ib qolgandek, ular ham gangigan edilar. Ular polineziya tilida allanima-larni shosha-pisha bizga hikoya qila boshladilar. Ular-ning shuncha gaplaridan biron so‘zni tushunmagani-mizni ancha keyin angladilar. Bilgach esa jimib qol-dilar. Faqat ahyon-ahyonda, yaqinlashib kelayotgan qayiqqa imo qilib, do‘stona kulib qo‘yishardi xolos.

U qayiqda uch kishi bor edi. Ular suv kechib sohilga keldilar va biz bilan salomlashdilar. Ma‘lum bo‘lishi-cha, ularning biri fransuzchani chalakam-chatti bi-larkan. Ko‘rfazning narigi tarafidagi orollardan birida polineziyaliklar qishlog‘i bor ekan. Shu qishloq aholi-si kechasi gulxan yorug‘ini ko‘ribdi. Raroia qoyasida ko‘rfazni qurshagan orollarga o‘tiladigan birdan bir yo‘l bor ekan; shu yo‘l qishloqqa yaqin yerda bo‘lgani-dan, qoya ortidagi orollarga yaqinlashgan har qanday kimsani qishloq ahli albatta ko‘rarkan. Shuning uchun qishloq keksalari, qoyaning sharq tarafida ko‘ringan olov inson yoqqan gulxan bo‘lmay, jinlarning ishi, de-gan xulosaga kelishibdi. Orolliklar ko‘rfazni suzib o‘tib, nimalar bo‘layotganini ko‘rishga ixtiyor bildirishmab-

di. Keyin ularning qishlog'iga ko'rfazdan allaqanday yozuvli yashik suzib boribdi. Taitida yashagan, alifboni sal-pal bilgan ikki kishi yozuvni hijjalay-hijjalay, taxtaga katta-katta qilib qora harflar bilan «Tiki» deb yozilganini o'qishibdi. Qoyada ruhlar paydo bo'lganiga endi shubha qolmagan edi. Negaki, Tiki o'z xalqlarining allaqachon olamdan o'tgan ajdodlari ekanini hammalari bilardilar. Lekin bir necha vaqtdan keyin ko'rfazdan suxari, sigareta, kokos yong'og'i solingan bankalar va eski botinkali quti suzib boribdi; shundagina ular qoyaning sharq tomonida kema halokati ro'y berganini tushunishibdi. So'ng qabila boshlig'i gulxan yoqqan – omon qolgan odamlarni izlash uchun shu ikki qayiqni yuborgan.

Fransuz tilida so'zlagan orolli kishi, hamrohlari-ning talabiga ko'ra, ko'rfazdan suzib borgan yashikka nima uchun «Tiki» deb yozilganini so'radi. Biz hamma anjomlarimizga «Kon-Tiki» deb yozilganini, biz suzib kelgan kemanding nomi shundayligini aytdik.

Bizning yangi do'stlarimiz kema halokatga yo'liqqanda hech kim halok bo'lmaganini, qoyada pachag'i chiqib yotgan kema o'sha biz suzib kelgan kema ekanini eshitganlarida hayron bo'lib qichqirishib yuborishdi. Ular shu zamonoz hammamizni qayiqclariga o'tqazib qishloqqa olib ketmoqchi bo'lishdi. Biz minnatdorchilik bildirdik va «Kon-Tiki»ni qoyadan tushirmasdan hech qayoqqa bormasligimizni aytdik. Ular qoyada turib qolgan beso'naqay solni hayrat bilan ko'zdan kechirdilar; majag'i chiqqan bu kemani yana suvga tushiraman deb ovora bo'lmanglar, mazmunida qarab qo'yishdi ular bizga! Vakil bizga ular bilan jo'nashimiz zarurligini bildirdi; qabila boshlig'i ularga bizsiz qaytmaslik lozimligini tayinladi.

Shunda biz uchovimizdan birimiz elchi sifatida qabila boshlig'i bilan so'zlashib bir qarorga kelish uchun,

orolliklar bilan birgalikda jo'naydi, qaytgach, narigi oroldagi vaziyatni bizga so'zlab beradi, degan fikrga keldik. Solni cho'girtosh ustida qoldirib ketolmaymiz-ku. Shuningdek, boshqa asbob-anjomlarni ham bu kichik orolda qoldirib ketib bo'lmaydi. Bengt orolliklar bilan birga jo'nab ketdi. Ikkala qayiqni qumloq sohildan itarib suvga tushirdilar-da, qattiq yelayotgan shamol yordamida, g'arb tomonda g'oyib bo'ldilar.

Ertasiga ufqda hisobsiz oq yelkanlar ko'rindi. Orolliklar bari kemalarini suvga tushirib, biz taraf otlangandek edi.

Butun flotiliya biz tomon suzmoqda edi. Ular bizga yaqinlashganlarida esa, oldingi qayiqda, jigarrang tUSDagi kishilar orasida qadrdonimiz Bengtni ko'rib qoldik. U bizga qarab shlyapasini silkitardi. Bengt yonida qabila boshlig'i borligini aytgan edi, biz suv kechib o'tib kelayotgan mehmonlarning hurmatini joyiga qo'yib kutib olish uchun sohilda bir qator tizildik.

Bengt bizni tantanali suratda qabila boshlig'iga tanishtirdi.

– Qabila boshlig'ining ismi Tepiuraiarin Teriafaatau, – dedi Bengt. – Lekin uni Teka deb atayversak ham bo'larmish.

Biz uni Teka deb atay boshladik.

Qabila boshlig'i Teka baland bo'yli, qomati kelishgan, donoligi shundoqqina ko'zidan ko'rinib turgan polineziyalik odam edi. U Taitidagi qadimiy qirol avlodidan bo'lib, bundagi mashhur odamlardan edi, Raroia va Takume orollari qabila boshlig'i. U Taitidagi maktabda o'qigan bo'lib, fransuz tilini hamda o'qish va yozishni bilardi. U menga Norvegiyaning poytaxti Xristianiya¹ deya atalishini aytdi va Bing Krosbini² ta-

¹ Xristianiya – Norvegiyaning poytaxti Osloning ilgarigi nomi.

² Bing Krosbi – Garri L. Krosbi – Amerikaning hozirgi zamon kinoartisti.

nish-tanimasligimni so'radi. Shuningdek u, so'nggi o'n yil mobaynida ularning orollari Raroiaga uch chet el kemasi kirganini, lekin qishloqlariga bir yilda bir necha bor kokos yong'og'i mag'zi bilan savdo qiluvchi taitilik savdogarlarning kemalari kelib turishini aytdi. Bu savdogarlar har xil buyumlar keltirishib, kokos yong'og'i mag'zini olib ketisharkan. Mana, bir necha haftadirkim, orolliklar ularning kemasini kutayotgan ekan. Hali-zamon kelib qolishlari mumkin ekan.

Bengtning qisqacha hisobotiga qaraganda Raroiada maktab ham, radio ham, oq tanli kishilar ham yo'q ekan; lekin orolda istiqomat qiluvchi 127 polineziyaliklar imkoni boricha bizni yaxshi joylashtirishga harakat qildilar, tantanali qabul marosimi o'tkazdilar.

Qabila boshlig'i eng avval, bizning eson-omon cho'girtoshga qo'ndirgan kemamizni ko'zdan kechirmoqchi bo'ldi. Biz qator orolliklar hamrohligida suv kechib, «Kon-Tiki» tomon yo'l oldik. Biz solga yaqinlashganimizda, polineziyaliklar birdan to'xtashdi-da, hammalari baravar, baqirib-chaqirib fikr almashina boshlashdi. «Kon-Tiki» tarkib topgan xodalar endi yaqqol ko'rinib turganligidan, orolliklardan biri:

– Bu qayiq emas, bu pae-pae!– deb qichqirib yubordi.

– Pae-pae! – deb takrorlashdi hamrohlari bir ovozdan.

Ular suvni shaloplatib, hamma yoqqa sachrata-sachrata cho'girtoshlar ustidan chopachop «Kon-Tiki»ga qarab ketdilar va ustiga chiqib oldilar. Ular bolalardek hayajonlangan bir holda, hamma yoqqa bir-bir bosh suqdilar, xodalarni, bambuk bo'yralarni, arqonlarni ushlab ko'rdilar. Qabila boshlig'i ham boshqalar singari ko'tarinki ruhda edi; u bizning yonimizga qaytib keldi-da:

– «Tiki» qayiq emas, pae-pae, – deya bir necha bor takrorladi. Uning ovozida hayrat va qiziqsinish bor edi.

Pae-pae polineziya tilida «sol» yoki «kat» degan ma'noni bildiradi. Pasxi orolida esa, shu yerda yasaladigan qayiqlar ham shunday ataladi. Qabila boshlig'i bizga, endilikda bunday pae-paelar yo'q bo'lib ketganligini, qishloqning keksalari pae-paelar haqida turli rivoyatlar hikoya qilganligini aytdilar. Polineziyaliklarning hammasi ham bahaybat balza xodalariga qoyil qoldilar-u, lekin arqonlarni nazarlariga ilmadilar. Sho'r suv va quyosh ta'sirida bunday arqonlar bir necha oydan ortiq xizmat qilolmas edi. Orolliklar o'z qayiqlari anjomlarini g'urur bilan bizga ko'rsatdilar; ular kokos yong'og'i tolalaridan o'zlari to'qigan arqonlar besh yilgacha xizmat qilajagini hikoya qilishdi.

O'zimizning qiziq orolimizga qaytib kelgach, ko'pchilikning roziligi bilan uni «Fenua Kon-Tiki», ya'ni «Kon-Tiki oroli» deb atadik. Biz bu nomni polineziya tilida bemalol talaffuz etardik. Lekin bizning shimolga xos qisqa ismlarimizni takrorlashga esa, ularning tili sira kelishmasdi. Meni Terai Mateatadeya atashlari mumkinligini, bu o'lkalarga ilk safarim davrida Taitining buyuk qabila boshlig'i meni «o'g'il qilib olib» menga shunday ism qo'yganligini aytganimda hamma xursand bo'lib ketdi.

Orolliklar qayiqlaridan uy qushlari, tuxum, non daraxti mevalaridan olib kelishdi. Ba'zi birlari uch tishli changaklar yordamida ko'rfazda bir necha yirik baliqni tutib keltirishdi. Qarabsizki, gulxan atrofida bazm boshlab yuborishibdi. Biz pae-paeda okean bo'ylab qilgan safarimiz davomida ko'rgan-kechirganlarimizni hikoya qilishimiz kerak edi. Kit akulasi haqidagi hikoyani esa qayta-qayta takrorlashga to'g'ri keldi. Hikoya davomida Erikning garpunni akula kallasiga sanchganiga yetganimizda tinglovchilar hayajonlanib ketardilar. Erik chizgan baliqlarning suratini ko'rgan hamono polineziyaliklar ularni

tanib olardilar va ularning tilida bu baliqlar qanday atalishini aytardilar. Lekin ular kit akulasini ham, ilon makrel balig'ini ham sira ko'rmagan va ular to'g'risida hech nima eshitmagan edilar.

Oqshom cho'kkach, biz radioning qulog'ini bu-rab yubordik, hamma quvonib ketdi. Ularga cherkov musiqasi ayniqsa yoqdi. Undan keyin, hech kutilma-ganda biz, «amerika»dan berilayotgan polineziyalik-larning raqs musiqasini tutdik. Shu chog' orolliklari-mizning xushchaqchaqroqlari qo'llarini gardanlariga qo'yib musiqa ohangiga monand chayqala boshladi-lar, ko'p o'tmay irg'ib o'rinlaridan turib raqs tusha ketdilar. Tun og'gach esa hamma gulxan atrofiga joy-lashdi. Bugungi oqshom orolliklar uchun ham, biz uchun ham o'zgacha bir voqea edi.

– «Tiki» bugun ko'rfazga keladi, – dedi qabila bosh-lig'i majag'i chiqqan solimizga imo qilib. – Suv baland ko'tariladi.

Soat o'n birlarga borib suv yonimizdan o'tib, ko'r-fazga tusha boshladi. Ko'rfaz suvga to'lib ko'l shak-liga kira boshladi, orol atrofidagi suvning balandlik darajasi orta boshladi. Keyinroq borib, okeandan suv yopirilib kelaverdi. Suv po'rtanasifat borgan sa-yin quturib yoprilardi. U bora-bora cho'girtoshning katta qismini qopladi. Suv oqimi orolning ikkala so-hilini yoqalab o'tardi. Bu oqim yirik marjon toshlar-ni yalang'ochlar, katta-katta qumloqlar hosil qilardi. Suv qaytgan chog'da esa bu qumloqlar shamol uchir-gan undek g'oyib bo'lar, boshqa joyda yangi qum-loqlar hosil bo'lardi. Puturi ketgan solning bir necha bambuk xodasi yonginamizdan suzib o'tdi. «Kon-Ti-ki» ham harakatga kela boshladi. Suv ko'payganda oqizib ketmasligi uchun, sohilda yotgan narsalarning hammasini orol ichkarisiga tashib olishga to'g'ri kel-di. Ko'p o'tmay, suv tagidan cho'girtoshlarning eng

balandlarininggina uchi ko'rinib, orolimiz atrofidagi sohil esa suv tagida qolib ketdi. Hammani vahima bosdi. Nazarimizda okean ustimizga otliqib kelayotgandek edi. «Kon-Tiki» 180° ga aylandi va joyidan jilib ketdi, lekin ko'p o'tmay, boshqa cho'girtoshlar oralig'ida tutilib qoldi.

Polineziyaliklar o'zlarini suvga otdilar. Goh suzib, goh girdobni kechib, bir qumloqdan ikkinchi qumloqqa o'tib, solga yetib oldilar. Knut bilan Erik ular bilan birga edi. Solda tayyorlab qo'yilgan arqonlar yotardi. Sol so'nggi cho'girtosh ustidan oshib o'tganda esa orolliklar soldan sakrab tushib, uni tutib qolishga urindilar. Ular «Kon-Tiki»ning betinim g'arbga intilishidan bexabar edilar. Sol nochor qolgan orolliklarni tortib ergashtirib borardi. Ko'p o'tmay, u ko'rfaz ichra, yaxshigina tezlikda ilgarilab bordi. Sokin odimli suvda paydo bo'lgach, «Kon-Tiki» go'yo o'zini yo'qotdiyu, imkoniyat izlab, alanglay boshladi. Sol ko'rfazdan chiqadigan yo'l topib, harakatga kelishga ulgurmasidan orolliklar arqonning bir uchini sohildagi palma-ga bog'lab olishga muvaffaq bo'ldilar. Shunday qilib, «Kon-Tiki» chambarchas bog'langanicha ko'rfazda qolib ketdi. Hech qanday to'siqlar to'xtatib qololmagan kema, barrikadalarni oshib o'tib, Raroia oroli ichkaridagi ko'rfazga kirib olgan edi.

«Ke-ke-te-xuru-xuru» qabiladagi naqoratli jangovar qiyqiriqlardan ruhlanib, orolliklar bilan birgalikda «Kon-Tiki»ni o'z nomi bilan atalgan orol sohiliga tortib chiqardik. Suvning ko'tarilish darajasi odatdigidan 120 santimetr oshdi. Butun orol suv tagida qolib ketadi, deb ham o'yladik.

Shamol quvalab kelayotgan to'lqinlar ko'rfazda baland ko'tarilardi, suv bosib turgan tor, cho'zinchoq qayiqlarga esa asbob-anjomlarimizning kichik bir qismigina sig'ardi. Polineziyaliklar, iloji boricha, tez-

roq qishloqqa qaytishlari lozim edi; qishloqdagi kulbalardan birida, o'lim changalida yotgan bir bolaga yordam berish uchun Bengt bilan German birga ketdi. Bolaning boshiga chipqon chiqqan, bizda penitsillin bor edi.

Ertasiga «Kon-Tiki» orolida to'rt kishi kunni kech qildik. Sharqdan kelayotgan shamol shunday kuchli esmoqda ediki, orolliklar cho'girtoshlar va qumloqlar bilan qoplangan ko'rfazdan o'tib bizga yetib kelolmasdilar. Suv kechasi bilan ancha pasaydi, endilikda to'lqinlar shashtidan qaytib, po'rtanaga aylangandi.

Ertasiga shamol ancha pasaydi. Biz sol tagiga sho'ng'ib kirib chiqishga, to'qqiz xodaning hamma, bus-butunligiga ishonch hosil qilishga muyassar bo'ldik; cho'girtoshlarning uchli qirralari xodalarning tag tomonidan bir necha santimetrini qirgan edi, xolos. Arqonlar xodalar yoriqlariga shunday mustahkam joylashgan ediki, faqat to'rttasinigina marjonlar kesib yuborgan edi. Biz solda tartib o'rnata boshladik. Palubadagi hamma lash-lushlarni yig'ishtirib, garmondek g'ijmaloq bo'lib ketgan kayutani tekislab, machtani ulab, ko'tarib qo'yganimizdan keyin mag'rur kemamizning qiyofasi ancha yaxshi bo'ldi.

Kunduzi ufq tomonda yana yelkanlar ko'rindi: orolliklar bizni va qolgan buyumlarni olib ketish uchun kelgan edilar. German bilan Bengt ham ular bilan birga edi; ular qishloqda katta bayramga tayyorgarlik borayotganini aytdilar. U orolga yetib borganimizdan so'ng, qabila boshlig'i ijozat qilmaguncha qayiقدan tushmasligimiz kerakligini aytdi.

Muvofiq shamol yordamida, kengligi olti mil keldigan ko'rfazni kesib o'tdik. Biz Kon-Tiki orolining tanish palmalariga ma'yusgina boqardik. Palmalarning uchlari biz bilan xayr-ma'zurlashib silkinayotganday tuyulardi; ko'p o'tmay, daraxtlarni bir-biridan ajratib

bo'lmay qoldi, keyinchalik esa orol, sharqiy cho'girtosh yoqalab ketgan barcha orollar singari cho'ziq yer shakliga aylandi. Old tarafda bo'lsa, yirikroq orollar aniq ko'rina boshladi. Bu orollarning birida biz to'liqinto'sarni va palmalar oralig'idagi kulbalardan ko'tarilayotgan tutunlarni ko'rdik.

Qishloqda odam zoti yo'qdek ko'rinardi; biron kimsadan darak yo'q edi. Nimalar bo'layotganiykin unda? Sohilda, marjon tosh qoyalaridan iborat to'liqinto'sar ortida ikki odam turardi: biri baland bo'yli va oriq, ikkinchisi barvasta, bochkaday semiz. Ularga yaqinlashgach, biz hurmatini o'rniga qo'yib, ikkovi bilan salomlashdik. Bu qabila boshlig'i Teka va uning muovini Tupuxoe edi. Tupuxoening kulganda og'zi qulog'igacha yetib jilmayishi, hammamizga yoqdi. Teka aqlli va ustomon odam ekan. Tupuxoe esa asl tabiat farzandi, to'g'ri ko'ngil kishi edi. U o'ta hazilkash va dilkash edi. Gavda tuzilishining bahaybatligi bilan u, bizning xayolimizda tiklagan polineziyaliklar qabilasi boshlig'ining o'zginasi edi. Darhaqiqat, Tupuxoe ilgari oroldagi qabilalar boshlig'i bo'lib, keyinchalik uning o'rni, fransuz tilini va hisob-kitobni hamda yozishni bilgan savodli Tekaga o'tgan edi. Taitidan kokos yong'og'i mag'zini xarid qilgan kemalarning egalari qishloq ahlini ortiq chalg'ita olmasdilar.

Teka hammamiz birgalikda qishloqqa, majlislar uyiga borishimiz kerakligini aytdi. Barcha sohilga chiqib bo'lgach, tantanali suratda shu tomonga yo'l oldik; German garpun yog'ochiga qo'ndirilgan bayroqni hilpillatib oldinda borar, ikki oqsoqol o'rtasida esa men qadam tashlardim.

Qishloqdagilar Taiti bilan bo'ladigan kokos yong'og'i mag'zi savdosi haqida suhbatlashardilar; taxtalar va qat-qat buklangan tunukalar kemalarda keltirilgandi. Ba'zi kulbalar novdalar va o'rigan

palma yaproqlaridan ajib qadimiy uslubda qurilgan bo'lib, boshqalari taxtalardan mixlab yasaliib, kichkinagina tropik bungaloni eslatardi. Palmazorda qad ko'targan taxtavon uy, yangi majlislar uyi bo'lib, biz – olti yevropalik shu yerga joylashishimiz kerak edi. Biz orqa tarafdagi kichkina eshikdan bayroq ko'tarib kirib, old tarafidagi keng zinapoyadan chiqdik. Qarshimizdagi maydonda qishloqda yashovchi, yurishga yaroqli qari-qartang, xotin-xalaj va bola-chaqagacha to'plangan edi. Hammalari nihoyatda jiddiy qiyofada, Kon-Tiki orolidagi xushchaqchaq do'stlarimizgacha hozir boshqalar bilan bir qatorda bizni tanimaganday bo'lib turishardi.

Biz zinapoyaga chiqqanimizda, to'planganlarning hammasi baravariga qo'shiq boshlab yuborishdi... «Marseleza»ni kuylashdi! So'zlarini yod bilgan Teka qo'shiqni boshlab berib turardi. Bir necha kampirning yuqori notada qo'shiqni sal buzib turganlarini hisobga olmaganda, umuman, xor silliq borardi. Qishloq ahli «Marseleza»ni o'rganishga ko'p kuch sarflagani ayon edi. Ayvon qarshisida fransuz va norveg bayrog'i ko'tarildi va qabila boshlig'i Tekaning bizni qabul qilishi uchun o'tkazgan tantanali marosimi shu bilan tugadi; Teka bir-bir yurib chetga chiqdi. Baqaloq Tupuxoe oldinga o'tib, marosimni davom ettirdi.

Tupuxoe bir ishora bergan edi, hamma baravariga yana yangi qo'shiq boshlashdi. Bu gal ashula silliq ketdi. Kuy ularning o'zlariniki, so'zlari ham ona tillarida edi. O'zlarining raqs va kuylarini kuylashga esa ular usta. Kuy shu qadar ohangdor, shu qadar jozibali ediki, hammamizni o'ziga mahliyo qildi. Bu kuy ohangida go'yo butun Janub dengizi guldurab biz tomonga yopirilib kelayotgandek edi. Bir necha odam qo'shiqni boshlab berar, ma'lum bir muddatdan so'ng boshqalar jo'r bo'lishardi; kuy o'zgarib turar, lekin so'zlar o'sha.

«Okean bo'ylab pae-paeda bizning Raroiaga kelgan Terai Mateata va uning odamlari, kuningiz xayrli o'tsin; xayrli o'tsin kuningiz sizning, oramizda ko'proq turib qolingiz. Xotirotlarimiz bir bo'lsin, uzoq o'lkangizga jo'nab ketgan chog'ingizda ham xayolan birga bo'laylik. Xayrli kun», – deyayotir edilar.

Biz bu qo'shiqni yana bir bor takrorlashlarini so'radik. Orolliklar ancha jo'shqinlashib, begona-sirashmay, borgan sayin inoqlashardilar. Tupuxoe mendan pae-paega tushib, okean oshib kelishimizning boisi haqida ikki og'izgina xaloyiq-da hikoya qilib berishimni so'radi; javdiragan ko'zlardan ham shuni uqqan edim. Men fransuzcha so'zlashim kerak edi, Teka esa tilmochlik qiladigan bo'ldi.

Qarshimda savodsiz, lekin nihoyatda aqlli qoramag'izdan kelgan olomon turardi. Men ularga, ilgari ham Janub dengizi orollarida, qabiladoshlari huzurida bo'lganimni, ularning ilk qabila boshliqlari Tiki haqidagi rivoyatlarni tinglaganimni, rivoyatlarga ko'ra Tiki ularning ajdodlarini allaqaysi sirli mamlakatdan shu orollarga boshlab kelganini, bu mamlakatning qayerdaligini endilikda hech kim bilmasligini so'zlab berdim. Ammo, Peru deb atalgan uzoq mamlakatda bir vaqtlar Tiki ismli qudratli qabila boshlig'i bo'lganligini aytdim. Xaloyiq uni «Kon-Tiki», ya'ni «Quyosh-Tiki», deya atagan. Negaki, rivoyatlarga ko'ra, u quyosh avlodidan bo'lgan. Xullas, Tiki va uning tarafdorlaridan bir qismi, katta-katta pae-paelarga tushib mamlakatni tashlab ketganlar. Pae-paeda okeanni suzib o'tish mumkinligiga hech kim ishonmaganligidan, biz o'zimiz Perudan pae-paega tushib okeanni suzib keldik; qarabsizki, endi bundamiz; demak, suzib o'tsa bo'larkan. Mening qisqagina nutqimni Teka tarjima qilib bergandan keyin, Tupuxoe shunday jonlanib ketdiki xurujga kelib

irg'ib turib, xaloyiq oldiga chiqdi. U qo'llarini silkitib, osmonni va bizlarni ko'rsatib, polineziya tilida allanimalar deb qichqira boshladi. Uning shiddat bilan so'zlagan nutqida Tiki so'zi bir necha bor takrorlandi. U shu qadar tez so'zlar ediki, so'zlarining ma'nosini chaqib ulgurish qiyin edi. Lekin bunda to'planganlar uning har so'zini ilg'ab olishar, hayajonlanayotganlari ko'rinib turardi. Bu so'zlarni tarjima qilib berishga kirisharkan, Teka negadir, juda o'ng'aysizlanardi.

Tupuxoening aytishicha, uning otasi, bobosi va bobokalonlari Tiki haqida hikoya qilarkanlar, Tiki-ning ilk qabila boshlig'i bo'lganligini, hozir osmondaligini so'zlaganlar. Keyin oq tanlilar kelishgan va ajdodlar so'zlagan rivoyatlar bekor deb ta'kidlashgan. Ularning aytishicha, Tiki, hech qachon bo'lmagan. Uning osmonda ham bo'lishi mumkin emas, negaki Iegova unda. Tiki majusiylar Xudosi bo'lgani uchun, endi bundagilar ortiq unga topinmasliklari kerak deyishibdi. Qarabsizki, olti odam okean bo'ylab pae-paeda suzib kelibdi. Ajdodlarining aytgani to'g'riligini tasdiqlovchi ilk oq tanlilar shulargina ekan. Tiki darhaqiqat yashagan ekan, keyin o'lgan-u, osmonga chiqib ketgan.

Missionerlarning mehnatini zoye ketkazib qo'ymasmikanman, degan fikrdan cho'chib tushdim-u, darhol o'rnimdan turib, Tikining darhaqiqat yashaganligini – bunga shubha bo'lishi mumkin emas, – lekin allaqachon o'lib ketganini aytdim. Lekin endilikda u osmondami yoki do'zaxda, buni yolg'iz Iegovagina bilajagini, negaki Iegova doimo osmonda bo'lganini, Tiki esa buyuk qabila boshlig'i bo'lganini, Teka bilan Tupuxoe singari oddiy odam-u, lekin katta qabila boshlig'i bo'lganini so'zladim.

Mening so'zlarim polineziyaliklarga yoqdi, ularni qanoatlantirdi; bari boshlarini irg'itishar, ma'qullab

g'o'ldirashardi. Mening hikoya qilishim ma'qul kelganini shundan angladimki, darhaqiqat Tiki, bir vaqtlar yashagan. Eng muhimi ham shu. Mabodo endilikda do'zaxda bo'lsa uning o'ziga qiyin; darvoqe, shunday bo'lib chiqsa, u bilan bir uchrashuvga umid qilsa ham bo'larkan, deya hazilomuz gap qotdi Tupuxoe.

Olomon orasidan uch chol oldinga yorib chiqib, biz bilan qo'l olib omonlashish istaklari borligini bildirishdi. Xaloyiq orasida Tiki haqidagi afsonalarni saqlab kelayotganlar shular bo'lsa ne ajab... Qabila boshlig'i chollardan birining ajdodlar davriga oid ko'p rivoyat va tarixiy balladalarni yod bilishligini aytdi. Men choldan shu rivoyatlarda Tikining qaysi tomondan kelgani haqida ishora va dalillar borligi to'g'risida so'radim. Lekin chollarning na unisi, na bunisi bu to'g'rida aniq bir gap aytolmadi. Uzoq o'ylab, bosh qotirgandan keyin uch cholning eng keksasi, Tikining safarga eng yaqin qarindoshi Maui kuzatib qo'yganini, Maui haqidagi balladada esa, uning orollarga Puradan kelib qolganligi haqida rivoyatlar borligini so'zladi. «Pura» so'zi osmonning quyosh ko'tariladigan qismi ma'nosida kelar ekan. Maui Puradan kelgan ekan, demak, Tiki ham o'sha joydan kelgan, – dedi chol. Biz oltovlon ham pae-paeda o'sha Puradan kelganligimiz ochiq-ravshan bo'lgan emish chollarga.

Men keksa orolliklarga, Pasxi oroliga yaqinroq joyda, bir chekkadagi Mangareva deb atalgan kichkina orol aholisi hatto qayiq nimaligini bilmasligini, to shu kungacha okeanda katta pae-paeda suzajaklarini hikoya qildim. Chollar bu haqda eshitmagan ekanlar, lekin ajdodlari katta pae-paelarda suzganini bilarkanlar. Lekin bora-bora pae-paelar ishlatilmay qo'yib, endilikda otigina qolganmish, bu haqda rivoyatlardagina eslab o'tilarmish, xolos. Qadim zamonlarda ular rongo-rongo deb atalardi, – deya qo'shim-

cha qildi eng keksa chol, – lekin endilikda bu soʻzning oʻzi ham ishlatilmaydi. Ammo rongo-rongo nomi qadim afsonalarda bor ekan.

Bu nom meni qiziqtirib qoʻydi. Negaki baʼzi orollarda Rongo soʻzini Lono deb ham yuritadilar. Lono – polineziyaliklarning mashhur afsonaviy ajdodlaridan birining nomi edi. Rivoyatlarda hikoya qilinishicha, uning tusi oq, sochlari malla boʻlgan. Kapitan Kuk birinchi bor Gavay orollariga borganida, aholi uni quchoq ochib kutib olgan. Negaki ular kapitanni bir qancha avlod yoshi mobaynida yoʻq boʻlib yurib, endilikda ajdodlari yurtidan katta yelkanli kemada qaytib kelgan oq tanli qarindoshlari deb oʻylaganlar, Pasxi orolida esa sirli iyerogliflarni rongo-rongo deya atardilar. Bu iyerogliflarning siri boʻlib, yozishni bilgan soʻnggi «uzunquloq»lar bilan birga koʻmilib ketgan edi!

Keksalar Tiki va rongo-rongo haqida musobaqa yurgizishni istagan bir chogʻda, yoshlar kit akulasi va okean boʻylab qilingan safar haqidagi hikoyamizni tinglashga oshiqishardi. Bu oʻrtada ziyofat ham tayyor, Teka esa tarjima qila-qila charchagan edi.

Qishloq ahliga, yonimizga kelib, har birimizning qoʻlimizni siqishga ijozat berildi. Erkaklar «ia-orana» deya gʻoʻldirar, qoʻlimizni sugʻurib olgudek tortqilashardi. Qizlar oldinga suqulib oʻtishga urinishar, gʻamza bilan qisilib-qimtinib salomlashishardi. Kampirilar boʻlsa soqolimiz, oq terimizga imo qilib hingir-hingir kulishardi. Hammaning chehrasida doʻstona samimiyat barq urar, til bilmaslik ahamiyatsiz boʻlib qolgan edi. Orolliklar biz hech tushunmaydigan polineziyaliklar tilida bir nima deyishsa, biz ularga norveg tilida javob qaytarardik-da, hammamiz qotib-qotib kulardik. Biz eng birinchi oʻrgangan polineziya soʻzi «yoqadi» soʻzi edi; bu soʻzni aytsag-u bizga yoqqan narsaga ishora qilsak bas, buyogʻi silliq ketaverardi.

Agar «yoqadi» soʻzini aytarkanmiz, burnimiz jiyirilsa bormi, bu «yoqmaydi» degan maʼnoni bildirardi, shu tariqa biz bemalol kelishib olaverardik.

Qishloqning 127 nafar aholisi bilan tanishib boʻlganimizdan keyin, ikki qabila boshligʻi va biz olti mehmon uchun uzun stol qoʻyildi-yu, qishloq qizlari eng laziz taomlarni keltirib torta boshladilar. Qizlarning birlari stolni noz-neʼmatlar-la bezash bilan ovora ekan, boshqalari boʻynimizga gulchambarlar osdilar, kichikroq gulchambarlarni boshimizga kiygizdilar. Gullardan ajib, muattar hid taralar, issiq kunda tanimizga muzdek tegishi esa yoqimli edi. Bizning sharafimizga bagʻishlangan bayram ana shunday boshlandi va bir necha hafta, to biz oroldan ketgunimizcha davom etdi. Dasturxondagi qovurilgan barra choʻchqalar, joʻjalar, oʻrdaklar, yangi tutilgan qisqichbaqalar, polineziyaliklarning baliq taomlari, non va qovun daraxti mevalari va kokos yongʻogʻi sutlarini koʻrib soʻlagimiz oqib ketdi. Biz ovqatlanishga kirishgan bir chogʻda xaloyiq Polineziya raqslarini koʻrsatib koʻnglimizni ochishga kirishdi, qizlar stol atrofida raqsga tusha boshladilar. Oʻrtoqlarim huzur qilib kulishardi; dasturxon atrofida oʻtirganimizda ahvolimiz juda allanima balo edi; soqollarimiz oʻsgan, boshimizda gulchambar, ochidan oʻlayotgan kishilardек ovqat oshalardik. Ikkala qabila boshligʻi ham, biz singari xursandchiligini yashirolmasdi.

Ovqatdan keyin ajoyib Polineziya raqslari boshlandi. Qishloq ahli oʻz xalq raqslarini bizning oldimizda namoyish qilish ishtiyoqida edi. Ular oltovimiz hamda Teka va Tupuxoeni birinchi qatordagi kursiga oʻtkazishdilar. Ikki gitarachi paydo boʻla sola, choʻkkalab oʻz sozlarida Janub dengizi kuylarini chala ketishdi. Shu yoʻsin oʻtirib olib qoʻshiq kuylayotgan tomoshabinlar halqasini yorib oʻtib, buralib-chayqalib erkak-

lar va palma yaproqlaridan bo'ksasiga bog'lab olgan yubkalarini shitirlatib xotin-qizlar raqsga tusha ketishdi. Bir qo'lini akula uzib olgan baqaloq vaxine¹ qo'shiq naqoratini aytishda hammadan o'zdi. Avvaliga raqqoslar sipogarchilik bilan zo'rma-zo'raki o'ynadilar; lekin pae-paeda kelgan oq tanli kishilar ota-bobolaridan qolgan bu raqslardan yuz o'girmaganlarini ko'rgach, raqs juda jonlandi. Raqsga keksalarning bir qismi ham qo'shildi; hammalari maqomni yaxshi his etishardi, oddiy kunlarda tushilmaydigan raqslarni ham bilishardi. Quyosh Tinch okeanga botgan chog'da palmazor o'rtasidagi raqs jonlangandan jonlandi, tomoshabinlarning qarsaklari avjiga chiqdi.

Repertuarning nihoyasi yo'q: bir imo-ishorali raqsdan keyin ikkinchisi boshlanardi. Nihoyat bir to'da yosh-yalang shundoqqina qarshimizda jips doira yasab cho'kkalab o'tirishib oldi va Tupuxoening ishorasi bilan yerni – avvaliga sekin, keyin tez-tez do'mbira qila ketdi; maqom bir me'yorga tushib olgandan so'ng kutilmaganda nog'orachi ichi kavak qilingan g'o'lanlari ikki tayoq bilan urib, qattiq to'qillatib, ularga jo'r bo'ldi. Maqom tegishli sur'atga yetganda, qo'shiq boshlandi va bo'yniga gulchambar taqqan, qulog'iga gul qistirgan qiz yugurib doira o'rtasiga tushdi. Yalangoyoq qiz tizzasini bukib, bo'ksasini maqomga silkitib, qo'lini boshi uzra ko'tarib, haqiqiy polineziya uslubida raqs tusha ketdi. Qiz nihoyatda chiroyli raqs tushardi. Ko'p o'tmay, tomoshabinlar yerni do'pillata boshladilar. Doira o'rtasiga yana bir qiz tushdi, keyin uchinchisi chiqdi.

Qadimgilar bilgan Janub dengizi hayoti edi bu. Yulduzlar jimirlar, palmalar chayqalar, tun iliq va uzun, gullar atri va qushlar navosiga to'liq edi. Tu-

¹ Vaxine – Polineziya tilida «ayol» degani.

puxoe og'zini qulog'iga yetkazib iljaydi va yelkamga qoqdi.

– Mantai? – so'radi u.

– Ha, mantai, – dedim men.

– Mantai? – so'radi u boshqalardan.

– Mantai, – baravar javob berishdi ular. Darhaqiqat, shunday edi.

– Mantai, – dedi Tupuxoe boshini irg'itib va o'ziga ishora qilib u ham mamnun edi.

Hatto Teka ham bayramni ko'ngildagidek, deb hisoblardi; Raroiada, ularning raqslarini oq tanlilar birinchi bor tomosha qilishi edi, uning aytishicha. Do'mbiraning do'pir-do'piri qarsaklar, qo'shiq va raqsar sur'ati borgan sari tezlashib borardi. Mana, raqs qilayotgan qizlarning biri doira bo'ylab harakat qilishdan to'xtadi, turgan yerida jazava bilan to'lg'anib, qo'lini German tomon uzatdi. German miyig'ida jilmayib o'tirardi; u nima qilishiga hayron edi.

– Yuzimizni yerga qaratmang, – deb shivirladim men, – axir raqsga juda ustasiz-ku.

Olomonni zavqlantirib German irg'ib turib doira o'rtasiga tushdi va ikki bukilib, butun tanasini silkitib, polineziya raqsining murakkab harakatlari ijro etishga kirishdi. Qiyqiriqlar ko'tarildi. Ko'p o'tmay Bengt bilan Torsteyn raqsga tusha ketdi, borgan sayin tezlashib borayotgan maqomdan orqada qolmaslik uchun zo'r berib uringanlaridan, ular qora terga cho'mib ketgan edilar; musiqa maqomi shu daraja tezlashib ketdiki, do'mbira sadosi cho'ziq guvullashga aylanib ketdi, polineziyaning uch haqiqiy raqqosasi musiqa maqomiga mos ravishda, tog'terak yaprog'idek titray boshladi; nihoyat, qizlar yerga cho'kkalashdi va do'mbira tovushi qo'qqisdan tindi.

Endi oqshom qahramonlari biz bo'lib qoldik. Tomoshabinlar ishtiyoqining nihoyasi yo'q edi.

Navbatdagi o'yin Raroiada qadimiy tantanalardan hisoblangan qush raqsi edi. Erkak va ayollar ikki qator tizilishib, bosh raqqos rahbarligida, qushlar galasini tasvirlab hamohang irg'ishlardilar. Bosh raqqos qushlar boshchisi hisoblanib, tanasini ajib bir harakatga keltirar, lekin umumiy raqsga ishtirok etmasdi. Qushlar raqsi ado bo'lgach, Tupuxoe bu raqs bizning solimiz sharafiga ijro etilganini va yana takrorlanishi kerakligini, bosh raqqos o'rnida men o'ynashim lozimligini aytdi. Bosh raqqosning vazifasi yovvoyilarcha qiyqirib, orqasini likillatib, qo'lini boshi uzra silkitib aylanishdan iborat, deb tushunganim uchun men gulchambarimni boshimga qattiqroq bostirib oldim-da, sahnaga chiqdim. Buralib-buralib raqs tusharkanman kekxa Tupuxoening kursidan yiqilgudek bo'lib hahalaganini ko'rdim; qo'shiq aytayotganlardan tortib musiqachilargacha Tupuxoening holiga tushib qolganlaridan kuy sekinlasha boshladi.

Endi, yosh-qari barcha baravar raqs tushadigan bo'ldi, do'mbirachi bilan yerni do'pirlatayotgan musiqachilar yana joy-joylarini egalladilar-da, polineziyaliklarning olovli raqsi maqomning kirish qismini ijro eta ketdilar.

Lekin shu chog' barvastagina, muskuldor ayol doiraga tushdi, bir necha bor silkinib, buralib raqs tushgan bo'ldi-da, to'g'ri Erik tomon yurdi. Erik tashvishlanib unga qarab qoldi. Ammo barvasta ayol, chiroyli bir jilmaydi-da, Erikning qo'lidan mahkam ushlab kursidan tortib tushirdi. Erik ayol ortidan istar-istamas oqsoqlanib bordi va doiraga tushdi: uning bir qo'lida trubkasi, ikkinchi qo'li bilan esa beli og'rigan joyni changallab olgan edi. Chunki uning beli shamollagan edi-da. Erik bir necha bor irg'ishlagan paytidan boshidan tushib ketayotgan gulchambari to'g'rilash uchun ishtonini qo'yib yuborishga

majbur bo'ldi. Lekin o'z og'irligi bilan sirg'anib ketayotgan ishtonni to'g'rilash uchun yana unga yopishdi. Uning qarshisida yer dupurlatib raqs tushayotgan baqaloq ayolning ko'rinishi ham Erikdan qolishmaganligidan kula-kula ichaklarimiz uzilayozdi, ko'z yoshlarimiz soqolimizdan oqib tusha boshladi. Ko'p o'tmay boshqa raqqoslar ham o'yindan to'xtadi. Pal-mazorda qahqaha yangradi. Raqqos Erik bilan baqaloq ayol esa hamon raqs tushib aylanishardi. Nihoyat ular ham raqsdan to'xtashga majbur bo'ldilar. Nega-ki ashulachilar ham, musiqachilar ham ortiq kuy-ni davom ettirishdan ojiz edilar, kula-kula bellarini ushlab qolgan edilar.

Bayram tonggacha davom etdi; lekin avval biz, yana 127 orollik qo'lini siqib chiqishimiz kerak edi. Orol-da necha kun yashagan bo'lsak har kuni, erta-lab va kechqurun, ahli orolning qo'lini siqib chiqar-dik. Olti o'rin-to'shak qishloqdagi kulbalardan bir-bir yig'ib chiqilgan va majlislar uyi devori tagiga qator to'shalgan edi; biz muattar is taratayotgan gulcham-barlarni tepamizga ilib, ertakdagi yetti kichik karlik singari qatorlashib yotdik.

Boshiga chipqon chiqqan olti yashar bolaning ahvoli ertasiga ancha og'irlashdi. Bolaning isitmasi 41 darajaga yetdi, boshidagi yara yerlar mushtidek do'ppayib chiqib, lo'qillab turardi.

Teka, bu kasallikdan juda ko'p bola nobud bo'lganini, agar birortamiz biror davo o'ylab topolmasak, bolaning umri uzoqqa bormasligini aytdi. Bizda yangi chiqqan penitsillinning tabletkasidan bor edi. Ammo biz bolaga qanchadan berish kerakligini bilmasdik. Biz bolani davolay boshlasak-da, bola o'lib qolsa, buning oqibati hammamiz uchun yomon bo'lishi mumkin.

Knut bilan Torsteyn yana radiostansiyani qutidan chiqarishib, eng baland ikki kokos palmasi oralig'i-

ga antennani tortishdi. Oqshom cho'kkach, biz yana Los-Anjelosda – o'z uylarida o'tirgan radist do'stlarimiz Gal va Frenk bilan aloqa tikladik. Frenk telefon orqali bir vrach bilan bog'landi. Biz esa bolaning kasallik belgilarini va aptechkamizda qanday dori borligini Morze kaliti yordamida unga tushuntirdik. Frenk doktorning javobini bizga yetkazdi. Biz esa shu oqshomning o'zidayoq kichkina Xaumata isitmalab yotgan kulba tomon yo'l oldik. Qishloq aholisining yarmi bola tepasida yig'lab o'tirardi.

Bolani German bilan Knut davolashga kirishishi kerak, qolganlarimiz esa kulbaga kirishga urinayotgan qishloq ahlini haydash bilan ovora edik. O'tkir pichoq ko'tarib kelib, bolaning onasidan suv qaynatib berishni so'raganimizda ayol faryod ko'tardi. Bolaning sochini tarashlab olib, jarohatini yordik. Yiring shiftga qadar otildi. Talvasaga tushgan orolliklarning bir qanchasi kulbaga bostirib kirdi; ularni haydab chiqardik. Ahvol jiddiy edi. Jarohatni tozalab, dezinfeksiya qilganimizdan keyin bog'lab qo'ydik va penitsillin bilan davolashga kirishdik. Ikki kecha-kunduz davomida bolaga har to'rt soatda penitsillin ichirdik; isitmasi hamon baland, yiring oqishi to'xtamasdi. Har oqshom Los-Anjelosdagi vrach bilan maslahatlashib turdik. Keyin bolaning isitmasi birdan tushdi, yiring o'rnidan qon oqa boshladi va jarohat beri boqdi; bola jilmayar va oq odamlar yashaydigan ajoyib bir olamning, avtomobillar, sigirlar va qavat-qavat uylarning suratlarini ko'rsatishni so'rardi.

Oradan bir hafta o'tgach, Xaumata sohilda boshqa bolalar bilan o'ynab yurardi; avvaliga boshini savatdek qilib bog'lab qo'ygani bo'lsak, keyin yechib yurishga ham ijozat berdik.

Jigarrang tusdagi muxlislarimiz orasida bir necha kun yashadik. Bayram tantanalari avjiga

chiqib, yangi marosimga ulanib ketdi. Biz Raroianing faxrli fuqarosi bo'lib, polineziyacha ism olishimiz kerak edi. Endi men Terai Mateata degan nom bilan qolib ketmasligim lozim: Taitida meni shunday atashgan bo'lsa bordir, lekin bu yerda, ular orasida men bu nom bilan yurmasligim shart.

Maydon o'rtasiga biz uchun olti kursi qo'ydilar. Atrofimizdan yaxshiroq joyni egallab olish uchun qishloq ahli ertaroq yig'ilgan edi. Teka ko'pchilik orasida kibr-havo bilan o'tirardi; u qadimiy marosimlardan tashqari barcha ishlarda haqiqiy qabila boshlig'i o'rnida edi. Lekin qadimiy marosimlar boshlanganda esa Tupuxoe rahbarlik qilardi.

U boshlovchi ashulachilarga, do'mbirachi va raqs rahbarlariga o'girildi, so'yilni siltalab, navbatma-navbat har biriga imo qildi va ovozini ko'tarmasdan qisqa-qisqa buyruq berdi. Keyin u yana bizga o'girildi va qo'qqisdan ola ko'zlarini katta ochdi; jigarrang yuzida ko'zining oqi, tishlari yanglig' yaraqlab ko'rindi. U tuginli so'yilini ko'tardi va xaltadan no'xat to'kkan kabi tez so'zlay ketdi; u yolg'iz keksalargina tushunadigan, unutilib ketgan qadim shevada duo o'qiy boshladi.

Keyin u Tekaning yordamida bizga, ular yashayotgan orolga asos solgan birinchi qirolning ismi Tikaroa bo'lganini mana shu yassi marjon orolning shimolidan janubigacha, sharqdan g'arbgacha odamlar tepasida yastangan osmon-falakkacha podsholik qilganini aytdi. Xor, Tikaroa qiroli haqidagi qadimiy baladani kuylab bo'lguncha, Tupuxoe kattakon qo'lini ko'kragimga qo'ydi va meni tomoshabinlar tomoniga o'girib, menga Varoa Tikaroa deb, ya'ni Tikaroaning ruhi deb ism qo'yajagini aytdi.

Qo'shiq tingach, navbat German bilan Bengtga yetdi.

Kattakon jigarrang qo'l navbatma-navbat ularning ko'kragiga tegdi va ular Tupuxoe Itetaxua va Topa-

kino nomini olishdi. Dengiz dahshati bilan jang qilib ularni Raroia rifiga kiraverishda o'ldirgan ikki qadimiy qahramonning nomi edi bu.

Do'mbirachi bir necha bor do'mbirani daranglatdi, soniga latta bog'lagan, har bir qo'lida nayza tutgan ikki norg'ul yigit oldinga otilib chiqdi. Tizzalarini ko'kraklarigacha baland ko'tarib, nayza uchini osmonga qaratib, boshlarini goh u yoqqa, goh bu yoqqa burib, maqomga mos tez-tez yura boshladilar. Do'mbira tovushi yana yangragan chog'da esa ular baland irg'ishlardilar va maqomga qat'iy rioya qilgan holda, o'sha afsonaviy jangni, balet san'ati qoidalariga binoan tasvirley boshladilar. Intermediya qisqa va tez o'tar, qahramonlarning dengiz dahshati bilan bo'lgan jangini ifodalardi. Keyin qo'shiq va marosimlar bilan Torsteynga ism qo'yildi; uni – shu qishloqning qadimiy qiroli nomi bilan – Maroake deb atashdi. Erik bilan Knut esa qadimgi ikki dengizchi va dengiz qahramonlari sharafiga Tane Matarau va Tefaundi nomini olishdi. Ism qo'yish bilan yakunlanadigan uzundan uzoq nutq, hayron qolar darajada tez o'qilardi; bunday tez o'qish, odamlarni hayratda qoldirish va ko'nglini ochishga mo'ljallangan edi.

Marosim tugadi. Raroia polineziyaliklar orasida yana oq tanli soqoldor qabila boshliqlari paydo bo'ldi. Olomon orasidan ikki qator bo'lib raqqoslar va poxoldan to'qilgan yubka kiygan, boshiga po'stloqdan toj kiygan raqqosalar chiqib keldi. Ular raqs tushgancha kelib, bizga yaqinlashdilar va boshlaridagi tojni olib bizning boshimizga kiygizdilar; keyin biz shitirleyotgan yubkalarni ham kiyishga majbur bo'ldik. So'ng bayram yana davom etdi.

Bir kuni kechasi gullarga ko'milgan radistlarimiz Rarotonga radiohavaskori bilan bog'langan edi, u Taitidan bizga axborot yetkazdi. Bu Fransiyaning

Tinch okeanidagi koloniyalari gubernatorining samimiy tabrigi edi.

Parijning topshirig'iga ko'ra u, «Tamara» deb nomlangan hukumat shxunasini yuborgan bo'lib, bu kema bizni Taitiga olib ketishi kerak edi. Demak, kokos yong'og'i mag'zini olgani keladigan va qachon kelishi noma'lum shxunani kutib o'tirishimizga endi ehtiyoj yo'q. Taiti fransuz koloniyalarining markazi, tashqi olam bilan doimiy aloqasi bo'lgan yagona orol edi. Biz Taitiga borib, u yerda muntazam qatnovchi paroxodga o'tirib uyimizga, vatanimizga yetib olishimiz kerak edi.

Raroiada bayram davom etardi. Kunlardan bir kuni kechqurun okeandan g'alati o'kiriklar eshitildi; dozor-da turganlar palma tepasidan tushib, ko'rfazga kiraverishda allaqanday kema turganini aytishdi. Biz palma o'rmoni oralab, orolning shamolga teskari tomonidan sohilga qarab chopdik. U yerga yetgach, okeanning biz «Kon-Tiki»da kelgan tarafning qarama-qarshi tomoniga tikildik. Marjon orol va riflar tufayli shamoldan pana bo'lgan joyda to'lqinlar maydaroq edi.

Okeanning ko'rfazga kiraverish yerida kema chiroqlari borligini ilg'adik. Havo ochiq bo'lib yulduzlar charaqlardi – biz keng ikki machtali kemani aniq-tiniq ko'rdik. Gubernatorning bizni olib ketgani kelgan kemasi shumikan? Unday bo'lsa nega ko'rfazga kelmayotir?

Orolliklarning bezovtaligi oshayotgani sezilardi. Kemaning bir yonga og'ganini, ag'darilib tushish xavfi borligini endi biz ham his etdik. Kema ko'zga ko'rinmagan cho'girtoshga tegib, botib qolgan edi.

Torsteyn fonarni olib signal berdi.

– Quel bateau?¹

– «Maoae», – deya javob qilishdi bizga.

¹ Qanday kema? (Frans.)

«Maoae» orollar orasida qatnaydigan, kokos yong'og'i mag'zini xarid qiladigan kema ekan. Bu kema kokos yong'og'i mag'zini tashish uchun Raroia-ga yo'l olgandi. Kapitan ham, kema komandasi ham polineziyaliklardan bo'lib, ko'rfazga kiriladigan yerda cho'girtosh borligini yaxshi bilishardi. Lekin qorong'i-likda oqim ularni yo'ldan urgan ekan. Yaxshi hamki, kema orolning shamolga teskari tarafida bo'lib, havo sokin edi. Ammo ko'rfazning narigi tarafidagi oqimga ishonib bo'lmasdi. «Maoae» borgan sayin og'ib bordi, komanda suvga qayiq tushirdi. Matroslar machta uchiga orqa tomoniga o'tib oldilar. Qishloq ahli cho'zinchoq qayiqda qirg'oqqa yetkazdilar. Orolliklar kema ag'darilib ketmasligi uchun arqon uchini kokos palmasi poyasiga bog'ladilar. Matroslar suv ko'tarilganda ko'rfaz suvi ham ko'tarilib «Maoae»ni qutqarish imkoniyati tug'ilib qolar, degan niyatda boshqa arqon olib qayiqda paroxodning orqa tomoniga o'tib oldilar. Qishloq ahli cho'zinchoq qayiqlarini suvga tushirib yuklarini – kokos yong'og'i mag'zini qutqarishga kirishdilar. Kema bortida bu qimmatbaho buyumdan to'qson tonnasi bor edi. Kokos yong'og'i mag'zi to'ldirilgan qoplar chayqalib turgan kemadan olib, qirg'oqqa tashila boshlandi.

Suv ko'tarildi, lekin «Maoae» hamon chayqalib, marjon riflarga urilib turaverdi va axiri teshildi. Tong otganda kema avvalgidan ham yomon ahvolga tushgan edi. Komanda hech nima qilolmasdi; 150 tonnali og'ir kemani qayiqlar yordamida tortib cho'girtoshdan ayirib olishga harakat qilishning o'zi ortiqcha edi. Lekin kema cho'girtoshga urilganicha o'sha joyda turaversa bo'lak-bo'lak bo'lib ketishi muqarrar edi; agar havo o'zgarsa bormi, shamol halqa orolga surib ketadi va parcha-parcha qilib tashlaydi.

«Maoae»da radio yo'q bo'lgan, lekin bizda radio bor. Ammo Taitidan qutqarish kemasini chaqirtirgan taq-

dirimizda ham, to u kelguncha «Maoae» parcha-parcha bo'lib ketardi.

Shu kuniyoq tushga yaqin g'arb tarafda, ufqda «Tamara» kemasi ko'rindi. Bu kema bizni Raroiadan olib ketish uchun yuborilgan bo'lib, uning bortidagilar sol o'rniga cho'girtosh yonida botib, yonboshlab qolgan, chayqalib turgan kattakon kemaning ikki machtasini ko'rib hang-mang bo'lib qoldilar.

«Tamara»ning bortida Tuamotu va Tubuai orollarining boshqaruvchisi, fransuz to'rasi Frederik Ann ham bor. Bizni qarshilab olish uchun Gubernator jo'natgan edi uni. «Tamara» bortida fransuz kino-operator va fransuz-radist ham bo'lib, kema kapitan ham, komanda ham polineziyaliklardan iborat edi. Ann asli fransuz bo'lib, Taitida tug'ilib o'sgan, mohir dengizchi edi. U kemaga qo'mondonlik qilishni taitilik kapitan ijozati bilan o'z zimmasiga olgan, kapitan esa bu xatarli suvda mas'uliyatdan qutulganiga xursand bo'lgan edi. «Tamara» behisob suvosti cho'girtoshlari va girdoblar oralab epchillik bilan o'tib borarkan, bu orada ikkala kema pishiq-puxta arqonlar bilan bir-biriga bog'landi, Ann esa ustalik va chaqqonlik bilan xatarli ishga tutindi. Bu mahal ko'tarilib borgan suv ikkala kemani ham marjon rifga ko'tarib urishga hozir edi.

O'zanidan suv ko'tarilganda «Maoae» cho'girtoshdan tushdi va «Tamara» uni orolning chuqur yeri-ga tortib ketdi. Baxtga qarshi, kemaning teshigidan kirgan suv «Maoae»ni to'ldira boshladi. Natijada uni shoshilinch sur'atda ko'rfazga, sayoz joyga tortib ketishga to'g'ri keldi. Uch kungacha «Maoae» qishloqqa yaqin yerda butun nasoslarni ishga solib, yarim cho'kkan holda turdi. Oraldagi do'stlarimiz ichidan eng usta dur qidiruvchilar cho'yan taxtalar va mixlar bilan kema tagiga sho'ng'ib teshiklarini yamadilar.

Xullas, endi «Maoae» nasoslarini ishga solgan holda «Tamara» yordamida Taitidagi kema tuzatadigan ustaxonaga yetib olishi mumkin edi.

«Maoae» jo'nab ketishga tayyor bo'lgach, Ann «Tamara»ni marjon riflar oralab, ko'rfazdan olib o'tib, «Kon-Tiki» oroliga olib kirdi. Kema solni shatakka oldi, keyin «Tamara» «Kon-Tiki»ni tortib orqaga qaytdi: «Maoae» esa uning orqasidan, shunday yaqin masofada suzardiki, mabodo okeanda tryumga to'layotgan suv nasos tortib chiqarib tashlayotgandan ko'ra ko'plik qilib qolguday bo'lsa, komandani «Tamara»ga chiqarib olish imkoni bo'lardi.

Raroia bilan xayr-ma'zurimiz ancha qayg'uli bo'ldi. Yurishga qodir bo'lganlarning deyarli hammasi sohilda edi; kema qayig'i bizni «Tamara» tomon olib ketarkan, ular bizning sevimli kuy va qo'shiqlarimizni ijro etishardi.

Basavlat Tupuxoe kichkina Xaumatani yetaklab o'rtada turardi. Xaumata yig'lar, qudratli qabila boshlig'ining ham ko'zlaridan yosh oqardi. Sohilda turganlarning barchasining ko'zida yosh edi. Lekin shunga qaramay ular, cho'girtoshlarga kelib urilayotgan to'lqinlar shov-shuvi bizga boshqa tovushlarni eshittirmay qo'ygunga qadar qo'shiq aytib, soz chalib turishdi.

To'lqinto'sarning naryog'ida ashula aytib turgan ochiqko'ngilli kishilar olti do'stdan ayrilayotgan edilar. «Tamara» bortida jimgina turgan bizlar esak, to'lqinto'sar palmalar ortida ko'zdan yo'qolib, palmalar okean ichida g'oyib bo'lganda 127 do'stdan ayrilgan edik. Lekin qulog'imizda hamon ularning mayin kuylari yangraydi:

«...Xotirotlarimiz bir bo'lsin, uzoq o'lkangizga jo'nab ketgan chog'ingizda ham xayolan birga bo'laylik. Xayrli kun!»

To'rt kundan keyin, qarshimizda okean o'rtasida, Taiti oroli paydo bo'ldi. Orol palmalar bo'y cho'zgan

ipga chizilgan marjonlarga o'xshamasdi. Moviy arra tishli tog'lar osmonga bo'y cho'zgan bo'lib, boshlari go'yo bulutlardan chambar taqqan edi.

Yaqinlashganimiz sayin moviy tog'da yashil yonbag'irlar ko'zga tashlana boshladi. Janubning ko'm-ko'k ko'katlari dengizgacha yastangan qo'ng'ir tepaliklar, qizg'ish qoyalar bilan almashinib ko'rinardi. Sohilga yetishimizga oz qolganda vohani va qumloq ortidagi sohilni palmalar tutganini ko'rdik. Taiti oroli bir vaqtlar vulqon tufayli bunyod bo'lgan. Vulqon o'chib, marjon poliplar okean orolni yuvib ketmasin deganday orol atrofida mudofaa qiladigan cho'girtoshlar hosil qilgan edi.

Erta saharda cho'girtoshlar oralig'idagi bo'yindan o'tdik va Papeete buxtasida hozir bo'ldik. Qarshimizda bahaybat daraxtlar va palmalarning novdalari ortida yarmigacha yashiringan cherkov minoralari va uylarning qizg'ish tomlari paydo bo'ldi. Papeete – Taitining poytaxti; Okeaniyada fransuzlar mulkidagi yagona shahar. Bu hukumat uyi joylashgan hashamatli shahar. Tinch okeanining sharqiy qismidagi dengiz yo'llarining markazi edi.

Biz buxtaga kirganimizda Taiti aholisi sohilda jonli devor qabilada zich tizilishib, bizni kutayotgan edi. Taitida yangilik shamol yanglig' tez yoyildi. Hamma Amerikadan kelgan pae-paeni ko'rishni istardi.

«Kon-Tiki»ga dengiz xiyoboni yonida faxrli o'rin ajratilgandi; Papeetening meri bizni tabrikladi. Kichkinagina qizaloq Polineziya jamiyati nomidan Taiti dala gullaridan yasalgan katta guldasta taqdim etdi. Keyin bo'y yetgan qizlar yaqinimizga kelib Janub dengizining dur-gavhari bo'lmish Taitiga tashrif buyurishimiz bilan tabriklab, oppoq gullardan yasalgan xushbo'y gulchambarlarni bo'ynimizga osishdi.

Men, olomon orasidan tanish chehrani, Taitidagi tutingan otam, shu oroldagi 17 qabila boshlig'i ustidan

boshchilik qilgan Teriierooni qidirardim. U ham shu yerda edi. Bo'ydor, savlatdor, jonli va xushchaqchaq chol, bir vaqtlardagi kabi iljayib «Terai Mateata!» deb qichqirganicha olomon orasidan yugurib chiqib keldi. U ancha keksayib qolgan bo'lsa-da, hamon avvalgidek, tug'ma qabila boshliqlariga xos savlati bor edi.

– Kech kelding juda, – dedi u jilmayib, – lekin yaxshi xabarlar olib kelding. Sening pae-paengni, darhaqiqat, Taitiga zangori osmon (terai mateata) olib keldi, ajdodlarimiz bunga qayerdan kelganini biz bilamiz endi.

Bir vaqtlardagi kabi, qabila boshlig'i Teriieroo menga tanish bo'lgan Papeno vohasidagi uyida katta bayram tashkil qildi; Taiti boshqa, Raroia boshqa bo'lganligi uchun, ilgari Taiti nomi berilmaganlarning hammasiga qaytadan nom berish marosimi o'tkazildi.

Betashvish kunlar edi; quyosh yorqin nur sochar, yengil bulutlar osmonda suzib yurardi. Biz ko'rfazda cho'milar, tog'larga tarmashar, palmalar tagidagi o'tloqlarda polineziya raqslariga tushardik. Kunlar ketidan kunlar o'tib, haftalar bunyod bo'lardi.

Keyin Norvegiyadan radiogramma olindi. Radiogrammada aytilishicha, Lars Kristensen degan kema egasi 4 ming tonnali «Tor I» kemasiga, ekspeditsiya qatnashchilarini olib Amerikaga yetkazib qo'yish uchun Samoadan Taitiga yo'l olish haqida buyruq bergan edi.

Kunlardan bir kun erta saharlab kattakon norveg paroxodi Papeete buxtasiga kirdi. Fransuz harbiy kateri «Kon-Tiki»ni haybatli vatandoshi bortiga chiqarib qo'yish uchun shatakka olib, tortib ketdi; u uzun po'lat qo'lini cho'zib, kichkintoy qarindoshini palubasiga¹ chiqardi. Palmalar o'sgan orolda sirenalarning

¹ «Kon-Tiki» soli Oslo shahriga yetkazilgan. Hozirgi kunda u Oslodagi parklarning birida F. Nansenning «Fram» nomli kemasi va arxeologik qazuvlar paytida topilgan vikinglarning jangovar kemasi bilan yonma-yon qo'yilgan.

guvullashi eshitildi. Jigarrang tUSDagi va oq tanli kishilar Papeete sohilida uymalanishar, xayrlashuv, sovg'alar va gulchambarlarni taqdim qilish uchun tizilishib kelishaverardi. Biz gul tutqichlar yonida turardik va ketma-ket bo'ynimizga taqilayotgan gulchambarlardan dahanimizni xalos qilish uchun jirafa singari bo'ynimizni cho'zardik.

Shunisi borki, palubada, to'qqiz balza yog'ochi yonida turgan biz oltovlon sihat-salomat edik. Taitidagi ko'rfazda esa, olti oppoq gulchambar suvda yotar, muloyim to'liqlar esa, ularni goh sohilga surib borib, gohi orqaga surib ketardi.

XOTIMA

«Kon-Tiki»da suzib borib, o'tkazilgan ekspeditsiyaning muvaffaqiyatli yakunlanishi mening, xalqlarning ko'chishi haqidagi nazariyamning to'g'riligini isbot qilolmadi. Biz, janubiy amerikaliklarning balza yog'ochidan yasalgan soli, hozirgi zamon olimlari shu kungacha tasavvur etmagan xususiyatlarga ega ekanini, Tinch okeani orollari Perudan suzib ketgan tarixga qadar davrdagi kemalar yetib bora oladigan joyda ekanligiga isbot qiloldik, xolos. Ibtidoiy odamlar ochiq okeanda uzoq safar qilishga qodir bo'lganlar. Okean osha ko'chish masalasiga kelganda, agar shamol va oqim yo'nalishi mos kelib tursa, yil davomida kecha-yu kunduz bir maromda bo'lsa, masofaning ahamiyati yo'q.

MUNDARIJA

<i>I BOB. NAZARIYA</i>	3
<i>II BOB. EKSPEDITSIYANING TUG'ILISHI</i>	18
<i>III BOB. JANUBIY AMERIKADA</i>	46
<i>IV BOB. TINCH OKEAN BO'YLAB</i>	83
<i>V BOB. YARIM YO'LDA</i>	114
<i>VI BOB. TINCH OKEAN BO'YLAB</i>	148
<i>VII BOB. JANUB DENGIZI OROLLARIDA</i>	192
<i>VIII BOB. POLINEZIYALIKLAR ORASIDA</i>	230
XOTIMA	270

Adabiy-badiiy nashr

TUR XEYERDAL

«KON-TIKI»DA SAFAR

Roman

Muharrir

Manzar ABDULXAYR

Badiiy muharrir

Dilfuza SALIXODJAYEVA

Musahhih

Umarjon QODIROV

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 26.07.2019-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Bosma tabog'i 8,5. Shartli bosma tabog'i 14,28.

Adadi 10000 (I zavod 3000) nusxa. Buyurtma № 181.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – (78) 147-00-14; (78) 129-09-72.

Marketing bo'limi – (98) 128-78-43; (93) 397-10-87.

Faks – (71) 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



TUR XEYERDAL

«Kon-Tiki»da suzib borib, o'tkazilgan ekspeditsiyaning muvaffaqiyatli yakunlanishi mening, xalqlarning ko'chishi haqidagi nazariyamning to'g'riligini isbot qilolmadi. Biz, janubiy amerikaliklarning balza yog'ochidan yasalgan soli, hozirgi zamon olimlari shu kungacha tasavvur etmagan xususiyatlarga ega ekanini, Tinch okeani orollari Perudan suzib ketgan tarixga qadar davrdagi kemalar yetib bora oladigan joyda ekanligiga isbot qiloldik, xolos. Ibtidoiy odamlar ochiq okeanda uzoq safar qilishga qodir bo'lganlar. Okean osha ko'chish masalasiga kelganda, agar shamol va oqim yo'nalishi mos kelib tursa, yil davomida kecha-yu kunduz bir maromda bo'lsa, masofaning ahamiyati yo'q».



YANGI ASR AVLODI

ISBN 978-9943-20-602-1



9 789943 206021



www.book.uz